

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

Firuz Safarov

**ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOTI
(mashq to‘plami)**

*5111700 – Boshlang‘ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish
yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma*

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

**Buxoro
“Durdona” nashriyoti
2020**

UO'K 811.512.133(072)

81.20'zb

S 34

Safarov, Firuz.

Ona tili va bolalar adabiyoti [Matn] : o'quv qo'llanma / F. Safarov.

- Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона nashriyoti, 2020. -
244 b.

KBK 81.20'zb

83.8

Ushbu o'quv qo'llanma 5111700 – boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish yo'nalishida o'qitiladigan ona tili va bolalar adabiyoti fanining ona tili qismi bo'yicha tuzilgan mashqlar majmuasidan iborat. Unda ona tili va bolalar adabiyoti fanining namunaviy dasturiga kiritilgan ona tili kursining barcha bo'limi: fonetika, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya va uslubiyatga doir mashqlar berilgan.

Mas'ul muharrir:

D. N. Yo'ldosheva – BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

B. R. Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor

A. R. Hamroyev – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-usuliy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2019-yil 4-oktabrdagi 892-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943-6198-2-1

Аннотация

Данное учебное пособие состоит из комплекса упражнений по части родной язык учебного предмета родной язык и детская литература, преподаваемый в образовательном направлении 5111700 – начальное образование и спортивно-воспитательная работа. В нём представлены упражнения по всем отделам курса родного языка, введённых в типовую программу по предмету родной язык и детская литература: по фонетике, орфографии, орфоэпии, лексикологии, фразеологии, лексикографии, морфемике, словообразованию, морфологии, синтаксису, пунктуации и стилистике. Цель учебного пособия – укрепить теоретические знания по курсу родной язык студентов направления начальное образование и спортивно-воспитательная работа, обучать их анализу явлений родного языка, формирование в них практических навыков использования фонетических, лексических, морфологических, синтаксических единиц и орфографических, пунктуационных правил узбекского языка в своей речевой деятельности, развитие устной и письменной речи, повышение грамотности студентов.

Summary

This educational textbook consists of several exercises belonging to mother tongue from the subject Mother tongue and children literature in educational branch of 5111700- primary education and physical culture.

In this textbook there are a lot of exercises classified in phonetics, orthoepy, orthography, lexicology, phraseology, lexicography, morphemic, word-building, morphology, syntax, punctuation and stylistics. The aim of the textbook is to consolidate the theoretical knowledge in practice for the students of primary education and physical training, to teach them work independently and analyze their knowledge in mother tongue lessons. This exercises helps to form the skills of using correctly lexical, phraseological, morphological, syntactical units in mother tongue lessons.

MUNDARIJA

Fonetika	5
Grafika va orfografiya	17
Orfoepiya	27
Leksikologiya	34
Frazeologiya	76
Leksikografiya	83
Morfemika	89
Soʻz yasalishi	95
Morfologiya	98
Ot.....	100
Sifat	116
Son.....	123
Olmosh	128
Feʼl.....	135
Ravish.....	155
Yordamchi soʻzlar	157
Koʻmakchi	158
Bogʻlovchi.....	159
Yuklama.....	161
Alohida soʻz turkumlari	162
Modal soʻzlar.....	162
Undov soʻzlar	162
Taqlid soʻzlar	164
Sintaksis	165
Soʻz birikmasi	165
Sodda gap	168
Qoʻshma gap.....	202
Punktuatsiya	221
Uslubiyat	229

FONETIKA

1-mashq. Berilgan nutq a'zolarini faol va nofaol nutq a'zolariga ajrating. Ular nima uchun faol va nofaol nutq a'zosi deyilishini tushuntiring.

Tovush paychalari, yuqori jagʻ, til, kichik til, tish, yumshoq tanglay, pastki jagʻ, qattiq tanglay, burun boʻshligʻi, lab.

2-mashq. Berilgan fonetik birliklarni segment va supersegment birliklarga ajrating. Fonetik birliklar nima uchun shunday tasniflanishini izohlang.

Urgʻu, nutq tovushi, ohang, boʻgʻin, pauza, melodika.

3-mashq. Berilgan gaplar va soʻz birikmasidagi ohangning turini aniqlang.

1. Qadim zamonda bir yurtni yov bosibdi. 2. baland togʻlar 3. Kuz. Daraxtlar bargi sargʻaygan. 4. Eh, bahor qanday goʻzal fasl! 4. Xabar qilinglar, barcha qovun sayliga otlansin! (*“Bobur va kabutar” rivo-yatidan*) 5. Gʻoz, oʻrdak, oqqush, qilquyuqlar osmonni toʻldirib qagʻillashib yuqori-quyi uchmoqda. (*Yusuf Xos Hojib*) 6. Qovun bu yerdan emasligini qayerdan bildingiz, shohim? (*“Hidi, tilimi va maza-sidan” hikoyatidan*)

Savol va topshiriqlar:

1. Mashqdagi qaysi nutq birliklari tugallangan ohang bilan aytiladi?
2. Qaysi nutq birliklari tugallanmagan ohang bilan aytiladi?
3. Darak ohangi qaysi gapda ifodalangan?
4. Soʻroq ohangi qaysi gapda ifodalangan?
5. Undov ohangi qaysi gapda ifodalangan?
6. Buyruq ohangi qaysi gapda ifodalangan?
7. Sanash ohangi qaysi gapda mavjud?
8. Bajarilgan mashq asosida ohangning nutqdagi rolini tushuntiring.

4-mashq. Gaplarni pauzalarga rioya qilib oʻqing. Ulardagi fraza, takt, fonetik soʻzlar miqdorini aniqlang.

1. Mashinadan tushganimizni uzoqdan koʻrib turgan kishi yugurib oldimizga keldi. (*Gʻayratiy*) 2. Bugun qishloqlarimizga sanoat kirib bormoqda. (*S. Barnoyev*) 3. Rasul choʻl va daryolar tasvirini osongina

tushirdi-yu, lekin shaharlarga kelganda biroz o‘ylanib qoldi. (*N. Nor-qobil*)

Nutq tovushlari. Unli tovushlar

5-mashq. Quyida berilgan harflar ifodalagan tovushlarni talaffuz qiling. Nutq a’zolarida qanday o‘zgarish sodir bo‘lishi va havo oqimi yo‘lini tushuntiring.

- 1) a, e, i, o, u, o‘;
- 2) b, d, f, g, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g‘, sh, ch, ng.

Savol va topshiriqlar:

1. Ikkala qatordagi nutq tovushlari bir-biridan nima bilan farqlanadi va ular qanday tovushlar deb ataladi?
2. Unli va undosh tovush bir-biridan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
3. Bir unli va bir undosh bilan farqlanuvchi 5 tadan so‘z jufti topib yozing. So‘zlarning ma’nosini tushuntiring.
Namuna: *tor – to‘r, joy – choy.*
4. Bajargan topshirig‘ingiz asosida nutq tovushi qanday vazifa bajarishini tushuntiring.

6-mashq. Har bir so‘zdagi unli va undosh tovushlarni ajratib yozing. Ularni talaffuz qilib ko‘ring.

O‘rik, gul, sa’va, bodring, olmos, qahraton, asov, daryo, shimol, tog‘, lab, pichoq.

7-mashq. So‘zlar ma’nosini farqlayotgan tovushlarni topib, tagiga chizing.

Tiy, toy, to‘y, tuy; yer, yur, yir, yor, yo‘r; bor, bar, bir, ber, bur, bo‘r; siz, sez, suz, soz, so‘z.

Savol va topshiriqlar:

1. So‘zlar ma’nosini farqlayotgan tovushlar qanday tovush deyiladi?
2. O‘zbek tilida nechta unli tovush bor?
3. Unli tovushlar qaysi belgilariga ko‘ra tasniflanadi?
4. *a* unlisi *o* unlisidan qaysi belgilari bilan farqlanadi?
5. *i* unlisi *e* unlisidan nimasi bilan farqlanadi? *u* unlisidan-chi?
6. *u* unlisi *o‘* unlisidan nimasi bilan farqlanadi?
7. *a* va *o*, *i* va *e*, *u* va *o‘*, *i* va *u* tovushlari bilan farqlanuvchi 6 tadan so‘z yozing.

Namuna: *ana – ona, bil – bel, tur – to‘r, qir – qur.*

8-mashq. O‘qing. Unlilarni topib, to‘liq tavsif bering.

Namuna: *Baxil: a va i unlilari qatnashgan. a – quyi keng, til oldi, lablanmagan unli, urg‘usiz bo‘g‘inda. i – yuqori tor, til oldi, lablanmagan unli, urg‘uli bo‘g‘inda.*

Baxil, sazovor, ko‘ngil, jiydazor, badavlat, bilimli, tekin, tulki, yo‘l-bars, taraqqiyot, telefon.

9-mashq. So‘zlarni bo‘g‘inga ajrating. So‘zda nechta unli borligini ayting. Unlining bo‘g‘in hosil qilishdagi rolini tushuntiring.

Daryo, beshiktervatar, kabutar, poyezd, tor, kapalak, malla, keng, alloma, nafosat, kibernetika.

10-mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarda unli nima uchun cho‘zib aytilganini tushuntiring.

1. Assalomu **alayku-u-m**, Toshbaqa tog‘a! Qachon alik olasiz? Yuragim g‘ash bo‘lib ketyapti, tog‘ajon! (*A. Obidjon*) 2. – **Obbo-o**, bu dunyoda tinchroq joy qolmadi shekilli... Hoy, kim u hadeb salom berayotgan? (*A. Obidjon*)

3. – **Yo‘-o‘-o‘q!** – deb o‘rmlab qaysar,
Onasin jerkib vaysar. (*H. Yoqubov*)

4. Ishlar bitsin, xotin!

Yangi qavigan ko‘rpangda oyoqni **cho‘zi-i-b**,

Ko‘k choyni **suzi-i-b**,

Maza qilib yotaman... (*T. Jo‘ra*)

Undosh tovushlar

11-mashq. Har bir guruhdagi undoshlarni umumiy xususiyatiga ko‘ra bir so‘z bilan nomlang.

Namuna: b, p, d, t, k, q, g, ch, j – portlovchi undoshlar.

1. b, v, g, d, y, j (dj), j, z, m, n, ng, l, r, g‘. **2.** v, f, z, s, sh, y, x, h, g‘. **3.** b, p, d, t, k, q, g, ch, j. **4.** p, k, t, ch, s, sh, q, x, h. **5.** m, n, ng, l, r. **6.** b, p, v, f, m. **7.** t, d, l, n, s, z, sh, j (dj), r, ch, j, y, k, g, ng, q, g‘, x. **8.** h. **9.**

t, d, l, n, z, s, sh, j (dj), r, ch, j. **10.** t, d, l, n, s, z. **11.** sh, j (dj), r, ch, j. **12.** y. **13.** g, k, q, g', x, ng. **14.** q, g', x. **15.** k, g, ng. **16.** m, n, ng. **17.** r. **18.** j (dj), ch.

Savollar:

1. Undosh tovush nima?
2. Undosh tovushlar qaysi belgilariga ko'ra tasniflanadi?
3. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar necha guruhga bo'linadi?
4. Lab undoshlari qaysilar?
5. Lab undoshlari necha guruhga bo'linadi?
6. Til undoshlari qaysilar?
7. Til undoshlari necha guruhga bo'linadi?
8. Til oldi undoshlari necha guruhga bo'linadi?
9. Til o'rta undoshi nechta?
10. Sayoz til orqa undoshlari qaysilar?
11. Chuqur til orqa undoshlari qaysilar?
12. Hosil bo'lish usuliga ko'ra undoshlar necha guruhga bo'linadi?
13. Portlovchi undoshlar qaysilar?
14. Sirg'aluvchi undoshlar qaysilar?
15. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undoshlar necha guruhga bo'linadi?
16. Jarangli undoshlar qaysilar?
17. Jarangsiz undoshlar qaysilar?
18. Sonor undoshlarga qaysi tovushlar kiradi?
19. Qorishiq undoshlar qaysilar?
20. Burun tovushlariga qaysi undoshlar kiradi?

12-mashq. O'qing. Lab undoshlari qatnashgan so'zlarni topib, ko'chiring. Lab undoshlarining tagiga chizing va turlarga ajratib tavsiflang.

Tog'am har safar: – Qovun poliziga boringlar, handalak so'yib bera-man! – derdi. Gohida kichik, hidli handalakchalar olib kelardi. Biram hidi yaxshi bo'lardiki, kun bo'yi qo'ynimizga solib hidlab yurardik. Koptokka o'xshash bejirim, serto'r edi. (*Sh. Sa'dulla*)

13-mashq. Lab-lab va lab-tish v tovushi qatnashgan so'zlarni ikki guruhga bo'lib yozing. Shunday so'zlarga 5 tadan misol topib yozing.

Suv, qovun, vertolyot, suruv, vagon, vazir, chivin, vazelin, vazifa, sovg'a, vatan, variant, valiy, voy, suvoqchi, varillamoq, vazn, vijdon, tovuq, qavimoq, vakil, variant, vasvasa, vasl, vafo, quv, garov, va'da, vaqir-vuqur, qirov, olov, veteran, vergul, chuvullamoq, gavda, viloyat.

Savollar:

1. Lab-lab **v** tovushi qanday soʻzlar tarkibida uchraydi va asosan soʻzning qaysi qismida keladi?
2. Lab-tish **v** tovushi qanday soʻzlar tarkibida uchraydi?

14-mashq. Matnni oʻqing. Til oldi undoshlari qatnashgan soʻzlarni topib, koʻchiring. Til oldi undoshlarining tagiga chizing va turlarga ajratib tavsiflang.

Domlaga ergasib, hovlisiga bordim. Domla ikkita qoʻrga koʻmilgan joʻxori bilan bitta sopol tovoqda moshxoʻrda chiqarib berdi. Bu lazzatli taomni huzur qilib ichib oldim. (*Gʻ. Gʻulom*)

15-mashq. Ajratib koʻrsatilgan harflar qanday tovushni ifodalayotganini ayting. Bu soʻzlarning yozilishi va aytilishini yonma-yon yozing.

Namuna: *kitob – kitop*

Kitob, ozod, barg, bogʻcha, garaj, ganj, maktab, ketgan, otdi, izziz, tuzsiz, javob, avtobus, hisob, tub, yogʻsiz, yod, toʻrtda, ijtimoiy, tiraj, qochdi, ishga, zogʻcha, izhor, kasb, Jabborov, toj, aysberg, drenaj.

Oʻzbek tilida qaysi jarangli undoshlarning jarangsiz jufti bor?

16-mashq. Jarangli va jarangsiz undoshlar bilan farqlanuvchi 10 juft soʻz topib yozing. Namuna: *dor – tor*.

17-mashq. Koʻchiring. Portlovchi undoshlarni topib, tagiga chizing.

Otliq piyodaga, turgan odam oʻtirganlarga salom berishi lozim. Kichiklar kattalarga, yolgʻiz odam turganlarga salom beradi. Salom berayotgan kishi ochiq chehrali boʻlishi darkor. Imo-ishora bilan emas, ovoz chiqarib salomlashish kerak. (*Husayn Voiz Koshifiy*)

18-mashq. Sirgʻaluvchi undoshlar qatnashgan soʻzlarni topib koʻchiring. Sirgʻaluvchi undoshlarning tagiga chizing va ularni tavsiflang.

1. Yozning issiq kunlari, quyosh tikka koʻtarilgan. Bepoyon, koʻm-koʻk dala koʻksida yonayotgan quyosh shuʻlasi laxcha choʻgʻ boʻlib, gʻozalar ustida tovlanib koʻrinadi. (*Gʻayratiy*) 2. Falakning gardishi

bilan Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning sultoni bo‘libdi. (*“Hidi, tilimi va mazasidan” rivoyatidan*)

19-mashq. Matnni o‘qing. So‘zlardagi undosh tovushlarni ajratib, hosil bo‘lish o‘rni, hosil bo‘lish usuli, ovoz va shovqinning ishtiroki, ovozning miqdoriga ko‘ra tavsivlang (takrorlangan tovushlar olinmaydi).

Namuna: xiyla – x – *chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangsiz, shovqinli undosh.*

Inson uchun, havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, Vatan ham shunchalik mo‘tabardir. Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat uning dalalari, qir-adirlari, moviyrang tog‘lari dasht-u sahrolariga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi. (*X. Davron*)

Bo‘g‘in

20-mashq. So‘zlarni bo‘g‘inga ajrating.

Paxta, sabzavot, ko‘ngil, aka, go‘zallik, to‘playdi, ta’na, e’lon, e’tiqod, daryolardan, ta’tilda, mutolaa, un, asr, bodring, yoz, ma’naviyat, katta, hakka, pilla, beshiktervatar, xalq, madaniy, qirq.

Savol va topshiriqlar:

1. Bo‘g‘in nima?
2. Bo‘g‘inning amaliy ahamiyati nimada?
3. Bo‘g‘inning qanday turlari bor?
4. So‘zlardagi unli tovush va bo‘g‘inlarni sanang. So‘zdagi bo‘g‘in soni nimaga bog‘liqligini ayting.
5. So‘zlarni bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga ajrating.
6. Bo‘g‘inlarning tovush tarkibini ayting (bir unli iborat, bir unli va bir undoshdan iborat, bir unli va ikki undoshdan iborat, bir unli va ikki undoshdan iborat).

21-mashq. Matn parchasidagi so‘zlarni bog‘inga ajratib, bo‘g‘inlarning turini ayting va namunadagidek yozing.

Namuna: *dov-yu-rak* – yopiq, ochiq va yopiq bo‘g‘in.

Bobur dovyurak, epchil, kuchli, o‘ta idrokli inson bo‘lgan. U ona yurti Andijonni, oilasini qadrlagan, farzandlarini sevgan. U farzandi uchun jonini berishga tayyor turgan otadir. (*P. Qodirov*)

22-mashq. Soʻzlarni boʻgʻinga ajralishi va boʻgʻin koʻchirilishiga koʻra ikki ustunda yozing.

Mehribon, tabiat, masofa, inshoot, matbaa, uka, madaniyat, ekin, olam, musaffo, manglay, sabr, opa, koʻngil, koʻngli, shifobaxsh, Olmaliq, Dashtobod, iyun, alanglamoq, alebastr, Gʻallaorol, anor, arzonchilik, itoat, marhamat, mutolaa, chuvalchang, mard, pushaymon, chordevor, chuchmoma, yerosti, Ohangaron, biologiya, kauchuk.

Namuna:

Boʻgʻinga ajratish	Boʻgʻin koʻchirish
<i>ta-bi-at</i> <i>o-pa</i>	<i>ta-biat</i> yoki <i>tabi-at</i> –

Savollar:

1. Boʻgʻinga ajratish va boʻgʻin koʻchirishning bogʻliqligi nimada?
2. Bu ikki hodisaning farqini tushuntiring.
3. Nima uchun mashqda berilgan ayrim soʻzlar koʻchirish uchun boʻgʻinga boʻlinmaydi?

23-mashq. Berilgan soʻzlarni boʻgʻinga va maʼnoli qismga ajratib, ikki ustunga yozing.

Ilmiy, bargi, koʻzoynak, yurtim, ijodiy, bilaguzuk, shimoliy, kuchay, boraman, shovullaydi, shildir, koʻkar.

Namuna:

Boʻgʻinlar	Maʼnoli qismlar
il-miy bi-la-gu-uzuk	ilm-iy bilag-uzuk

Nima uchun soʻzning boʻgʻinga va maʼnoli qismga ajralishi bir-biriga mos kelmaydi? Izohlab bering.

24-mashq. Soʻzlarni boʻgʻinga ajratib, har bir boʻgʻin tarkibidagi unilarni **V**, undoshlarni **C** belgisi bilan namunadagidek yozing.

Namuna: *hov-li-ning* – **CVC-CV-CVC**, *to-mo-sha* – **CV-CV-CV**.

Alisher bu katta bogʻ hovlining har bir burchagini tomosha qilib, uzoq yurdi. Daraxtlarning novdalariga osilgan rangdor qafaslardagi

to‘ti, bulbul, maynalarni maroq ila tomosha qildi. Ularning qafas ichra tinimsiz sakrashlarini, sayrashlarini uzoq kuzatdi. Qushlarga qarab yuradigan maxsus xizmatkorga ergashib, unga bitmas-tuganmas savollar berdi. (*Oybek*) Ota-bola xursand bo‘lib, shifokor tavsiya etgan sport majmuasini izlab ketishdi. (*E. Malikov*)

Savol va topshiriq:

1. O‘zbek tilida bo‘g‘inning tarkibiga ko‘ra qanday turlari bor?
2. Mashqdagi bo‘g‘in turlarini shartli belgilardan foydalanib quyidagicha tasniflang va bo‘g‘in turiga mashq matnidan misol keltiring:

1. Bir unli iborat bo‘g‘in.
2. Bir unli va bir undoshdan iborat bo‘g‘in.
3. Bir unli va ikki undoshdan iborat bo‘g‘in.
4. Bir unli va uch undoshdan iborat bo‘g‘in.
5. Bir unli va tort undoshdan iborat bo‘g‘in.

Namuna: Bir unli va bir undoshdan iborat bo‘g‘in: **CV** – *bo‘-, shi-, qa-*; **VC** – *er-, et-, iz-*;

25-mashq. Quyida berilgan bo‘g‘in qoliplari ishtirok etgan 5 tadan so‘z topib yozing.

1. **V** (masalan, *o-pa*)
2. **CV** (masalan, *to-la*)
3. **VC** (masalan, *osh -paz*)
4. **CVC** (masalan, *non, tosh-loq*)
5. **VCC** (masalan, *art, ort-di*)
6. **CVCC** (masalan, *mard, sabr-li*)
7. **CCVC** (masalan, *ftor, tram-vay*)
8. **CCVCC** (masalan, *sport, trest*)

26-mashq. So‘zlarni bo‘g‘inga ajarating. O‘rtasida ikki undosh yonma-yon kelgan so‘zlar qanday bo‘g‘inga ajratilishi haqida xulosa chiqaring. Shunday so‘zlarga yana 10 ta misol topib, bo‘g‘inga ajratib yozing.

Katta, tilla, to‘lqin, eski, attor, jizza, kaklik, tantiq, malla, Mannon, lazzat, kassa, omma, kamyob, kallak, nonni, Abbos, kamtar, tayyor, oppoq, biyron, qimmat, Jizzax, savdo, yassi, sayqal, Muattar, arra, sandiq.

27-mashq. Soʻzlarni boʻgʻinga ajrating. Oʻrtasida uch undosh yonma-yon kelgan soʻzlar qanday boʻgʻinga ajratilishi haqida xulosa chqaring.

Gʻishtdan, shartsiz, qoʻrqan, doktrina, bargni, tortni, shavqli, mardlik, silindrik, daraxtzor, tinchlik, gardsiz, elektrik, orttir, elektron, yurt-dosh, erksevar, shartta, baxtli.

Qaysi soʻzlarni boʻgʻinga ajratishda bir undosh oldingi boʻgʻinda qolib, ikki undosh keyingi boʻgʻinga oʻtadi? Sababini tushuntiring.

Urgʻu

28-mashq. Oʻqing. Urgʻuli boʻgʻinlarni aniqlab, tagiga chizing.

Paxta, paxtakor, paxtakorlar, paxtakorlarimiz, paxtakorlarimizga, oz, metro, baqlajon, radio, hikoya, loviya, shaftoli, biologiya, traktor, erkin, goʻzal, goʻzallik, qishloq, pochta, agrotexnika, Toshkent, Samarqand, behi, kitob, bodring, boʻgʻirsoq, raketa, audio, poliz, vergul, uchuvchi, intizomli, yelpigʻich, galereya.

Savollar:

1. Urgʻu nima?
2. Urgʻuning ogʻzaki nutqdagi ahamiyati nimada?
3. Urgʻuning qanday turlari bor?
4. Oʻzbek tilida soʻz urgʻusi odatda qaysi boʻgʻinga tushadi? Mashqdagi dastlabki beshta soʻz misolida tushuntiring.
5. Nima uchun mashqdagi ayrim soʻzlarda urgʻu oxirgi boʻgʻinga tushmagan?

29-mashq. Berilgan soʻzlardagi urgʻuli boʻgʻinni aniqlang. Urgʻu olmaydigan qoʻshimcha va yuklamalarni aniqlang.

Dalalar, bodomzor, tariqcha, (kichkina) uycha, oʻnta, yigirmatacha, uyimiz, (fa-qat) anorgina, oʻrdakcha, qishloqdan, shamolday, kuldir, Akramova, keldimi, sen-chi, Nabiyevich, talabaman, kattaroq, koʻkimtir, Safarov, keldi-da, ishchan, goʻzallik, kelma, suv bilan, bolajon, aqllisan, qoʻshiqchi, yuzlab, xalq uchun, borgan sari.

30-mashq. Quyidagi soʻzlarni har bir boʻgʻiniga urgʻu berib, nechta boʻgʻin boʻlsa, shuncha marta talaffuz qiling. Urgʻusiz boʻgʻinga urgʻu tushirilsa, noqulay

talaffuz yuz berishiga ishonch hosil qiling. Shu yo‘l bilan urg‘u qaysi bo‘g‘inga tushganini aniqlang.

Namuna: *arteriya* (noqulay talaffuz), *arteriya* (qulay talaffuz), *arteriya* (noqulay talaffuz), *arteriya* (noqulay talaffuz). Demak, *arteriya* so‘zida urg‘u ikkinchi bo‘g‘inga tushadi.

Biologiya, hamma, afsuski, lekin, morfologiya, fonetika, ballada, kimki, kimdir, barter, menejer, marketing, zero, gazeta, atom, metodika, doim, direktor, konstitutsiya, kuldir, obraz, oyday, chunki, hech kim, hamisha, respublika, qip-qizil, obraz, fonema, biznes, ya’ni, fabrika.

31-mashq. Quyidagi urg‘usi bilan farqlanadigan so‘zlar ishtirokida bittadan gap tuzing. Urg‘uning ma’no farqlashdagi rolini tushuntiring.

Atlás – átlas, akadémik – akademík, bosmá – bósma, hozír – hózir, modá – móda, tortmá – tórtma, matemátik – matematík, soyá – sóya, qishlóqcha – qish-loqchá.

Nutq tovushlarining o‘zgarishi

32-mashq. O‘qing. Assimilatsiyaga uchragan so‘zlarni topib, turini ayting.

1. O‘tgan qish qo‘ylarimizni qiyratib ketishgani esingdan chiqdimi? (*N. Norqo-bil*) 2. Zavq-shavqqa to‘lgan holda yeng shimarib, birinchilar qatori ishga keldi. (*T. Hayit*) 3. – Bisso‘m ber! (*M. M. Do‘st*) 4. Oq rang ketib, bo‘z yerni alvon rang qopladi, olam o‘ziga oro berib bezanmoq taraddudiga tushdi. (*Yusuf Xos Hojib*) 5. Jo‘nadik. Yo‘lda o‘rtog‘imning bo‘rsiqqa ishqiboz bo‘lib qolganligini bobomga asta aytdim. (*G‘ayratiy*) 6. Bir tup terak niholini olib, tepalikka borib, o‘tqazib keldi. (*A. Irisov*) 7. Keyin oyog‘i bilan bir siltangan edi, chana shuvullab pastga uchib ketdi. (*O‘. Hoshimov*) 8. O‘shanda danakdan chiqqan mitti o‘rik gullab turgan bo‘ladi. (*A. Abdurazzoq*) 9. – Ha, taqsir, bir yetimni hadeb ura berishmi, xizmatga tuhmatmi, taqsir? – deb yig‘lab yubordim. (*G‘. G‘ulom*)

10. Qani ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag‘rimni, ohang? (*A. Oripov*)

11. Novvoylar tutar shirmoy,
Do‘kon shirinlikka boy. (*K. Turdiyeva*)

12. Til boyligin bir bog‘ desak,
Har bitta so‘z – bitta nihol. (*A. Obidjon*)
13. Ota doim ota axir,
Ya’ni mudom izzatda. (*A. Oripov*)
14. Oftob chiqdi olamga
Yugurib bordim xolamga. (*Xalq qo‘shig‘i*)

33-mashq. O‘qing. Assimilatsiyaga uchragan so‘zlarni topib, turini ayting. Bu so‘zlarni imlo qoidasiga ko‘ra yozing.

1. U kambag‘al-qashshoqlar bilan bittanga-yarim tanga ustida g‘ijil-lashib o‘tirishni istamas edi. (*P. Tursun*) 3. Toshtemir aka tambur, Alijon esa dutor, Dadavoy aka nay chalar edi. (*H.G‘ulom*). 4. Ha, ko‘hlik tolihimdan o‘rgulay deb mundoq qulochchi keravering. (*H. Nazir*) 5. Endi Go‘ro‘g‘libekdan eshitmoq kerak gappi. (*Po‘lkan.*) 6. Handalak – shakar palak, shirinini tallab oling. (*N. Safarov*) 7. Ayt-moqchi, kechka yaqin yana kirib o‘tarsiz. (*J. Abdullaxonov*) 9. U juda qarigan, qo‘lda toqqaychi. (*Mirmuhsin*) 11. Gulsunbibi qizi Gulnorni ro‘parasiga o‘tqizdi, mahsini yeshtirdi. (*Oybek*)

34-mashq. O‘qing, fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlarni aniqlang. Dissimilatsiya hodisasiga uchragan so‘zlarni ajratib, qay tarzda o‘zgarganini izohlang.

1. Bo, zaril keptimi! – Lobar labini burdi. – Ishim boshimdan oshib yotibdi. (*H.G‘ulom*) 2. Ko‘rmay turib tusmonlab o‘xshatardi kimgadir. (*Mirmuhsin*) 3. Menga qara, Hojiakbarri o‘g‘lisan-a, ertaga bir do‘ppi o‘rik beraman, mana shu xatti o‘qib ber. (*S.Ahmad*) 4. Yormat atrof-dan bironta tarvuz topib keltirshi uchun O‘rozga ya-lindi. (*Oybek*) 5. Boy buvang to‘y qilib, beripti xatti, Ulug‘im deb xon otangni yo‘qlapti, Borolmasman bugun, bolam, bu to‘yga, O‘zi uchun otang sizni jo‘natti! (*Usmon baxshi.*) 5. Tillari suchukkina, Burnisi puchuqqina. (*Qo‘shiq-dan*) 6. Boshiga lo‘mba degan narsa o‘lgur tushdimi, zambarakmi, nay-zagami duch keldi... (*Oybek*) 6. Saida kasal kishiday bitta-bitta qadam bosib, hujrasiga tomon yo‘naldi. (*A. Qahhor*)

35-mashq. Dissimilatsiya va metateza ro‘y bergan so‘zlarni aniqlab, qay tarzda o‘zgarganini izohlang.

Bironta, aynalay, madat, yalmamoq, rubop, turpoq, uchta, bevosh, avhol, to‘r-g‘amoq, terbatmoq, ushti, o‘granmoq, tufha, o‘shxamaoq, avf, zaril, qiylanmoq, ko‘mlak, to‘rg‘am, yurmonqoziq, malor, zalar, dayro, Mayramxon, tayziq, kirpik.

36-mashq. Berilgan so‘zlarni 9 guruh (1) proteza, 2) epenteza, 3) epiteza, 4) prokopa, 5) sinkopa, 6) apakopa, 7) sinerezis, 8) reduksiya, 9) eliziya)ga bo‘lib yozing.

O‘ris, ustol, sabir, fikir, boroladi, opke, pishiq, broq, Abjabbor, burni, blak, ish-kaf, ilim, tanka, do‘s, xursan, kadir, istansa, direktir, gazit, sra, yigna, mo:rif, ki-oska, prajektir, rektir, jamo:t, Madamin, aqil, kshi, traktir, bo‘yni, disket, Lolapa, durus, banka, po‘s, zabardas, fahim, shra, qiro:t, iskelet.

GRAFIKA VA ORFOGRAFIYA

37-mashq. Misollarni o‘qing. Har bir so‘zni alohida talaffuz qilib, uni bo‘g‘in va tovushlarga ajrating. So‘zning tovush tarkibi bilan undagi harflarning mos kelish-kelmaslik holatlarini aniqlang.

1. Ota, ona va o‘g‘il shaharga ketayotgan edilar. Onasi bilan otasi otda, bolasi eshakda. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. Ertalabki shirchoyni bobom bilan birga ichdik. O‘r-tog‘imni hovli orqasidagi bog‘ga olib chiqdim. (*G‘ayratiy*) 2. O‘sha o‘rik pishganida, Ra‘no uni maza qilib yeb, ortiqchasini oftobga yoyib quritar ekan. (*A. Abdu-razzoq*)

Savollar:

1. Harf nima?
2. Tovush bilan harfning farqini ayting.

38-mashq. Berilgan so‘zlarni alifbo tartibida joylashtirib yozing.

Anor, arpa, bodring, yer, ziyorat, bahodir, bet, yetuk, karam, sabzi, kabob, imlo, ochiq, jo‘xori, isirg‘a, dono, g‘aram, vodiy, rubob, jona-jon, firuza, chumchuq, azon, ertak, nevara, qop, murabbo, latifa, diyonat, egov, sedana, nigoh, shiypon, xirmon, cho‘pon, firoq, mosh, ushatmoq, ziyofat, ruboiy, divan, gerb, o‘lka, xiroj, o‘q, gilam, huquq, uch-burchak, holva, lof, pista, tamaddi, pistirma, tamaki, vodorod, g‘araz, qonun, shimol, ochko‘z.

Savol va topshiriqlar:

1. Alifbo nima?
2. Nima uchun alifbo tartibini yoddan bilish zarur?
3. O‘zbek alifbosini yoddan ayting.
4. Lug‘atdan kerakli so‘zni topishga doir “Kim tez topadi?” o‘yinini o‘tkazing. Buning uchun ikki talaba doskaga chiqadi. O‘qituvchi bir necha so‘zni aytib, bu talabalarga bu so‘zlarni imlo yoki izohli lug‘atdan topishni so‘raydi. Qaysi talaba so‘zlarni tezroq topsa, o‘sha g‘olib bo‘ladi.
5. 4-sinf “O‘qish kitobi” darsligida berilgan Mirtemirning “Qush tili” she‘ridan qushlarning nomini bildiruvchi so‘zlarni ajratib, alifbo tartibida yozing.

39-mashq. Quyidagi raqamlar harflarning alifbodagi o‘rmini bildiradi. Raqamlarni harfga aylantirib o‘qisangiz bilim haqidagi maqollar hosil bo‘ladi.

2, 8, 11, 1, 6, 8 24, 25, 17 2, 8, 17, 13, 8 23, 8, 16, 1, 17,
2, 8, 11, 8, 12, 8 24, 25, 17 12, 8, 29, 13, 8.

8, 11, 12 – 1, 16, 11 28, 8, 17, 14, 26, 8.

10, 25, 15 25, 16, 8, 6, 1, 13 10, 25, 15 2, 8, 11, 1, 17.

40-mashq. Yonma-yon kelgan unlilarning talaffuziga e'tibor berib, so'zlarni o'qing.

ia: material, milliard, radiator, shariat, tabiat;

oa: soat, sanoat, itoat, jamoat, toat, qiroat, qanoat;

aa: manfaat, mutolaa, taalluqli, taassurot;

io: biologiya, million, stadion, radio;

ao: maorif, saodat, aorta, taomil, taom;

ai: mozaika, ukrain, said, maishat;

oi: shoir, doira, noib, doim, oila, xoin, alkaloid, ellipsoid;

ua: muallim, muammo, muattar, shuaro, muallif, burjua.

ea: okean, teatr, laureat;

au: kauchuk;

uo: muomala, duo, muovin, muosir, matbuot;

uu: vakuum.

Savollar:

1. Qaysi harf birikmalari orasiga **y** undoshi qo'shib aytiladi?
2. Qaysi harf birikmalarida har bir unli alohida-alohida, ajratib o'qiladi?

41- mashq. Nuqtalar o'rniga **b** yoki **p**, **v** yoki **f**, **d** yoki **t**, **z** yoki **s**, **j** yoki **ch**, **sh**, **g'** yoki **x**, **g** yoki **k** harflarini qo'yib ko'chiring. Aytilishi bilan yozilishi farq qiluvchi so'zlarning talaffuzi va imlosini izohlang.

Asbo..., bori..., kano..., yuzla..., ofto..., kamga...; a...tomobil, a...tobus, a...zal, sha...qat, ta...siya; ozo..., muro..., ba...qovoq, marvari..., qun..., zavo..., machi..., masji..., razve..ka, odamzo..., ket...i, daroma...; i...tirob, qimi..., ta...kira, yalmog'i..., trolleybu..., konu..., parvo..., jiho..., i...chil, mu...qaymoq, termo..., prote..., so'...; rivo..., ravo..., xiro..., bo..., mur..., muhto..., mas...id, lax...a, lah...a, mav...; gara..., i...timoiy, tira..., massa..., ekipa...; bo...cha, zo...cha, yo...siz, uru... .

Soʻz oxirida jarangli yoki jarangsiz undosh yozilishini qanday aniqlash mumkin?

42-mashq. Berilgan soʻzlarga **-v, -q, -qi** qoʻsimchalarini qoʻshib yozing. Hosil boʻlgan soʻzlarning yozilishini imlo qoidasi asosida tushuntiring.

Yigʻla, qayna, sayla, sina, oʻyna, qiyna, sovi, ogʻri, qavi.

43-mashq. Soʻzlarga egalik qoʻshimchasini qoʻshib yozing.

Tilak, nutq, taroq, huquq, bilak, idrok, yoʻq, yuq, tok, axloq, erk, ishtirok, chiroq, qirq, koʻrk, mulk, etak, milk, sirk, xalq, qiliq, farq, sharq, qishloq, tatbiq, ogʻriq, tuk, beshik, bek, mashq, chek, zavq, ocherk, yaxshiroq, ittifoq.

Bu soʻzlarni imlosiga koʻra necha guruhga boʻlish mumkin? Imlo qoidasiga koʻra izohlang.

44-mashq. Quyida berilgan otlarga **-ga, -gacha**, feʼllarga esa **-gan** yoki **-gach, -guncha, -gani, -gudek, -gin** qoʻshimchalarini qoʻshib, uch guruhga boʻlib koʻchiring: 1) **-ka, -kacha, -kan, -kuncha, -kani, -kudek, -kin** qoʻshimchalari qoʻshib yoziladigan soʻzlar 2) **-qa, -qacha, -qan, -quncha, -qani, -qudek, -qin** qoʻshimchalari qoʻshib yoziladigan soʻzlar; 3) **-ga, -gacha, -gan, -guncha, -gani, -gudek, -gin** qoʻshimchalari qoʻshib yoziladigan soʻzlar.

Tilak, togʻ, barg, sigʻmoq, siqmoq, qishloq, toʻkmoq, pedagog, tok, egmoq, ek-moq, qismoq, xirurg, ertak, chiniqmoq, soliq, mis, qoʻrqmoq, sogʻmoq, oqmoq, ge-olog, tabiat, oʻtloq, jamiyat, bogʻ, saryogʻ, ish, tariq, ogʻmoq, gap, zavq, axloq, qi-ziqmoq, erk, oʻt, sabr, tuz, tus, ketmoq, tegmoq, yogʻmoq, toliqmoq, taroq, ip, tosh, kesmoq.

Topshiriqlar:

1. Uch guruhga mansub soʻzlarning yozilishini imlo qoidasi asosida izohlang.
2. Aytilishi va yozilishi mos kelmaydigan soʻzlarning talaffuzi va imlosini ustuncha shaklida yonma-yon yozing.

Namuna:

<i>Imlosi</i>	<i>Talaffuzi</i>
<i>bargga</i>	<i>barkka</i>
<i>bug'ga</i>	<i>buqqa</i>
<i>o'tga</i>	<i>o'tka</i>
<i>sig'gan</i>	<i>siqqan</i>
<i>kesgan</i>	<i>keskan</i>

45-mashq. Quyidagi olmoshlarga **-da, -dan, -day, -dek, -dagi, -ga, -gacha, -cha** qo'shimchalarini qo'shib yozing. Yozgan so'zlaringizning imlosini tushuntiring.

U, bu, shu, o'sha.

46-mashq. Quyidagi so'zlariga I, II, III shaxs egalik qo'shimchalarini qo'shib yozing. Yozgan so'zlaringizning imlosini qoida asosida tushuntiring.

Parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo.

47-mashq. Quyidagi so'zlarga III shaxs egalik qo'shimchasini qo'shib yozing. Ularning imlosi haqida xulosa chiqaring. **iy** harf birikmasi bilan tugaydigan yana 5 ta so'z topib yozing.

Dohiy, homiy, moziy, soqiy, faxriy.

48-mashq. Quyidagi so'zlarga **-bon, -boz** yoki **-vachcha** qo'shimchasini qo'shib yozing. Hosil bo'lgan so'zlarning talaffuzi va imlosini izohlang.

Darvoza, masxara, dor, qimor, xola, tog'a, amaki, amma.

49-mashq. Berilgan taqlid so'zlarga **-illa** yoki **-ulla** qo'shimchasini qo'shib fe'l yasang. Nima uchun bu so'zlarning ayrimiga **-illa**, ayrimiga **-ulla** qo'shib yozili-shini izohlang.

Chir, taq, shov, chirq, viz, gur, vish, lov, vaq, shar, milt, var, to'q, vang, guv, vag', tar, tiq, g'iz.

Nima uchun *viz, vish, vaq, var, vag'* so'zlari tarkibida *v* tovushi bo'lsa ham, **-illa** qo'shib yoziladi? Fe'llarning yasalishini izohlab bering.

50-mashq. Berilgan otlarga *xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* soʻzlarini qoʻshib qoʻshma soʻz hosil qiling va yozing. Yozgan soʻzlaringizning imlosini izohlang.

Dori, taklif, makka, xulq, xabar, maymun, hamma, omma, shahar, qishloq, tilla, dev, mosh, xalq, chiqim, orom, suv, bashariy, sartarosh, insoniy, izzat, taʼlim, choy, osh, beda, suhbat, quvvat, xabar, qoʻy, havo, hamyon, yoʻriq, guvoh, lazzat, unum, quvonch, muomala, ovoz, suxan, tabiat, taʼm, bichim, sabzi, olov, bugʻdoy, kul, ohang, jihat, suv, gap, qon, xarajat, hosil, hayvon, tomosha, ulugʻ, tabrik, taʼziya, bildirish, jang, sayohat, Bobur, Humoyun, yil.

51-mashq. Quyidagi taqlid va undov soʻzlarga **-ak** yoki **-la** qoʻshimchasini qoʻshib ot hamda feʼl yasang va yozing. Hosil boʻlgan ot va feʼllarning imlosini izohlang.

Pir-pir, biz-biz, tir-tir, shar-shar, voy-voy, hay-hay, gij-gij.

52-mashq. Berilgan qoʻshma ot va sifatlarning nima uchun qoʻshib yozilishini imlo qoidasi asosida tushuntiring.

Sheryurak, kinoteatr, olaqargʻa, qizilishton, qiymataxta, tokqaychi, radiostansiya, kelintushdi, qoryogʻdi, Urtoʻqmoq, mingboshi, soʻzboshi, shaftoliqoqi, sarvqomat, soʻzboshi, karnaygul, atirgul, achchiqtosh, bayramoldi, fotoapparat, oshrayhon, elektrotexnika, radioeshittirish, suvosti, teleekran, qorakoʻz, devqomat, choʻlyalpiz, atirsovun, mol-qoʻra, Ochildasturxon, kiryuvdi, oʻqilon, bodomqovoq, qirgʻiykoʻz, oshpichoq, togʻolcha, suvilon, qashqargul, otquloq, qirqoyoq, suv-qovoq, bilaguzuk, qoʻziqorin.

Savol va topshiriq:

1. Bu soʻzlarni qoʻshib yozish qoidasiga koʻra necha guruhga boʻlish mumkin?
2. Soʻzlarni yozilish qoidasiga koʻra guruhlab yozing.

53-mashq. Soʻzlardagi xatoni tuzatib yozing. Imloviy xatoni qoida asosida tushuntiring.

Oʻrataosiyo, Mirza choʻl, Xalq obod, Amu daryo, Oʻrtachirchiq, Quva soy, Markaziyosiyo, Yunus obod, Koʻhnaurganch, Yangi Yoʻl, Qizil qum, Toʻda koʻl, Bux DU, SamDU ning, OʻzXDPMK.

54-mashq. Quyida berilgan soʻzlardan juft va takroriy soʻz hosil qilib yozing. Juft va takroriy soʻzlarning imlosini tushuntiring.

Baxt, tez, qop, baland, saodat, toʻlib, or, katta, oʻn, qir, uy, past, bilinar, nomus, mehr, taq, shafqat, ich, qovun, besh, mayda, qoʻy, tarvuz, olti, chuyda, kecha, ba-land, yosh, kiyim, bitta, kechak, qari, semiz, chopa, bilinmas, joy, toshib, oʻn beshta, qator, duk, yaqin, ishlay, toʻda, koʻp, qoʻzi, kunduz, shirin, uzoq, biq, tonna, bilakday, etak.

55-mashq. Berilgan juft soʻzlar orasiga **-u, -yu** bogʻlovchisidan mosini qoʻyib yozing. Yozgan soʻzlaringizning imlosini tushuntiring.

Bogʻ-boʻston, yaxshi-yomon, yosh-qari, tun-kun, kecha-kunduz, togʻ-tosh, oq-qora, katta-kichik, doʻst-dushman, togʻa-jiyan, amma-xola, qoʻy-qoʻzi, qovun-tarvuz.

56-mashq. Yetakchi va koʻmakchi feʼlni bir xil shaklga keltirib yozing. Yozgan soʻzlaringizning imlosini tushuntiring.

Yozib oldi, ketib qoldi, yozib qoʻyasan, uxlab qolibman, agʻdarib tashladi.

57-mashq. Berilgan sifatlarning kuchaytirma shaklini hosil qilib yozing. Kuchaytirma shakldagi sifatlarning imlosini izohlang.

Dumaloq, yashil, toʻgʻri, tayyor, toza, qora, katta, koʻk, qizil, sariq, tekis, oq, sogʻ, oson, tuzuk.

58-mashq. Berilgan soʻzlardagi xatoni tuzatib yozing. Bu soʻzlarning yozilishini imlo qoidasi asosida tushuntiring.

Koʻchamakoʻcha, rangbarang, uymauy, toʻymatoʻy, dambadam, kunmakun, roʻ-baroʻ, dar-badar, unter ofitser, kilovatt soat.

59-mashq. Berilgan soʻzlarni **-chi, -a, -ya, -mi, -u (-yu), -oq, (-yoq), -da, -e, -ey (-yey), -gina (-kina, -qina)** yuklamalari bilan yozing. Yuklamalarning imlosini tushuntiring.

Koʻraylik, bilasan, keldi, aytding, kelgan, yaxshi, koʻrib, oʻzi, keng, bor, qizim, keldi, oʻqituvchi, terak, qoʻshiq.

60-mashq. Tartib sonlardan keyin zarur o‘rinda chiziqcha qo‘yib ko‘chiring. Tartib sonning imlosini tushuntiring.

6 uy, 3 sinf, 4 “A” sinfi, 1, 2, 3 kurs talabalari, 70 yillar, 1991 yilning 1 sentabri, XXI asr, V bob, IX sinf.

61-mashq. Berilgan so‘zlarga *qil, et, chek, bo‘l, ber, qo‘y, ol, kel, chiq* fe‘llarini qo‘shib, qo‘shma fe‘l hosil qiling va yozing. Qo‘shma fellarning imlosini tushuntiring.

Xursand, xafa, miq, sayr, azob, mashaqqat, ozod, katta, javob, savol, imzo, sotib, olib.

62-mashq. Quyida berilgan fe‘llardagi imloviy xatoni tuzatib yozing. Ko‘makchi fe‘l va to‘liqsiz fe‘lning imlosi haqida xulosa chiqaring.

O‘qibchiq, kuzatibqo‘y, yasayoladi, boribturibman, kira vering, borar kan, so‘rab ko‘r, bor oladi, kelganedi, chiqibqoldi, ketganekan, kela qol, qo‘shibqo‘ydi, bor olmadim, o‘qiganemish, qidiraboshladi.

63-mashq. Berilgan so‘zlarni *bilan, sari, sayin, qadar, uchun, bo‘yi, singari, tomon, -la, -chun* ko‘makchilari bilan yozing. Ko‘makchilarning imlosini tushuntiring.

Belkurak, borgan, kun, dengiz, xalq, osmon, yil, akam, qishloq, sen, siz.

64-mashq. Berilgan so‘zlardagi imloviy xatoni tuzatib (agar bo‘lsa), ajratib yoki qo‘shib yozilishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘lib yozing. Bu so‘zlarning yozi-lishini imlo qoidasi asosida izohlang.

Hammayoq, birzum, qaybiri, bir oz, hech nima, birvarakayiga, buyon, hechqaysi, qay kuni, shu yerda, qayerda, uyoqqa, o‘shayoqdan, birato‘la, qayyerda, bir muncha, qayyoqqa, harqaysi, bir pas, bir mud-dat, biryoqlama, bir yoqli.

65-mashq. Berilgan sifatlar oldidan belgining ortiq yoki kamligini bildiruvchi *to‘q, jiqqa, tim, liq, lang, och* so‘zlarini qo‘yib yozing. Hosil qilingan qo‘shma sifatlar imlosini tushuntiring.

Qizil, qora, to‘la, ochiq, sariq, ho‘l, qorong‘i.

66-mashq. Quyidagi raqamlarni so‘z bilan yozing. Imlosini tushuntiring.

56, 115, 12, 1977, 2005, 4688, 506, 412, 37, 45, 678, 10541, 26, 65.

67-mashq. Quyidagi birikmalardagi imloviy xatolarni tuzatib yozing. Ularning imlosini tushuntiring.

Tomdan-tomga, yildanyilga, ochiqdanochiq, ko‘pdanko‘p, qizigandan-qizidi, shirindanshirin, kundankunga, tog‘ridanto‘g‘ri, kattadan-katta.

68-mashq. Berilgan so‘zlardan izofali birikma hosil qiling. Izofali birikmaning imlosini izohlang.

Tarjima hol, Buxoro sharif, dard bedavo, nuqta nazar, gul beor, dard sar, mual-lim soniy, Qur‘on karim, taqdir azal, balo azim, luqma halol, toj davlat, osmon falak, chashm giryon.

69-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Bosh harflarning ishlatilish sababini tushuntiring.

1. Tanishib qo‘yaylik: otim Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo‘l-sangiz, Hoshimjon deb aytasiz. Familiyam – Ro‘ziyev, Ro‘zivoy traktorining o‘g‘liman. (*X. To‘xtaboyev*)

2. – Dunyoda Otabekdan ko‘pi bormi, siz qanday Otabek?

– Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li. (*A. Qodiriy*)

3. Menga Pushkin bir jahon-u,

Menga Bayron bir jahon.

Lek Navoiydek bobom bor,

Ko‘ksi osmon o‘zbeгим. (*E. Vohidov*)

4. Mening bolalik yillarim Farg‘ona vodiysining Yaypan, Nursuq, Qudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Yulg‘unzor, Oqqo‘rg‘on degan qishloqlarida o‘tgan. (*A. Qahhor*) 5. Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti. 6. Siz bilursiz, men Movaraunnahrdan umidimni uzganimdan beri yorug‘ bir istiqbolni Hindiston tomondan izlamoqdamen. (*P. Qodirov*) 7. Ulug‘bekning nomi va asarlari mamlakatimizdagina emas,

balki butun dunyoga mashhur. Uni XVI asrdan beri Yevropada ham, Osiyoda ham, Amerikada ham yaxshi tanishadi. (*B. Ahmedov*) 8. Uzoq Sirdaryo vohalarida endi lola barg yozadigan salqin hamal oyida Jamna bo‘ylari avji saraton paytidagidek issiq edi. (*P. Qodirov*) 9. O‘lkamiz hududida Qizilqum, Ustyurt, Mirzacho‘l, Qarnobcho‘l, Qarshi cho‘llari mavjud. 10. Viloyatda Katta Farg‘ona kanali, Janubiy Farg‘ona, Katta Andijon, Savay, Andijonsoy, Shahrixonsoy va boshqa kanallar bor. 11. 16-asrda Irlandiya hududining barcha qismida Angliya hukmronligi o‘rnatilgach, hozirgi Shimoliy Irlandiya hududi Olyestr viloyati tarkibiga kirgan. (*“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”dan*) 12. Kavkaz tillari Shimoliy Kavkaz, Turkiyada va kichik guruhlari Suriya, Eron va ba’zi Yaqin Sharq mamlakatlarida tarqalgan. (*“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”dan*) 13. Aslida Quyosh Yerga nisbatan bir joyda turadi. Yer esa Quyosh atrofida aylanadi. 14. Zamonaviy sport inshootlaridan “Buxoro” futbol klubining 25000 tomoshabinga mo‘ljallangan “Buxoro” stadioni, “Semurg” suv havzasi, “Olimpiya” sport majmuyi, turli darajadagi xalaqaro musobaqalar o‘tkaziladigan “Humo” tennis korti mavjud. (*“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”dan*) 15. Asaka shahrida ulkan avtomobil zavodi ishga tushgan. U yerda “Matiz”, “Damas”, “Neksiya”, “Lasetti”, “Epika”, “Kaptiva” kabi yengil avtomobillar, Samarqanddagi SamAvto zavodida esa mikroavtobuslar ishlab chiqarilmoqda. (*M. Hamidova*) 16. 1935 – 37- yillar mobaynida Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani, “Soz” to‘plami bosmadan chiqqanini va “Jo‘r” to‘plami tayyorlanib, nashriyotga topshirilganini aytish kerak. (*O. Sharafiddinov*) 17. “O‘tkan kunlar” romani adibning shoh asaridir. (*“Bolalar ensiklopediyasi”dan*) 18. “G‘uncha” – boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan jurnal. 19. Yosh-u qari – barchaning kayfiyati ko‘tarinki, bayramona. Chunki bu kun – yangilanish, qayta tirilish, ya’ni Navro‘z bayrami. (*“Bolalar ensiklopediyasi”dan*) 20. 1991-yil 1-sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqilligi kuni deb belgilandi. (*D. Kamoljonova*)

70-mashq. Berilgan tarkibli nomlardagi imloviy xatoni tuzatib ko‘chiring. Murakkab otlarning imlosini tushuntiring.

O‘zbekiston respublikasi, Misr arab respublikasi, O‘zbekiston respublikasi prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi oliy majlisining raisi, Buyuk Britaniya qirolligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining

raisi, Birlashgan millatlar tashkiloti, Bosh Vazirning o‘rinbosari, Rossiya federatsiyasi, Mudofaa Vaziri, Sog‘liqni Saqlash Vazirligi, Yozuvchilar Uyushmasi, Fanlar Akademiyasi, O‘simlik Moddalari Kimyosi instituti, Fan va texnika Davlat qo‘mitasi, Jahon tinchlik kengashi, Buxoro Davlat universiteti, O‘zbekiston Milliy Tiklanish demokratik partiyasi, “Oltin yulduz” medali, “Sog‘lom Avlod uchun” ordeni, “O‘zbekistonda Xizmat Ko‘rsatgan fan arbobi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston qahramoni” unvoni, “Matbaa A’lochisi” nishoni.

71-mashq. Berilgan gaplardagi imloviy xatolarni tuzatib yozing. Nima uchun xato hisoblanishini imlo qoidasi asosida tushuntiring.

1. yoz kunlari kelsa, bolalarni kapalak va tillaqo‘ng‘iz tutib kelishga buyurardi. (*A. Qodiriy*) 2. – Bu qanday falokat, mudhish falokat! – Dedi ibn Sino yig‘lamoqdan beri bo‘lib. (*M. Osim*)

3. Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

– Mazkur ishni ko‘rib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;

– Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to‘g‘ri tuzilgan-tuzilmaganligini... hal qiladi.

4. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) Umumturkiy so‘zlar; 2) O‘zbekcha so‘zlar; 3) Tojik tilidan kirgan so‘zlar; 4) Arab tilidan kirgan so‘zlar; 5) Rus tilidan kirgan so‘zlar.

72-mashq. Berilgan so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirishga doir xatoni tuzatib ko‘chiring. Xatolarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga asoslanib izohlang.

A-sosiy, o-madli, a-rava, e-shelon, mutola-a, matba-a, diag-ramma, mudofa-a, monog-rafiya, geog-rafiya, silind-rik, kos-hona, soc-hiq, singil, ko‘n-gil, den-giz, Chin-giz.

73-mashq. Quyidagi ifodalar satrdan satrga ko‘chiriladimi? Javobingizni qoida asosida izohlang.

BMT, SamDU, 6-“B” sinfi, 37, IV “B” guruhi, 210 gr, 25 ga, 98 m, 33 sm, 110 mm, 1991, 652, “Navro‘z – 92” (festival), “Boing – 767” (samolyot), “O‘qituvchi – 1991” (ko‘rik tanlov), XXI, “Foton – 774”

(televizor), “Andijon – 9”, “Termiz – 16” (g‘oza navlari), A. S. Sobirov, S. H. Safarov, Sh. Shoabdurahmonov v.b., virus va sh.k.

ORFOEPIYA

74-mashq. Shevangizda adabiy talaffuzga mos kelmaydigan tarzda aytiladigan 20 ta so‘z va so‘z shaklini tanlab, shevadagi va adabiy tildagi talaffuzini yonma-yon yozing. So‘zlarning adabiy talaffuzi ustida mashq qiling.

Namuna:

Shevada (notog‘ri talaffuz)	Adabiy tilda (to‘g‘ri talaffuz)
<i>qara</i>	<i>qora</i>
<i>oka</i>	<i>aka</i>
<i>qavun</i>	<i>qovun</i>
<i>oshshi</i>	<i>oshni</i>
<i>yengi</i>	<i>yangi</i>
<i>kelopti</i>	<i>kelyapti</i>
<i>yonima</i>	<i>yonimga</i>

Savollar:

1. Orfoepiya bo‘limida nima o‘rganiladi?
2. Orfoepiyaning adabiy tildagi ahamiyati qanday?
3. Adabiy talaffuz me‘yori nima?
4. O‘zbek orfoepiyasi qaysi bo‘limlardan tashkil topgan?

75-mashq. Talaffuz me‘yoriga muvofiq yozilgan quyidagi so‘zlarni o‘qing. Ularning imloviy shaklini yonma-yon yozing.

Namuna: *barkka – bargga.*

Maxsat, boqqa, doyira, ukrayin, keskan, go‘sh, Samarqan, direktir, maktab, masxaravos, yigichcha, bezammog‘, shamba, sumbula, marvarit, savot, bo‘schi, mistan, ishtan, akeyan, kamissiya, shoyir, biyalogiya, kavop, milyon, buqqa, barkka, yoxsa, sixsa, taxsim, oxshom, ketkan, massash, doyim, fasil, bunyot, istirop, bormapti, aftamabil, kosmis, maxtov, bo‘yoxchi, ixtisot, to‘xson, mamba, seshamba, qo‘lamma, otti, gram, bal, sabir, naqil, aqil, tuzik, turmish, demakratiya, soatsos, iptidoiy, fanema, o‘qishta, pospon, qurp, kosip, ko‘plap, yuzlap, darax, fudbol, farzan, ixtisochochi.

Nima uchun soʻzlarning yozilishi va talaffuzi doim ham bir-biriga mos kelavermaydi?

Unli tovushlar talaffuzi

76-mashq. Berilgan soʻzlarda **i** unlisining qisqa, choʻziq, ingichka, yoʻgon talaffuz qilinishini aniqlang va soʻzlarni shunga muvofiq oʻqing.

Bir, sir, kir, shim, tish, kisht, mis, igna, ilon, ishchi, qir, oʻgʻir, gʻisht, taxir, bilan, biroq, sira, tilak, gilam, yiroq, tirik, homiy, moziy, siymo, dohiy, bino, ilohiy, samoviy, kiy, chiy, ming, jiring, biyron.

77-mashq. **i** unlisining asl oʻzbekcha va rus, ingliz tilidan oʻzlashgan soʻzlardagi talaffuzini qiyoslang. Soʻzlarni orfoepik meʼyorga muvofiq talaffuz qiling.

Bizni – biznes, birga – birja, bilet – bilim, vino – viqor, gilam – gilza, dizel – jiz-biz, direktor – dirillamoq, dirijor – diring, jirafa – jirillamoq, kino – kinna, kislorod – kisirlamoq, limon – lim-lim, minus – mingʻaymoq, miting – mitti, mif – mix.

78-mashq. Quyidagi soʻzlarga III shaxs egalik qoʻshimchasi va sifat hamda taxallus yasovchi **-iy** qoʻshimchasini qoʻshib yozing va talaffuz qiling. Bu soʻzlarning talaffuzini qiyoslang.

Namuna: *ijodi – ijodiy, lutfi – Lutfiy.*

Kamol, shimol, ilm, ijod, zavq, nazar, nasl, lutf, nasr, nutq, fayz, faxr, xulq, gʻarb, sharq, qiyos, qonun.

79-mashq. **iyi** va **uyu** birikmalarining talaffuziga eʼtibor berib, soʻzlarni oʻqing. Qatorlarni davom ettiring.

Qiyin, kiyik, qiyiq, betiyiq ...

Buyur, suyuk, quyuq, kuyuk, suyuq ...

80-mashq. Soʻzlarni oʻqing. Ikkinchi boʻgʻindagi **i** unlisining talaffuzini tushuntiring.

Qoʻshiq, oʻrik, toʻkin, boʻlim, soʻlim, boʻgʻiq, soʻniq, oʻyin, boʻyin; burish, bukish, oʻqish, squish, uqish.

81-mashq. Soʻzlarni oʻqing. Ikkinchi boʻgʻindagi **u** unlisining talaffuzini tushuntiring. Shunday soʻzlar qatorini davom ettiring.

Turmush, turgʻun, udum, unum, tuzum, burun, quruq, uchqur, uyqu, tuzuk, urush, ...

82-mashq. Shevangizda *a* tovushi bilan aytiladigan, biroq adabiy tilda *o* bilan talaffuz etiladigan 20 ta soʻz topib, ularning shevadagi va adabiy tildagi talaffuzini yonma-yon yozing.

Namuna:

Shevada	Adabiy tilda
<i>samon</i>	<i>somon</i>
<i>tavuuq</i>	<i>tovuq</i>

83-mashq. Quyida soʻzlarning shevadagi talaffuzi berilgan. Ularning adabiy tilda qanday talaffuz qilinishini ayting.

Kotta, oka, boxor, shomol, Rovshan, rovon, komol, hovo, jovob, bohodir, shoptoli, tomom, karom, novbachchi.

84-mashq. Soʻzlarni talaffuz meʼyoriga rioya qilib oʻqing. **a** va **e** unlilarining tutuq belgisudan oldin va tutuq belgisiz holatda qanday talaffuz qilinishini tushuntiring.

Sheʼr – sher, saʼva – sava, maʼno – mana, meʼmor – mehmon, taʼzim – tazkira, feʼl – felyeton, neʼmat – nega, baʼzi – bazzoz, vaʼda – vafo, taʼna – tana, eʼlon – eshik.

Undosh tovushlar talaffuzi

85-mashq. Oʻqing. **b, d, z, j (dj), j, gʻ, g, v (lab-tish)** undoshlarini adabiy talaffuz meʼyoriga muvofiq jarangli yoki jarangsiz talaffuz qiling. Oʻzingiz ham shunday misollar topib ayting.

Bola, kitob, kitobcha, ibtidoiy, mablagʻ, arbob, asbob, isbot, musbat, sharob; dono, madad, obod, isteʼdod, mard, gard, kod, ozod, barbod, murod, ijodkor, bun-yodkor; zamon, mayiz, tuzsiz, izsiz, Boʻzsuv, tuzuk, piyoz, xoʻroz, bayoz; jiyron, gijing, tarjima, ganj, ijtimoiy, ijro, boj, xiroj, ehtiyoj, falaj, joʻxori, gʻij-gʻij, jarroh, majburiyat ajdar, jiyda,

jo‘namoq, majlis; jurnal, jirafa, garaj, trikotaj, projektor, montaj, jenshen; g‘azab, bog‘cha, g‘am, g‘oz, zog‘cha, tig‘, sog‘, yog‘, yog‘siz, yog‘li, yog‘du, zamburug‘; gilam, tugun, barg, pirog, tvorog, xirurg, magnit, kurtak, kurtagi, pedagog, biolog; vagon, vint, avtomobil, avtobus, Shokirov, negativ, aktiv.

86-mashq. Berilgan so‘zlarda **q** undoshi qanday talaffuz qilinishini tushuntiring.

Taqsim, taqdim, maqtov, siqtamoq, maqsad, taqlid, taqdir, naqd, boqdi, niqta-moq, vaqt, to‘qson, nuqta, yuvuqsiz, oqshom, iqtsodiy.

87-mashq. Berilgan so‘zlardagi tushirib qoldirilgan harflarni qo‘yib ko‘chiring. Bu so‘zlarning talaffuzi va imlosidagi farqni tushuntiring.

Do‘s..., balan..., farzan..., Samarqan..., Toshken..., gish..., kasalman..., durus..., mas..., karax..., do‘s...lik, sus..., go‘sh..., ros..., qas..., bahraman..., xursan..., hunarman..., pas...qam, po‘s..., qan..., donishman..., otashparas..., pisan..., Vobken...

88-mashq. So‘z oxirida kelgan lab-lab **v** hamda lab-tish **v** tovushlarining talaffuzi haqida xulosa chiqaring.

Ov, nav, qirov, bedov, darrov, birov, so‘rov, shov, yayov, aktiv, lokomotiv, mo-tiv, kreativ, massiv, Aliyev, reaktiv, operativ.

89-mashq Berilgan so‘zlarning talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Gramm, kilogramm, kristall, ball, metall, xlorofill, trolleybus, million, kross, krossvord, intellekt, immunitet.

90-mashq. So‘zlarni o‘qing. **b, m** tovushlaridan oldin kelgan **n** tovushining qan-day talaffuz qilinishini tushuntiring.

Manba, qo‘llanma, sunbula, seshanba, tanbeh, tanbur, yonbag‘ir, yonbosh, ish-danmi, qorinbog‘, yollanma, ko‘rinmas, urinma, yonmayon, ishlanma.

Asos va qo‘shimchalar talaffuzi

91-mashq. Berilgan gaplaragi qaratqich va tushum kelishigi shakllarini adabiy talaffuz me‘yoriga muvofiq tarzda tuzatib o‘qing.

Oshshi yedik. Sizni tanimay turibman. Karimni otasi keldi. Bizni ayvon sizni ayvon emasmi. (*Qo‘shiqdan*) Boshshi qotirma. Kitoppi narxini ayting. Yerni sho‘rini qochirdik. Anorri po‘sti qalin ekan. Otti egarlang. Qizzi roziligini olish kerak. Kampirri mazasi yo‘q.

92-mashq. O‘tgan zamon qo‘shimchasi **-di**, o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi **-da**, chiqish kelishigi qo‘shimchasi **-dan** qo‘shilgan quyidgi so‘zlarni talaffuziga ko‘ra ikki guruhga ajrating. Bu qo‘shimchalarning jarangli va jarangsiz undoshdan keyin qanday talaffuz qilinishi hamda imlosini tushuntiring.

Chizdi, kesdi, keldi, qaytdi, topdi, urdi, qo‘ndi, sochdi, yarashdi, sindirdi, o‘sdi, otdi, quvdi; maktabda, uyda, kuzda, tog‘da, toshda, dashtda, otda, oshda, ishda, gulda, qirg‘oqda, dengizda, qirda, pastda, qopda, tokda, yozda, terakda, sayrgohda, balandda, guruhda; tildan, yozdan, misdan, ishdan, guldan, anjirdan, qishloqdan, dashtdan, yodan, sochdan, garajdan, xoirijdan, terakdan, kanopdan, kimxobdan, maktabdan.

93-mashq. Matndan **-ibdi** qo‘shimchasini olgan fe’llarni ajratib, imloviy shakli va talaffuzini yonma-yon yozing. **-ibdi** qo‘shimchasining talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Namuna: *yozibdi – yozipti*

– Tokni qanday parvarish qilish to‘g‘risida bir dongdor sohibkor kitob yozibdi, – dedi tog‘asi. – O‘sha sohibkor o‘zining oltmish yillik tajribasini shu kitobda bir-bir bayon qilibdi.

Tog‘asi o‘sha kitobni o‘qibdi. Keyin kitobdan o‘rganganini ishga solibdi. Natija-da so‘ridagi uzumlarni yetishtiribdi. (*N. Maqsudiy*)

94-mashq. Quyida berilgan otlarga **-ga**, fe’llarga esa **-gan yoki -gach, -guncha, -gani, -gin** qo‘shib talaffuz qiling. Bu qo‘shimchalarning talaffuzi va imlosini tushuntiring.

1) ish, ot, qop, qosh, mis, dard, eshik, terak, mushuk, kitob, botmoq, kesmoq, topmoq, ochmoq, tikmoq, to‘kmoq, ekmoq, birikmoq;

2) qir, yoz, nihol, ko‘z, garaj, tom, ong, qolmoq, bormoq, yuvmoq, uzmoq, ishonmoq, chizmoq, tiymoq, o‘ymoq, yengmoq;

3) pichoq, qarmoq, o‘roq, taroq, qo‘shiq, siqmoq, chiqmoq, chiniqmoq, tiqmoq, oqmoq;

4) barg, pedagog, biolog, katalog, pirog, tegmoq, egmoq, tugmoq;

5) bug‘, tog‘, chog‘, saryog‘, sig‘moq, og‘moq, sog‘moq, yig‘moq.

95-mashq. Sheva talaffuzida berilgan quyidagi fe’llarning adabiy talaffuzga xos shaklini yonma-yon yozing va talaffuz qiling.

Namuna: *taqqiladi – taqilladi.*

Taqqiladi, guvviladi, tiqqiladi, chiqqiladi, chirriladi, sharriladi, gur-riladi, qarssiladi, g‘izzilab, tarriladi, vaqqiladi, pirrilab, biqqilab, yalt-tilab.

Boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlar talaffuzi

96-mashq. So‘z oxirida qator undoshlar kelgan o‘zlashma so‘zlarni o‘qing. Ularning talaffuzini tushuntiring.

1. Qadr, sabr, fikr, aql, naql, kibr, shukr, zikr, ilm, zulm, qatl, satr, makr, sehr, mehr, qahr, hilm, fasl, vasl, asl, nasl, hukm, muhr, umr, bahr, uzr, nazr, jabr, jahl.

2. G‘arb, sharq, g‘arq, farq, ishq, mashq, zirk, rashk, mushk, tarz, zarb, harb, tark, farz, qarz.

97-mashq. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”dan quyidagi so‘zlarning orfografik shaklini aniqlab, talaffuzi va yozilishini yonma-yon yozing. So‘zlarning urg‘usini to‘g‘ri qo‘yib talaffuz qiling.

Fanar, kanki, pamidor, prajektir, kristal, kamissiya, fanema, senariy, kansert, aglutinatif, abaniment, karparatsiya, miliyon, syujet, atmosfer, ayraport, bal, baskidbol, baseyn, biton, biyolog, batanika, vazilin, varyant, geometriya, glabal, gram, gramatika, grip, demakratiya, diktan, dramaturk, donir, janir, jempir, jiton, igrik, imunitet, intanatsiya, katalik, kinatiatr, kilagram, kilometr, kislata, kalibri, kalleksiya, kakos, kambayn, kamediya, kanspek, kameta, kamissiya, kamersant, kompis, kamyuter, kantekest, kanfet, kansert, kaperatif, kardinat, karidor,

kasmetika, kasmanaft, kastum, katangens, katlet, kayfisent, kristal, kros, krasvort, kseriks, labaratoriya, lagarifm, lagaped, lakamatif, me-
bil, metal, tranvay, sinanimiya.

98-mashq. Og‘zaki nutqda fonetik o‘zgarishga uchragan ruscha-baynalmilal so‘zlarning adabiy tildagi talaffuzini ayting.

Moshin, semon, istansa, ishkof, ustal, tilpo‘n, milisa, duxtur, kartishka, kamisa, valasapit, po‘rma, pabrika, peleton, pichina, sallot, mort, moy, afto‘l, shopir, akmalatir, fanor, urus, salafan, tanka, banka, ustudent, pamadur, turba, taraktur, serkul, pasport, kvitansa, turomvoy, tilvizor, salpetka, seko‘n, istakon, istadion, gazit, kalbosa, karis, kalidor, girbishin, kurot, midol, shipiris, manto‘r, matasekl, mato‘r, multpilm, naso‘s, kopta, pilta, naptalin, no‘l, olimpiyoda, paravuz, pensa, pensilin, klyonka, pilus, pachebnik, paleklenika, po‘chta, purjina, rezin, refarat, semnar, saldo‘r, ishtaraf, iskalot, galastuk, kilyonka.

99-mashq. o unlisining urg‘usiz bo‘g‘inda i va a tovushiga moyilroq aytilishiga amal qilib quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling.

Kompozitor, rektor, prorektor, kosmonavt, kompyuter, kontrakt, laborant, ensik-lopediya, kislota, traktor, repetitor, koridor, monitor, geometriya, geografiya, biologiya, samolyot, vertolyot, konduktor, yumor, epopeya, komediya, demokratiya, sonet, metonimiya, roman, poema, portret, personaj, pafos, sotsiologiya, fanema, fanetika, vakalizm, konsonantizm, diktator, morfologiya, morfema, gidrostansiya, gipotenuza, velosiped, voleybol, gemoglobin, gorizont, gorilla, gormon.

LEKSIKOLOGIYA

Soʻz va uning maʼnosi

100-mashq. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning matndagi lugʻaviy va grammatik maʼnosini izohlang.

Namuna: *Sumalaklar* – lugʻaviy maʼnosi: *qorning erib oqib qayta muzlashi natijasida hosil boʻlgan naysimon muz; grammatik maʼnosi: turdosh ot, bosh kelishikda, koʻplik maʼnosini ifodalagan, gapdagi vazifasi ega.*

1. Qoʻyning sutidan qilingan bu **ayron** achchiq emas. Taʼmi juda boshqacha. (*P. Qodirov*) 2. Boʻgotda sap-sariq boʻlib osilib turgan **sumalaklar** quyosh shuʼlasiga chidayolmay, yosh toʻkmoqda. (*M. Alaviya*) 3. Bu yerda nodir oʻsimliklarni, chuqur daralarni, sirli gʻorlarni, **kamyob** parrandalarni, zangori yaylovlarni uchratamiz. (*A. Aminov*) 4. Choʻlga oʻrgangan **asov** qoʻy ogʻilni buzguday tipirchilaydi. (*S. Ahmad*) 5. Oybolta, qoʻlarra, tesha bilan daraxtlarning qiyshiq oʻsgan shoxlarini **kallaklaydilar**. (*M. Ismoiliy*)

6. Ogʻrimay desang,
Chay meva yesang. (*P. Moʻmin*)

Savollar:

1. Soʻz nima? Uning qanday muhim belgilari bor?
2. Leksikologiyada soʻz qaysi jihatdan oʻrganiladi?
3. Soʻzning lugʻaviy va grammatik maʼnosi deganda nimani tushunasiz?

101-mashq. Berilgan soʻzlarning lugʻaviy maʼnosini izohlang. (Buning uchun F. Safarov, S. Safarovning “Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun izohli lugʻati” (Toshkent, “Fan”, 2012) dan foydalaning.) Ajratib koʻrsatilgan soʻzlar ishtirokida gap tuzing.

Abjir, **asov**, alloma, anjuman, **asqatmoq**, ansambl, armugʻon, arzanda, ayamajiz, ayron, agʻanamoq, ashyo, **bargak**, battol, bazm, **bejirim**, billur, beqasam, beysbol, **biyday**, burkanmoq, bodramoq, boʻz, bodroq, boldoq, buta, boʻyra, **boqiy**, bujur, dizayn, doroyi, dumbul, egat, yengil, ermak, gajak, **gerbariy**, garmsel, gijinglamoq, guvala, guvranmoq, hammol, harir, **hovur**, hoshiya, chuvrindi, **chirmashmoq**, chilpimoq, chandimoq, oʻmrov, xazonchinak, ufq, uzangi, ufurmoq, **tushov**, tivit, tolqon, tarnov, targʻil, sopol, sovliq.

102-mashq. Quyidagi lug‘aviy birliklarni leksema va nutqiy yasama so‘zlarga ajrating. Bunda lug‘aviy birlikning tayyorligi yoki nutqda hosil bo‘lishiga asoslanib ish ko‘ring.

Shaftoli, dengiz, mavj, shaftolizor, kater, kosa, kulba, kumush, kurk, donolik, mayiz, ishsiz, kompyuterchi, radiosoz, ko‘katfurus, o‘simlikshunos, anorzor, taroq, irodasiz, noilmiy, nodurust, betashvish, loqayd, toshbaqa, bodomqovoq, kislotali, tuzli, ma’noli, tinch, ishchi, to‘g‘ram, o‘rim, yig‘indi, tartibli, uzumzor, terakzor, nevarali, evarali, chevarali, navbatsiz, arzonchilik, qishloqchilik, najotsiz, bo‘zfulush, nosfulush, sochma, ko‘chma, istiqlol, izg‘imoq, tush, bekat, zimdan, maslahatchi, baliqshunos, baliq, toshkentlik.

Savollar:

1. Leksema nima?
2. Leksemaning nutqiy yasama so‘zdan farqi nimada?
3. Nima uchun izohli lug‘atda faqat leksemalar izohlanishi kerak?
4. Leksemaning shakl tomoni qanday ataladi?
5. Leksemaning mazmun tomoni qanday ataladi?

103-mashq. Berilgan misollardagi nutqiy lug‘aviy ma’nolar asosida **o‘tmoq, ko‘z, katta** leksemalarining sememasini tavsiflang.

1. Qo‘shin daryodan o‘tdi. Ip ignaning teshigidan o‘tdi. Poyezd tuneldan o‘tdi. 2. Marraga yaqinlashganda, barcha poygachilardan o‘tib, marra chizig‘ini birinchi bo‘lib kesib o‘tdi. Goh afandi eshakdan, goh eshak afandidan o‘tib, uyga yetdilar. (*“Latifalar”dan*) 3. Bu xabarni eshitkuchi Kumushbibining qora ko‘zlari jiq yoshga to‘lib, kipriklari yosh bilan belandilar. (A. *Qodiriy*) Maston unga e’tibor qilmay, otning tumshug‘idan ko‘tarib, uning ochiq qolgan ko‘zlariga qaradi. (A. *Qahhor*) 4. Yog‘ochning ko‘zi kattagina ekan. Buloqning ko‘zi ochildi. Xurjunning ikki ko‘zini to‘ldirib olma solib oldik. 5. Biram katta dalaki, u yog‘ini ko‘rib bo‘lmaydi. (Sh. *Sa’dulla*) O‘roz qayerdandir katta tarvuz keltirib, o‘rtaga qo‘ydi. (*Oybek*) 6. Toshkentga butun mamlakatdan katta geolog olimlar kelishgan. (S. *Karomatov*) Abdurahmonning amakilari Buxoroda katta mudarrislardan sanalar edilar. (A. *Qodiriy*)

Savollar:

1. Semema nima?
2. Semema va nutqiy lug‘aviy ma’noning munosabatini izohlang.

104-mashq. Quyidagi jadvalda **istak, orzu, havas, hafsala, ishtiyoq, armon** ma'nodosh leksemalarining sememasiga daxldor semalar berilgan. Daxldor semaning tog'risiga uni shu leksema ifodalasa +, ifodalamasa – belgisini qo'ying. Shu asosda bu leksemalar sememasidagi o'xshash va farqli jihatlarni izohlang.

Sema Leksema	Biror narsaga erishishga intilish	Muhim narsaga intilish	Qiziqish	Kuchli intilish	Biror ish, yumushga nisbatan	Ushalmagan
istak orzu havas armon hafsula ishtiyoq						

105-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning atash (denotativ) va qo'shimcha (konnotativ) ma'nolarini tushuntiring.

1. Chorshanbi – zo'r yigit, ishni **do'ndiradi**. (*M. M. Do'st*) 2. Qiz Umidga qarab **jilmaydi**. (*Mirmuhsin*) 3. Oldimizdan bir **ketvorgan** qiz o'tib ketdi. 4. O'rtaqta **qil-tiriq** bir bola chiqadi va havoda chir aylanib, dumbaloq oshib sakrab hammaga ta'zim qiladi. (*T. Obidov*) 5. Bir payt toshbaqa kosaning narigi yog'idan boshini chi-qarib, uyqusiraganicha **vaysab berdi**. (*A. Obidjon*) 6. Ingliz ukki ko'z, karnay burun, kampir dahan, qiltiriq bo'yin, **naynov** edi. (*Oybek*)

7. Sahrolar gul ochar senda,

Samolar nur sochar senda. (*M. Mirzo*)

8. **Og'ushlari** xilvatlarga tayyordir ma'vo,

So'lim, salqin soyasida kiyiklar uxlar. (*O. Rajab*)

9. Bog'lar **sokin** mizg'ishar

Misoli oq kapalak. (*Q. Hikmat*)

10. Bir yoqda jo'jalarim,

Jajji xo'rozchalarim.

Qichqirar qanot qoqib,

O‘stiraman men boqib. (*Q. Muhammadiy*)

11. **Ko‘klamingdan olib sururni**

Dong taratdi ustoz Olimjon.

G‘afur G‘ulom tuygan g‘ururni

Qilmoq mumkin olamga doston. (*A. Oripov*)

12. – Aytmabmidim, – dedi ota, –

Gap uqmading, **tirrancha**,

El-u yurtning o‘rtasida

Bo‘ldik rosa bo‘lgancha. (*A. Oripov*)

106-mashq. Matnlarni o‘qing. Bir ma’noli so‘zlarni aniqlab, qaysi sohaga oidligini aniqlang.

1. Lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko‘rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi – leksema. Lisoniy birlik sifatidagi leksema biri ikkinchisiz mav-jud bo‘la olmaydigan ikkita psixofizik tomon – akustik struktura (tovush qobig‘i), ya’ni nomema hamda ma’lum bir tushuncha asosida vujudga kelgan mazmuniy struktura, ya’ni sememaning birligidan iborat.

Lisoniy birlik sifatidagi leksemaning tovush strukturasi fonetik birlik ko‘rinish (variant)larining turlicha kombinatsiyalari asosida vujudga kelgan. O‘zbek tilida mavjud barcha leksemaning shakliy tomoni tilimizda mavjud 29 ta fonema asosida, xolos. Shu boisdan tashqi fonetik strukturasi asosida leksemalarni kuchli va kuchsiz ziddiyatga qo‘yish mumkin. Kuchli oppozitsiya bittadan (*u* - olmosh, *e* - undov), ikkitadan (*ot* - ish), uchtdan (*bor* - kel), to‘rttdan (*qunt-band*) fonema variantining zidlanishi asosida hosil bo‘lgan bo‘lsa, kuchsiz ziddiyat, leksemaning tarkibidagi ayrim fonema variantlari asosida bo‘ladi (*tub-tup*, *bob-bop*).

Har bir leksema lisoniy birlik sifatida mazmun mundarijasiga ham ega. Leksemaning mazmun mundarijasi denotat yoki referent deb ataladigan borliqdagi narsa, harakat, belgi, miqdor kabini ifodalaydigan tushunchalarni anglatadi. Masalan, borliqda [*yuz*] deb ataluvchi kishi burni ikki tomonining peshonadan iyakkacha bo‘lgan qismi mavjud. Shu asosda kishi ongida “yuz” tushunchasi vujudga kelgan. Mazkur tushuncha asosida esa semema (leksema ma’nosi) shakllanadi.

2. Bu zangori okean, ya’ni Yerning havo qobig‘ini olimlar atmosfera deb atashadi. U hech qachon tinch turmaydi. Quyosh nuridan qizigan

havo yengillashadi va Yer sirtidan yuqoriga ko‘tariladi, uning o‘rnini esa sovuq havo egallaydi. Havoning Yer sirti ustidagi harakati shamol deb ataladi. Atmosferada doimiy havo oqimlari ham bor. Masalan, pas-sat shamollari har doim bir yo‘nalishda – ekvator bo‘ylab esadi.

Inson uchun atmosferaning pastki qatlami – troposfera ayniqsa muhim. U Yer sirtidan boshlanib, to 8 – 17 kilometr balandlikkacha davom etadi. Bulutlar, momaqaldiroq, jala, qor shu yerda yuzaga ke-ladi. (*“Bolalar ensiklopediyasi” dan*)

Bir ma’noli so‘zlar asosan qaysi uslubda qo‘llanadi?

107-mashq. Yo‘l, so‘z, kichik, aylanmoq, ezmoq so‘zlarining ma’nolarini kontekst asosida aniqlang.

I. 1. Atrof biyday dala. Bir vaqt yo‘lning chap tomonida qandaydir sharpa sezganday bo‘ldim. (*P. Qodirov*) 2. Bundan buyon mototsikl yo‘lingizni yaqin qiladi. (*S. Anorboyev*) 3. Odamda nafas organlari havo o‘tkazuvchi yo‘llar (burun bo‘shlig‘i, hiqildoq, kekirdak va bronx-lar) hamda o‘pkadan iborat. (*“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” dan*) 4. Haq yo‘li albatta bir o‘tilgusi. (*Cho‘lpon*) 5. Buxoro – Samarqand beqasami arqoq ipi yo‘g‘on, mujassamoti markazi oddiy bir me’yorda takrorlanuvchi aniq keng (pushti, sariq, zangori yoki pushti, binafsha, sariq tusli) yo‘llardan, qirg‘og‘i esa hoshiya yo‘llardan iborat. (*“O‘zbekiston milliy ensiklope-diyasi” dan*) 6. Masalani yechishning ikki yo‘li bor.

II. 1. Mustaqil so‘zlar fonetik va semantik butunligi bilan boshqa til hodisalaridan aniq ajralib turadi. (*“O‘zbek tili leksigologiyasi” kitobi-dan*) 2. So‘z boshlaydi chol titrab, Halqumiga kelib jon. (*A. Oripov*) 3. Do‘st so‘zini tashlama, Tashlab boshing qashlama. (*Maqol*) 4. Yigit so‘zi bir bo‘lur. (*Maqol*) 5. Yusufjon qiziq so‘zga chechan odam bo‘l-gan. 6. El bor yerda so‘z bor. (*Maqol*)

III. 1. Gohida kichik, hidli handalakchalar olib kelardi. (*Sh. Sa’dulla*) 2. Bolalardan kichikroqlari chopqillashib, Saodatxondan o‘zib ketishdi. (*S. Zunnunova*) 3. Men o‘n yil davomoda shu idorada kichik bir lavozimda ishladim. (*“Guldasta” dan*) 4. Har bir oilada kichik janjallar bo‘lib turadi.

IV. 1. Yer Quyosh atrofida aylanadi. 2. G‘ulomjon shahar aylangani ketdi. (*M. Ismoilijon*) 3. Yozda harorat nol darajadan yuqori ko‘tarilganda

muzlik ustidagi qor eriydi. Qor asta-sekin firnga – alohida erigan muz donachalariga aylanadi. (*“Bolalar ensiklopediyasi” dan*) 4. Yurtimizda Navro‘z kuni sumalak pishirish an’anaga aylangan.

V. Ishlar bitsin, xotin!

Yangi qavigan ko‘rpangda oyoqni cho‘zi-i-b,

Ko‘k choyni suzi-i-b,

Maza qilib yotaman...

Haydarqul

Muzday suvda qoq nonni ezib,

Ezib – kafti bilan tirish peshonasini

Qirq yilki, har kuni shu gapni

Ezilgan xotiniga aytadi, ezib-ezib. (*T. Jo‘ra*)

Savollar:

1. Til lug‘at tarkibidagi so‘zlarga bir ma’ nolilik ko‘proq xosmi, ko‘pma’ nolilikmi?

2. Nima sababli so‘zlar birdan ortiq ma’no kasb etadi?

3. So‘zdagi ko‘pma’ nolilik qanday usullar bilan hosil bo‘ladi?

4. Ko‘p ma’noli so‘zning omonim so‘zdan farqi nimada?

So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosi. Ma’no ko‘chish yo‘llari

108-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nosini izohlang.

1. Ona diyorumizga **oltin** kuz o‘zining barakali sepini yoydi. (*“Saxovatli fasl” matnidan*)

2. Insonlarni **zulmatdan nurga** chqarish uchun Olloh payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga ushbu Qur’anni nozil qildi.

3. Uyguga kirgan daraxtlar yana yashil **to‘n** kiydi, oq, sariq, ko‘k, qizil rangli **harir** yopinchiqlar bilan bezandi. (*Yusuf Xos Hojib*)

4. Men Baroq mushugimni yaxshi ko‘raman. Uning chiroyli, uzun, qalin va **momiq** yunglari bor. (*H. Nazir*)

5. Olam kiysin oq **libos**,

Oq libosi qanday soz. (*Shuhrat*)

6. Yorib chiqdim tuxumni,

Shunday shovvoz jo‘jaman.

Tanib oldim buvimni

Ko‘zi **charos** jo‘jaman. (*A. Obidjon*)

Savollar:

1. Soʻzning oʻz maʼnosi deganda nima tushuniladi?
2. Koʻchma maʼno deganda nimani tushunasiz?
3. Soʻz nima uchun koʻchma maʼnoda qoʻllanadi?

109-mashq. Gaplarni oʻqing. Maʼnosi metafora usuli bilan koʻchgan soʻzlarni aniqlab, qanday maʼno ifodalayotganini tushuntiring.

1. Ilm sahroda – doʻst, hayot chorrahalarida – tayanch, yolgʻiz damlarda – yoʻldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qaygʻuli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zeb-ziynat deganlar. (*Hoji Abdurazzoq Yusuf*) 2. Shoh qilib qoʻygan ishidan pushaymonligini soʻzlab, bu jarohat oʻlgunicha koʻksidan ketmasligini ayt-di. („*Lochinning oʻlimi*“ ertagidan) 3. Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod. (*A. Oripov*) 4. Shu toʻgʻon filday uzala tushdi-yu oʻjar daryoni xippa boʻgʻdi. (*H. Nazir*) 5. Balli, boʻtam, umringdan baraka top, – deb duo qildi. („*Dehqon-bobo*“ ertagidan) 6. Quturgan dushman askarlarining suroni quloqlarni qomatga keltiradi. (*M. Osim*)

7. Ulugʻ xalq qudrati joʻsh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor. (*A. Oripov*)
8. Mir Alisher naʼrasiga
Aks sado berdi jahon,
Sheʼriyat mulkida boʻldi
Shoh-u sulton oʻzbehim. (*E. Vohidov*)
9. Kelajagi buyuk Vatanning
Vorislari – biz oʻgʻil-qizlar. (*H. Imomberdiev*)
10. Marddek tursin maydonda
Yuragida qoʻr boʻlsin. (*M. Aʼzam*)
11. Aziz ota-onamizning qalqonimiz,
Buyuk xalqim, suyuq xalqim, bizga ishon. (*A. Obidjon*)
12. Har faslning oʻz xislati bor,
Har faslning oʻz fazilati.
Kumush qishdan, zumrad bahordan
Qolishmaydi kuzning ziynati. (*P. Moʻmin*)
13. Goh choʻqiyman dumbuldan,
Kamchilik yoʻq ul-buldan.

Qolishmayman bulbuldan,
Shirin ovoz jo‘jaman. (A. Obidjon)

Savollar:

1. Metafora nima?
2. Metafora usulida narsa va hodisalar orasidagi qanday o‘xshashliklar asosida ma’no ko‘chiriladi?
3. Metafora va o‘xshatishning farqi nimada?

110-mashq. Berilgan so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nodagi qo‘llab gap tuzing.

Dum, kalit, cho‘qqi, urug‘, asal, meva, yo‘l, oltin; shirin, asov, mayin, achchiq, qalin; qaynamoq, gapirtirmoq, andavalamoq, achitmoq, gullamoq, botmoq, belamoq, burkanmoq.

111-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosi qaysi usulda ko‘chganini aniqlang. So‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nosini tushuntiring.

1. Sidiqjon **choyni** kutmay, ishga ketdi. (A. Qahhor) 2. **Dasturxonga** qarang, mehmon. 3. **Qishloq** uyquda edi. 4. **Zal** gurullab kulib yubordi. 5. **Qodiriyni** qayta-qayta o‘qiyman. 6. Besh **qo‘l** barobar emas. 7. Ha, aytganday, kimdir **telefon qilib**, sizni so‘ragan edi. (A. Qahhor) 8. Tanchaning **olovini** oching, taqsir, badanimda qaltiroq turdi. (H. G‘ulom) 9. Hammasi sizning tegishingiz, hech kimga qaramang. Baliqni **oling**. (A. Qahhor) 10. Bugungi **savdo** yuz mingga yetdi. 11. Nodir **olmosni** olib, oynani kesa boshladi. 13. **Chiy** tutilgan ko‘chma yaslida qarqunoq bolalarining qig‘qig‘lashiga o‘xshab chaqaloqlar yig‘isi eshitilmoqda. (H. Nazir) 13. O‘choqda **tezak** miltillab yonar, qora chovgum biqir-biqir qaynardi. (S. Anorboyev) 14. Samolyotning kichkinagina zinapoyasiga bir oyog‘imni qo‘yib, eshigidan ushlagan edim, qo‘llarim **temirga** chip etib yopishib qolsa bo‘ladimi! (N. Fozilov) 15. **Matematikani** chqaringlar, – dedi o‘qituvchi. 16. **Tepadan** oftob urib turibdi. (S. Ahmad) 15. Tanasi ikki katta quloqchga sig‘maydigan bir tup sada tevarakka tangaday **oftob** tushirmaydi. (Oybek) 16. Ayam meni bundaqa **oftobda** jizg‘inak bo‘lish uchun tug‘gan emas. (Oybek) 17. Ertalab **oshda** ko‘rinmadingiz? 18. Mansur hamon indamas, **ko‘zlarini** bir nuqtadan uzmas edi. (O‘. Hoshimov) 19. Salim akaning **ko‘zi** xiralashib

qolgan, shuning uchun kitobni ko‘zoynaksiz o‘qiy olmaydi. 20. Nizomiddinovning **qulog‘i** o‘tkir edi. Tevarak-atrofnı butun vujudini quloq qilib eshitar edi. (*N. Safarov*)

112-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning zohiriy va ramziy-botiniy ma‘nolarini tushuntiring. So‘zlarning ramziy-botiniy ma‘nolari asosida she‘riy misralarning ma‘nosini izohlang. Buning uchun Alıbek Rustamovning “So‘z xususida so‘z” (Toshkent, “Yosh gvardiya” 1987, 39 – 49- betlar) va R. Vohidov, H. Ne‘matov, M. Mahmudovning “So‘z bag‘ridagi ma‘rifat” (Toshkent, “Yozuvchi”, 2001) kitobidan foydalaning.

Zohid, sanga hur, manga **jonona** kerak,
Jannat sanga bo‘lsun, manga **mayxona** kerak.
Mayxona aro **soqiy-u paymona** kerak,
Paymona necha bo‘lsa to‘la, yona kerak. (*Alisher Navoiy*)
Yorsiz ham **bodasiz** Makkaga bormoq ne kerak?
Ibrohimdan qolgan ul eski do‘konni na qilay? (*Mashrab*)
Jannatda ham hur-u ham may bo‘larmish,
Hammasi mo‘l-ko‘l-u mo‘may bo‘larmish.
Biz **may-u ma‘shuqni** sevsak arziydi,
Chunki oqibat ham shunday bo‘larmish. (*Umar Xayyom*)

113-mashq. She‘rni o‘qing. She‘rdagi *tulki*, *bo‘ri*, *sher* so‘zlarining qanday ma‘no ifodalayotganini tushuntiring.

Tulki falsafasi

– Ustoz, – dedi bir kun tulki tulkiga,
Nechun biz nishonmiz doim kulkiga?
O‘rmonda bo‘ri ham, hatto janob sher,
Bir-birin turtishib: Tulkisan-a, der!
Boshqalar ustidan kulmaslar nechun,
Bu hol qorong‘udir biz yoshlar uchun.
– Uka, – dedi shunda tulkiga tulki,
Bunday hodisaning sababi shulki,
Kasbini eplolmay qolsa aksari,
Tulkilik qiladi hayvonlar bari.
Ko‘pincha ilojsiz qolgan fursatda
Tulkilik qiladi sher ham, albatta!
Lekin bizning ishni eplolmas ular,

Shu sabab o‘rmonda masxara bo‘lar.
Sen-chi, bunday holdan aslo o‘kinma,
Boshqalar singari chetga bekinma.
Tulkisan, bunday chog‘ tulkilik qilgin,
Tulki deb kulsalar, qo‘shilib kulgin...(A. Oripov)

Tarixiylik jihatdan o‘zbek tili leksikasi

114-mashq. Berigan so‘zlarni zamonaviy, eskirgan va yangi so‘zlarga ajrating.

Suv, havo, pedagog, audit, qushbegi, mobil, ota, ona, lizing, broker, non, suv, stol, eshik, tog‘, tender, yer, shamol, radio, lizing, sayt, jallod, mirob, sayis, miqdor, dubulg‘a, samolyot, dengiz, sammit, handasa, televizor, charter, sinus, kosinus, shou, geometriya, ustuxon, emgak, menejment, triller, nanotexnologiya, gardun, moyana, qirg‘oq, fleshka, interfaol, darvesh, otaliq, onlayn, etuk, sovut, yazdon, ishlamoq, virtual, kiberterrorizm, moy, kelmoq, olmoq, mikrochip, sayt, kitob, daftar, ko‘rsatmoq, buyurmoq, transmilliy, saylamoq, shirin, modul, futbol, saxiylik, achchiq, ponsad, qizil, xaker, ko‘k, provayder, klip, katta, go‘zal, kompetensiya, hamisha, ba‘zan, ataylab, hozir, ilgari, skaner, kulgi, gul, olov, shotir, shi-g‘ovul, parvonachi, baqqol, vovurush, madaniyat, turmush.

Savollar:

1. O‘zbek tili leksikasi tarixiylik nuqtayi nazaridan necha guruhga bo‘linadi?
2. Zamonaviy so‘zlar deganda nimani tushunasiz?
3. Eskirgan so‘zlar deb nimaga aytiladi?
4. Yangi so‘zlar deganda qanday so‘zlarni tushunasiz?
5. Nima uchun *samolyot, kompyuter, vagon, apelsin* kabi so‘zlar yangi so‘z hisoblanmaydi?

115-mashq. Berilgan so‘zlarni tarixiy va arxaik so‘zlarga ajratib yozing.

Sulton, qul, shatranj, cho‘ri, jumhuriyat, handasa, kanizak, darvesh, g‘ulom, sarf, nahv, xoqon, konkret, tilmoch, zapas, amin, amir, otaliq, bek, devonbegi, mirshab, noib, dorulfunun, parvonachi, ponsad, udaychi, shig‘ovul, qushbegi, jallod, mirob, sayis, bazzoz, oblast, baqqol, rayon, vofurush, mulla, otin, agitatsiya, otinbuvi, rayono, obkom, mad-rasa, mudarris, sovut, ideologiya, shpion, nayza, sarboz, gurzi, yasovul,

suvoriy, dorug‘a, boda, tutmoch, kashkul, juvoz, omoch, botmon, qadoq, misqol, arshin, eshon, murid, qavs, aqrab, hamal, zakot, juz‘ya, o‘lpon, bakovul, taxt, toj, oblast, funksiya.

Tarixiy va arxaik so‘zning farqi nimada?

116-mashq. Quyida berilgan arxaik so‘zlarning hozirgi kunda qo‘llanayotgan ma‘nodoshini topib, yonma-yon yozing.

Namuna: tug‘ – bayroq.

Planeta, klassifikatsiya, internatsional, firqa, protsent, mudarris, student, redaksiya, xarakteristika, kanikul, pensiya, tekst, zarrabin, tema, temperatura, ideya, ideologiya, tilmoch, avtor, chechak, sanduvoch, og‘och, aktiv, aktual, xinzir, yalavoch, adam, ulus, ochun, jarida, tayyora, tayyoragoh, andalib, andom, tug‘, shikva, qabza, ustuxon, emgak, gardun, moyana, etuk, yazdon, yalov, yasoq, ro‘znoma, o‘ksiz, tamug‘, qarog‘, tamiz, tamg‘a, bo‘rk, surur, hayon, bitik, shtraf, ixroj, ko‘kal-dosh, dudoq.

117-mashq. Berilgan gaplardan tarixiy va arxaik so‘zlarni topib, ma‘nosini izohlang.

1. Ark suv quygandek jimjit. Podsho amaldorlari, a‘yonlar oyoq uchida yurishar, bir-birlari bilan pichirlashib gaplashardilar. (*M. Osim*)
2. Qorong‘uda qandaydir bir hayvon yerda yotib, xirillamoqda edi. Tikka oldiga borib, devkor sallohlarday bo‘g‘ziga pichoq tortib yubordim. (*G‘. G‘ulom*)
3. Alisher Jaloliddin munshiyini chaqirtirib buyurdi: – Said Ruhullo devoni oliyga besh ming dinor qaytarishi haqida hujjat tayyorlang. (*Xondamir*)
4. Sharqdan bahor nasimi esib keldi, olamni bezamoq uchun firdavs yo‘lini ochdi. (*Yusuf Xos Hojib*)
5. Jallodlar poytaxtga kelib, Huroyimning qo‘lini orqasiga bog‘lab, urib dor tomon haydab boribdilar. (*„Rustamxon“ dostonidan*)
6. O‘nlik sanoq tartibi bilan katta sonlarni jam va tark qilish, zarb hamda taqsim etish oson. (*M. Osim*)
7. Kanizaklar tangalarni terib olishdi. (*X. Sultonov*)
8. Yetti yoshga to‘lganimda Shahrisabzdagi madrasaga olib borishdi va qo‘limga so‘zlar jadvalini berishdi. (*B. Ahmedov*)
9. Uyning ikki chekkasida chordana qurib olimlar, muftiylar, yer o‘lchovchi – massohlar o‘tirishibdi. (*M. Osim*)
10. Nima-nima, nimchorak choy bir miri-ku, sen choy ichasanmi, ana, suv ariqda oqib yotibdi. (*G‘. G‘ulom*)
11. Nasim: “Xon

mirzaboshisining o‘g‘liman”, – deb havolanmasdi. (A. Qodiriy)

12. So‘ng kampir to‘rt yuz tanga olib mullalar oldiga boribdi va Huroyimni yomonlab arznoma yozdiribdi. („*Rustamxon*“ dostonidan)

13. Amir Alisher Jaloliddin munshiyini chaqirtirib buyurdi: – Said Ruhullo devoni oliyga besh ming dinor qaytarishi haqida hujjat tayyorlang. (*Xondamir*)

14. Navkarlar chaqimchini olib kelibdilar („*Botir mergan va chaqimchi*“ ertagidan)

15. Qaytib o‘sha yerga kelganida omochning tishi yana haligi narsaga urilibdi. („*Halollik*“ ertagidan)

16. Afandi ishonmay, mushugini tortib ko‘rsa, to‘rt qadoq chiqibdi. („*Latifalar*“dan)

17. Andijonning janubiy qal‘asiga tutash Xokan baland-past adirlardan iborat. (*M. Karim*)

18. Shu mamlakat podshosi qasr qurmoqchi bo‘libdi. („*Kuychi terak*“ ertagidan)

19. Samarqandda rasadxona qurdirganlar. („*Buyuk munajjim*“ matnidan)

20. Farishtalardan biri farzand ko‘rsa, riyoziyotdan, falakiyotdan saboq bermoqchi, ajnabiy tillarni o‘rgatmoqchi bo‘libdi. („*Til qudrati*“ rivoyatidan)

21. Oppoq salla, mullayoqa ko‘ylak, ustidan yengil atlas to‘n kiygan, oyoqlarida etik. (*Oybek*)

22. Yigitlar daraxt ustida, tog‘ o‘ngirlaridan turib, sopqon otib, dushman bilan jang qilmoqda edilar. (*Oydin*)

23. Sovut kiygan, ot mingan yigitlar bir qo‘llarida yoy, bir qo‘llari bilan o‘q uzardilar. (*Oybek*)

23. Birinchi saxiyga taassub qilib, u bor-budini bir boshdan ulashaveribdi. (*M. Xidir*)

24. Temurbek yig‘ilishlarda ulamolar yonidan joy olishga harakat qilar edi. (*B. Ahmedov*)

25. Buxoroning mashhur tabiblariga chopar uzatib olib kelingan dori-darmonlar unga kor qilmas edi. (*M. Osim*)

26. Abu Rayhon g‘ulomini chaqirtirdi. U xojasining daftarini keltirib berdi. (*Nizomi Aruzi Samarqandiy*)

27. Kecha sharobkashimga bergan sharobingni qaysi tokning uzumidan tayyorlagan eding? Menga to‘g‘risini aytib ber, – debdi. („*Ziyrak uch yigit*“ ertagidan)

28. O‘zbekiston bosh kenti –

Jonajonim Toshkentim. (*Y. Sulaymon*)

118-mashq. Berilgan gaplardagi neologizmlarni aniqlab, ma’nosini izohlang.

1. Virtual olamda “yashash” ancha yengil – qiziqarli o‘yinga o‘xshaydi. Vebomen, ya’ni internetdan foydalanuvchi o‘zini ushbu olamga uyg‘un deya his qiladi. („*Tafakkur*“jurnalidan)

2. Jahondagi yetakchi pedagog, psixolog va sotsiologlar yoshlarning onlayn o‘yinlarga mukkasidan ketayotgani, kuni bo‘yi, haftalab virtual dunyodan

chiqa olmayotganidan tashvishga tushmoqda. (*“Tafakkur” jurnalidan*) 3. Tadqiqotchi B. Sparrouning soʻzlariga koʻra, internet hozirgi paytda transaktiv xotiraning bir koʻrinishi boʻlib qoldi. Transaktiv xotira deganda maʼlumotning oʻzini emas, uni izlab topuvchi algoritmi yodda saqlab qolish tushuniladi. (*“Tafakkur” jurnalidan*) 4. Xususan, otanonalar farzandlari internet saytlar, elektron pochtdan foydalanayotganda ularni maʼlum darajada nazorat qila olishi kerak. (*“Tafakkur” jurnalidan*) 5. Menga mobil kompaniyalarning imkoniyati va sharoitlari maʼqul keldi. (*“Xalq soʻzi” gazetasidan*) 6. Texnologik jarayonlarni takomillashtirish maqsadida 171 ishlab chiqarish subyekti modernizatsiya va diversifikatsiya qilindi. (*“Xalq soʻzi” gazetasidan*) 6. Oʻqubitariya jarayonida innovatsion faoliyatni amalga oshirish bugungi kunda oʻqituvchi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. (*“Pedagogik mahorat” jurnalidan*) 7. Lingvistik kompetensiyaning asosini soʻzlar haqidagi bilim tashkil etadi. Oʻquvchining soʻz boyligi nutqning aniq- ligi, toʻgʻriligi va ravonligi hamda rang-barangligini taʼminlashga xizmat qiladi. (*“Maʼrifat” gazetasidan*) 8. Amerikalik bir guruh olimlar talabalarning doimiy ravishda smartfondan foydalanishi ular diqqatini susaytirib, yomon oʻzlashtirishiga hamda qanoatsiz boʻlib qolishiga olib kelishini isbotlashdi. (*“Maʼrifat” gazetasidan*) 9. Ularga ingliz, nemis, fransuz tillari rasmlar, oʻyinlar, qoʻshiq va sheʼrlar, multimediali ilovalar asosida oʻrgatilmoqda. (*“Maʼrifat” gazetasidan*) 10. Moliyaviy lizing – muayyan muddatga ijaraga beruvchining kapital xarajatlarni toʻliq qoplashga yetarli toʻlovlardan iborat boʻlib, mulk egasiga bir miqdor foyda ham beradi. (*“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”- dan*) 11. Nanotexnologiya atamasini birinchi marta 1974-yilda yaponiyalik Noryo Taniguti alohida atomlarni manipulatsiya qilish yordamida yangi obyekt va materiallarni yaratish jarayonini tavsiflash uchun taklif etgan. (*Internetdan*)

Neologizm deganda qanday soʻzlarni tushunasiz?

120-mashq. Berilgan soʻzlarni sof yangi soʻzlar va faollashgan soʻzlarga boʻlib yozing.

Virtual, kompetensiya, matn, kibermakon, askar, hokim, zobit, tuman, viloyat, talaba, haydovchi, mavzu, nanotexnologiya, tadbirkor, gʻoya, harorat, vizual, ra-qamli, mafkura, mobil, sayt, manipulatsiya,

transmilliy, fleshka, zaxira, modul, paynet, multimedia, fuqaro, smartfon, ayfon, uyali, innovatsiya, innovatsion, trans-aktiv, menejment, iqtisodiyot, provayder, reja, oqsoqol, sardor, vazir, xolding, tashviqot, tashabbus, vebomen, hakam, referi, kotiba, sho'ro, iqtisodiyot, triller, masofaviy, tashxis, ta'mirlamoq, lison, muharrir, tavsif, bonus, vikipediya, dizayn, imij, ta'til, globallashuv, tahririyat, noutbuk, dastur.

Sinonimlar

121-mashq. Berilgan soʻzlarni maʼno umumiyligiga koʻra sinonimik qatorlarga birlashtirib yozing. Sinonimik qatordagi dominantani aniqlang. Maʼnodosh soʻzlarning qoʻshimcha maʼnosidagi farqni ayting.

Shodlik, bajarmoq, husndor, baxt, oriq, quvonch, xursandlik, farah, sovgʻa, tortiq, hadya, gavdali, ado etmoq, surur, tole, goʻzal, ozgʻin, koʻhlik, jussali, chiroyli, bitirmoq, barvasta, zebo, tuhfa, koʻrkam, oʻrinlatmoq, norgʻul, saodat, iqbol, qomatdor, barno, armugʻon, suluv, barzangi, qiltiriq, doʻndirmoq, latofatli, oʻtamoq, ramaqijon, sohib-jamol, bajo qilmoq, sevinch, xushroʻy.

Savollar:

1. Sinonim soʻzlar deganda nimani tushunasiz?
2. Sinonimik qator nima?
3. Dominanta nima? Dominantaning belgilarini ayting.
4. Sinonim soʻzlarning oʻxshash va farqli tomonlarini ayting.

122-mashq. Berilgan gaplardan sinonimlarni topib, yonma-yon yozing. Ularning farqini tushuntiring. Nima uchun berigan misolda aynan shu soʻz qoʻllan-ganini tushuntiring.

I. 1. Yaxshi soʻzlarning umri boqiy boʻladi. (*O. Husanov*) 2. Bugungi ishlar, qurilishlar siz – bolalarga abadiy mulk boʻlib qoladi. (*S. Bar-noyev*) 3. Bu yerda ajdodlar mangu uyquga ketganlar. ("*Sharafli burch*" matnidan) 4. Maʼrifat-u obodlik chirogʻini yoqqan kishi toabad oʻlim bilmaydi. (*Mirmuhsin*) 5. Nigoraga boraman: oyogʻiga tiz choʻkib, umrbod yuragimni sizga bagʻishladim, deyman. (*S. Anorboyev*)

II. 1. Kelinlik liboslari muzga aylanib, badanini sovitib yuborgandek boʻldi. (*S. Ahmad*) 2. Tor koʻchaning yuqori burchagida otining tizginini

ushlagan holda bir yigit kiyimiga o'tirgan chang-to'zonlarni qoqar edi. (A. Qodiriy) 3. Boburshoh bog'bonga rahmatlar aytib, bosh-oyoq sarpo beribdi. ("*Hidi, tilimi va mazasidan*" rivoyatidan)

III. 1. Bir mahal Qosimjon o'rnidan turib, yuzlarini sovuq suv bilan yuvdi, sochlarini yaxshilab taradi, sovg'a uchun jildining ichki tomondan she'r yozilgan albomini qo'liga oldi. (X. To'xtaboyev) 3. Ona zaminimizning insoniyatga bebaho tuhfaridan biri dasturxon ko'rki hisoblangan bodomdir. (*Gazetadan*) 4. Dehqonboy, sizning tortig'ingizni dasturxonga qo'yay desam, joy ham yo'q. (N. Safarov) 5. Bugungi xirmon-xirmon paxtalar, meva-chevalar xalqimizning mehnati evaziga kelgan cho'l in'omidir.

6. Boshim ko'kka yetur o'quvchim

Manzur ko'rsa armug'onimni. (E. Rahim)

IV. 1. – Bo'lmasa o'g'lingiz meni aldabdi-da, – dedim sir boy bermay. (X. To'xtaboyev) 2. Laylak meni yana laqillatibdi-da, – deb, xafa bo'libdi. („*Urto'qmoq*“ ertagidan) 3. Nasim ko'zini lo'q qilib, firib beradi. (T. Murod) 4. Miyangni ishlat, hiyla bilan dushmanga pand ber. (*Uyg'un*) 5. Baqqol bu so'zlarni eshitmaganday avrayverdi: – Men sizning foydangizni o'ylayman. (*Oybek*)

V. 1. Abu Rayhon Beruniy so'zi bilan aytganda, Quyosh va Oy falakning ikki ko'zi bo'lganidek, Navro'z bilan Mehrjon ham zaminning ikki ko'zidir. (M. Murodov) 2. Butun jonivorlar yer betiga o'rmalayotgan payt, huv ana, osmonda turnalar arg'imchog'i tirov-tirov qilib uchib ketyapti. (N. Fozilov) 3. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'ygga solyapti. (A. Qahhor) 4. Har vaqtdagidan ko'rkamroq, tiniqroq ko'ringan to'lin oy samoning bir nuqtasida qotgan kabi. (*Oybek*)

123-mashq. Nuqtalar o'rniga ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib o'qing. Ma'nodosh so'zlarning farqini tushuntiring.

1. Insonning erkiga to'sqinlik qilish ham, uning ... va intilishlarini poymol qilish ham vahshiylik. (P. Tursun) 2. Bu qizcha shu yoshgacha aravachasidan turmagan va bir og'iz so'z aytmagan ekan. Bugungi bayram uni davolabdi. Yurib ketishiga, tili chiqishiga sabab bo'libdi. Bu uning ... emasmidi?! 3. U hol-ahvol so'rab kel-ganlarni Hoji otaning ... bilangina ichkariga qo'yardi. ("*Yoshlik*" jurnalidan) 4. Husayn

Boyqaroning yoshlikdan she'rga ... kuchli edi. (*Oybek*) 5. Yurtim, ado bo'lmas ...laring bor. (*M. Yusuf*) 6. Mahfuzada chevarlikka bo'lgan ... ustun chiqdi. (*T. Avvalov*) 7. Xayri ... bilan piyozni maydalab to'g'rardi. (*Sh. Rashidov*) 8. U qadrdon do'stlarini ko'rish ... bilan yonar edi. (*M. Ismoilij*)

Foydalanish uchun so'zlar: *istak, xohish, mayl, orzu, havas, ishtiyoq, hafsala, armon.*

124-mashq. Matni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga ma'nodosh so'z toping.

Ona **diyoremizga** oltin kuz o'zining barakali sepini yoydi. Salqin kechalar, ertalab maysa-ko'katlar, dov-daraxtlar barglarini bezaydigan **shudringlar** kuz kelganidan **darak bermoqda**.

Kuzning **birinchi** oyi mevalar, sabzavot mahsulotlari, qovun-tarvuzlar **serob** bo'lishi bilan **dillarga quvonch baxsh etadi**. Noklar, shaftolilar, olmalar g'arq pishadi, uzum va anor ham dasturxonni **bezaydi**.

Bu **davrda** paxta dalalari ham o'ziga xos **manzara** kasb etadi. **Quyosh** ufqdan bosh ko'tarishi bilan uning **zarrin** nurlari g'o'za qator oralariga tushib, **barglar-dagi** shudringlar rango-rang bo'lib **tovlanadi**. Quyosh **nuri** tushgan **barglar**, kech ochilgan **gullar**, lo'ppi-lo'ppi paxtalar ko'zni qamashtiradi.

125-mashq. Ma'nodosh so'zlarning qo'llanishiga doir uslubiy xatolarni topib, gap mazmuniga mos so'zni qo'yib o'qing.

I.1. Mehrjon bilan Navro'z o'zbeklarning eng ko'rkam, eng tarovatli bayram sayillaridan hisoblanadi. Chunki ular xalqchil, hayotiy an'analardir. (*M. Murodov*) 2. Sohibqiron bobomiz Amir Temur 1336-yilning 9-aprelida Movaraunnahrning suluv shahri Shahrizabz (Kesh)ning Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topganlar. (*B. Ahmedov*) 3. Teatr va kinoteatrlar, stadion, sayrgohlar va xushro'y xiyobonlar ko'p. ("*Toshkent*" matnidan) 4. Shaharning shimolidagi barno chorbog' baland devor bilan o'ralgan. (*P. Qodirov*) 5. Yoki biror suluv yigitni kutarmikan intizor bo'lib. (*Uyg'un*)

II. 1. Amir Temur elim deb, yurtim deb jonini fido qilgan, og‘ir-vazmin, mulohazali, buyuk kimsa bo‘lgan. (*B. Ahmedov*) 2. Endi insonlar biror nimaning ilinjida ko‘proq unikiga yopirilib keladigan bo‘ldilar. (*M. Xidir*) 3. Baqqol xushmuomala va saxovatli shaxs bo‘lgan. Xaridorga molini nasiyaga ham beravergan. (*“Baqqol” matnidan*)

4. Erkin bo‘lmasa gar kishi farzandi,

Uning oti quldir, unvoni – bandi. (*A. Oripov*)

III. 1. Anvarning samimiy chin oshnasi va o‘rtog‘iga sadoqati har kimni taajjubga qo‘ydi. (*A. Qodiriy*) 2. Ta‘til yaqinlashgan sari uch ulfat soy bo‘yidagi ko‘rpaday qalin chimga cho‘zilib, yozda qiladigan ishlari to‘g‘risida uzoq-uzoq suhbatlasha-digan bo‘lib qolishdi. (*S. Anorboyev*) 3. Qishning uzun tunlarida bu yerda o‘rtoqlar gap yeyishadi. (*P. Tursun*)

IV. 1. Iftor mahalida tushirish uchun ko‘ngil tusagan narsa, ozmi-ko‘pmi, das-turxonga muhayyo qilinadi. (*N. Safarov*) 2. Xola, ko‘nglimdagini sezganday, bir kosa jo‘xori go‘ja olib chiqib, oldimga qo‘ydi. Yarimta zog‘ora non bilan iste‘mol qilib oldim. (*S. Siyoyev*) 3. Karam – xalqimiz sevib tushiradigan xushxo‘r sabza-votlardan biri. 4. Qani, nonni sindirib, qaymoqqa bulab-bulab tanovul qilib olinglar-chi. (*E. Rahimov*)

V. 1. Qurilish tresti unga yotoqxonadan joy baxsh etdi. (*O‘. Hoshimov*) 2. Alvon ko‘ylakli lola, sap-sariq momoqaymoq, nozik marvaridgul bir-biriga yarashib, vodiyya chiroy ato etardi. (*A. Ahmedova*) 3. Olloh taolo Boybo‘riga o‘g‘il farzand baxsh etgan kuni Boysari xonadonida ham qiz tug‘ildi. (*“Alpomish” dostonidan*)

VI. 1. Nodir mollarga taom berdi. 2. Ildiz ovqat bersa, novda ko‘karrar. (*Maqol*) 3. Yalpiz nafas yo‘llari va taom hazm qilish a‘zolari faoliyatini yaxshilaydi. (*“Yalpiz” matnidan*) 4. Mehmonlar oldida yo-yilgan, qalashtirib tashlangan yemishlar, rango-rang mevalar, qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib uchib yurgan kanizaklar tovoqlarda yangi-yangi yemishlar tortib, guloblar tashirdilar. (*Oybek*)

126-mashq. So‘z birikmalaridagi sifatlarni yaqin ma‘noli so‘zlar bilan almashtiring . Namuna: *Mayin shamol – yoqimli shamol.*

Mayin shamol –

Toza uy –

Noto‘g‘ri javob –

Sezgir tulki –
Rost gap –
Og‘ir yuk –

127-mashq. So‘zni uning ma’nosiga mos otlar bilan bog‘lab ko‘chiring.
Namuna: *Qari ot, qari tol, keksa ayol.*

Qari, keksa(ot, ayol, tol).
Kuchsiz, ojiz, nimjon (shamol, bola, kampir).
Toza, ozoda, beg‘ubor (suv, osmon, uy).
Uzoq, olis, yiroq (vaqt, yo‘l, shahar).
Tinch, sokin, (dengiz, hayot).

Antonimlar

128-mashq. Berilgan so‘zlarga antonim topib, juft-juft qilib yozing.
Namuna: *baland – past, issiq – sovuq.*

Poygak, ho‘l, azob, abjir, boy, xasis, xushbo‘y, zolim, dali-g‘uli, gunoh, daromad, bo‘sh, mutlaq, mavhum, ajralmoq, aziz, halol, quruq, o‘jar, yovvoyi, oshkora, olqish, optimizm, ozod, semirmoq, obod, tanish, nasiya, mo‘rt, sodda, muzlamoq, mudofaa, maqtamoq, maxraj, loyqa, ko‘karmoq, kechpishar, to‘ng‘ich, ijobiy, ich, ixtiyoriy, sun‘iy, tug‘ishgan.

Antonim deganda qanday so‘zlarni tushunasiz?

129- mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘yib ko‘chiring.

1. Azob ko‘rmay ... yo‘q. 2. Aqlli do‘st – rohat, ... do‘st – ofat.
3. Birlashgan daryo bo‘lur, ... irmoq bo‘lur. 4. Gapni ... so‘zla, ishni ... ko‘zla. 5. Buromad bo‘lmasa, ... bo‘lmas. 6. Sabr achchiq, mevasi 7. Saxiy xor bo‘lmas, ... behishtga kirmas. 8. O‘rganish oson, o‘rgatish 9. Aytuvchi ahmoq bo‘lsa, tinglovchi ... kerak. 10. Jahl dushman, aql 11. Yomonning niyati buzuq, yaxshining niyati

130-mashq. She’rni o‘qing. Undagi asl va shartli (kontekstual) antonimlarni aniqlab, yonma-yon yozing.

Barcha shodlik senga bo‘lsin,
 Bor sitam, zorlik menga,
 Barcha dildorlik senga-yu,
 Barcha xushtorlik menga.
 Sen mening jonimni olgin,
 Men sening darding olay,
 Barcha sog‘lik senga bo‘lsin,
 Barcha bemorlik menga.
 Senga bo‘lsin barcha husn-u
 Menga bo‘lsin barcha ishq,
 Kori xunxorlik senga-yu,
 Mehri poydorlik menga.
 Bu jahonning rohatin ol,
 Bor azobin menga ber,
 Senga bo‘lsin barcha orom,
 Barcha bedorlik menga.
 Ol o‘zing koshonalarni,
 Menga qo‘y mayxonani,
 Barcha hushyorlik senga-yu,
 Barcha xummorlik menga.
 Senga bo‘lsin nurli kunduz,
 Menga qolsin qora tun,
 Barcha gulshan senga bo‘lsin,
 Bor tikanzorlik menga.
 Sen shahanshohlikni olgin,
 Menga qullik bo‘lsa bas,
 Bor jafokorlik senga-yu,
 Bor vafodorlik menga.
 Mayli, ostonanagda yotsam,
 Mayli, quvsang tosh otib,
 Bor dilozorlik senga-yu,
 Bor dilafkorlik menga.
 Senga she’rni bitsin Erkin
 Yirtib otmoq o‘z ishing,
 Kasbi inkorlik senga-yu,
 Aybda iqrorlik menga. (*E. Vohidov*)

131-mashq. She'riy va nasriy parchalarni o'qing. Asl va kontekstual antonimlarni aniqlab, javobingizni asoslab bering.

Bu yerga o'g'ri ham, to'g'ri ham kelar,
Poklanish har kimning muddaosidir.
Gunoh-u savobni har banda bilar,
Elning u shohidir yo gadosidir. (A. Oripov)

Shaytonning hunari chindan rang-barang,
Sallani paytava qilib o'ratgay.
Agar sidqidildan ko'rsatsa nayrang
Nodonna shoh qilib, yurtni so'ratgay. (A. Oripov)

Ming yillarkim bulbul kalomi
O'zgarmaydi, yaxlit hamisha.
Ammo sho'rlik to'tining holi
O'zgalarga taqlid hamisha. (A. Oripov).

Deydilar, qaygadir o't ketsa albat,
Chumchuq xas tashirmish, qaldirg'och-chi, suv.
Balki bu chumchuqning sha'niga tuhmat,
Yong'in nimaligin, balki, bilmas u...

Sen dunyo holiga nazar sol birpas,
Nazar sol ko'zlardan oqqan yoshlarga.
Dunyoda kulbalar yonar har nafas,
U doim muhtojdir qaldirg'ochlarga. (A. Oripov).

Saroyning to'rida boshqalarga qaraganda ko'rkamroq bir hujra, anovi hujralarda kiyiz to'shalgani holda, bu hujralarda qip-qizil gilam, u yerlarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham yonadir, o'zga hujralarda yengil tabiatlik, serchaqchaq kishilar bo'lg'anida bu hujraning egasi ham boshqacha yaratilishda. (A. Qodiriy)

132-mashq. So'z birikmalaridagi ostiga chizilgan so'zlarni qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan almashtirib yozing.

Og‘ir yuk, og‘ir masala, to‘g‘ri tayoq, to‘g‘ri javob, sodda odam, sodda qurilma, soatni buzmoq, uyni buzmoq, butun qop, butun kosa, bo‘sh chelak, bo‘sh vaqt, dag‘al jun, dag‘al kishi, arqonni yechnoq, ko‘ylakni yechnoq, jonli arqon, jonli baliq, odamlarni yig‘moq, pul yig‘moq, sekin yurmoq, sekin gapirmoq, qo‘pol etik, qo‘pol odam, tomga chiqmoq, suv betiga chiqmoq.

Nima uchun ayni bir so‘zga turlicha qarama-qarshi ma‘noli so‘zlarni yozgani-
ngizni izohlab bering?

133-mashq. “Otgan kunlar” romanidagi Otabek va Homid obrazlariga zid ma‘noli so‘zlardan foydalanib tavsif bering.

Giponimlar (uyadosh so‘zlar)

134-mashq. Quyida berilgan jins nomini bildiruvchi so‘zlarga ularning turini bildiruvchi so‘zlar topib yozing.

1. Uzum. 2. Baliq. 3. Daraxt. 4. Metall. 5. Transport.

135-mashq. Quyida berilgan so‘zlarni umumiylikiga ko‘ra guruhlariga ajratib yozing. Har bir guruhni bitta so‘z bilan umumlashtirib nomlang.

Anor, bosvoldi, shakarpalak, buloq, olma, telpak, nok, daryo, amiri, olxo‘ri, ro‘mol, ko‘kkalapo‘sh, oqurug‘, shaftoli, dengiz, anjir, shlapa, okean, kampircho-pon, ariq, o‘rik, qalpoq, do‘ppi, kumush, uzum, zovur, umbirvoqi, bo‘rikalla, obi-novvot, oltin, gilos, mis, platina.

Savollar:

1. Giponimiya nima?
2. Giperonim deganda nimani tushunasiz?
3. Giponim nima?

136-mashq. Quyidagi hayvonlarning bolasini bildiruvchi so‘zlarni toping va yonma-yon yozing. Namuna: *Tuya – bo‘taloq.*

Ot, qo‘y, sigir, tuya, it, kiyik, echki, eshak.

137-mashq. Quyidagi hayvonlarning yovvoyi turini bildiruvchi so‘zlarni toping va yonma-yon yozing.

Tovuq, eshak, mushuk, cho‘chqa, ho‘kiz.

138-mashq. Quyida berilgan ot turini bildiruvchi so‘zlarni 5 guruhga bo‘lib yo-zing: 1) otning jinsiga ko‘ra turini ifodalovchi so‘zlar; 2) otning asl turiga ko‘ra zotini ifodalovchi so‘zlar; 3) otning rang-tusiga ko‘ra turini ifodalovchi so‘zlar; 4) otning vazifasiga ko‘ra turini ifodalovchi so‘zlar. Topshiriqni bajarishda izohli lug‘atdan foydalaning.

Arabi, ayg‘ir, qorabayir, bedov, baytal, chovkar, yo‘rg‘a, tarlon, burnoch, to‘riq, chil, jiyron, cho‘bir, saman, salt, aravakash, uloqchi, qulun, do‘nan, qichang‘i, g‘o‘nan, qorabayir, qashqa, poygachi, qozoqi, mo‘g‘uli.

139-mashq. Berilgan gaplardan ot turini bildiruvchi so‘zlarni topib, ma’nosini izohlang.

1. Bulutli qorong‘u kechada samanning ko‘ziga har bir o‘t, har bir jingul bo‘ri bo‘lib ko‘rinardi. (*N. Fozilov*) 2. Kunlar o‘tib, qulun – toy, toy – qunon, qunon esa do‘non bo‘lib yetishadi. (*N. Fozilov*) 3. Quadrat aka bo‘z ayg‘irning bekorga chopib ketmaganini sezib, uning izidan tushgan edi. (*N. Fozilov*)

4. – Hoy, sen, jiyron toychamdek
O‘ynab-o‘ynab oqqan suv,
Dalalarga bayramdek
Guldan bezak taqqan suv. (*Z. Diyor*)

5. Bel baravar barra o‘tlarni
Kurt-kurt yeydi qo‘y-qo‘zichoqlar.
– Biz ham shodmiz siz kabi, – deya
Qirda kishnar toy-qulunchoqlar. (*I. Muslim*)

140-mashq. Quyidagi rasmlarda tasvirlangan gullarning nomini ayting va izohli lug‘atdan foydalanib har bir gulning xususiyatini izohlang. Shu gullar nomining 3 tasi ishtirokida gap tuzing.




Foydalanish uchun so‘zlar: *gulsapsar, nastarin, nargis, lola, lolaqizg‘aldoq, yalpiz, rayhon, nilufar, boychechak, ra‘nogul, jasmin, atirgul, moychechak, gladiolus, chinnigul.*

Yana qaysi gullarning nomini bilasiz?

141-mashq. Mirtemirning “Qush tili” she’ridan olingan parchani o‘qing. Qush nomini bildiruvchi so‘zlarni aniqlab, qanday qushni bildirishini izohlang. Mashq matnidan keyin berilgan rasmlarda qaysi qushlar tasvirlanganini ayting.

Qushlar, hey, ketmang uzoq,
Qo‘ymayman sizga tuzoq.
Bo‘zto‘rg‘ay, bo‘zlashaylik,
Turumtoy, so‘zlashaylik
Qaldirg‘och, quvlashaylik
Betilmoch, quvnashaylik
Sa‘vaoy, sayrashaylik
Soyma-soy yayrashaylik
Qushlar, hey, ketmang uzoq,
Qo‘ymayman sizga tuzoq.
Cho‘chimang, hoy, chumchuqlar,
Laylag-u, chug‘urchiqlar
Ko‘kqarg‘a-yu, zarg‘aldoq
Bulduriq ham tuvaloq
Suqsur, oqqush, tustovuq
Sayranglar menga yovuq.
O‘ylamangki, otgum tosh,
O‘ylamangki, men bebosh
Ketmang yiroq, qushlar hey,
Go‘yo yorug‘ tushlar hey
Qush yurti – men sevgan yurt
To‘qay, to‘lzor, qopchig‘oy
Mendan qochma, hoy burgut,
Do‘stlashaylik, qarchig‘ay
Kaklik, to‘ti, bedana,
Sepay tariq, sedana
Keling ha, sirlashaylik,
Keling ha, tillashaylik.

Qush turlarini quyidagi guruhlarga bo‘lib yozing: 1) yirtqich va hasharotxo‘r qushlar; 2) sayroqi va sayramaydigan qushlar.



142- mashq. Berilgan so‘zlarni daraxt va meva ma’nosida qo‘llab gap tuzing.
 Namuna: *O‘rik oppoq bo‘lib gulladi. O‘rik juda shirin ekan.*

Anor, o‘rik, nok, gilos, anjir, behi, olxo‘ri, tut, olma, jiyda.

Savollar:

1. O‘zbek tilida mevali daraxtlar va ularning mevasi qanday nomlanadi? Daraxt va mevalar nomi ko‘p ma’noli so‘zmi yoki shakldoshmi?
2. Tilimizda qaysi mevaning daraxti boshqa so‘z bilan ataladi?

143-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosidagi farqni tushuntiring.

1. Tong otmay, **tovuqlar** qo‘ndoqlaridan tushmay, yana ishga tushar edi. (*M. Ismoiliy*) Kurk **tovuqqa** o‘n bitta tuxum qo‘ydik. Yigirma birinchi kuni birin-ketin to‘qqizta jo‘ja ochib chiqdi. 2. Yaylovda yoyilib yurgan **qo‘y**, sigir podalari, uyur-uyur yilqilar qiyosh nurlarida dalaning kuchiga kuch qo‘shadi. (*N. Fozilov*) Shundagina u eshakning panasida turgan **qo‘yga** ko‘zi tushdi. Qo‘zichoq esa onasining bag‘riga suqilib, miriqib emmoqda edi. (*S. Anorboyev*) Semiz **qo‘yning** umri qisqa. (*Maqol*) 3. Jun matolar esa qo‘y-qo‘zi, **echki**, tuya kabi hayvonlarning junidan olingan iplardan tayyorlanadi. (“*Kiyim nimadan tikiladi?*” matnidan) Echkilarga hamma hayron: nega Orifning **echkisi** bir tug‘anda ikkita tug‘ar ekan-u, kolxozning echkilar nuqul bittadan tug‘ar ekan?(*A. Qahhor*)

Qaysi gapdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z jins ma’nosini, qaysi gapdagi so‘z tur ma’nosini ifodalagan?

Omonimlar

144-mashq. Gaplardagi omonimlarni aniqlab, ma’nosini izohlang.

1. Tol kurtakchalri yorilib, undan bo‘z momiq g‘unchalar chiqadi. (*M. Alaviya*) 2. Chit, satin, bo‘z, doka va boshqa matolar paxta tolaridan to‘qiladi. (“*Kiyim nimadan tikiladi?*” matnidan) 3. Jarning har ikkala yonboshini qip-qizil gilamlar qoplagan. (*N. Fozilov*)

4. Jar solib bozorga dallol shu zamon

Maqtar erdi qari eshakni chunon. (*Abdurahmon Jomiy*)

5. Kurak suyaklaring qiyshiq o‘syapti. (*E. Malik*) 6. Uning imillab ishlashidan ensasi qotib, kurakni bu yoqqa ol, deydi. (*N. Aminov*) 7. O‘ktam katta ho‘kizni qo‘shga qo‘shib, yer haydayotgan ekan. („*O‘ktam*“ ertagidan) 8. Bir qalin og‘aynisidan qo‘sh ho‘kiz olib keldi. (“*Halollik*” ertagidan) 9. Qarindosh xotinlardan biri bizga zog‘ora yopib berardi. (*S. Ayniy*) 10. O‘rta Osiyoning daryo, ko‘l hamda suv

- omborlarida eng ko‘p tarqalgan baliqlardan biri zog‘ora baliqdir. (A. Omonov) 11. Lekin maxdum ba‘zi narsalar bilan oshxonani yaxshigina mo‘liqdirar, masalan, sholg‘om, qovoq, lavlagi. (A. Qodiriy) 12. Tuzsiz ovqat yeb, qovoqlarimiz ham shishibdi. („Rustamxon“ dostonidan) 13. Ey farzand, umidim shuki, sen shu pandlarni qabul qilgaysan. (Kaykovus)
14. Maqtangan pand yeydi,
Kamtarin qand yeydi. (Maqol)
15. Qolgan ikkisi mijoz bilan kayfiyatdir. (“Ibn Sinoning shogirdlari” matnidan) 16. Mijozingdan ayrilging kelmasa, nasiyaga mol ber. (Maqol) 17. Hech bir farzand otasining haqini to‘la o‘tay olmaydi. („Qirq hadis“ dan) 18. Dehqon ekinni vaqtida o‘tabdi, sug‘oribdi, chopibdi. („Oltin tarvuz“ ertagidan)
19. Qopda yong‘oq, xumda shinni qish bo‘yiga
Ko‘zimiz to‘q, dimog‘lar chog‘ xush bo‘yiga. (T. Yo‘ldosh)

Savollar:

1. Omonim so‘zlar deganda nimani tushunasiz?
2. Omonimning ko‘p ma‘noli so‘zdan farqi nimada?

Paronimlar

145-mashq. Chap ustunchada paronim so‘zlar, o‘ng ustunchada ularning ma‘nosi aralash holda berilgan. Paronim so‘zlarni ularning ma‘nosi bilan yozing.
Namuna: *davo – shifobaxsh narsa, da‘vo – arz, talab.*

dadil	o‘tinni taxla
dalil	dovyurak
abzal	ot, eshak egar-jabdug‘i
afzal	totuv, inoq
ahil	arz, talab
ahl	baho o‘lchovi
bal	so‘zamol, gapdon
ball	majburiyat
biyron	a‘lo, yaxshi
biron	munosib
bob	12 ta yulduz turkumi
bop	raqs kechasi
burj	isbot

burch	bir soha odamlari
davo	kambag'al
da'vo	chelak
faqir	suvoq materiali, alebastr
paqir	sehr
ganj	puli darhol to'lanadigan
ganch	xuddi, ayni
jodi	chegara, poyon
jodu	kitobning qismlari
kaft	hayvonlarga yem solinadigan joy
kift	shifobaxsh narsa
naq	boylik
naqd	qo'lning qismi
oxir	suzmaning quritilgani
oxur	shahar
qala	hasharot
qal'a	o't qirqadigan asbob
qurt	biror
qurut	yelka

Paronim so'zlar deganda nimani tushunasiz?

146-mashq. Gaplarni qavs ichidagi mazmunan mos keladigan so'zlarni qo'yib o'qing.

1. Muyulishda bir ayol (*qurt, qurut*) sotib o'tirgan edi. 2. Buxoroda uylar qurilishi jadal (*sur'at, surat*) bilan bormoqda. 3. Limon – ming dardga (*da'vo, davvo*). 4. Xarsangning kattaligi (*naqd, naq*) uyday keladi. 5. Dushman qal'ani (*xiyla, hiyla*) bilan qo'lga kiritmoqchi bo'libdi. 6. Ezgulik bilan umr kechirgan kishining nomi xalq xotirasida (*adabiy, abadiy*) qoladi. 7. Ko'ylak (*asil, asl*) ipakdan tikilgan edi. 8. Nodirning (*asil, asl*) maqsadi Toshkentni tomosha qilish edi. 9. Matematika darsida o'qituvchi Nazirga 5 (*bal, ball*) qo'ydi. 10. Chol tovuqqa bir (*qism, qisim*) don berdi. 11. Toshkent – (*azm, azim*) shahar. 12. Firiza sunbula (*burjida, burchida*) tug'ilgan. 13. Qishloqda bir (*faqir, paqir*) dehqon yashar ekan. 14. Qizchaning tili juda (*biron, biyron*) ekan. 15. Nodir (*oxurga, oxirga*) yem soldi. 16. Insonning

(*qiymati, qimmat*) emas siym-u zar, insonning (*qiymati, qimmat*) ilm ham hunar. 16. Nazir ariq bo'yiga o'n (*tub, tup*) ko'chat ekdi. 17. Hamma baxtiyor yashasin deyman, sursin ozodlik (*nashasin, nash'asin*) deyman. 18. Uy bekasi (*xil-xil, hil-hil*) pishgan tovuqni dasturxonga keltirib qo'ydi. 19. Qilgan ishidan Nodirning boshi (*ham, xam*) bo'ldi. 20. Fermer xo'jaligi a'zolari g'o'zani (*yagona, yagana*) qilyapti. 21. Chumchuqlar tut (*shoxiga, shohiga*) qo'nib chirqillamoqda edi. 23. Nilufarning yuzida katta (*xol, hol*) bor edi. 24. Yengil shabada badanga (*xush, hush*) yoqardi. 25. Maktab o'quvchilardan (*xoli, holi*) edi. 26. Nodira doskaga chiqib (*she'r, sher*) o'qidi. 27. Tekin boylik axtarguncha o'zingga (*bob, bop*) hunar top. 28. Sinfxona devorida (*dars, darz*) paydo bo'ldi. 29. Akbar (*eskalator, ekskavator*) bilan yuqoriga chiqib oldi. 30. Qo'shiqchi (*tambur, tanbur*) chalib qo'shiq aytdi. 31. Podsho katta ariq chiqarishga (*amr, amir*) qildi. 32. Dadam bir oydan beri (*tussiz, tuzsiz*) ovqat yeyaptilar. 33. Chaqaloq ertalabgacha tinchgina (*uxladi, uhladi*). 34. Hozir dunyoda (*ichimli, ichimlik*) suv tanqis. 35. (*Urush, urish*), qo'ydi-chiqdi ham har xil bo'ladi. 36. Bilaguzuk (*sop, sof*) oltindan yasalgan ekan. 37. Sobir ichkaridan otning (*afzallarini, abzallarini*) olib chiqdi.

(*Ahli, ahili*) dunyo shohga etgay sajdalar,

Kibriyoga sajda etmaslar ular. (*J. Rumi*)

Ko'z kim (*oxirni, oxurni*) ko'rgay, ul – raso,

Ko'z kim (*oxirni, oxurni*) ko'rgay, ul – raso. (*J. Rumi*)

147-mashq. Quyida berilgan o'xshash so'zlarning ma'nosini izohlang va ular ishtirokida so'z birikmasi tuzing.

Namuna: *Dars – saboq, darz – yoriq. Ona tili darsi, devordagi darz.*

Dars – darz, xush – hush, sof – sop, yoriq – yorug', urish – urush, asl – asil, asr – asir, ahil – ahl, biyron – biron, bob – bop, burj – burch

Hissiylik va uslubiylilik jihatdan o'zbek tili leksikasi

148-mashq. Berilgan so'zlarni hissiy bo'yoqsiz va hissiy bo'yoqdor so'zlarga, hissiy bo'yoqdor so'zlarni ijobiy bo'yoqli va salbiy bo'yoqli so'zlarga ajratib yozing. Hissiy bo'yoqdor so'zlar ishtirokida gap tuzing.

Gul, bola, oriq, ko‘rmoq, stol, mishiqli, chiroyli, so‘zlamog, kulmog, do‘ndiq, jajji, jilmaymog, do‘ndirmog, yuz, ketvorgang, bashara, olamshumul, tor, kirdikor, vaysamog, valdiramog, ajib, mishiqli, tirrancha, zumrasha, kutmog, daraxt, baland, tirjaymog, ilakishmog, laqillatmog, qal’a, non, novvot, kuz, aldamog, aljiramog, aralashmog, otarchi, semiz, chumoli, to‘lamog.

149-mashq. Gaplarni o‘qing. Hissiy bo‘yoqdor so‘zlarni aniqlab, ularni ijobiy va salbiy bo‘yoqli so‘zlarga ajratib yozing. Ularning hissiy bo‘yoqsiz ma’nodoshini yozing.

1. Sidqidillik ifodalovchi samimiy chehralarni ko‘proq ko‘rish orzusida oldinga qarab boraveribdi. (*A. Obidjon*) 2. Og‘ushlari xilvatlarga tayyordir ma’vo, so‘lim, salqin soyasida kiyiklar uxlar. (*O. Rajab*) 3. Terak naynov bo‘lib o‘ saveribdi, maqtanaveribdi. (*Sh. Shodmonova*) 5. Qarasa badbashara bir kampir unga chang solishga shaylanayotgan ekan. („*Nilufar*“ ertagidan) 6. Men uni deb sizni ham, Rustam akamni ham xafa qildim. Agar u kelib suqilmaganda, biz baxtli bo‘lardik. (*O. Yoqubov*) 7. – Ey bebosh bola, sochi kalta, dumi yuluq bir satangga uylanib olibsan-u, onang bexabar, – dedi Karomat. (*Sh. Sa’dulla*) 8. Be, bo‘lmag‘ur gapni qo‘ysangiz-chi. Eshitmagansiz, ko‘rmagansiz, qayoqdan bilasiz. (*P. Tursun*) 9. Amir kulgan sari qiltiriqday bo‘yniga kallasi og‘irlik qilib, dam oldinga, dam orqasiga og‘ib ketar edi. (*S. Anorboyev*) 10. Anvar kelishgan, do‘ndiq bola edi. (*A. Qodiriy*) 11. Yonida arslondek, tog‘ni ursa tolqon qiladigan azamat eri turganda, tashvish qilishga hojat yo‘q edi. (*S. Ahmad*) 12. Chorshanbi – zo‘r yigit, ishni do‘ndiradi. (*M. M. Do‘st*) 13. – Hov, kim u bemahalda sanqib yurgan nobakor?!

14. Majnuntollar ko‘tarib boshin.

Tabiat xo‘p ko‘rkam va suluv. (*M. Abdusamatova*)

15. Yorib chiqdim tuxumni,

Shunday shovvoz jo‘jaman. (*A. Obidjon*)

150-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nosini izohlang hamda ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalayotganini ayting.

1. Bu kaltakesak yutgan **chayonning** yuragida sizga qarshi katta adovat bor. (*A. Qodiriy*) 2. – Anavi **ho‘kizni** qarang-u, manavi parini!

– dedi Zavrak ancha narida o‘z chodiri yonida turgan Xudododbekni yana ko‘rsatib.. – biyron va shaddod qiz o‘shaning qo‘liga tushyapti. (*Mirmuhsin*) 3. Alimardonni uchratganidan keyin bildi: Anvar bo‘shang ekan, **latta** ekan. (*O‘. Hoshimov*) 4. Ishonmayman-u, lekin qari **tulki** eridan ko‘p narsani yashirishini bilaman. (*O‘. Umarbekov*) 5. Bu toifa odamlardan qochib qutulmasang, boshqa yo‘l bilan qutulib bo‘larmidi. **Yelim-ku**, yelim ular. (S. Ahmad) 6. Sen xafa bo‘lsang, men ham xafa bo‘laman-da, **qo‘zichog‘im**. (*H. Nazir*) 7. – Balli, **bo‘tam**, umringdan baraka top, – deb duo qildi. (*“Dehqonbobo” ertagidan*) 8. Tantiboyvachchanikiga boramiz ertaga.. Juda **xo‘roz** odam. Ko‘rsangiz, o‘zingiz ham hayron qolasiz. (*Oybek*) 9. To‘tiyo qiladi yorning o‘zini, To‘tiyo qiladi **shakar** so‘zini. (*“Shirin bilan Shakar” dostonidan*) 10. Men Navoiy “Xamsa”sining sarg‘ish sahifalariga qarab olib yig‘lardim, ko‘z yoshlarim to‘kilib, Navoiy tergan **durlarga** qorishardi. (*M. Ismoiliy*) 11. Fasli bahor. Qo‘shnim G‘afur G‘ulomning ellik yilligi. O‘shanda Bulbul Mamedov to‘yxonaning **guli** bo‘lgan edi. (*H. Nazir*) 12. Yer – xazina, suv – **gavhar**. (*Maqol*) 13. Bir o‘zimga sakkiz jon qaraydi: beva opam, uning uchta sag‘iri... o‘zimning uchta **jo‘jam**. (*N. Safarov*) 14. Ajoyib odamsan-da, do‘stim, ajoyibsan, **farishtasan**. (*Shukrullo*)

15. Muhabbatim, qaydasan, qalb ardog‘im,
Jayronko‘zim, qirlarda qolgan **ohum**. (*M. Yusuf*)

16. Sen yetim emassan,
Tinchlan, **jigarim**. (*G‘. G‘ulom*)

17. Ozodlik ajdodlar **quyoshi** bo‘ldi,
Armonim aritgan yurtboshi bo‘ldi. (*A. Oripov*)

18. Ishdan qaytgan chog‘imda
Qiyqiradi o‘g‘ilcham,
– Hali **nihol** bog‘imda,
Barg yozmagan **g‘uncham**. (*Y. Mirzo*)

151-mashq. Matn va gaplarni o‘qing. Ulardagi uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan so‘zlarni topib ayting.

I. Ko‘klamningdan olib sururni
Dong taratdi ustoz Olimjon.
G‘afur G‘ulom tuygan g‘ururni
Qilmoq mumkin olamga doston. (*A. Oripov*)

II. Tabiatda zaryadlangan juda mayda zarralar mavjud. Zarralarning ba'zilar musbat, ba'zilar manfiy zaryadlangan. Manfiy zarrali eng kichik zarralar elektron-lardir. Elektronlar metall o'tkazgichlarning ichida harakatlana oladi. Zaryadlangan zarralarning bir tomonga yo'nalgan oqimini olimlar elektron deb atadilar. (*"Bolalar ensiklopediyasi"*dan)

III. 1. Qarang, xuddi rostakam durga o'xshaydi. (*O'. Umarbekov*)
2. Ulardan biri shimiga gard yuqtirmaslik uchun ikki yonidan ko'tarib olgan, avaylab qadam bosayotgan po'rim yigit Shavkat edi. (*J. Abdullaxonov*)
3. – Qishdan qittay bor. Hut-yut, sariq sumalak, ayamajiz.. qatorlashib turibdi. (*Oybek*)
4. Ha, shunday yomg'irda azza-bazza uzoqdan kelgan kishining bir niyati bo'lishi kerak. (*Mirmuhsin*)

5. Munchalik mazani topa olmaydi

Uyquda tamshangan chaqaloqlar ham. (*G'. G'ulom*)

152-mashq. O'qing. Uslubiy xoslangan so'zlarni topib, uarni quyidagi tur-larga ajratib yozing: 1) ilmiy leksika, 2) rasmiy leksika 3) publitsistik leksika.

1. Ma'lum bo'lishicha, barg hujayralaridagi alohida modda – xlorofilning yashil donachalarida suv va karbonad angidrid gazining qand va kraxmalga aylanishi sodir bo'lar ekan. (*"Bolalar ensiklopediyasi"*dan)
2. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. (*O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, 19-modda*)
3. Anjumanda so'zga chiqqanlar fuqarolarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning mohiyati bilan yaqindan tanishtirish, ularni huquqiy axborot va adabiyotlar bilan ta'minlash, jamiyatda axborot xavfsizligini yo'lga qo'yishning samarali usullarini joriy qilish dolzarb vazifalardan biri ekanligiga to'xtalib o'tishdi. (*"Xalq so'zi" gazetasidan*)
4. Oltita uglerod oltita vodorod atomi bilan biriksa, suyuq modda molekulasi – benzol hosil bo'ladi. (*"Bolalar ensiklopediyasi"*dan)
5. Menga 1989-yil iyul oyida yurak-tomir kasalliklari shifoxonasida davolanish uchun yo'llanma ajratishingizni so'rayman. Arizamga yo'llanmaga ehtiyojim borligi haqida tibbiyot muassasasi bergan ma'lumot-noma ilova qilindi. (*"O'zbek tilida ish yuritish" kitobidan*)
6. Qaror qilindi: 1. "Ijtimoiy-siyosiy

atamalnring izohli lug‘ati” nashrga tavsiya etilsin. 2. Mas’ul muharrir etib filologiya fanlari doktori E. Begmatov tasdiqlansin. (“O‘zbek tilida ish yu-ritish” kitobidan)

153-mashq. Misollarni o‘qing. Badiiy leksika va oddiy so‘zlashuv leksikasiga mansub so‘zlarni aniqlab, ikki guruhga bo‘lib yozing. Bu so‘zlarning uslubiy betaraf ma’nodoshini ayting.

1. Yaqindagina shivalab o‘tgan yomg‘irdan keyin havo musaffo. (S. Anorboyev) 2. – Ja po‘rim bo‘lib olibsanlar, – dedi u do‘lvor tabiatiga yarashmaydigan jiddiy qiyofaga kirib. (“Sharq yulduzi” jurnalidan) 3. O‘zi ham pandavoqi, go‘l edi, u bilan mozorga shamchiroq bo‘larmidingiz? (A. Muxtor) 4. Oq rang ketib, bo‘z yerni alvon rang qopladi, olam o‘ziga oro berib bezanmoq taraddudiga tushdi. (Yusuf Xos Hojib) 5. Balo ekan bu qiz. (S. Ahmad) 6. Dadam har bahorda hovlimizga anvoyi gullar ektirar edilar. (Olmos) 7. Sharqdan bahor nasimi esib keldi, olamni bezamoq uchun firdavs yo‘lini ochdi. (Yusuf Xos Hojib) 8. Bolamga ko‘z tegdimi, bilmayman. Bolam boyoqish notinchroq bo‘lib qoldi. (Mirmuhsin) 9. O‘zimizning taomlarni – kabob va palovdan tortib to halimgacha – do‘ndirib yuboradi. (Oybek) 9. Obbo Jo‘ravoy-e, ammo-lekin gapni qiyasiz. Yolg‘onni ham rostday qilib gapirasiz. (Uyg‘un) 10. “Uylanish vaqti-ya, lekin mullajiring qurg‘ur yo‘q” – dedi Abdulvohid piyolani bo‘shatib. (Oybek) 11. – Endi, jo‘ra, bularning barisi oldi-qochdi gaplar, – dedi Samad. (M. M. Do‘st) 12. Bu marsiya motamdagi ota-onani yana bo‘zlatgan edi. (A. Qodiriy)

13. Boshim ko‘kka yetur o‘quvchim

Manzur ko‘rsa armug‘onimni. (E. Rahim)

14. Bunda ari keltiradi bol,

Bunda qushlar topadi iqbol. (H. Olimjon)

15. Mustaqillik ne demak,

Ne demakdir istiqlol? (J. Jabborov)

16. Ming yillarkim bulbul kalomi

O‘zgarmaydi, yaxlit hamisha. (A. Oripov)

17. Kuzning rutubatli oqshomi edi.

Bog‘lar sokingina chekar edi oh.

Ruhimda bir xazon ayyomi edi,

Ajib go‘zallikka duch keldim nogoh. (A. Oripov)

154-mashq. Berilgan soʻzlarni badiiy uslub va oddiy soʻzlashuv uslubiga mansub soʻzlar kabi ikki guruhga boʻlib yozing. Boshlangʻich sinf “Oʻqish kitobi” darsliklaridan badiiy uslubga xos soʻzlar ishtirok etgan misollar topib koʻchiring.

Alvon, bop, oʻngʻay, paqqos, choʻtlamoq, bahramand, mashmasha, bazm, begʻu-bor, musaffo, solishmoq, tashlashmoq, boqiy, obdon, chashma, azza-bazza, burkanmoq, tushirmoq, boʻy, jichcha, boʻz-lamoq, diyor, anchayin, fido, jillaqursa, esli, qulluq, zormanda, tuyqusdan, gard, hanuz, hayotbaxsh, hijron, oʻlmang, tokay, ilk, haftafahm, inʻom etmoq, bol, iqbol, istiqlol, taʻviya, jamol, jasad, jazirama, qoyilmaqom, koshona, paqqos, oʻlguday, libos, lojuvard, hangamalashmoq, esli, maʻvo, nozaninday, bekitiqcha, moviy, muattar, oshna, yolgʻondakam, mushkul, mushtipar, nashʻa, osuda, samo, suluv, taassub qilmoq, suq, chechak, shodiyona, zumrad, ketvorgan, ulkan, sokin, yayov, rom etmoq.

Oʻzbek tili leksikasida oʻz va oʻzlashgan qatlam

155-mashq. Matnni oʻqib oʻz qatlamga mansub (umumturkiy va oʻzbekcha) soʻzlarni toping.

NAVROʻZ – BAHOR BAYRAMI

Bahor! Hali yerlarda qor koʻp. Qor kunduzlari quyosh nurida eriydi, yerga si-ngiydi, kechalari esa muzlaydi.

Tol kurtaklari yorilib, undan boʻz momiq gʻunchalar chiqadi. Boʻgʻotda sap-sariq boʻlib osilib yotgan sumalaklar quyosh shuʻlasiga chidayolmay yosh toʻkmoqdalar. Tomchilar mart... mart... mart... deganday boʻlayotirlar.

Oʻlkamizda bahor... Yilimiz oʻz umrini yangidan boshlayapti: jamiki mavjudot oʻz umrini shu bahordan boshlaydi. Shuning uchun ham qadimda yilning boshlanishini bahorning yigirma birinchi martidan boshlaganlar va uni katta bayram qilganlar. Bu bayram Navroʻz, yaʻni yangi kun deb atalgan...

Inson eng avvalo mehnat bilan sharaf qozonadi, shuning uchun ham dehqon ahlining qadimiy bayrami – Navroʻzni har yili zoʻr quvonch, katta tayyorgarlik bilan kutib olish elimizning eng yaxshi odatlaridan biri boʻlib qolgan.

Dehqonlar Navroʻzda dala ishlariga kirishganlar, ish hayvonlarini, asboblarini olib chiqib, yer hayday boshlaganlar.

Yurt soya-salqin boʻlsin, oʻtgan-ketganlar rohatlansin deb, Navroʻz-gacha yoʻllarga koʻchat, bolalarga atab hovli va bogʻlarga meva nihollari ekiladi. Koʻchalar tozalanib, ariqlar qaziladi. Hamma yoq supurib-sidiriladi. Uylar koʻtarilib, idish-tovoqlar yuvilib pokizalanadi. (M. Alaviya)

156-mashq. Berilgan soʻzlarni affiksatsiya yoki kompozitsiya usulida yasalganligiga koʻra ikki guruhga ajratib yozing. Affiksatsiya usuli bilan yasalgan soʻzlarning yasaliş asosi va yasovchi qoʻshimchasini koʻrsating.

Kompyuterchi, uchburchak, yetakchi, issiqsevar, oshkoʻk, soʻkoshi, buklama, eruvchanlik, kungaboqar, tezpishar, toʻlqinli, ituzum, aqlli, eritma, boshpana, sachratqi, dunyoqarash, bugʻlatgich, yopishqoq, tabiatshunos, urinma, chizma, yonuvchan, infraqizil, oʻzgaruvchan, bodomqovoq, anjirqoqi, andishali, agentlik, archazor, bachkanalashmoq, millatlararo, yomgʻirpoʻsh, beboshlik, nosimmetrik, yoysimon.

Oʻzbekcha soʻzlar qanday usullar bilan yasaladi? Yuqoridagi soʻzlarning yasaliş usulini izohlang.

157-mashq. Berilgan oʻzbekcha soʻzlarni quyidagi guruhlariga ajratib yozing: 1) turkiy soʻz + oʻzbekcha qoʻshimcha, 2) arabcha soʻz + oʻzbekcha qoʻshimcha, 3) fors-tojikcha soʻz + oʻzbekcha qoʻshimcha, 4) ruscha-baynalmilal soʻz + oʻzbekcha qoʻshimcha, 5) turkiy soʻz + fors-tojikcha qoʻshimcha, 6) arabcha soʻz + fors-tojikcha qoʻshimcha, 7) ruscha-baynalmilal soʻz + fors-tojikcha qoʻshimcha. Shunday soʻzlarga 5 tadan misol keltiring.

Terimchi, andishali, goʻdaklik, adabiyotchi, sportchi, boʻlinuvchan, mehirsiz, filtrlamoq, ajriqzor, sertuk, tekinxoʻr, notekis, oʻtxoʻr, bebosh, mashinasoz, jurnalxon, nomukammal, gazzimon, bolalik, kesma, polkdosh, vazirlik, bachkanalshmoq, shofyorlik, demokratlashtirish, avvalgi, zargarlik, mevachilik, radioaktivlik, qoʻyfurush, konussimon, besuyak, buyruqboz, noaniq, maʼrifatparvar, pichanbop, partadosh, meshkobchi, haqoratlamok, yonuvchan, egiluvchan, dutorchi, akusherlik, fokuschi.

Affiksatsiya usuli bilan yasalgan o'zbekcha so'zlar tarkibiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

158-mashq. Berilgan qo'shma so'zlarni quyidagi guruhlarga ajrating: 1) turkiy so'z + turkiy so'z, 2) turkiy so'z + arabcha so'z, 3) arabcha so'z + turkiy so'z, 4) turkiy so'z + fors-tojikcha so'z, 5) fors-tojikcha so'z + turkiy so'z, 6) turkiy so'z + ruscha-baynalmilal so'z, 7) ruscha-baynalmilal so'z + turkiy so'z, 8) ruscha-baynalmilal so'z + arabcha so'z, 9) arabcha so'z + ruscha-baynalmilal so'z, 10) ruscha-baynalmilal so'z + fors-tojikcha so'z.

To'rtburchak, kelinsalom, suvqovoq, tartibbuzar, otameros, bo'rikalla, botqoq-gul, anjirqoqi, ko'pmillionli, muzgenerator, kartoshkagul, kinotomoshabin, mikrozarra, umumrespublika, motopoyga, radioaloqa, gazsuv, infraqizil, bayramoldi, gulsevar, yomg'irpo'sh, qo'ymijoz, mehnatsevar, tilxat, allazamon, mozorboosti, boshpana, ituzum, kinoyulduz, fotosurat, mikrotarozi, novellanavis, fotomuxbir.

Kompozitsiya usuli bilan yasalgan o'zbekcha so'zlar tarkibiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi? Mashqdagi so'zlarning yasalishini izohlab bering.

159-mashq. Matni o'qing. O'zbekcha so'zlarni topib, yasalishini tushuntiring.

Shaharda ko'kalamzorlashtirish oyligi bo'lib o'tgandi. Shu oylik davomida ko'chalar chekkasiga, ariqlarning bo'yiga, xiyobonlarga naq uch mingga yaqin mevali va manzarali ko'chat o'tqazishdi. Qiyqirishib ko'chat ekkan o'quvchilar biri ketmonni asfalt yo'lda daranglatib sudrab, biri belkurakni yelkasiga teskari qo'yib, yana bittasi bo'sh chelakni childirma qilib chalib jo'nab ketishgach, chinorlar bir-birlariga ma'noli qarab qolishdi...

Nihollar sabr-u bardoshlari zo'r, ancha-muncha qiyinchilikka parvo qilmaydigan, quyosh taftiga, suvsizlikka o'rgatilgan edi.

Bir kuni quyosh haddan tashqari qizdirib yubordi, o'zi to'kayotgan mo'l-ko'l harorat evaziga niholchalarning barg-u shoxchalaridagi eng so'nggi namlikni ham so'rib ola boshladi. (*X. To'xtaboyev*)

160-mashq. Matnni o‘ing. Arabcha o‘zlashma so‘zlarni topib yozing va ma’nosini tushuntiring.

VATAN MO‘TABARDIR

Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, Vatan ham shunchalik mo‘tabardir.

Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat uning dalalari, qir-adirlari, moviyrang tog‘lari, dasht-u sahrolariga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi.

Qadimda dushmanlar turk davlatining xoqoni O‘g‘uzxondan unga qarashli tashlandiq, hech narsa bitmaydigan yerni talab qilishadi.

Bobomiz shunda: “Vatan yolg‘iz bizning mulkimiz emas. Mozorda yotgan otalarimiz va endi tug‘ilajak avlodlarimizning bu muborak tuproqda haqlari bordir. Vatandan ozgina bo‘lsa ham yer bermakka hech bir kimsaning haqqi yo‘qdir”, deb javob beradilar.

Biz vatanni sevmog‘ni dono bobolarimizdan o‘rganmog‘imiz kerak. Inson uchun Vatandan ortiq mehriyog‘i bormi? Yo‘q, albatta! Vatan – ona kabi yagona. Yagonaligi bilan muqaddas va bebahodir! (*X. Davron*)

Arabcha o‘zlashma so‘zlar qanday o‘ziga xos belgilarga ega?

161-mashq. Berilgan arabcha o‘zlashma so‘zlarni tuzilishiga asoslanib ma’nosini izohlang.

Namuna: *Zulm – jabr-sitam, ezish, adolatsizlik, zolim – zulm qiluvchi, mazlum – zulm ostida qolgan.*

Zulm, zolim, mazlum; qatl, qotil, maqtul; sabr, sobir; she‘r, shoir; ishq, oshiq, ma‘shuq; zikr, zokir, mazkur; g‘alaba, g‘olib, mag‘lub; talab, tolib, matlub; shukr, shokir; aql, oqil; nasr, nosir; nashr, noshir; ilm, olim, ma‘lum; jahl, johil; xoliq, maxluq; qasd, maqsad, maqsud; dars, madrasa, mudarris; jabr, jobir, majbur; shuhrat, mashhur; uzr, ma‘zur; hudud, mahdud; hukm, hokim, mahkum.

162-mashq. Matnni o‘qing. Fors-tojikcha o‘zlashma so‘zlarni topib, yozing.

Yurtimizga gullarga burkanib bahor kirib keldi. Jonli tabiat uyqudan uyg‘ondi. Quyoshning saxiy nurlaridan bahra olgan ona zamin yuziga iliqlik yugurdi.

Musavvir tabiat qo‘llariga nafis bo‘yoqlarini oldi. Tog‘- u qirlarni boychechag-u binafsha bilan, daraxtlarni kurtaklar bilan bezadi. Tol kurtaklari yorilib, undan bo‘z momiq g‘unchalar chiqadi. Bo‘g‘otda sap-sariq bo‘lib osilib turgan sumalaklar quyosh shu‘lasiga chidayolmay yosh to‘kadi.

Bir zumda osmonni bulut qopladi. Yomg‘ir yog‘di. Ariqlarni suvga to‘ldirdi.

Yomg‘ir tindi. Feruza osmonda yana quyosh charaqladi. Olis osmonda turnalar karvoni ko‘rindi. Tartib bilan safga tizilgan qushlar: – Bahor, bahor, – deya ko‘klam qo‘shig‘ini kuylab keldilar. (*D. Kamoljonova*)

Fors-tojikcha o‘zlashma so‘zlar qanday o‘ziga xos belgilarga ega?

163-mashq. Berilgan arabcha va fors-tojikcha o‘zlashma so‘zlarning turkiycha muqobilini topib, yonma-yon yozing.

Namuna: *fikr – o‘y, go‘sht – et.*

Bulbul, bahor, gul, fikr, barg, gunoh, oftob, amr, mashaqqat, sabr, abadiy, avval, muhabbat, haqiqat, asal, bandi, aft, peshona, kalla, dum, mijja, nihol, yog‘, palov, chopon, peshin, shabada, nasim, mayda, charog‘on, husn, mudhish, zulmat, qobiliyat, kirdikor, mushkul, bekor, nishona, rahbar, farmon, chashma, xalq, dushman, kift.

164-mashq. Matnlarni o‘qing. Ruscha-baynalmilal o‘zlashma so‘zlarni topib, yozing.

I. Hozir hayotimizni radio, televideniye, telefon, telegrafsiz, turli xil yoritish jihozlari va qizdirish asboblarisiz, mashina va qurilmalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bularning hammasi elektr energiyasi (toki) bilan ishlaydi. Elektr energiyasi qayerdan olinadi? Uni elektr stansiyalarida maxsus mashinalar – elektr toki generatorlari hosil qiladi. (*“Bolalar ensiklopediyasi” dan*)

II. Biz yashaydigan g‘o‘zal, bepoyon mamlakat O‘zbekiston deb ataladi. O‘zbekistonning poytaxti – Toshkent. U juda go‘zal shahar. Ko‘chalari keng, ozoda. Hamma yoqda elektr chiroqlari charaqlab turadi. Toshkentda turli millat kishilari yashaydi va mehnat qiladi. Toshkent ko‘chalaridan avtobus, tramvaylar qatnaydi. Bulardan tashqari yerosti temiryo‘li – metro qurilgan. Toshkentda O‘zbekiston havo yo‘llari aviakompaniyasi, ikkita temiryo‘l vokzali, avtovokzallar bor.

Poytaxtimizga har kuni chet ellardan, viloyatlardan mehmonlar keladi. Toshkent do‘stlik, tinchlik, birodarlik shahri sifatida butun dunyoga mashhurdir.

O‘zbekistonda ko‘rkam binolar, mehmonxonalar, istirohat bog‘lari, oromgohlar ko‘p. Asaka shahrida ulkan avtomobil zavodi ishga tushgan. U yerda “Matiz”, “Damas”, “Neksiya”, “Lasetti”, “Epika”, “Kaptiva” kabi yengil avtomobillar, Samarqanddagi SamAvto zavodida esa mikroavtobuslar ishlab chiqarilmoqda. (*M. Hamidova*)

165-mashq. Quyidagi ruscha-baynalmilal so‘zlarning o‘zbek tilidagi sinonimlarini topib, namunadagidek yozing.

Namuna: *Soldat – askar.*

Xarakter, avtor, absolut, lingvistika, agressiv, abzas, sinonim, omonim, antonim, norma, organ, allegoriya, alfavit, analiz, forma, apostrof, stilistika, metodika, stil, affiks, klassifikatsiya, grafika, defis, adres, aktual, gorizont, programma, akusher, anemiya, kosmos, abstrakt, apteka.

Qo‘llanish doirasiga ko‘ra o‘zbek tili leksikasi

166-mashq. Berilgan so‘zlarni qo‘llanish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan so‘zlarga bo‘lib yozing. Qo‘llanish doirasi chegaralangan so‘zlarni necha guruhga ajratish mumkinligini ayting.

Anhor, sinus, hasut (non), danap (ayol raqqosa), go‘sala, yil, yurmoq, jo‘rob, gavdo‘sha, non, challoq, suv, las, tarvuz, xurmo (buxoro tilla tangasi), burjaq, barak, sharshara, ishlamoq, birinjoba, jingildak, gulum, zaldori, soqqa (pul), mashina, poyezd, ko‘chmoq, tog‘, shuxer (xavf-xatar), hulbo‘y, g‘o‘z, gilam, yakan (pul), kesim, baliq, affiks, maymun (oyna), ko‘ylak, timsoh (qaychi), sindirmoq (qoyil qilmoq), gipotenuza, badik, tarozi, xorpish, quduq, satil, g‘o‘lin.

Savollar:

1. Qo‘llanish doirasi chegaralanmagan so‘zlar deganda qanday leksika tushuniladi?
2. Qo‘llanish doirasi chegaralangan so‘zlarga qanday so‘zlar kiradi?

167-mashq. Berilgan soʻzlarni adabiy til va shevaga oid soʻzlarga ajratib yozing.

Doʻppi, goʻsala, toʻsin, juvona, zangi, gujum, donashoʻrak, buzoq, inak, narvon, zaldori, shoti, sabzi, qaroli, sigir, paypoq, dala, oʻrik, bodberak, chayla, xapitmoq, varrak, gʻolin, turshak, dala, qayragʻoch, yobon, koza, magʻal, mos, kalapoʻsh, qolin, ota, gilam, loʻli, qayish, shilpildoq, gilos, moʻylov, olcha, qaptal, yon, gʻoʻz, objoʻsh, ada, boʻlakdan, bopta, burut, oʻjak, joʻgi, jelatka, nimcha, jilob, gʻilak, shoʻrdanak, burjaq, doʻl, gashir, olxoʻri, novvos, atiz, karvich, gʻisht, bolor, choʻmilmoq, pichak, somsa, dajam, gʻazab.

168-mashq. Gaplardagi sheva soʻzlarni topib, maʼnosini izohlang. Yozuvchi bu soʻzlarni nima maqsadda ishlatganini tushuntiring.

1. Xudoyor muhr bosish asnosi yozilgan yorligʻ va nomalarni oʻqitib eshitar, munshiylarning eshitilmagan arab va fors soʻzlari orqali toʻqigʻan yarim turkiy jumllariga aksar vaqt tushunmas: “Enalaringʻ arapqa tekkanma?” deb mirzo, muftilarni koyir edi. (*A. Qodiriy*) 2. Qora burti koʻkka oʻsgan, bet qip-qizil. (*Gʻ. Gʻu-lom*) 3. Uyiga militsioner yuborib yuragini poʻkillatib qoʻyardim. Oʻzi oyogini qoʻliga olib yugurib keldi elanib! (*S. Nurov*) 4. Oying bilan magazinga chiqinglar-da, yetmaganiga qoʻshib, bitta bopta kostum olinglar. (*M. Ismoiliy*) 5. Rayim yoznamiz sal gʻirrom kuyovlardan chiqib qoldi. (*S. Siyoyev*) 6. Toshsoqa magistral kanalining ham quti oʻchib qolgan – suv oʻltangda shildirab qolgan. (*E. Rahim*) 7. Odamlar cholni oʻrlikda qancha ayblamasin, lekin u joʻn turmushga koʻnikib ketolmadi. (*N. Norqobilov*) 8. Hoy uka, sekinroq gapir, qopining orqasida odam bor. (*J. Sharipov*) 9. – Osilgan kim? – Qiyotlik gʻoʻch yigit. (*J. Sharipov*) 10. Poyteshada bolor chopaverib bellaring qotib ketgandir. (*S. Ahmad*) 11. Bir kun deng, shunday isitma qildim, varaja tutdi. (*N. Aminov*)

12. – Zomicha dumcha berib,

Qovun pishdi, yor-yor!

Bizning Sayyot qishloqqa

Kelin tushdi, yor-yor! (*T. Joʻra*)

13. Shundoq ajib yurtsan, jon Qozogʻiston,

Qardoshim, qurdoshim, bovorim azal! (*A. Oripov*)

169-mashq. Gaplarni o‘qing. Terminlarni topib, ma’nosini izohlang va qaysi sohaga oidligini ayting.

1. Tabiatda zaryadlangan juda mayda zarralar mavjud. Zarralarning ba’zisi musbat, ba’zisi manfiy zaryadlangan. Manfiy zaryadli eng kichik zarra elektrondir. 2. So‘zning ikkinchi muhim belgisi uning ma’noga egaligidir. 3. Ertaklar mavzusi va qahramonlar silsilasiga ko‘ra uch xil bo‘ladi: 1. Hayvonlar haqidagi yoki majoziy ertaklar. 2. Sehrli-fantastik ertaklar. 3. Hayotiy-maishiy ertaklar. 4. Kompasdan foydalanish uchun uni stol ustiga yoki kaftga qo‘yib, murvati buraladi. 5. Algebra ham xuddi arifmetikaning o‘zi, lekin algebrada sonlar bilan birga harflar ham ishlatiladi. Algebra bir-biriga o‘xshash juda ko‘p masalalarning eng qisqa va eng umumiy yechimini topishga yordam beradi. 6. Undalma ko‘pincha bosh kelishik-dagi ot bilan ifodalanganligi uchun egaga o‘xshab ketadi, chunki u ishtirok etgan gapda ko‘pincha ega tushiriladi. 7. Cho‘l qumli, gilli yoki toshli bo‘ladi. Qumli cho‘lda shamol qumlarni suradi, ba’zida do‘ngliklarni hosil qiladi. Bunday do‘nglik barxan deb ataladi. 8. Maqollar she’riy shaklda ham, nasriy shaklda ham bo‘lishi mumkin. Ular mavzu jihatdan chegaralanmagan. 9. Atash semasi leksemaning borliqdagi harakat-holatlik, narsa-buyumlik, miqdorlik, belgilik xususiyatini atovchi, nomlovchi semadir.

170-mashq. Berilgan terminlarning ma’nosini izohlang va qaysi sohaga oidligini ayting. Shu terminlarning 8 tasi ishtirokida gap tuzib yozing.

Ega, kesim, son, aylana, undalma, kompas, nuqta, so‘z, metafora, xarita, turoq, qo‘shish, ayirish, bosh bo‘lak, yulduz, arxaizm, sayyora, osmon jismi, ot, doira, sifat, son, atoqli ot, turdosh ot, ertak, ufq, hikoya, tovush, majoz, materik, okean, bo‘g‘in, masal, istorizm, harf, alifbo, kometa, raqam, band, istiora, perimetr, bo‘lish, gap, tog‘, masshtab, asotir, tekislik, matn, janr, barxan, she’r, daryo, meteor, globus, yil, masala, maqol, adir, doston, kvadrat, topishmoq, kanal, sujet, to‘g‘ri to‘rtburchak, tenglama, tugun, obraz, adabiy ertak, anafora, cho‘l.

171-mashq. Misollarni o‘qing. Jargonlarni topib, ma’nosini izohlang va qaysi ijtimoiy guruh nutqiga mansubligini ayting.

1. Esing borida etagingni yop, degan mashhur naqlga amal qilmasak bo‘lmas. Bir yoqdan yakanning qo‘ri qochyapti. (*J. Abdullaxonov*)

2. Domla bahomni qo‘yavermagach, tankamni ishga soldim. 3. Ja krutoy yigit ekanmi? 4. Ha, opoqingga aytasan: “Hasan amakimni mentlar tutib oldi, narsalarni gum qilar ekansiz”, – deysan. (*T. Malik*)

172-mashq. Berilgan jargonlarni quyidagi guruhlarga ajrating: 1) otarchilar jargoni, 2) o‘g‘rilar jargoni, 3) mahbuslar jargoni, 4) talabalar jargoni, 5) yoshlar jargoni.

Maymun (oyna), yopmoq (sessiyani tugatmoq), oq kaptar (geroin), vozdux (stipendiya), xurmo (Buxoro tilla tangasi), timsoh (qaychi), g‘isht (xunuk), yakan (pul), hasut (non), sindirmoq (lol qilmoq), yaxlamoq (imtihondan qaytmoq), yashil (militsioner), uxlatib ketmoq (aldamoq), shuxer (xavf-xatar).

FRAZELOGIYA

173-mashq. Gaplardagi ajratib ko'rsatilgan birikmalardan qaysilari ibora, qaysilari erkin so'z birikmasi ekanligini aniqlab, tushuntiring.

1. Bolalar ertakni **og'zini ochib** tingladi.
2. Shifokor boladan **og'zini ochib** to-mog'ini ko'rsatishini so'radi.
3. Nazirjon kechki **shamolda bug'doy sovurdi**.
4. Sobir otasidan qolgan boylikni bir yilda **shamolga sovurdi**.
5. Botir gapning oxiriga **nuqta qo'ydi**.
6. "Paxtakor"ning urgan goli o'yinga **nuqta qo'ydi**.
7. Qo'shnimiz so'rab kelgan ekan, bir piyola **tuz berdim**.
8. Men sizga uy berdim, joy berdim, vaqtida **tuz berdim**. (*A. Qahhor*)
9. Haligi xayoli chippakka chiqqanini ko'rib, xolaning **tarvuzi qo'ltig'idan tushdi**. (*S. Anorboyev*)
10. Pistafurush xolaning bozorning o'rtasida **tarvuzi qo'ltig'idan tushib ketdi**.
11. Muhabbat bu taklifni **o'rtaga qo'ydi**-da, rollarni taqsimlashda ko'p qiynaldi. (*H. Nazir*)
12. Gavhar kesilgan qovunni **o'rtaga qo'ydi**.
13. Yigit **qo'lini yuvib**, belbog'iga artdi.
14. Nonni deb gar ko'zlarida bitsa suv,
Sen o'shal nondin hamono **qo'lni yuv**. (*J. Rumi*)

Savollar:

1. Ibora nima?
2. Iboraning erkin so'z birikmasidan farqi nimada?

174-mashq. Gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ibora bilan almashtirib o'qing.

1. Ish **juda oson** bitdi.
2. Zamira opa ovqat qilishda har qanday oshpazdan **o'zadi**.
3. Umr degan narsa **tez** o'tib ketar ekan.
4. Hozir oq turnalar **kamyob** bo'lib ketgan.
5. Qudrat unga gap uqtirish **qiyin** ekanini sezdi.
6. Peshonam sho'r bo'lmasa, shu **landovurga** tegamanmi?
7. Bu **eski** mashinangiz bilan shaharga yuk olib borib bo'lmaydi.
8. Choyxonaning egasi Nodirning **juda yaqin** qadr don ulfati.
9. Ma'ruzachi fikrini shunday chiroyli, **yangi** jumlar bilan sodda qilib tushuntirardiki, kishining sira esidan chiqmasdi.
10. Havoning birdan sovib ketishi dehqonchilik ishlariga **xalal berdi**.
11. Tuni bilan hech kim **uxlamadi**.
13. Bir talaba **kutilmaganda** mavzuga aloqasi bo'lmagan savol berib qoldi.

Foydalanish uchun iboralar: *ko‘z ochib yumguncha, anqoning urug‘i, mijja qoqmaslik, amri mahol, ammamning buzog‘i, tomdan tarasha tushganday, oralaridan qil o‘tmaydigan, almisoqdan qolgan, tesha tegmagan, xamirdan qil sug‘urganday, bir cho‘qishda qochiradi, beliga tepdi.*

Iboraning ma‘nosi so‘z ma‘nosidan nimasi bilan farq qiladi?

175-mashq. Berilgan gaplardagi iborani topib, ma‘nosini izohlang.

1. Sen chuchvarani xom sanab yuribsan, uka. Do‘st bilan dushmani ajratmaysan. (*I. Rahim*) 2. Peshonam sho‘r bo‘lmay o‘lsin, peshonam sho‘r bo‘lmasa, shu ammamning buzog‘iga tegamanmi? (“*Yoshlik*” jurnalidan) 3. Qani bittasi g‘ing deb ko‘rsin-chi, gazetaga yozaman, – dedi u achchiqlanib. (*X. To‘xtaboyev*) 4. Bobom payvand qilar ekanlar: – Ko‘zing pishisin, o‘rganganing foyda, bolam! – deb qo‘yar edilar. (*G‘ayratiy*) 5. Kenja har yoqqa alanglab, boshpana ko‘zlashga tushdi. Dashtda bunday boshpana anqonong urug‘i. (*H. Nazir*) 6. Mol-dunyo hirs va otalik muhabbati chol bechorani yo‘ldan urib, u o‘g‘lining gapiga kiribdi. (“*Hiylagarning jazosi*” ertagidan) 7. Shogird endi uning hunarini to‘liq egallab olishga astoydil bel bog‘labdi. (*Q. Hikmat*) 8. Men yo‘lda karaxt bo‘lib qolgan ekanman, haliyam o‘zimga kelolmayapman, – deb qo‘ydi uchinchi. (*X. To‘xtaboyev*) 9. Nimaga bu ishingni mendan yashirib yurganding, qizim? – deb so‘radi Habiba opa Shoiradan. Shoira o‘zini gunohkor sezib, churq etolmadi. (*H. Nazir*) 10. Bahrom pastga qaradi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi. (*S. Anorbo-yev*) 11. Zulayho xola Mukarramani yer-ko‘kka ishonmaydi. (*G‘. G‘ulom*) 12. Bu yil saksonga to‘ladi, umr oqar daryo, ko‘z ochib yumguncha shu yoshga yetib keldi. (*T. Hayit*) 13. Ozod bilan Nosir hamqishloq emasmi, darhol til biriktirib sayrga chiqib ketishdi. (*M. Xidir*) 14. Qo‘ling el aro uzun bo‘lsa, sen o‘z fe‘l-atvoringni ezgu tut. (*Yusuf Xos Hojib*) 15. Kitob ko‘ngillarga ezgulik urug‘ini sepib, yashashdan saboq beradi. (*H. Nazir*) 16. Yodgoringning ham tili chiqib qoldi: “dada-dada”ni og‘zidan qo‘ymaydi. (*G‘. G‘ulom*).

17. Ola buzoq tug‘ilib oldi,

Og‘zimiz ham oqarib qoldi. (*G‘. G‘ulom*)

176-mashq. Gaplarni nuqtalar o‘rniga mos iborani qo‘yib o‘qing va iboraning ma‘nosini izohlang.

1. Normathojining joni chiqib, tomdagilarni ... soʻzlar bilan soʻkib, haydab yubordi. (*Oydin*) 2. Yomgʻir juda qattiq quyadiganga oʻxshaydi-ku, havoning (*A. Qahhor*) 3. Mulla Mamajon oʻz davrida yalqovlik bilan “Alif layli”dagi Abutanbalni ... kishi boʻlgan ekan. (*Gʻ. Gulom*) 4. Shu yoshga kelib, qilgan mehnatim ham, orttirgan obroʻyim ham (*R. Fayziy*) 5. Toshkent hokimi boʻlgan Azizbek Qoʻqonga qarshi (*A. Qodiriy*) 6. Bu gaplardan qoʻzichoqning (*R. Tolib*) 7. Mahmud yosh bahodirning izzat-nafsiga shikast yetkazishni oʻziga ... , bu iltifotni rad etibdi. (“*Pahlavon va shoir*” rivo-yatidan) 8. Oradan bir necha kun oʻtsa ham, laylak minoraga sovgʻa haqida (“*Minora va laylak*” ertagidan) 9. Itning Qodirga qarab yugurdi. (*H. Nazir*) 10. Kechqurun otam ishdan qaytgach, onam yigʻlab-yigʻlab voqeani ... aytib berdi. (*H. Tursunqulov*) 11. Shunday aчитib, piching bilan yozibdiki, soʻzlariga (*Gʻ. Gulom*) 12. Chingizxon farmoni bilan shaharga oʻt qoʻyilib (*Mirmuhsin*) 13. Bu oila shu doʻkon orqasidan bir navi ... edi. (*S. Zunnunova*) 14. ... , bobomiz Sohibqiron Amir Temurni tanidik. (*S. Barnoyev*) 15. Mustaqillik – bu erkin fikrlash, mustaqil harakat qilishdir. Boy tarixini ... asrash, avaylash, kelajak avlodlarga asl holda yetkazib berishdir. (*D. Kamoljonova*) 16. Yaxshiyamki, olma qovoqdek emas, boʻlmasa ... yuborardi, – dedi chumchuq kulib. (“*Tabiatning neʼmati koʻp*” ertagidan)

17. Boʻri tayyor deb oʻlja,
Yutar ekan soʻlagin:
Fursat poylab Toʻngʻizcha
... (*A. Obidjon*)

Foydalanish uchun iboralar: *juftakni rostlab qolmoq, kurakda turmaydigan, bir pul boʻlmoq, ipidan ignasigacha, avzoyi buzuq, gap ochmaslik, kun koʻrmoq, bir choʻqishda qochiradigan, bosh koʻtarmoq, burni koʻtarilib ketmoq, feʼli aynimoq, ep koʻrmaslik, ilon poʻst tashlaydi, kuli koʻkka sovurilmoq, koʻzi ochilmoq, koʻz qorachigʻidek, miyasining qatigʻini chiqarmoq.*

177-mashq. Berilgan iboralarning maʼnosini izohlang va ulardan 6 tasi ishtirokida gap tuzing.

Almisoqdan qolgan, anqoning urugʻi, dami ichiga tushmoq, doʻp-pisini osmonga otmoq, boshiga koʻtarmoq, boshi qotmoq, boshi koʻkka yetmoq, boshida yongʻoq chaqmoq, burni koʻtarilmoq, ensasi qotmoq,

eti suyagiga yopishmoq, fe'li aynimoq, gapidan chiqmaslik, haddi sig'moq, hang-u mang bo'lib qolmoq, hash-pash deguncha, holdan toymoq, ikki dunyoda ham, ikki oyog'ini tirab olmoq, ilonning yog'ini yalagan, ipidan ignasigacha, iziga tushmoq, jon kuydirib, juftakni rostlamoq, kapalagi uchmoq, kindik qoni to'kilgan joy, kuragi yerga tegmagan, ko'z ochib yumguncha.

178-mashq. O'qib chiqing. Bir so'zi almashtirilgan iboralarni aniqlab, qo'llanishi kerak bo'lgan so'zni qo'yib yozing.

Dutoriga o'ynamoq, qo'yning yog'ini yalagan, nonini tuya qilmoq, oralaridan arqon ham o'tmaydi, pixini yorgan, chumolidan fil yasamoq, qo'lini sovuq choyga urmaydi, tuzini oqlamoq, barmoq bilan sanarli, sigir og'zidan cho'p olmagan, bel bog'lamoq, qaysi shamol to'zg'itdi, boshida yong'oq dumalatmoq, etigini to'g'rilab qo'ymoq, bulturdan qolgan, xolamning buzog'i, bulbulning urug'i, mashinani quruq olib qochmoq, bug'doyini xom o'rmoq, beti chidamadi.

179-mashq. Ajratib ko'rsatilgan iboralarni bir so'z bilan almashtiring.

1. Bu voqea sinf rahbarining **qulog'iga borib yetdi.**
2. Aziz **qo'li ochiq** bola.
3. Ayyor tulki **qo'lga tushdi.**
4. Musobaqada 4-"A" sinf o'quvchilarining **qo'li baland keldi.**
5. Qarovsiz qolgan bolalar uyni **boshlariga ko'tarishdi.**
6. Sobir voqeani **ipidan ignasigacha** so'zlab berdi.

180-mashq. Quyida iboralarning ma'nosi berilgan. Shu ma'nodan kelib chiqib iboraning o'zini yozing. Iboralar lug'atidan foydalaning.

Bir vaqtning o'zida ikki narsani ko'zlab ish tutmoq, imkoniyatiga qarab ish tutmoq, uyalmaydigan bo'lib ketgan, juda qisqa muddatda, soxtaligi, yolg'onligi fosh bo'lmoq, juda eski, landovur, boshqalarga imkon bermay, nuqul o'zi gapirmoq, qo'qqisdan, kutilmagan holda va qo'pol tarzda, ortiq darajada imkoniyatga ega, imkoniyati cheklangan, izzat-hurmat qilishni me'yoridan o'tkazib yubormoq, yoshligidan shu ish bilan shug'ullanib katta bo'lmoq, yashirin holda kelishib olmoq, mashqqat bilan jismoniy mehnat qilmoq, ortiq darajada kamsitmoq, biror falokat yuz berishidan benihoya qo'rqqan holda, a'zoyi badani

chiniqqan, o‘ta darajada ardoqlamoq, parvona bo‘lmoq, gangib qolmoq, behuda sarfladi, butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha, benihoya darajada toza, sira uxlamaslik, mensimaslik, tanishdek ko‘rinmoq.

181-mashq. Quyida berilgan iboralarni qatnashtirib gap tuzing.

Qo‘lga tushmoq, qo‘lma-qo‘l bo‘lmoq, qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirmoq, jini suymaydi, aravani quruq olib qochmoq, bel bog‘lamoq, bir pul bo‘lmoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, bosar-tusarini bilmay qolmoq, bosh qotirmoq, boshi ko‘kka yetmoq, boshiga ko‘tarmoq, burni ko‘tarilmoq, daqqiyunusdan qolgan, diliga tugmoq, ensasi qotmoq, esini yig‘moq, eti suyagiga yopishgan, fe’li aynimoq, fig‘oni falakka chiqmoq.

182-mashq. Har bir qatordagi ortiqcha iborani toping; nima uchun “ortiqcha” ekanligini tushuntiring va u ishtirokida gap tuzing.

1) ipidan ignasigacha, ko‘z ochib yumguncha, qilidan quyrug‘igacha, miridan sirigacha;

2) boshiga ko‘tarmoq, hurmatini joyiga qo‘ymoq, gapini ikkita qilmaslik, soyasiga ko‘rpacha to‘shamoq;

3) gapidan chiqmaslik, chizgan chizig‘idan chiqmaslik, juftakni rostlamoq, yo‘rig‘iga yurmoq;

4) ko‘z ochib yumguncha, hash-pash deguncha, ko‘zi ochilmoq, hayal o‘tmay.

183-mashq. Berilgan iboralarga qarama-qarshi ma’noli iboralar topib yozing.

Ko‘kka ko‘tarmoq, qovog‘idan qor yog‘adi, ko‘ngli toza, fe’li keng, o‘zini yo‘-qotmoq, dunyoga kelmoq, fe’li tor, so‘xtasi sovuq, so‘zidan qaytmoq, ruhi ko‘tarilmoq, og‘zi mahkam, past kelmoq, kongli yumshoq, qo‘lga kiritmoq, esiga kelmoq, esi butun, shirin so‘z, chin ko‘ngildan, sir tutmoq.

184-mashq. “Toping-chi, qaysi iboralar nazarda tutilgan?” o‘yini. O‘qituvchi quyida berilgan tavsiflarni o‘qiydi. Talabalar qanday narsa haqida gap ketayotganligi va qaysi iboralar nazarda tutilganini aytadi.

Namuna: O‘qituvchi: – Uni ko‘taradilar, boshqalarni mensimay, har joyga suqadilar, boshqalarning ishiga aralashib, jazolash uchun yerga ishqaydilar.

Talaba: – Burun – burni ko‘tarilmoq, burnini suqmoq, burnini yerga ishqalamoq.

1. Uni ko‘taradigar, boshqalarni mensimay; har joyga suqadilar, boshqalarning ishiga aralashib; jazolash uchun yerga ishqaydilar.

2. Uni ko‘rib ko‘rmaganga oladilar, bitmaydigan ishni uning dumi yerga yetganda “bitiradilar”, kambag‘alni uning ustida ham it qopadi.

3. Uning ostida shavla qaynatadilar, baland ovoz bilan uni qomatga keltiradilar, zarur gapni unga quyadilar.

4. Undan fil ysaydilar, jimjit joyda uning ovozi eshitiladi, bekorchilikdan uni qo‘riydilar.

5. Befoyda sarflangan narsani unga oqizadilar, ishni chalkashtirish uchun uni loyqalatadilar, ayyor odam undan quruq chiqadi.

6. Uning ostidan kir izlaydilar, farzandsizlar unga zor bo‘ladi, pastkash odamlar unga arzimaydi.

7. Och qolgan kishi uning kirini so‘radi, zarur narsani uning kovagida asraydilar, qasd olish uchun uni qayraydilar.

8. Mensimagan odamni uning uchi bilan ko‘rsatadilar, birovning mavqeyiga putur yetkazish uchun undan tortadilar, mulohazali odam uni bilib bosadi, o‘z istagini amalga oshirish uchun uni tirab oladilar.

9. Hech kim unga ustun bo‘lmaydi, o‘zini baland tutgan kishi undan kelib gapiradai, ilojisiz kishiga u uzoq bo‘ladi.

10. Yashirin holda kelishish uchun uni biriktiradilar, ishni o‘rinlatgan kishida u uzun bo‘ladi, doim eslanadigan odamni undan qo‘ymaydilar, munofiq odamda u boshqa, dil boshqa bo‘ladi.

185-mashq. “Iboralar zanjiri” o‘yini. Bir talaba doskaga o‘zi bilgan iborani yozib, yonidan uning ma’nosini izohlaydi. Ikkinchi talaba ham xuddi shu ishni bajaradi, keyin uchinchi talaba va hokazo. Bunda har bir navbatdagi ibora oldingi ibora tugagan harfdan boshlanishi kerak.

Namuna:

- *ilonning yog‘ini yalagan (ayyor)*
- *nog‘orasiga o‘ynadi (birovning yo‘l-yo‘rig‘i bilan ish qildi)*
- *ipidan ignasigacha (batafsil)*
- *almisoqdan qolgan (juda eski)*

186-mashq. “Kim haqida shunday deydilar?” o‘yini. Talabalar ikki guruhga bo‘linadi. O‘qituvchi har bir guruhga navbatma-navbat iboralarni aytadi. Guruhdan bir talaba turib, kim haqida shunday deyilishini aytadi. Qaysi guruh ko‘proq to‘g‘ri javob topsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

- yulduzni benarvon uradi
- ammamning buzog‘i
- pixini yorgan
- qo‘li ochiq
- sirkasi suv ko‘tarmaydi
- ko‘nglida kiri yo‘q
- yer tagida ilon qimirlasa, biladi
- chumchuq pirr etsa, yuragi shirr etadi
- qo‘li egri
- qo‘lini sovuq suvga urmaydi
- o‘ziga bino qo‘ygan
- tegirmonga tushsa, butun chiqadi

187-mashq. “Bir so‘z bilan izohlang” o‘yini. Talabalar ikki guruhga bo‘linadi. Bir guruh ibora aytadi. Ikkinchi guruh uni bir so‘z bilan izohlaydi. Keyin ikkinchi guruh ibora aytib, birinchi guruh uni bir so‘z bilan izohlaydi. O‘yin shu tarzda davom ettirilib g‘olib aniqlanadi.

Namuna: terisiga somon tiqmoq – azoblamoq.

Foydalanish uchun iboralar: *ko‘z ochib yumguncha, tog‘ni ursa tolqon qiladigan, xamirdan qil sug‘urganday, yer tishlamoq, yog‘ tushsa yalaguday, tomdan tarasha tushganday, yetti yashardan yetmish yashargacha, turmush kechirmoq, yoqasini ushlamoq, sharti ketib, parti qolgan.*

LEKSIKOGRAFIYA

188-mashq. Ko‘z so‘zining turli lug‘atda berilgan izohini o‘qing. Izohlarning farqini tushuntiring.

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild, Toshkent, 2006. (So‘zning izohi qisqartirib olindi.)

Ko‘z 1. Tirik mavjudotning ko‘rish a‘zosi. *Ko‘z kosasi. Ko‘z oqi. Ko‘z qorachig‘i. Qora ko‘z. Ko‘k ko‘z. Xumor ko‘z. Ayagan ko‘zga cho‘p tushar. Maqol. Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi. Maqol.*

2. Nazar, nigoh, qarash. [*Kumushning*] *Ko‘zlari o‘ynaguvchi qizlarda bo‘lsa ham, haqiqatda boshqa narsani ko‘rgandek. A. Qodiriy, O‘tkan kunlar. Mansur hamon indamas, ko‘zlarini bir nuqtadan uzmas edi. O‘. Hoshimov*

3. Ko‘rish qobiliyati. *Ko‘zi xira. Ko‘zi o‘tkir. Kozi ojiz. Ko‘zi yaxshi emas. — Bir vaqtlar do‘ppi tikdim, ko‘rpa qavidim.. endi unday ishlarga ko‘zim o‘tmaydi. Oybek, Tanlangan asarlar. Yozuvchining ko‘zi ham, dimog‘i ham, qulog‘i ham hech kimnikuga o‘xshamaydi. Shukrullo, Javohirlar sandig‘i.*

4. *ko‘chma* Ba‘zi narsalarning biror belgisi bilan ajralib, ko‘zga o‘xshab ketadigan qismi, bo‘lagi. *Derazaning ko‘zi. Yog‘ochning ko‘zi. Buloqning ko‘zi.*

2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild, Toshkent, 2003.

Ko‘z – ko‘rish a‘zosi; umurtqasiz ba‘zi hayvonlar (jumladan, hasharotlar, boshoyoqli molluskalar), umurtqali barcha hayvonlar va odam yorug‘lik ta’sirlarini ko‘z bilan sezadi. Umurtqasiz hayvonlarning aksariyatida bir qadar murakkab ko‘rish a‘zolari (mas., fasetkali ko‘zlar) ko‘z vazifasini o‘taydi. Umurtqali hayvonlar va odamning juft ko‘zlari kallaning ko‘z kosalarida (orbitalarida) joylashgan bo‘lib, ko‘z soqqasi (ko‘rish analizatorlarining periferik qismi – asl ko‘z) va yordamchi qismlar (ko‘z qovoqlari, ko‘z yoshi apparatlari va ko‘zni harakatlantiruvchi muskullar)dan iborat. Ko‘z soqqasi (diametri 22 – 24 mm cha) ko‘rish yo‘li orqali bosh miya bilan bog‘langan.

Ko‘z soqqasining oldingi qismida muguz parda – dioptrik (yorug‘likni singdiradigan) apparat, ko‘z gavhari, suvsimon suyuqlik va shishachasimon tana, shuningdek, akkomodatsiya uchun xizmat qiladigan

kipriksimon tana va rangdor parda bor (bu parda tasvirni yorug‘ sezgir to‘r parda – retinaga o‘tkazadi).

Savollar:

1. Leksikografiyada nima o‘rganiladi?
2. Lug‘at nima?
3. Lug‘atning maqsad va mo‘ljali ko‘ra qanday turlari bor?
4. Umumiy lug‘at qanday lug‘at?
5. Maxsus lug‘at qanday lug‘at?
6. Ensiklopedik lug‘at qanday lug‘at?
7. Filologik lug‘at qanday lug‘at?
8. Ensiklopedik va filologik lug‘atning farqi nimada?
9. Umumiy ensiklopedik lug‘at haqida ma’lumot bering.
10. Umumiy filologik lug‘atga qanday lug‘atlar kiradi?
11. Izohli lug‘atda so‘zning qaysi jihatlari izohlanadi?
12. Maxsus ensiklopedik lug‘atlar haqida ma’lumot bering.
13. Maxsus filologik lug‘atga qanday lug‘atlar kiradi?
14. O‘quv lug‘atlari haqida ma’lumot bering.

189-mashq. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagi so‘zlar qanday izohlanganini va izohlardagi farqni ayting.

Suv, non, meva, oltin, cho‘qqi, kuch, olmos, kamalak, til, quyosh, so‘z.

190-mashq. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan *so‘z, yer, til, yo‘l, qora, ketmoq* so‘zlarining ma’nolarini o‘qing. Shu so‘zlardan bittasini tanlab, lug‘atda berilgan har bir ma’nosiga bittadan gap tuzing.

191-mashq. “O‘zbek tili izohli lug‘ati”ning sho‘ro davridagi (Moskva, 1981, 2 jildli) va mustaqillik davridagi (Toshkent, 2006 – 2008, 5 jildli) nashrida diniy tushunchalarni bildiruvchi so‘zlar qanday izohlanganini qiyosiy tahlil qiling va izohlardagi farqni tushuntiring.

192-mashq. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan shevaga oid (*shv.*), kitobiy (*kt*), eskirgan (*esk.*), poetik so‘z (*poet.*) kabi ishoralar bilan ko‘rsatilgan 5 tadan so‘zni ko‘chirib, bu ishoralarning nazariy fikrlarga qanchalik muvofiq kelishi haqida mulohazangizni ayting.

193-mashq. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan uzum va baliq turlarini bildiruvchi so‘zlarni topib, izohini o‘qing va eslab qoling.

194-mashq. “Boshlangich sinf o‘quvchilari uchun izohli lug‘at” (F. Safarov, S. Safarov Toshkent, “Fan”, 2012) dan foydalanib, she‘rlardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma‘nosini izohlang.

AYAMAJIZ

Biyday cho‘l-u dalalar,
Bo‘ralar qor kapalak.
Boglar **sokin**, mizg‘ishar
Misoli oq kapalak.

Muz oynalar sovuq yeb,
Anhorchada qirsillar,
Tarnovlarda sumalak
Shodalari chirsillar.

Saxiy ona tabiat
Quchog‘ida havo **sof**.
Onda-sonda ko‘rinar
Nursiz, qizg‘ish oftob.

Ayamajiz izg‘iydi
Ko‘chalarda **tutaqib**.
Shox-shabbani tortqilar
Yalmog‘izdek **yutoqib**...

Ko‘k maysalar **nish urib**,
Yerning baland-pastida,
Go‘zal bahor **serkillab**
Yetilar yer ostida.

(Q. Hikmat)

QISH ZAVQI

Tom ustida **pashmak tolqon**
Kappa-kappa yesammi?
Tarnovlardan chak-chak oqqan
Suvni sharbat desammi?

Sumalaklar shokilasi
Novvot bo‘lib qotibdi
O‘rik, tutning shox, novdasi
Nisholdaga botibdi.

Qor **qiyomin** shimib **shudgor**
Semirar qishi bilan.
Chigit eksak, dovrug‘i bor,
Paxtakor ishi bilan.

Ish ham shirin, qish ham shirin,
Go‘zal har bir faslimiz.
Kuyim jo‘shqin! Aytsam sirin:
Zavq bergan hur xalqimiz!

(H. Yoqubov)

“Qish zavqi” she‘ridagi pashmak, tolqon, novvot, nisholda, qiyom, semirmoq, shirin so‘zlari qanday ma‘noda ishlatilgan?

195-mashq. “Boshlangich sinf o‘quvchilari uchun izohli lug‘at”dan foydalanib quyidagi so‘zlarning ma’nosini izohlang va ulardan 10 tasi ishtirokida gap tuzing.

Asov, amirkon, arka, ayil, ashyo, bargak, cho‘zma, cho‘tir, battol, belanmoq, ifor, betilmoch, evaz, hamnishin, beqasam, billur, cho‘ltoq, bodramoq, dovon, dudburon, dizayn, boldoq, bosvoldi, bujur, bo‘rsil-lamoq, bo‘g‘ot, devkor, dur, dumbul, engil, firdavs, firuza, fozil, gajak, gap, gaz, gijinglamoq, gulkor, halollamoq, hamal, harir, guvala, hay-tovur, hovoncha, hovur, chiyratma, ilonizi, inju, inoyat, ishkom, jambil, javdar, jeton, jibljibon, jir, jiyron, kallaklamoq, kamar, kertmoq, kiber-netika, kimxob, kofur, kungay, kuymalanmoq, ko‘mik, ko‘pchimoq, laxcha, lochira, lojuvard, ma‘rifat, ma‘vo, malomat, massoh, mijoz, model, monument, muallaq, mufti, muhra, mustajob, muruvvat, mush-tipar, mo‘rkon, mo‘tadil, nash‘a, nektar, obiyovg‘on, niqtamoq, norin, novvos, nuqra, olachipor, olchoq, orbita, paykal, pay, urmoq, pashmak, piyma, pushta, qandak, qatqaloq, qimiz, qiyom, qumoq, quroq, qo‘r, qo‘lantayoq, qo‘g‘irmoch, radiatsiya, ramz, rayhon, sadaf, salloh, san-don, sapcha, sag‘ri, serbar, sohibkor, sopqon, sumbul, suruv, so‘qa, ta-assub, tagdo‘zi, targ‘il, tivit, tushov, to‘qay, to‘rlamoq, umbirvoqi, uvat, vojib, xari, xazonchinak, qilmoq, xurjun, yapasqi, yertut, yog‘-log‘i, yovuq, yaxob, zabarjad, o‘zan, shikor, shinni, chiy, cho‘ltoq.

196-mashq. A. Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”dan *avaylamoq, qirg‘oq, yaxshi, chol, sabab, ovqat* so‘zlarining ma‘nodoshlari haqidagi izohlarni o‘qing va ma‘nodosh so‘zlarning farqini tushuntiring.

197-mashq. Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1992)dan foydalanib, quyidagi iboralarning ma‘nosini izohlang va ularning 6 tasi ishtirokida gap tuzing.

Ayil botmoq, avra-astarini ag‘darmoq, barq urib, ko‘chasidan o‘t-maslik, bayt-u g‘azallar aytmoq, bir ko‘z bilan qaramoq, bozor bahosi, bozori chaqqon, tagiga suv quymoq, boshini bog‘lamoq, bo‘yni yo‘-g‘on, gapga bichgan, gapidan latta hidi keladi, gapni ilib ketmoq, dami-ni kesmoq, do‘ppi tor keldi, yelkasining chuquri ko‘rsin, yetti qovun pishig‘i, yolg‘iz oyoq, yog‘i chiqadimi?, jilovini tortib qo‘ymoq, jir bitdi, zuvalasi pishiq, ikki gapning birida, ildiz otmoq, ip esha olmaslik, ko‘zni oladi, marra bizniki, nam tortmoq, noma‘qul buzoqning go‘sh-tini yemoq, non yemoq, oyog‘ini uzatmoq, oyog‘ini yerga tegizmay,

ona sutiday, orqasida qolmoq, otni qamchilamoq, oftobda qatiq ichishgan, oqi oqqa, qizili qizilga ajraldi, oq uylik, ola bargaklik bo'lmoq, og'ziga qaramoq.

198-mashq. "O'zbek tilining imlo lug'ati" (Toshkent, "O'qituvchi", 1995)dan foydalanib, berilgan so'zlardagi imloviy xatolarni tuzatib yozing.

Abzats, abaniment, adoi tamom, axmoq, ajabtavur, aksiyoma, aktor, akvaryum, alahsimoq, alayhisalom, andova, aldarn-qadam, albastr, alkaloyit, mutaxasis, appelyatsiya, apiltapil, aparat, atir sovun, atestat, astoidil, ayuhannos, azoi badan, badan tarbiya, bajonidil, bakkalavr, balon, bahya, baynalminal, barvaxt, amrimahol, arxif, astafug'rullo, bajonidil, ba'zibir, bekamu ko'st, bexud, beshiktebratar, bolapaqir, baldoq, boyaqish, brilliant, byudjet, bulduruq, bunkir, bo'qoq, burushmoq, burunduq, bug'alter, bo'yarak, buyrakrat, dafa, dafata, tama, darvish, dastlabki, davru davron, dahmaza, dimoq, dizinfeksiya, dirijyor, duxobka, elan-qarin, etyud, feleton, fidoiy, foyiz, fojea, fotoaparat, glyukoza, gavron, grasmester, gulira'no, gulsafsar, gustox, xalfana, haq rost, haqiqatdan, hazil-mutoyiba, xazin, hiqqichoq, hurkovich, iptidoiy, igrik, ikki yoqlama, imunitet, ipirisqi, ifor, ispot, ichak-chavoq, janbil, jimpir, jiton, jumbush, qahrabo, kalkulyator, kallapocha, kaltsiy, kapkir, kapilyar, kovush, karasin, klavin, kilyonka, kolyaska, kompis, kampot, koperativ, krasvord, kunfayakun, lahim (g'osht), leykotsit, lotoreya, lyustra, ma'sul, madan, mas'um, mayus, metod birlashma, meyyor, misgar, malyuska, motosikl, moshguruch, mo'miyo, mutassib, mutaxasis, mutoala, naqorat, nasya, namatak, obi yovg'on, obi zamzam, ohangrabo, akean, olabula, ola-chipor, alqamoq, analogiya, orangutan, orqavarotdan, otryad, polapon, palapartish, pandavaqi, paydarpay, pensilin, perpendikulyar, peshona, pechenye, pillipoya, pistaqi, pavidlo, purjina, po'skalla, qaqshatkich, qasttan, qavjiramoq, qorong'u, rejisyor, relief, sansalorlik, say-harakat, sikund, salafan, servis (idish), tsikl, solidor, senariy, sovutkich, suiste'mol, suflyor, suvliq, suvoriy, suqsur, svitir, tajub, taluqli, tasurot, tabil, tatqiq, ta'ma, ta'magir, tamomila, taxsim, tafiq, tafsif, tayziq, tatil, tiatr, televizir, tenis, tilkapora, tamat, trilyon, traleybus, tyulen, tunel, tuturuq, to'g'anoq, uddaburro, uniqmoq, vaj-karson, vazilin, vos-vos, hatti-harahat, hattot, xoxolamoq, xayrixoh, xamak, hoqon, yalang oyoq, yoritqich,

yastanmoq, zaha, zahira, zahm, zormanda, o‘qdori, o‘qchimoq, shap-ko‘r, shapati, sha‘riy, shahd, shifir, shipak, shulxa, shahanshoh, shovshuv, shu‘ba, choyidish, talofat, zalvorli, taqiqlamoq, bug‘i, tum taraqay, shalpanquloq.

MORFEMIKA

199-mashq. Berilgan soʻzlarni qiya chiziq (/) bilan morfemalarga ajrating. Oʻzak va qoʻshimchalarni koʻrsatib, maʼnosini izohlang.

Bayramingiz, mustaqillik, avlodlarga, buyumlarning, yurt, suhbatlashib, etikdoʻz, yashayotgan, mehmonxonalar, ikkita, koʻmaklashadi, yomonlagan, yuringlar, bittagina, tosh, chekkarogʻida, uyalmay, ahillik, notoʻliq, qoʻrqqanimdan, afsuslanibdi, buzoqcha, maʼrasa, tipraktikan, halollik, hovliqma, birgalashib, merganman, tokzorda, shamolagandir-da, boʻtaloqlarim, soʻridagi, tarovatli, yangicha, suv, karam, aytganingizdek, shaftolizor, topqirligiga, toʻqnashuvda, uyquchiroq.

Savollar:

1. Morfema nima? Uning qanday turlari bor?
2. Oʻzak morfemaning xususiyatini ayting.
3. Qoʻshimcha morfema qanday xususiyatga ega?

200-mashq. Berilgan soʻzlarni morfemalarga ajrating va morfemalar asosida ularning maʼnosini izohlang.

Afsonaviy, anʼanaviy, ardoqlamoq, ayozli, badantarbiya, bahaybat, bearmon, bedarak, befarosat, behol, beldor, betilmoch, begʻubor, burushiq, boʻlmali, boʻribosar, dillashmoq, doʻkondor, fidoyi, halollik, hayotbaxsh, hasharchi, hayratlanarli, hukmdor, istilochi, hurkovich, jarangdor, jilovlamoq, qoʻshma, maʼrifatparvar, kasalmand, manmanlik, qadrlamoq, mulohazali, quvlik, ramziy, samoviy, savagʻich, serbar, serhasham, serhosil, tunukasoz, vafodor, uygʻunlashmoq, xalqchil, xayolchan, xosiyatli, yodgorlik, zahmatkash, ziyoratgoh.

Soʻzni morfemaga ajratib tahlil qilishning qanday amaliy ahamiyati bor?

201-mashq. Berilgan soʻzlarni oʻzak va qoʻshimchaga ajrating. Oʻzak va yasama soʻzning maʼnosini qiyoslab, qoʻshimchaning oʻzak maʼnosiga qanday taʼsir qilayotganini tushuntiring.

Sayohatchi, guldon, tilshunos, davlatmand, suvli, sergap, bebaho, holvapaz, soatsoz, jurnalxon, anorzor, boylik, chegarachi, taʼkidlamoq,

saxovatli, paxtazor, takrorlamoq, salomlashmoq, paxtakor, tuxum-simon, hamfikir, choyxo‘r, shifobaxsh, ijodiy, sinfdosh, aravakash, sayrgoh.

Savollar:

1. So‘zlardagi qo‘shimchalar qanday qo‘shimcha deyiladi?
2. So‘z yasovchi qo‘shimcha deganda nimani tushunasiz?

202-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi luga‘viy shakl yasovchi qo‘shimchalarni aniqlab, ma’nosini izohlang.

1. **Mittigina, quvnoqqina, yebto‘ymasgina** bir **sichqoncha** bor ekan. U suyukli **onajonisi** bilan birga qishloqdagi eng baland, eng ko‘rkam uyning kovagida yashar ekan. (*A. Obidjon*) 2. Baland tog‘ etagida **ikkita** katta-kichik qo‘shni buloqdan yonma-yon ikki irmoq oqib chiqdi. Katta buloqning irmog‘i kichik buloqnikiga qaraganda **kuchliroq** edi. (*H. Po‘latov*) 3. **O‘tgan** davr mobaynida yoshi ulug‘lar ham, yoshi kichiklar ham qayta tug‘ildi. (*S. Barnoyev*) 4. – Yur, **ko‘rsataman**, – dedim-da, do‘stimni boshlab, bog‘ etagidagi qafasda turgan bo‘rsiq oldiga olib bordim. Qafasda turgan bo‘rsiqni har tarafga **sakratib, o‘ynatib** maza qildik. (*G‘ayratiy*) 5. O‘shanda **uchinchi** sinfda o‘qirdim. (*A. Jo‘rayev*) 6. Bu senga shunchaki rasm emas, xarita. Xarita **chizish** uchun kalla kerak. (*N. Norqobil*) 7. Uydagi qolgan-qutgan narsalarni yig‘ishtirib, tugunchalarga bog‘lab, kichik qutilarga **joylagach**, bobom fotihaga qo‘shib tilovat qildilar. (*A. Jo‘rayev*) 8. Quyosh nuri tushgan **barglar**, kech ochilgan **gullar**, lo‘ppi-lo‘ppi **paxtalar** ko‘zni qamashtiradi. (“*Saxovatli fasl*” matnidan) 9. Yengimni shimarib – men, paykalda Hasan, Husan, **uchalamiz** zaptiga olib, atayin katta-katta qovunlarni inqillab polizdan ko‘tarib chiqdik. (*Sh. Sa‘dulla*) 10. Agar uyqusirab, bir yondan ikkinchi yonga **ag‘darilsa** yoki qattiqroq tovush chiqarib **uyg‘otilsa**, turishga harakat qilib, jarga qulab ketishi mumkin edi. (“*Eng ulug‘ fazilat*” ertagidan) 11. O‘g‘illarim, sizlarni **yedirdim, ichirdim, voyaga yetkazdim**. (“*Ilm afzal*” ertagidan) 12. So‘ngra otasi o‘g‘illariga **bittadan** novda beribdi, o‘g‘illar ularni bir zumda sindirishibdi. (“*Ahillik – ulug‘ baxt*” ertagidan) 13. – **Qizginam-ey**, axir kiyimlaringni har yerga tashlama, ilgakka ilib qo‘y, deb senga necha marta aytaman, – dedi Habiba opa uy ichini ko‘zdan kechirib. (*M. Murodov*)

14. Quyosh tushar taftidan,
Qo‘rqib qishning aftidan. (*Sh. Sa‘dulla*)
15. Kuz kelganda uyimizda to‘y bo‘ladi,
Qo‘zichog‘im o‘sib katta qo‘y bo‘ladi. (*T. Yo‘ldosh*)
16. **Bolajon**, sen doim suyuksan,
 Bilib qo‘y, iqboli buyuksan! (*A. Oripov*)

Savollar:

1. Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarning vazifasi nimadan iborat?
2. Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarga qaysi qo‘shimchalar kiradi?

203-mashq. Gaplarni nuqtalar o‘rniga zarur qo‘shimchani qo‘yib yozing. Qo‘ygan qo‘shimchalarining vazifasini tushuntiring.



Ozod bilan Nosir... ko‘ngl...ni vahima xuddi oqshom g‘ira-shirasi kabi bosib kela boshla... .

Ular tarbiyachilari... qanchadan qancha uqtirishlar... qaramay, tush... so‘ng g‘oyib bo‘lishgandi. Rosti, tog‘... so‘lim tabiat... ular... bezovta qilib qo‘y... . Ozod bilan Nosir hamqishloq emasmi, darhol til biriktirib sayr... chiqib ketish... . Soylik... o‘tib, to‘g‘ri qirdagi chakalkzor... yo‘l oldilar. Hilvirab pishgan yoki endi yetilib kelayotgan olma-yu o‘riklar... xushbo‘y hid... anqiydi. Yana anglab bo‘lmas, hidi... o‘xshov... yo‘q mevalar juda ko‘p. Ozod yo‘l... o‘zining sinchkov va topqirligi... namoyish qilardi:

- Manavi ko‘ksulton... qara-ya, salkam olxo‘ridek keladi.
- Sen oyog‘ing ostidagi yertut... kormap...-a. Nosir ham Ozod bilan “bellashadi”. (*M. Xidir*)

Savollar:

1. Siz nuqtalar o‘rniga qo‘ygan qo‘shimchalar qanday qo‘shimcha deyiladi?
2. Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalarning¹ vazifasi nimadan iborat?
3. Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalarga qaysi qo‘shimchalar kiradi?

204-mashq. So‘zlardagi o‘zak va qo‘shimchalarni aniqlab, ularning ustiga tegishli belgilarni qo‘ying. O‘zakning ustiga yarim aylana () , so‘z yasovchi qo‘shimchani ustiga burchak () , lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchani


¹ Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar boshlang‘ich sinf “Ona tili” darsliklarida so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha deb yuritiladi.

ustiga to‘lqinli chiziq (~~~~), sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchani ustiga yarim to‘rtburchak (┌┐) belgisini qo‘ying.

Namuna: gulzorlardan

Avlodlarga, beqiyos, ozgina, sevmoqni, birinchi, mamlakatimizda, baqalarning, kichikroq, ochilgan, so‘rasa, tushuntirmoqchi, o‘tadigan, sharillab, o‘rganamiz, suvsiz, serquyosh, farovonlik, etikdo‘z, o‘zgarish, bekinmashoq, qo‘zichog‘im, bitta, o‘qiganman, tashlandiq, aqlsizlikda, shirinlikka, mashhurdir, mehmonxonalar, ulg‘aymoqdamiz, vakilisan, maqtanma, qo‘lingdadir, uzumzordan, ahillik, beraveribdi, xalqparvar, qirilib, kiygizib, sotishni, uzatibdi, kamsitmay, bittadan, orttiringlar, vafodor, do‘stlashibdi, indamabdi, akasinikiga, yugurganicha, bisotidagi, savag‘ich, qarasarlar, ekkanga, sindirdingiz, oyijonimga, qo‘rqqanimdan, merganman, g‘amxo‘rligidan.

205-mashq. Berilgan tarkibga mos so‘zlar toping.



206-mashq. So‘zlar tarkibini tahlil qilib, o‘zak, so‘z yasovchi, lug‘aviy shakl va sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalarning tartibiga e‘tibor qiling.

Paxtakorlarga, tarbiyachilardan, oqlandi, davolatdi, kasallanishga, quyonchaga, tortmachadan, taqillatdi, bexavotir, sharafliroqdir, noo‘rin, yurtdoshlarimiz, abadiylashtirishni, aqlliginam, allalagani, qiynalmadi, sergap, behollik, aravachada, quchoqlaganicha, boshlandi.

Savollar:

1. O‘zbek tilida so‘z tarkibida o‘zak va qo‘shimchalar asosan qanday tartibda joylashadi?
2. So‘z yasovchi qo‘shimcha o‘zakdan oldin ham kelishi mumkinmi?

207-mashq. So‘zlarni o‘zak va qo‘shimchalarga ajrating. Sodda va murakkab qo‘shimchalarni ko‘rsating.

Qo‘shiqchi, barglar, loygarchilik, kattaroq, tezgina, semizroq, uyniki, qishloq-qacha, o‘zbekchilik, borganda, temirchilik, gazlashtirish, olgach, qahramonlarcha, bog‘dagi, nazokatli, tog‘day, bulbulcha, ketkaz,

tokzor, uyatsiz, qadrdon, sergo'sht, sinfdosh, ko'kalamzorlashtirish, xafachilik, purkagich, yugurgancha, baxtli, do'pping, xalqqa, yillardan, qadrlash, ovoragarchilik, kuzgi, tulkining, borayotgan, suvchilik.

208-mashq. Berilgan so'zlarda **-li, -ma, -la, -chilik, -dor, no-, be-, -siz, -lik** qo'shimchalari qanday ma'no ifodalayotganini aniqlang.

Aqlli, yeyishli, yelkali, yog'li, qaynatma, burama, arrala, yog'la, tekisla, bolala, qishla, pishiqchilik, paxtachilik, tirikchilik, o'zbekchilik, mansabdor, chorvador, shirador, bo'ydor, noumid, noiloj, no-to'g'ri, notinch, bedavo, beg'ubor, beg'am, bebaraka, tuzsiz, cababsiz, aqlsiz, mazasiz, bolalik, zargarlik, mardlik, shoirlik.

Qo'shimcha ko'p ma'noli bo'lishi mumkinmi?

209- mashq. Berilgan so'zlardan **-li, -dor, ser-, ba-, -siz, no-, be-, -soz, -chi; -chi, -shunos** qo'shimchalari yordamida yangi so'z hosil qiling. Bu qo'shimchalar orasidagi ma'no munosabatini izohlang.

Davlat, shira, suv, ma'no, odob; aql, o'rin, iloj, to'g'ri, odob; soat, arava; adabiyot, tarix, baliq.

Savollar:

1. Qo'shimchalar ma'nodoshligi deganda nimani tushunasiz?
2. Ma'nodosh qo'shimchalar doim ham bir-birini almashtira oladimi?
3. Nima uchun **no-** qo'shimchasi **-siz, be-** qo'shimchalari bilan ko'p holda ma'nodoshlik hosil qilmaydi?

210-mashq. Berilgan so'zlardagi so'z yasovchi qo'shimchalarni aniqlang. Bu qo'shimchalar orasidagi ma'no munosabatini tushuntiring.

Baxtli, baxtsiz, insofli, insofsiz, qurolli, qurolsiz, yog'li, yog'siz; odobli, beodob, iboli, beibo, suvli, besuv, mulohazali, bemulohaza, fayzli, befayz, mehrlil, bemehr, quvvatli, bequvvat; babaraka, bebaraka, bama'ni, bema'ni, bahuzur, behuzur, baquvvat, bequvvat, baodob, beodob, batartib, betartib, bamosita, bevosita, bamaza, bemaza; sersuv, suvsiz, sermulozamat, mulozamatsiz, serg'ayrat, g'ayratsiz, sermashaqqat, mashaqqatsiz, sergo'sht, go'shtsiz, serunum, unumsiz; go'shtdor,

go'shtsiz, aybdor, aybsiz, shirador, shirasiz, unumdor, unumsiz; o'rinli, noo'rin, insofli, noinsof, tayinli, notayin, umidli, noumid.

Zid ma'noli qo'shimchalar deganda nimani tushunasiz? Yuqoridagi so'zlar qanday yasalgan?

211-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ma'noli qismlarga bo'ling va shakldosh qo'shimchalarni aniqlang.

1. Tilma zovurdan chiqib, tuproq uyumidan sakrab o'tgan Alijon **qaytarma** etigiga yopishgan tuproqni jahl bilan qoqdi. (*H. Nu'mon*)
2. Gaporilgan gaplarni **qaytarmang-da**, hatto o'zingiz aytgan gaplarni takrorlayotirsiz! Konkret faktlarga o'ting. (*A. Qahhor*)
3. Alijon kabob sixidan bir **to'g'ram** sersel qaynoq go'shtni og'ziga soldi. (*H. G'ulom*)
4. Ko'zimni **ochsam**, o'zimga ikkita keladigan galvarsday yigit yerda dumalab yotibdi. (*S. Siyoyev*)
5. Dasturxonni yig'uvchi **kelinchakka** o'g'il tilab duo qilganlaridan keyin, qo'liga o'ttiz chaqa surma puli berdilar. (*A. Qodiriy*)
6. Sodda, bolalari uchun **kuyinchak**, qo'ni-qo'sh-nilar, aqrabolar bilan hamisha xushmuomala ayol. (*Oybek*)
7. **Toychoqlar** quloqlarini chimirib, kishnashib, o'ynoqlashib, gala-gala bo'lib, quduqqa tashlanishdi. (*I. Rahim*)
8. Qo'sh belbog' chapanchasiga past bog'langan, yurishi ham oliftalarga taqlidni ko'rsatar; uning butun qomati, hamma harakatlari o'ziga zeb bergan, **maqtanchoq** kambag'alni tasvirlar edi. (*Oybek*)
9. Shaharlik katta bir odamning oldiga yirtiq va kirlan-gan **qishloqcha** kiyim bilan qanday borib kira olardim? (*S. Ayniy*) Tog' etagidagi **qishloqchada** yashaymiz.

Savollar:

1. Shakldosh qo'shimcha deganda nimani tushunasiz?
2. Yana qanday shakldosh qo'shimchalarni bilasiz?

SO‘Z YASALISHI

212-mashq. Berilgan so‘zlarni tub va yasama so‘zlarga ajrating. Yasama so‘zlarning yasalish usulini tushuntiring.

Hurlik, mustaqillik, boy, tarix, umumxalq, madaniyat, mukammal, sport, mehmondo‘st, soy, hovliqma, beshiktervatar, yoshlik, toshko‘mir, topqir, oshqovoq, savdogar, kamaymoq, kamhosil, mehnatkash, fojiali, ko‘maklashmoq, ozod, odam, ari, salom bermoq, simyog‘och, ovlamoq, lashkarboshi, baliq, chinnigul, qo‘shiq, asalari, laylakqor, samarali, osh, mingoyoq, olibsotar, soat, bodomqovoq, katta qilmoq, go‘zallik.

Savollar:

1. So‘z yasalishi bo‘limida nima o‘rganiladi?
2. Tub so‘z nima?
3. Yasama so‘z nima?
4. Yasalish asosi, yasovchi komponent, yasovchi qo‘shimcha, yasalma terminlari nimani anglatadi?
5. O‘zbek tilida so‘z yasashning qanday usullari mavjud?
6. Affiksatsiya usuli bilan so‘z yasalishi deganda nimani tushunasiz?
7. Kompozitsiya usuli bilan qanday so‘zlar hosil qilinadi?
8. Sodda so‘z bilan qo‘shma so‘zning farqi nimada?
9. Qo‘shma so‘z so‘z birikmasidan nimasi bilan farq qiladi?

213-mashq. Matnlardan affiksatsiya usuli bilan yasalgan so‘zlarni topib, namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: *mustaqillik* – sodda yasama so‘z, affiksatsiya usuli bilan yasalgan, yasalish asosi *mustaqil*, yasovchi qo‘shimcha *-lik*, sifatdan ot yasalgan.

I. 1991-yil 31-avgust O‘zbekistonimiz uchun asrga tatigulik kun bo‘ldi. Shu kundan boshlab O‘zbekiston zaminida mardona “mustaqillik” so‘zi tilimizga ko‘chdi, ongimiz, tilimizdagi qulf sharaqlab ochilib ketdi.

O‘tgan davr mobaynida yoshi ulug‘lar ham, yoshi kichiklar ham qayta tug‘ildi. Bobomiz sohibqiron Amir Temurni tanidik. Shoh va shoir, sarkarda Bobur mirzoning ruhini shod etdik. Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy, Bahovuddin Naqshbandiy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Xoja Ali Romitaniy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi yuzlab ajdodlarimizni bilib oldik.

Istiqlolga erishgach, qisqa muddat ichida O‘zbekiston dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqib oldi. Bunda mashinasozlik, samolyotsozlik kabi sanoat tarmoqlari, yer osti qazilma boyliklari, qishloq xo‘jaligi katta ahamiyat kasb etadi.

O‘tgan yillar ichida O‘zbekiston o‘z bug‘doy zaxirasiga ega bo‘ldi. “O‘zbekiston bug‘doyi” degan so‘zlar til boyligimizdan mustahkam o‘rin egalladi. Toshkent, Buxoro, Xiva hamda Samarqanddagi tarixiy obidalarga e‘tibor kuchaydi.

Bugun qishloqlarimizga sanoat kirib bormoqda. Dunyoning eng so‘nggi texnikasi O‘zbekistonga ko‘chib kelmoqda. (*S. Barnoyev*)

II. Mehrjon bilan Navro‘z o‘zbeklarning eng go‘zal, eng tarovatli bayram sayillaridan hisoblanadi. Chunki ular xalqchil, hayotiy an‘analardir.

Navro‘z bahor kirishi, qishning ayozli kunlaridan uzil-kesil qutulib, yangi kun, yangicha hayotning boshlanishini nishonlash bayramidir.

Mehrjon esa hosil ko‘tarib, qishga tayyorgarlik ko‘rishdir, to‘kinsochinlikka shukronalik, hayotga muhabbat ramzidir.

Xalq kuzgi bayram sayilining nomini “Mehrjon” deb bilib qo‘ygan. U dehqon yil bo‘yi qilgan mehnatining lazzatini totib ko‘rayotgan paytda – 25-sentabrga o‘tar kechasi nishonlanadi. (*M. Murodov*)

214-mashq. Berilgan misollardan qo‘shma so‘zlarni aniqlab, namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: *moviyrang* – *yasama so‘z, qo‘shma so‘z, kompozitsiya usuli bilan yasalgan, yasovchi qismlar moviy va rang, sifat va otdan sifat yasalgan; darak bermoqda* – *yasama so‘z, qo‘shma so‘z, kompozitsiya usuli bilan yasalgan, yasovchi qismlar darak va ber, ot va yordamchi fe‘ldan fe‘l yasalgan; olib kelardi* – *yasama so‘z, qo‘shma so‘z, kompozitsiya usuli bilan yasalgan, yasovchi qismlar olib va kel, fe‘l va fe‘ldan fe‘l yasalgan.*

1. Hilvirab pishgan yoki endi yetilib kelayotgan olma-yu o‘riklarning xushbo‘y hidi anqiydi. (*M. Xidir*) 2. Vatanga muhabbat uning dalalari, qir-adirlari, moviyrang tog‘lari, dasht-u sahrolariga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi. (*X. Davron*) 3. Ammo chizgani o‘ziga yoqmad, ikkinchi, uchinchi ham ma‘qul kelmadi. (*N. Norqobil*) 4. Manavi ko‘ksultonni qara-ya, salkam olxo‘ridek keladi. (*M. Xidir*) 5. Gohida kichik, hidli handalakchalar olib kelardi. (*Sh. Sa‘dulla*) 6. Qilayotgan ishi uni o‘ziga qattiq mahliyo qilib qo‘ygan edi. (*N. Norqobil*) 7. Manavini o‘zimiz cho‘miladigan ko‘l, bunisi podayotoq... (*N. Norqobil*)

8. – Sen oyog‘ing ostidagi yertutni ko‘rmapsan-a. (*M. Xidir*) 9. Salqin kechalar, ertalab maysa-ko‘katlar, dov-daraxtlar barglarini bezaydigan shudringlar kuz kelganidan darak bermoqda. (“*Saxovatli fasl*” *matnidan*) 10. Birozdan so‘ng bobom aytgan Shoyim tog‘a mashinasida yetib keldi. (*A. Jo‘rayev*) 11. Toshkent ko‘chalaridan avtobus, tramvaylar qatnaydi. Bulardan tashqari yerosti temiryo‘li – metro qurilgan. Toshkentda O‘zbekiston havo yo‘llari aviakompaniyasi, ikkita temiryo‘l vokzali, avtovokzallar bor. (*M. Hamidova*) 12. Buni sezgan Erdon tog‘a bobomni bir piyola choyga taklif qildi. (*A. Jo‘rayev*) 13. – Hosilga baraka! – deb qichqirishdi ular bizlarni ko‘rib. Keyin yaqin kelib, hayron qolishdi. (*Sh. Sa‘dulla*) 14. Fe‘li keng, saxovatli, mehmondo‘st o‘zbeklarning dong‘i hamma yoqqa ketgan. (*Mirmuhsin*) 15. Oltinchi: maqbaraga, qabristonga borsang, salom ber. (*Husayn Voiz Koshifiy*) 16. Bizning Qalandar boy kuzda kambag‘allarning paxtasini arzon-arzon sotib olib, saroyiga bosib qo‘yadi. (*M. Ismoiliy*)

215-mashq. Berilgan so‘zlar ichidan o‘zakdosh so‘zlarni topib, guruhlab yozing. O‘zagini ko‘rsating.

Tekis, uzumzor, tekisla, tekisroq, uzumchilik, uzumni, toza, aybli, bosh, tozala, aybsiz, suvsiz, suvlar, tozalik, aybdor, aybni, suvchi, suvi, suv, boshla, qora, yozuvchi, bosh, suvchilik, boshliq, yoz, sez, sezgi, qovur, sezilarli, qovurdoq, tekislik, sezgir, qovurg‘a, qovurtir, qovurma, qon, qorala, qoniq, yozma, uzum, gulchi, qona, gulzor, qondosh, qonli, qoniqarli, gul, suvsa, qoray.

Savollar:

1. O‘zakdosh so‘z deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zakka shakl yasovchi qo‘shimcha qo‘shilganda ham o‘zakdosh so‘z hosil bo‘ladimi?
3. Negiz nima?

216-mashq. Quyidagi so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shish orqali yangi so‘zlar hosil qiling.

Til, so‘z, shamol, gup, haq, arra, ye, tayyor, chroy, vatan, dars, loy, dori, yer, ijod, yon (harakat), paxta, baliq, joy, jon, zaif, zamon, zor, zot, xabar, ilm, yalt, inson, itoat, ish, yirt, yo‘l, yo‘q, kam, katta, kes, kerak.

MORFOLOGIYA

217-mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning leksik va grammatik ma‘nosi hamda grammatik shaklini namunadagidek izohlang.

Namuna: *boyliklarning* – leksik ma‘nosi: tabiiy, moddiy resurslar majmui; grammatik ma‘nosi: predmet, ot, ko‘plik, qarashlilik, gapda aniqlovchi vazifasida kelgan; ko‘plik son va qaratqich kelishigi shaklida kelgan.

Tabiatning **ajoyib** tuhfası – ona Yerimizdir. Yer jamiki **boyliklarning, ne‘matlarning** onasi hisoblanadi.

Tabiatni **sevish**, uni asrash, yon-atrofnı ko‘kalamzorlashtirish, bog‘-rog‘larga aylantirish ham ona Yernı sevish demakdir.

Nima uchun ona Yer deymiz?

Shuning uchunki, dunyoga kelibog uning nafasi bilan nafas olasiz. **Birinchi** qadamni uning bag‘riga **qo‘yasiz**. U sizni kiyintiradi, **to‘ydiradi**, ardoqlaydi... Ona qo‘ynida qanday yayrab-yashnasangiz, zamin taftida ham o‘shanday unib-o‘sasiz, voyaga yetasiz. **Onangiz** sut, otangiz tuz bersa, ona Yer non beradi, obihayot beradi... Shuning uchun u eng mo‘tabar inson – ona nomi bilan bog‘lab aytiladi.

Savollar:

1. Grammatikada nima o‘rganiladi?
2. Grammatika qanday tarkibiy qismlardan iborat?
3. Morfologiyada nima o‘rganiladi?
4. Sintaksisda nima o‘rganiladi?
5. Morfologiya va sintaksisning bog‘liqligi nimada?
6. Grammatik ma‘no nima?
7. Grammatik shakl nima?

218-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va gaplarning grammatik ma‘nosini izohlang va ularda grammatik ma‘no qanday vosita bilan ifodalanganini ayting.

1. Qani, **yur!** (*X. To‘xtaboyev*) 2. **Sovliq** oldinga qarab yurdi, qo‘zi-choq orqasidan yugurdi. (*S. Anorboyev*) 3. **Poytaxtimizda** ko‘p qavatli osmono‘par **binolar**, istirohat bog‘lari, **mehmonxonalar** bor. (*M. Hamidova*) 4. – Mening tomirchalarim tuni bilan suv axtarib chiqishdi, – dedi **bitta** nozikkina **niholcha**. (*X. To‘xtaboyev*) 5. Sen ovchining yo‘lidan chiqib, o‘zingni yarador **ko‘rsatasan**. (“*Do‘stlar*” ertagidan) 6. Ertalabki choyni **bobom** bilan birga **ichdik**. (*G‘ayratiy*) 7. Bu asboblarni o‘zlari ishlatadilar. **Ketmon bilan** yer chopadilar. **Belkurak**

bilan daraxtlarning tagini yumshatadilar. (*M. Ismoilij*) 8. Bir odamga ham ro‘zg‘or, **qozon-tovoq** kerak, butlab olsang bo‘lar ekan. Hozir yeb-ichadigan payting. (*S. Nurov*) 9. **Uzun-uzun** pushtalarda **katta-katta** olachipor tarvuzlar dumalab yotardi. (*Sh. Sa‘dulla*) 10. **Dars boshlandi**. 11. **Dars boshlandi?** 12. **Dars boshlandi!** 13. Mehrjon bilan Navro‘z o‘zbeklarning **eng go‘zal, eng tarovatli** bayram sayillaridan hisoblanadi. (*M. Murodov*) 14. Papkasini unutilib qoldirgan Samad qaytib kirganida u xaritaga mahliyo bo‘lib **termilib turardi**. (*N. Norqobil*)

Savollar:

1. O‘zbek tilida grammatik ma‘no qanday vositalar bilan ifodalanadi?
2. Qaysi qo‘shimchalar grammatik ma‘no ifodalashga xizmat qiladi?
3. Qaysi grammatik ma‘nolar qo‘shimcha orqali ifodalanadi?

219-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni tub, sintetik, analitik, juft, takroriy shakl kabi guruhlarga birlashtirib yozing. Ularning grammatik ma‘nosini izohlang.

1. – **Qara**, nimani chizdim, – dedi hayajonlanib. – Qishlog‘imiz xaritasini... 2. Gohida **kichik**, hidli **handalakchalar** olib kelar edi. (*Sh. Sa‘dulla*) 3. Quyosh nuri tushgan **barglar**, kech ochilgan **gullar**, lo‘ppi-lo‘ppi **paxtalar** ko‘zni qamashtiradi. (*“Saxovatli fasl” matnidan*) 4. Biz oilamiz bilan boshqa **qishloqqa** ko‘chadigan bo‘ldik. (*A. Jo‘rayev*) 5. Zaynab orqasiga **qaray-qaray** Otabekdan uzoqlashdi. (*A. Qodiriy*) 6. Chaylaning orqasidan o‘tayotganimizda **arava** to‘xtadi. (*O. Husanov*) 7. Yer yuzidagi **eng yirik** hayvon bo‘lgan ko‘k kit yo‘l-yo‘l kitlar oilasiga mansubdir. (*“Bolalar ensiklopediyasi” dan*) 8. **Randa bilan** taxta randalaydilar, andava bilan devor suvaydilar. (*M. Ismoilij*) 9. – Ah, – dedi rais tizzasiga urib va qah-qah urib **kulib yubordi**. (*Sh. Sa‘dulla*) 10. Bir mahal akam dadamga qarab: – Bu **tol** ilgari yo‘q edi-ku, qachon ekkansiz, dada? – deb so‘radi. (*O. Husanov*) 11. Endi **uchovimiz** ham piyoda **yuramiz**, – dedi akam. (*O. Husanov*) 12. – Mana shu ashula **siz uchun** yozilgan.. – Alimardonning ovozi negadir titrab ketdi. (*O. Hoshimov*) 13. Ustiga-ustak, surunkasiga paxta ekilgan yerlar oriqlab, hosil kamayadi, har xil **qurt-qumursqa** ko‘payadi. (*S. Siyoev*) 14. Do‘stlar bilan o‘z kasbimiz to‘ylashdik biz, **Baland-baland** cho‘qqilarni bo‘ylashdik biz. (*S. Abdulla*) 15. Ishning og‘irini

o‘z gardaniga olaman: puli, **oziq-ovqat**, asbob-uskunasi, ulovi mendan; mehnat – xalqdan. (*M. Ismoiliy*) 16. Ozod sal orqaga tisarilib: – Nosir, **to‘xtab tur!** – dedi sekin. (*M. Xidir*) 17. **Etak-etak** paxtani ikki qo‘llab terganman, Gektaridan yuz-yuzlab paxta beray deganman. (*Qoshiqdan*) 18. Katta buloqning irmog‘i kichik buloqnikiga qaraganda **kuchliroq** edi. (*H. Po‘latov*)

Savollar:

1. O‘zbek tilida grammatik shaklning qanday turlari bor?
2. Tub shakl deganda nimani tushunasiz?
3. Sintetik shakl nima? Misol keltiring.
4. Analitik shakl nima? Misol keltiring.
5. Juft shakl deganda nimani tushunasiz? Juft shakl qanday grammatik ma’no ifodalaydi?
6. Takroriy shakl nima? Takroriy shakl qanday grammatik ma’no ifodalaydi?

220-mashq. Gaplarni o‘qing. Ularda qo‘llangan so‘zlarni mustaqil, yordamchi, undov, taqlid va modal so‘zlarga ajratib yozing.

1. Bahor. Adirlarda g‘ir-g‘ir shabada esadi. (*Y. Shamsharov*) 2. – Voy bechora-ey, yaqinda tug‘ilgan ekan! Uyasini traktor buzibdi-da. (*N. Fozilov*) 3. Musavvir tabiat qo‘liga nafis bo‘yoqlarini oldi. Tog‘- u qirlarni boychechag-u binafsha bilan, daraxtlarni kurtaklar bilan bezadi. (*D. Kamoljonova*) 4. Uchrashuvimiz oxirlaganda birdan aravachada o‘tirgan qiz o‘rnidan turib ketdi. (*E. Malikov*) 5. Qashqarda “Qoraqandak” degan o‘rik bor, faqat o‘sha yerda o‘sadi u. Quruq, suvsiz yerni xohlaydi, shekilli. (*X. To‘xtaboyev*) 6. U ro‘parada nimaningdir pishqirganini, to‘p-to‘p tuyoq tovushini aniq eshitdi. (*M. Xidir*) 7. – Albatta, bu paytda Sirdaryoning suvi toshib, yon-veridagi to‘qayzorlarga, ko‘l-ko‘lmaklarga chiqadi. (*N. Fozilov*) 8. – Voybo‘! Dunyoda qanday mard o‘g‘lonlar bor-a! (“*O‘g‘lon*” rivoyatidan)

Ot

221-mashq. Matnni o‘qing. Ot turkumidagi so‘zlarni aniqlab qanday ma’noni ifodalashini tushuntiring. Har bir otga so‘roq bering.

Kuz. Yakshanba kuni edi. Uchinchi sinf o‘quvchilari olmazorga borishdi. Olmazor yonidagi tokzorda Quadrat aka toklarni chilpib yurgan

ekan. “Kelinglar!” deb bolalarni xursand kutib oldi. Bolalar odob bilan otaga salom berishdi.

– Yashanglar, azamatlar, yashanglar. Olmalarga qaranglar, tagi bilan bitta bo‘lib to‘kilib yotibdi.

Bolalar otaning gapiga darrov tushunishdi. Ular qo‘llariga bittadan savatcha olishdi-da, olma terishga tushib ketishdi. (*M. Murodov*)

Inson eng avvalo mehnat bilan sharaf qozonadi, shuning uchun ham dehqon ahlining qadimiy bayrami – Navro‘zni har yili zo‘r quvonch, katta tayyorgarlik bilan kutib olish elimizning eng yaxshi odatlaridan biri bo‘lib qolgan. (*M. Alaviya*)

Savollar:

1. Ot deb qanday so‘zlarga aytiladi?
2. Ot turkumiga mansub so‘zlar qanday ma’nomlarni ifodalaydi?
3. Ot turkumiga kiruvchi so‘zlar qanday so‘roqlarga javob beradi?

222-mashq. Berilgan otlarni bir turdagi shaxs, joy, narsaning umumiy nomini yoki bir turdagi shaxs, joy, narsaning bittasini bildirishiga ko‘ra ikki guruhga ajratib yozing.

Buxoro, qishloq, shahar, daryo, “Tafakkur”, bulbul, jurnal, Nozima, “Navoiy”, Amudaryo, qiz, O‘zbekiston, bayram, mamlakat, Navro‘z, televizor, “Samsung”, “O‘tgan kunlar”, ot, roman, Boychibor, qalam, igna, gul, suv, qo‘ng‘iz, oltin.

Savollar:

1. Turdosh ot nima?
2. Atoqli ot nima?
3. Atoqli ot qanday yoziladi?

223-mashq. Berilgan atoqli otlarni quyidagi guruhlarga ajratib yozing: 1) kishi nomi, 2) hayvon nomi, 3) joy nomi, 4) tashkilot nomi, 5) osmon jismi nomi, 6) gazeta, jurnal, darslik, asar nomi, 7) tarixiy sana va bayram nomi, 8) suv havzasi nomi.

O‘tkir, Mosh, Kattaqo‘rg‘on, Amudaryo, Buxoro davlat universiteti, Mars, Osiyo, Boltiqbo‘yi, Chimkent, Qizilqum, Olapar, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Misr Arab Respublikasi, Saturn, Somon yo‘li, “Ma’rifat”, “Boshlang‘ich ta’lim”, Kumush, Ramazon, Loy jangi, Kaspiy, “Ona tili”, “O‘qish kitobi”, “Kecha va kunduz”, Baroq, Tyanshan,

Mustaqillik kuni, Bobur, Tojiyev, Sog‘liqni saqlash vazirligi, “Yoshlik”, Pomir, Baykal, Sanggardak, Zarafshon, “Matematika”, Venera, Qibray, Bo‘ynoq, Amu-Buxoro kanali, Chorvoq suv ombori.

224-mashq. Berilgan otlarni aniq va mavhum otlarga ajrating. Aniq va mavhum otlarga **-lar** qo‘shimchasini qo‘shib ko‘ring va ma’nosini izohlang.

Qalam, fikr, orzu, boychechak, suv, ma’no, alam, shahar, tok, terak, kuch, quvvat, loqaydlik, niyat, varrak, daryo, mehr, vafo, miltiq, qanoat, himoya, saxovat, tulki, tulkilik, mohiyat, tafakkur, ko‘ngil, g‘or, muvaffaqiyat, shaftoli, uzuk, shubha, g‘amxo‘rlik, shafqat.

Savollar:

1. Aniq ot nima?
2. Mavhum ot nima?
3. Aniq otga **-lar** qo‘shilganda qanday ma’no ifodalanadi?
4. Mavhum otga **-lar** qo‘shilganda qanday ma’no ifodalanadi? Nima uchun mavhum otga doim ham **-lar** qo‘shimchasi qo‘shilavermaydi?

225-mashq. She’rni o‘qing. Mavhum otlarni aniqlab, ma’nosini izohlang. Mavhum otlarga ma’nodosh so‘zlar toping.

ISHONCH KO‘PRIKLARI

Yuzdan parda ketsa,
Dildan diyonat,
Mehr rishtalari zimdan uzilsa;
Yuraklarni bossa shubha, xiyonat,
Ishonch ko‘priklari buzilsa;
Yetimlar haqidan qo‘rqmasa birovi,
So‘qmoqqa aylanib ketsalar yo‘llar;
Qiblagohlar osiy, tug‘ishganlar yov,
G‘aznalarga cho‘zilsa qo‘llar;
Bolalar ruhiga hayot degan dars
Manmanlik urug‘in joylasa;
Oshiqlar ko‘chada ma’shuqasin emas,
Kimningdir qadamin poylasa.
Elning shoirlari g‘anim zotlar kabi
Bir-birlarin g‘ajib-yesalar;
Minbarlarga chiqsa ko‘cha-ko‘yning gapi

Andishani qo‘rqqoq desalar...
 Bunday yurtda endi qirg‘in shart emas,
 Vabo ham qochadi undan yiroqqa;
 Hatto daryolari qurir basma-bas,
 Hatto tuproqlari tushar titroqqa.
 Xalqim, bundaylarni ko‘rgansan azal,
 Ko‘p chekkansan ular ozorin, dog‘in,
 Sen yengib o‘tgansan, lekin har mahal,
 Xalqim, topinaman o‘zingga tag‘in. (A. Oripov)

226-mashq. Berilgan mavhum otlarni: 1) belgi-xususiyatni ifodalovchi otlar; 2) munosabatni ifodalovchi otlar; 3) kasb-kor, faoliyatni ifodalovchi otlar kabi guruhlarga ajrating, guruhlarni davom ettiring.

Paxtachilik, adolat, mehr, shafqat, pazandachilik, berahmlilik, aloqa, zulm, go‘zallik, ozodalik, g‘azab, tirishqoqlik, nafrat, nodonlik, kemasozlik, sadoqat, yozuvchilik, shubha, ilmsevarlik, mug‘ambirlik, mehmondo‘stlik, zargarlik, g‘iybatchilik, gilamdo‘zlik, hasad, shoirlik, manmanlik, odamiylik, raqobat.

227-mashq. Insondagi ijobiy va salbiy xususiyatlarni bildiruvchi so‘zlarni ikki ustunchaga yonma-yon yozing. Shu so‘zlardan 4 tasini qatnashtirib gap tuzing.

Namuna:

Insonning ijobiy xususiyatlari	Insonning salbiy xususiyatlari
<i>rostgo‘ylik</i>	<i>yolg‘onchilik</i>
<i>sadoqat</i>	<i>xiyonat</i>

228-mashq. Berilgan otlarni yakka va jamlovchi otlarga ajratib yozing.

Qalam, barg, xalq, guruh, baliq, to‘da, qo‘y, tosh, echki, poda, daryo, olomon, armiya, jurnal, omma, qo‘shin, bo‘linma, o‘rdak, gala, to‘p-lam, el, uyum, mashina, karvon, daraxt, g‘oz, uyur, jamoa, ot, so‘z, suruv, dasta, o‘rik, turkum, roman, toifa, qo‘ng‘iz, ohu, koptok, aholi, olomon.

Savollar:

1. Yakka ot nima?
2. Jamlovchi ot deganda nimani tushunasiz?

229-mashq. Berilgan yakka otlarni jamlovchi otlar bilan bog‘lab so‘z birikmasi tuzing. Shu so‘z birikmalaridan 3 tasi ishtirokida gap tuzing

Namuna: *qo‘y podasi. Yaylovda qo‘y podalari o‘tlab yuribdi.*

Qo‘y, echki, ot, g‘oz, bola, sigir, shoir, shaxmatchi, talaba, mashq.

Foydalanish uchun so‘zlar: *poda, to‘da, gala, uyur, xalq, suruv, ahl, jamoa, guruh, to‘plam.*

230-mashq. Berilgan otlarni sanaladigan va sanalmaydigan otlarga ajratib yozing.

Olma, qum, qovun, lola, go‘zallik, suv, qor, sukunat, kompyuter, un, yog‘, shakar, jurnal, dengiz, tuz, neft, qo‘ng‘iz, yomg‘ir, do‘l, fil, havo, shamol, sevinch, yulduz, oltin, sukunat, sevgi, so‘z, chizg‘ich, qop, pichoq, tuproq, loy, murch, qalampir, qo‘rquv, adolat, misol.

Savollar:

1. Sanaladigan va sanalmaydigan ot deganda nimani tushunasiz?
2. Sanalmaydigan otni necha guruhga bo‘lish mumkin?
3. Sanaladigan otga -lar qo‘shilganda qanday ma‘no ifodalanadi?
4. Sanalmaydigan otga -lar qo‘shilganda qanday ma‘no ifodalanadi?

Son kategoriyasi

231-mashq. Gaplarni o‘qing. Tub va **-lar** shaklidagi otlarni topib, birlik, ko‘plik yoki umumiylik ma‘nosini ifodalayotganini ayting.

1. Tom orqasida xo‘roz qanot qoqib qichqirdi. (A. *Qahhor*) 2. Tepalikning kun-gay tomonida chuchmomalar yerni yorib chiqa boshlagan, havo ham xiyla ayoz bir palla edi. (P. *Qodirov*) 3. Odobli bola elga manzur. (*Maqol*) 4. Tuguncha xiyla og‘ir edi. (A. *Qahhor*) 5. Bola ingradi. (A. *Qahhor*) 6. Shu yo‘sin nihollarni ekib tugatdik. (X. *To‘xtaboyev*) 7. – Kel endi, mana bu ko‘chatni ushlab tur, – deydi ba‘zan bobom. – Angrayma, nihil qiyshayib qolyapti. (X. *To‘xtaboyev*) 8. Gohida kichik, hidli handalakchalar olib kelardi. (Sh. *Sa‘dulla*) 9. Inson avvalo mehnat bilan sharaf qozonadi. (M. *Alaviya*) 10. Bir vaqt yo‘lni changitib, qatoriga uch mashina keldi. (Sh. *Sa‘dulla*) 11. Bobojon, bog‘imizda o‘rik ko‘p-ku, endi qolganini ekmay qo‘ya qolaylik, qishloqqa qaytgim kelyapti, enamni sog‘indim. (X. *To‘xtaboyev*)

Savollar:

1. Otning son kategoriyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Son kategoriyasining qanday shakllari bor?
3. Tub shakl qanday ma'nolarni ifodalaydi?
4. Ko'plik shakli qanday hosil bo'ladi?

232-mashq. Gaplarni o'qing. Tub shakl qanday vositalar yordamida birlik yoki ko'plik ma'nosini ifodalayotganini izohlang.

1. – Kel endi, mana bu **ko'chatni** ushlab tur, – deydi ba'zan bobom. (X. To'xtaboyev) 2. Domla ichkariga kirib ketdi-da, birozdan keyin qo'lida bitta katta **pichoq**, bir **bolta** va biroz chiyratma arqon bilan to'ppa-to'g'ri mening oldimga keldi. (G'. G'ulom) 3. Zap terak bo'libdi-da, ekkanning otasiga rahmat. Bir **kishi** ekkandan ming **kishi** bahra olar ekan. (A. Irisov) 4. **Toy** yo'rg'alab ketdi. (A. Qah-hor) 5. Ammo o'rdak tomdan tushmay, tumshug'idagi bir hovuch **gavharni** tashlabdi-yu, uchib ketibdi. O'zida yoq xursand bo'lgan chol gavharlarni do'kondorga olib borib, katta pulga sotibdi. ("Ochko'z boy" ertagidan) 6. Shu yo'sin Qashqarga borib bir quchoq mayda **ko'chat** olib qaytdik. (X. To'xtaboyev) 7. Bir **odam** ariq qaziydi, ko'p **odam** suv ichadi. (Maqol) 8. Tokchalari ganchdan ajoyib gullar bilan ishlangan katta uyda bir talay **odam** o'tirgan edi. (Oybek) 9. Sidiqjonning diqqati o'ng tomondagi to'qayning ochiq yeriga terib qo'yilgan son-sanoqsiz **g'ishtga** jalb bo'ldi. (A. Qahhor) 10. **Odam** yig'ildi. (A. Qahhor) 11. Tarbiyaga doir **kitob** ko'p. (A. Qahhor) 12. To'rt quti urug'ni o'z qo'li bilan keltirib berdi. Hademay **qurt** ko'm-ko'k barg ustida o'rmalab qoldi. (A. Qahhor) 13. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga **so'roq** bering. 14. To'plardan **g'ilof** olindi. (A. Qahhor) 15. O'qishdan keyin rasm to'garagida mashg'ulot o'tkazib, kechroq uyga keldim. Oyim issiq **non** yopib qo'ygan ekanlar. (G'ayratiy) 16. Yakshanba kuni ovqatdan keyin bolalarga kuzgi paxtalik **nimcha** berildi. (A. Qahhor)

Savollar:

1. Son kategoriyasining tub shakli qanday vositalar yordamida birlik ma'nosini ifodalaydi?
2. Tub shakl qanday vositalar yordamida ko'plik ma'nosini ifodalaydi?
3. Nima uchun tub shal ko'plikni ifodalaganda unga **-lar** qo'shilmaydi?

233-mashq. Matndan ko‘plik ma’nosini ifodalagan birlik shaklidagi otlarni toping. Bu otlar ko‘plik ma’nosini qanday vosita yordamida ifodalaganini izohlang.

Atrof yam-yashil. Tabiatning sehri bilan olamdagi bor rang Navoshox soyining ikki betiga sepib yuborilganday. Pichan tizzadan keladi. Oppoq ochilgan gulxayri salobatli archalarga bosh uradi. Yakka-dukka sershox, sap-sariq qavraygul, bargsiz, yalang‘och, havorang gulli sachratqi. Soy ichiga dalarayhon hidi qamalib qolgan – hamma yoq muattar. Tevarak-atrof tabiiy chamanzor. Ming bir xil rang tovlanadi. Qadam qo‘ysang gulni bosasan. (*S. Anorboyev*)

Savol va topshiriq:

1. Bu otlar ko‘plik ma’nosini qanday vosita yordamida ifodalagan?
2. Ko‘plik ma’nosini ifodalagan birlik shaklidagi otlarga **-lar** qo‘shimchasini qo‘shib matnni o‘qing. **-lar** qo‘shimchasining ko‘p qo‘llanishi matnning nafosatiga qanday ta’sir qilishini tushuntiring.

234-mashq. Gaplarni o‘qing. Otga **-lar** qo‘shimchasi ortiqcha, noo‘rin qo‘shilgan holatlarni topib, qoida asosida izohlang.

1. Anjir O‘zbekistonning hamma viloyatlarida o‘sadi. (*K. Mahmudov*)
2. Yerosti suvlaridan turli maqsadlarda foydalanish uchun jumhuriyat hududida 40825 ta burg‘i qudug‘i qazilgan. (*«Fan va turmush» jurnalidan*)
3. Bu vaqtda avtobus bekatida odamlar ko‘p edi. (*“Davr” axborot dasturidan*)
4. Musobaqada 1, 2, 4, 5, 9, 10, 11, 15, 31- o‘rta maktablardan 64 nafar sportchilar ishtirok etdilar (*“Ma’rifat” gazetasidan*).
5. Adir va tog‘larda bug‘doyiq va har xil o‘tlar o‘sadigan yaylovlar bor. (*“O‘zbekiston geografiyasi” kitobidan*)
6. Qaynamagan suvda zararli mikroblar ko‘p bo‘ladi. (*Gazetadan*)
7. Tovushlar yozuvda harflar bilan ifodalanadi. (*“Ona tili” darsligidan*)
8. Otlardan sifatlar yasang. (*“Ona tili” darsligidan*)
9. Oyning nomlarini fasllarga bo‘lib yozing. (*“Ona tili” darsligidan*)
10. Chiziqchalar o‘rniga berilgan otlarga xos fe’llar tanlab, gaplar tuzing. (*“Ona tili” darsligidan*)
11. Davr o‘tishi bilan eskirib qolgan so‘zlar va iboralar umumnutqdan chiqib ketadi: unga yangi so‘zlar va iboralar qo‘shiladi. (*“Ona tili” darsligidan*)
12. Avval otlarni, keyin sifatlarni, so‘ng fe’llarni ko‘chiring. (*“Ona tili” darsligidan*)
13. Tashuvchi raketalar sun’iy yulduzlarni, kosmik kemalarni, orbital stansiyalarni, sayyoralararo kosmik

kemalarni kosmosga eltadi. (*“Gulxan” jurnalidan*) 14. Barxanlar qanday hosil bo‘ladi? (*“Boshlang‘ich ta‘lim jurnalidan*) 15. Kampir ko‘ngli bo‘shashib, hasratga tushdi: u yaqinda kelinidan ajralib, beshta go‘dak nevaralar bilan qolibdi, g‘amdan o‘zini oldirib qoyibdi. (*G‘ayratiy*) 16. Javonda o‘quv qurollari: daftarlar, kitoblar, ruchkalar, har xil qalamlar saqlanadi. (*“Ona tili” darsligidan*)

Matbuot, radio, televideniya -**lar** qo‘shimchasi ortiqcha, noo‘rin qo‘llangan 15 ta misol topib yozing.

235-mashq. Gapnlarni o‘qing. **-lar** shaklidagi otlar qanday ma‘noni ifodalayotganini izohlang.

1. Sharq tabobatiga oid kitoblarim bor. (*A. Qahhor*)
2. Ha, meni haqorat qilgan tillaring uzilsin! (*D. Nuriy*)
3. Ona sutida oqsillar, yog‘lar, fosfor kabi to‘yimli moddalar yetarli bo‘ladi. (*«Saodat» jurnalidan*)
4. Nariroqdagi stol ustida shundoqqina qozondan olib qo‘yilganicha, yog‘lari kleyonkaga tushib qotib qolgan cho‘mich, cho‘mich atrofida esa piyoz po‘choqlari bilan non uvoqlari.. (*D. Nuriy*)
5. Baliqlar gavda harorati beqaror, sovuqqon jonivorlardir. (*O‘zME*)
6. Fotima birdan ochilib ketdi: ana qora yolqin tashlaguvchi ko‘zlar-u, ana tutab turgan payvasta qoshlar-u, yoshlarning ishtahasini ochadigan kuldirgichlar-u. (*A. Qahhor*)
7. Ariq lablaridagi endigina bargak yozayotgan tollarga tabassum bilan qaraysan, char-choqlaring unutiladi. (*O‘. Umarbekov*)
8. Boshlari zirqirab og‘rirdi, ko‘ngli aynib, lohas bo‘lardi. (*Sh. Rashidov*)
9. Kuz keldi. Suvlar ariqda oynadek tiniq shildiradi, ko‘kda mezonlar suzdi. (*Sh. G‘ulomov*)
9. Bog‘, maydon oshib Mahkamalarning uyiga yetib keldim. (*G‘ayratiy*)
10. Kumushning nafis qora sochlari orqa-o‘ngiga to‘zg‘ib, ajib bir manzara berdilar. (*A. Qodiriy*)
11. Sentabr boshlarida polk g‘arbga tomon yo‘l oldi. (*Oybek*)
12. Farhodlar ter to‘kar tun-u kun bunda,
Metinlar zarbiga chiday olmas tosh. (*Uyg‘un*)

Savollar:

1. Otning **-lar** shakli qanday ma‘nolarni ifodalaydi?
2. **-lar** shaklining turli ma‘no ifodalashi nima bilan bog‘liq?

Egalik kategoriyasi

236-mashq. Gaplarni o‘qing. Egalik qo‘shimchasini olgan otlarni aniqlab, qo‘shimchani shaxsi va sonini ayting.

1. Akam chayla yoniga yetganimizda aravani to‘xtatib, eshak ustidan pastga irg‘idi. (*O. Husanov*) 2. – Ha, xizimating boshingni yesin! – dedi domla. (*G‘. G‘ulom*) 3. Bobojon, bog‘imizda o‘rik ko‘p-ku, endi qolganini ekmay qo‘ya qolaylik, qishloqqa qaytgim kelyapti, enamni sog‘indim. (*X. To‘xtaboyev*) 4. Tog‘asi Yolqinjoni uzumzorga olib bordi. (*N. Maqsudiy*) 5. Shokir ota va uning kampiri qizning ko‘nglini ko‘tarishga tirishadilar. (*Oybek*) 6. Bizning dono bobolarimiz hikmatlarni tuganmas xazinaga o‘xshatishgan. (*T. Malik*) 7. – Ey, aziz otajonim, menga ruxsat bering, savolingizga javob berayin, endi navbat mening. (*“Ilm afzal” ertagidan*) 8. Yo‘lovchi.. yoshlarni birma-bir nazardan o‘tkazarkan, atrofga alanglab so‘radi: – Idoralarigiz qayerda, yigitlar? (*P. Tursun*) 9. Tog‘ning usti daraxtzor ekan, yonidagi soydan esa sharqirab suv oqar ekan. (*Z. A‘lam*)

10. Kuz kelganda uyimizda to‘y bo‘ladi,

Qo‘zichog‘im o‘sib katta qo‘y bo‘ladi. (*T. Yo‘ldosh*)

Savollar:

1. Egalik shakli deganda nimani tushunasiz?
2. Egalik shakli qanday qo‘shimchalar bilan hosil bo‘ladi?
3. Egalik qo‘shimchalari nimaning shaxsi va sonini ko‘rsatadi?

237-mashq. *Ko‘cha* va *uy* so‘zlarini egalik qo‘shimchalari bilan shaxs va sonda o‘zgartiring. Unli va undosh tovush bilan tugagan otlarga qanday egalik qo‘shimchasi qo‘shilishini ayting.

238-mashq. So‘zlarga egalik qo‘shimchasini qo‘shib yozing.

Tilak, nutq, taroq, huquq, bilak, idrok, yo‘q, yuq, tok, axloq, erk, ishtirok, chiroq, qirq, ko‘rk, mulk, etak, milk, sirk, xalq, qiliq, farq, sharq, qishloq, tatbiq, og‘riq, tuk, beshik, bek, mashq, chek, zavq, ocherk, yaxshiroq, ittifoq.

Bu so‘zlarni imlosiga ko‘ra necha guruhga bo‘lish mumkin? Imlo qoidasiga ko‘ra izohlang.

239-mashq. Quyidagi soʻzlariga I, II, III shaxs egalik qoʻshimchalarini qoʻshib yozing. Yozgan soʻzlaringizning imlosini qoida asosida tushuntiring.

Parvo, obroʻ, mavqe, mavzu, avzo.

240-mashq. Quyidagi soʻzlarga III shaxs egalik qoʻshimchasini qoʻshib yozing.

Ularning imlosi haqida xulosa chiqaring. **iy** harf birikmasi bilan tugaydigan yana 5 ta soʻz topib ayting.

Dohiy, homiy, moziy, soqiy, faxriy.

241-mashq. *Qalam* soʻziga egalik qoʻshimchalarini shu tarzda qoʻshingki, bu soʻz quyidagi grammatik maʼnolarni ifodalasin:

- 1) qalam bitta, egasi ham bitta;
- 2) qalam koʻp, egasi bitta;
- 3) qalam bitta, egasi koʻp;
- 4) qalam koʻp, egasi ham koʻp.

242-mashq. Gaplarni oʻqing. Egalik shaklidagi otni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan ajratib yozing.

1. – Avvalo, mening uyim yoʻq. Undan keyin meni muborakbod qilib turgan tanishlarim ham yoʻq, – dedi Anvar qoʻl siltab. (*A. Qodiriy*)

2. Shunda bulbul nagʻmasi, qizlarimiz yallasi, yigitlarning gʻururi ayniqsa avjlanadi. (*Gʻ. Gʻulom*) 3. Baqqol bu soʻzlarni eshitmaganday avrayverdi: – Men sizning foydangizni oʻylayman. (*Oybek*)

3. Shaharlarning nomi abadiy,

Bu nomlarni qoʻygan el-ulus. (*M. Shayxzoda*)

4. Ular qizning boʻyi, beli, yelkasi va qoʻllarini oʻlchab yozib olishdi. (*I. Rahim*) 5. Erining bu jasoratiga qarshi Oftob oyimning yuziga rizoizlik belgisi chiqdi. (*A. Qodiriy*) 6. Bizning vazifamiz ilmni xalq tajribasi bilan boyitish va shu bilan birga xalq, tajribasini ilmning elagidan oʻtkazishdir. (*A. Qahhor*) 7. Singlingning toʻyiga sen bosh boʻlasan, sening toʻyingga Robiya bosh boʻladi. (*Oʻ. Hoshimov*) 8. Keyinchalik maktab sahnasida oʻynaladigan spektakllarda hamisha bosh rollarni ijro etadigan boʻldi. (*S. Karomatov*) 9. Oromingni buzdi sening

ham fashist degan vahshiy olomon. (A. Oripov) 10. Hali o‘ynoqi ko‘zlarini yumagan yorug‘ yulduzlarni hisobga olmasa, Qorabuloq qishlog‘ida birorta uyg‘oq jon qolmagan edi. (M. Ismoilij) 11. Bu dendrariy yuqorida nomi aytilgan birlashma va O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Botanika bog‘i hamkorligida barpo etilgan. («*Fan va turmush*» jurnalidan) 12. O‘zbek xalqi qadim-qadimlardan buyon hashar usulida juda ko‘p inshootlar barpo qilgan. (S. Ahmad) 13. So‘nggi 20 yil mobaynida Orol dengizi sathi 8 marta pasayib, suv hajmi 393 kub kilometr ga kamaydi. («*Fan va turmush*» jurnalidan) 14. Shu-shu bo‘ldi-yu, nemis tilini o‘rganishga harakat qildi. Biroq bir necha oy mehnat qilgandan keyin eshitsaki, Shekspir nemis emas, ingliz ekan. (A. Qahhor)

Savollar:

1. Egalik qo‘shimchasi qanday so‘zlarni o‘zaro bog‘laydi?
2. Egalik shaklidagi so‘zga bog‘langan so‘z qanday shaklda bo‘ladi?
3. Qaratqich va qaralmish deganda nimani tushunasiz?
4. *Qorabuloq qishlog‘i, Botanika bog‘i, o‘zbek xalqi, Orol dengizi, nemis tili* kabi birikmalarda tobe so‘zga qaratqich kelishigi qo‘shimchasini qo‘shib bo‘ladimi? Bunday birikmalarda egalik shaklidagi ot qanday ma‘noni ifodalaydi?

243-mashq. Quyida berilgan birikmalarda egalik qo‘shimchasi qanday sintaktik vazifa bajarayotganligini aniqlang. O‘zingiz ham shunday birikmaga 4-5 ta misol topib, ular ishtirokida gap tuzing.

Sochi uzun qiz, tishi o‘tkir arra, bo‘yi baland yigit, shoxi katta sigir, terisi qalin kaltakesak, boshi berk ko‘cha, ko‘ngli toza bola, zehni o‘tkir o‘quvchi, bilagi zo‘r polvon, narxi baland mashina, mehri daryo ustoz, nigohi o‘tkir qush, davosi yo‘q kasallik, suvi issiq buloq.

244-mashq. Gaplarni o‘qing. Nima uchun ayrim gapda qaratqichli kishilik olmoshi qo‘llangani, ayrim gapda qo‘llanmaganini tushuntiring.

1. Kunlardan bir kun ko‘pni ko‘rgan, jahon kezgan og‘aynilarimdan biri **uyimga** kelib qoldi. (*Shukrullo*) 2. – Avvalo, **mening uyim** yo‘q. Undan keyin meni muborakbod qilib turgan tanishlarim ham yo‘q, – dedi Anvar qo‘l siltab. (A. *Qodiriy*) 3. Mehnatsevar **xalqimizning** to‘kkan teri, sarflagan mehnati zarra bo‘lsa ham zoye ketmadi. (N. *Safarov*)

4. Buzuqni tuzatish, barbodni obod

Bizning xalqimizga bo‘lur muyassar. (*G‘. G‘ulom*)

5. **Umidningni** uzma, **ko‘nglingni** buzma. (*Maqol*) 6. **Sening ko‘ngling, sening umiding** bilan kimning nima ishi bor! (*P. Tursun*)

7. Bosadigan qadamingiz, og‘izdan chiqadigan **so‘zingiz** boshvog‘i mahkam bo‘lsin. (*M. Ismoilii*) 8. **Sizning** har bir **so‘zingiz** biz kabi ilm

gadolari uchun tilladan afzaldir. (*Oybek*) 9. Sen bo‘lsang **mening**

asboblaringizni har yerga tashlab ketasan. Bunday qilsang men xafa bo‘laman. (*M. Ismoilii*) 10. – Yo‘q, yo‘q, bobojon. Sizni xafa qilmay-

man. Endi **asboblaringizga** tegmayman. (*M. Ismoilii*)

11. Samimiy oshnoman deb, hamisha **aybing** istovchi,

Tili dilga muvofiq bo‘lmagan ahli riyodan kech! (*Habibiy*)

12. Birovning aybiga kulmagin zinhor,

Sening ham aybingga kuluvchilar bor. (*Maqol*)

245-mashq. Gaplarni o‘qing. Qaratqichli kishilik olmoshi ortiqcha, noo‘rin qo‘llangan holatlarni topib, izohlang.

1. Bizning qo‘shnimiz kulol. 2. Bizning eramizdan ikki asr burun budda rohiblari qoyalarni o‘yib, ibodatxona va monastirlar qurganlar.

(*N. Safarov*) 3. Endi, mehmonlar, aybga buyurmaysizlar, mening qiladigan ishimi, boradigan yerim ko‘p. (*A. Qahhor*) 4. Tabib ayt-

tiraymi? – Aytir. Mening ham ko‘nglinga shu kelib turgan edi. (*A. Qodiriy*) 5. Bu davlatning badavlat kishilari mening og‘a-inimdek, yetim-

yesirlari bolalarimdek bo‘lib qoldi. (*«Fan va turmush» jurnalidan*) 6. Bizning yurtimizda ko‘pgina xalqlarning adabiyot va san‘at dekada-

lari o‘tkazilgan. (*N. Safarov*) 7. Bizning nutqimiz gaplardan, gaplar so‘zlardan tuziladi. (*“Ona tili” darsligidan*) 8. Nega mening qizim ishlar ekan? Sizga o‘xshab boqimsiz qolibdimi? (*U. Rashid*) 9. Bizning vatanimizda sportga katta e‘tibor beriladi. (*“Ona tili” darsligidan*)

10. Neft va gaz bizning asrimizda eng zaruriy energetik xomashyo bo‘lib qoldi. (*«Fan va turmush» jurnalidan*) 11. Bizning ishimizga ham bir nazar solsangiz-chi. (*P. Tursun*) 12. Endi senga qadrsizlangan bo‘l-

salar, ammo bizning qoshimizda ularning qadr-u qimmatlari yuqori. (*A. Qodiriy*)

10. Dunyoni qizg‘anma mendan, azizim,
Men sening ko‘changdan o‘tmasman zinhor. (A. Oripov)

11. Sen mening jonimni olgin,
Men sening darding olay,
Barcha sog‘lik senga bo‘lsin,
Barcha bemorlik menga. (E. Vohidov)

Matbuot, radio, televideniya qaratqichli kishilik olmoshi ortiqcha, noo‘rin qo‘llangan 10 ta misol topib yozing.

246-mashq. Berilgan so‘z birikmasi juftlari orasidagi farqni tushuntiring. O‘zingiz shunday so‘z birikmasi juftlari hosil qilib, ular ishtirokida gap tuzing.

Namuna: *Temir arra – temirdan yasalgan arra. Temir arrasi – temirni kesishga mo‘ljallangan arra. Bu temir arra qattiq yog‘ochni ham yaxshi kesar ekan. Usta temir arrasi bilan quvurni arraladi.*

1. Mis qozon – mis qozoni.
2. Temir arra – temir arrasi.
3. Olmos keskich – olmos keskichi.
4. Latta xalta – latta xaltasi.
5. Cho‘yan pech – cho‘yan pechi.

Kelishik kategoriyasi

247-mashq. Gaplarni nuqtalar o‘rniga mos kelishik qo‘shimchasini qo‘yib yozing. Shu asosda kelishik qo‘shimchalarining vazifasini tushuntiring.

Tug‘ilib o‘sgan qishlog‘im... borib, qarindosh-urug‘lar huzuri... bir necha kun mehmon... bo‘ldim. Tengqurlarim, yoshlar davrasi... ishtirok etib, goh qizg‘in suhbatlar... qo‘shildim, goh aytilayotgan fikrlar... “mazasi...” shimayotganday jimgina o‘tirdim. Yoshlar orasi... ko‘proq bo‘ldim desam ham bo‘ladi, ular... be-g‘ubor suhbatini yoqtiraman. Bir galgi suhbat... yigitchalar... biri: “Amaki, o‘rik... yeng, og‘zingiz... erib ketadi. “Qoraqandak” deyishadi bu nav..., Erkachol... o‘rigi...” – deb qoldi. Yuragim hapriqib ketdi.

Shrin-shirin entika boshladim. Suhbatdoshlarim... qayta-qayta tikilaman, yuz-u ko‘zlari... yeyayotgan o‘riklari... olayotgan huzurdan o‘zga ifoda... sezmayman. Erkachol... kimligi... ham, u kishi men...

bobo bo‘lishi... ham bilishmaydi, deb o‘ylayman. Axir u zot... olam... o‘tgani... necha-necha yillar bo‘ldi-ku... (X. To‘xtaboyev)

Savollar:

1. Kelishik kategoriyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Kelishik shakllari qanday qo‘shimchalar bilan yasaladi? Qaysi kelishikning qo‘shimchasi yo‘q? Matndan shu shakldagi so‘zlarni topib ko‘rsating.
3. Kelishik qo‘shimchlari qanday so‘zlarni o‘zaro bog‘laydi?

248-mashq. Gaplarni o‘qing. Kelishik qo‘shimchalari orqali bog‘langan so‘z birikmasi va ega-kesimlarni ajratib yozing.

1. Ayolim qishin-yozin ichkari hovlining yumushini qiladi: kir yuvadi, uy-joyini supuradi, non yopadi, ko‘rpa qaviydi. (Oybek)
2. Samadning gapi turib-turib Rasulga alam qildi. (N. Norqobil)
3. Azizim, qizingizning baxtini birovlarining ostonasidan qidirmang. (A. Qahhor)
4. Bu holat kimga to‘y, kimga aza. (Oybek)
5. Otdan baland, itdan past. (Topishmoq)
6. G‘ira-shira tongda qishloqda qizg‘in harakat boshlanib ketdi. (H. Nazir)
7. Bu yaqin ora qishloqda Dildordan go‘zal, Dildordek lozar juvon bo‘lmasa kerak. (S. Ahmad)
8. Sayil kunlarida shahardan holvachi-yu shakarpazlar aravada bu joyga kelishardi. (Mirmuhsin)
9. Bizning qishloqda G‘ofurjon degan qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, buning ustiga hech kimi yo‘q bir yigit bor edi. (A. Qahhor)
10. Shoir-gayam qiyin, bitta o‘zini deb rosmana urush ocholmasa. (M. M. Do‘st)
11. Ro‘zg‘ordan bir qadar siqilishgan. U yog‘ini surishtirsang, qishloqda hammaning ro‘zg‘ori tang. (Oybek)

Savollar:

1. Kelishik shaklidagi so‘zlar qanday so‘zlar bilan bog‘lanadi? Har bir kelishikning xususiyatini izohlang.
2. Kelishik shakllarini qanday so‘zga bog‘lanishiga ko‘ra necha guruhga ajratish mumkin?

249-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan otlarning kelishik shakli va gapdagi vazifasini izohlang.

1. **Juvon** dasturxonga uchta arpa non, ikki-uch hovuch o‘rik tashladi. (A. Qah-hor)
2. Xafa bo‘lmasin-u, **ukam**, men sendan bunaqa quvlik chiqadi, deb hech o‘ylamagandim. (H. Nazir)
3. Bodring – issiqsevar,

yorug‘sevar va namga talabchan **o‘simlik**. (*“Fan va turmush” jurnali-dan*) 4. **Hindistonning** ajoyib, rang-barang go‘zal gullari sekin barq urib o‘sar edi. (*Oybek*) 5. Ahmad **sunbulani** – yozning adog‘i, kuzning boshlanishini yaxshi ko‘rardi. (*F. Musajonov*) 6. O‘rmonjon uning **savoliga** javob bermadi. (*A. Qahhor*) 7. Katta tosh yo‘lga chiqishadi-yu, **shaharga** bexatar etib olishadi. (*M. Ismoilijiy*) 8. Bizning Qalandarboy **kuzda** kam-bag‘allarning paxtasini arzon-arzon sotib olib, saroyiga bosib qo‘yadi. (*M. Ismoilijiy*) 8. Ular Olatog‘ bag‘ridagi uylari bir-biriga mingashgandek kichkina **qishloqda** yashardilar. (*Sh. Xolmirzayev*) 9. **Ko‘chadan** bekinmashoq o‘ynayotgan bolalarning qiy-chuvi eshitildi. (*M. Ismoilijiy*) 10. Hozir Amudaryo va Sirdaryo **suvlaridan** har kim o‘z bilganicha ishlatib, foydalanmoqda. (*«Fan va turmush» jurnali-dan*) 11. Adabiyot **atomdan** kuchli, biroq uning kuchini o‘tin yorishga sarflamaslik kerak. (*A. Qahhor*)

Kelishik shaklidagi so‘zlar gapda qanday vazifalarni bajaradi? Har bir kelishikning vazifasini izohlang.

250-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga grammatik qoidaga muvofiq **-ning** yoki **-ni** qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib turlang.

1. Yuragingda O‘rinboy ota... o‘giti bor-da. Dadang pok odam. Qishloq... avliyosi u. Ishonaman. (*Oybek*) 2. Tog‘dan esgan shabada ayollar... chakka sochlari va boshlaridagi ro‘mollari... betinim yelpiydi. (*P. Tursun*) 3. Hovuz... limmo-lim suvi shishaday toza, odam... aksi ko‘rinadi. (*H. Nazir*) 4. Umr... mehnat emas, g‘am yemiradi. (*Oybek*) 5. Tun yarmiga borganda, Boboqul ota... ahvoli yomonlashdi. Dam-badam hushi... yo‘qotib, alahlay boshladi. (*S. Anorboev*)

6. Mukammal ko‘rmoqchi bo‘ldik dunyo...,

Yetuk bo‘lolmadik o‘zimiz biroq. (*A. Oripov*)

7. Odam... odamga aksi uradi. (*A. Qahhor*) 7. Baliq... kattaligi... ko‘rib, polvon angrayib qoldi. (*J. Sharipov*) 8. Akam birov... tomi... teshib qamalgan emas, yo birov... haqi... yegan emas. (*Oybek*) 9. Chol xo‘rsinib qo‘ydi: – Ha, baxtsizlik, ammo bilib qo‘yingki, dunyoviy ilm dushmanlari ma‘rifat chirog‘i... o‘chirolmaydilar. (*M. Osim*) 10. Tabiat o‘zi... mangu, buzilmas qonuniga amal qilib, ko‘klam... yetaklab kelgan edi. (*O‘. Hoshimov*)

Qaratqich va tushum kelishigining soʻzlarni bogʻlashdagi farqi nimada?

251-mashq. Gaplarni oʻqing. Belgili va belgisiz shaklda qoʻllangan qaratqich va tushum kelishigidagi otlarni ular tobe boʻlgan hokim soʻz bilan birga koʻchiring va ularning baʼzan kelishik qoʻshimchasi bilan, baʼzan esa kelishik qoʻshimchasisiz qoʻllanganini izohlang.

1. Oʻzbekistonda ekiladigan qovun navlari toʻrt botanik turga mansub: handalak, amiri, kassaba va zard. (*Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasidan*) 2. Bizda ekiladigan qovunning eng yaxshi, shirin «oq novvot», «shakarpalak», «qoʻybosh» kabi jaydari navlari yetishtiriladi. (*K. Mahmudov*) 3. Yomgʻir tomchilari bilan yuvilgan havoning pokiza yellari goh badanni chimchilab oʻtadi, goh seskantiradi. (*Shuhrat*) 4. Shitirlab yogʻayotgan yomgʻirning tomchilari deraza oynalariga urilardi: u baʼzan narigi xonadagi yozuv mashinkasining chiq-chiqini ham bosib ketardi. (*Mirmuhsin*) 5. Temirjon qishloq qizlarining nihoyatda shoʻx, hazil-mutoyiba gaplarga chechan boʻlishlarini koʻp eshitgan edi. (*J. Abdullaxonov*) 6. Qishloqning sara yigitlari armiyaga – Vatan himoyasiga ketdilar. (*I. Rahim*) 7. Bu qishloqning suvi toza, zamini unumli, havosi yoqimli, dehqonlarining qoʻli barakali ekan. (*Gʻ.Gʻulom*) 8. Yoshlar kabob chaynashyapti, men boʻlsa, qovunni qirgʻichda qirib yedim. (*I. Rahim*) 9. Qovun yesang, sahar ye, sahar yemasang, zahar ye. (*Maqol*) 9. Eson bobo paykalni oralab, dumaloq, sariq, qoramtir xoli bor qovunni koʻtarib chiqdi. (*S. Yunusov*) 10. Hamroqul suvni ichib, biroz oʻziga kelganday boʻldi. (*A. Qahhor*) 11. Orif aka tosh tagidan sizib chiqqan bir chashmadan yotib suv ichdi. (*A.Muxtor*) . 12. Bola suvni koʻp sepib, yerni loy qilib yuborgan edi. (*A.Qodiriy*)

252-mashq. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlardagi kelishik qoʻshimchasini maʼnodosh qoʻshimcha bilan almashtiring.

1. Ibodilla otni bino oldidagi qator argʻuvon **daraxtlarining** biriga bogʻlab qoʻydi. (*H. Gʻulom*) 2. Yoʻlchi birinchi kun **bozorni** aylana-aylana, kechga qadar uch-toʻrt yerga yuk orqaladi. (*Oybek*) 3. Otabek **masalaga** tushungandek boʻldi va dahshat ichida Ali bilan yoʻlga tushdi. (*A. Qodiriy*) 4. U shaharga kirgandan keyin paxta tozalash zavodi yonidagi **bekatda** tushdi. (*T. Ashurov*) 5. Boʻlinma kechagina dushman batareyasi turgan **tepalikni** aylanib oʻtdi va jangsiz ilgariga

qarab yurdi. (A. Qahhor) 6. Adolat frontdan xat **kelganiga** xursand bo'ldi. Xursand bo'ldi-yu, Normatni, Olimjonni eslab o'kindi. (I. Rahim) 7. Amaki, **o'rikdan** tanovul qiling, og'zingizda erib ketadi. (X. To'xtaboyev) 8. Yigit ular oldida pildirab borarkan, tinmay Azizxon qilayotgan **ishlardan** so'zlab borardi. (S. Ahmad) 9. Bobomning bu **gapidan** juda xursand b'lib ketdim. (G'ayratiy) 10. Tajribali yilqichi ko'k ayg'irning bekorga chopib ketmaganini sezib, uning **iziga** tushgan edi. (N. Fozilov)

Qaysi kelishik qo'shimchalari o'zaro ma'nodosh bo'lib kela oladi?

253-mashq. Gaplarni o'qing. Ortiqcha, noo'rin qo'llangan kelishik qo'shimchalarini aniqlab, nima sababli ortiqcha ekanligini tushuntiring.

1. Bog'bon ko'chatni ekdi. ("*Ona tili*" *darsligidan*) 2. Shamol ko'chatni egdi. ("*Ona tili*" *darsligidan*) 3. Ne'mat hikoyani o'qidi. ("*Ona tili*" *darsligidan*) 4. U bayroqchasini va sharlarini olib ko'chaga chiqdi. ("*Ona tili*" *darsligidan*) 5. Predmetning nomini, harakatini va belgisini bildirgan so'zlarni yozing. ("*Ona tili*" *darsligidan*) 6. Shuhrat va men tulkini, bo'rini, ayiqni, filni ko'rdik. ("*Ona tili*" *darsligidan*)

7. To'lib-toshib sayrar qushcha

Maqtab gulni, bahorni. (S. Vohidov)

8. Vahob chanada uchdi. ("*Ona tili*" *darsligidan*) 9. Muz ustida konkida uchish juda zavqli. ("*Ona tili*" *darsligidan*) 10. Tikuvchi kiyimlarni tikadi. ("*Ona tili*" *darsligidan*) 11. Bulbul to'qayzorlarda, yashil bog'larda, qishloqlarda, tog' etaklaridagi daraxtzorlarda ko'p uchraydi. ("*Ona tili*" *darsligidan*) 12. U butazorlarga, tog' yonbag'ridagi daraxtzorlarga in quradi. ("*Ona tili*" *darsligidan*) 13. Gulzorlardan, bog'lardan o'tdim. (H. Olimjon)

Sifat

254-mashq. Gaplarni o'qing. Sifatlarni aniqlab, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring. Sifatlarning so'rog'i, qanday so'zga bog'lanishi va gapdagi vazifasini izohlang.

1. Ko'cha yuziga katta, dang'illama uy tushgan-u, hali bitmagan edi. (N. Fozilov) 2. Yomg'ir tindi. Beg'ubor zangori osmonda lovullagan quyosh nuri ko'm-ko'k barglar, baxmal sabzalar ustiga tushmoqda.

(*G'ayratiy*) 3. Biz yashayotgan go'zal va bepoyon mamlakat O'zbekiston deb ataladi. (*M. Hamidova*) 4. Butun bir institutda undan chiroyli qiz yo'q edi. (*O. Yoqubov*) 5. Qiz nihoyatda chiroyli edi. (*Shuhrat*) 6. Bu hazildan faqat Risolat kuldi. Dangal va chiroyli kular edi. (*F. Musajonov*)

7. Qattiq yerdan tatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq erdan yumalab chiqqan boychechak.

(«*Qo'shiqdan*»)

8. Til bilmaslik birinchi haftalarda ularni qattiq qiynadi. (*Oybek*) 9. Osmon yiroq, yer qattiq. (*Maqol*) 10. Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo'lsa, Vatan ham shunchalik mo'tabardir. (*X. Davron*) 11. Gohida kichik, hidli handalakchalar olib kelardi. Biram hidi yaxshi bo'lardiki, kun bo'yi qo'ynimizga solib, hidlab yurardik. (*Sh. Sa'dulla*)

Savollar:

1. Sifat turkumi deganda qanday so'zlarni tushunasiz?
2. Sifat turkumiga mansub so'zlar qaday so'roqqa javob bo'ladi?
3. Sifat qanday so'zlarga bog'lanib keladi?
4. Sifat qanday gap bo'lagi bo'lib keladi?

255-mashq. Nuqtalar o'rniga otlarga mos sifat topib, ularni birgalikda ko'chiring.

... kelinchak, ... bino, ... shahar, ... qalampir, ... limon, ... ovqat, ... qovun, ...suv, ... shamol, ... qish, ... tosh, ... maydon, ...etik, ...poydevor, ... yo'l, ... shahar, ... hovli, ... suv, ... osmon, ... o'rmon, ... tuman, ... vaqt, ... ko'ylak, ... odam, ... til.

Foydalanish uchun so'zlar: *go'zal, ko'rkam, chiroyli, nordon, achchiq, sho'r, chuchuk, shirin, qahraton, sovuq, tekis, silliq, pishiq, mustahkam, keng, katta, beg'ubor, tiniq, quyuq, qalin, kalta, qisqa, boy, badavlat.*

256-mashq. Berilgan otlarga qavs ichidagi sifatlardan mosini bog'lab, birikma tuzing.

(Muloyim, yumshoq) shavla, (qiziq, qiziqarli) odat, (sirli, sehrli) jumboq, (jajji, mitti) soat, (jajji, mitti) bola, (g'adir-budur, o'nqir-cho'nqir) tosh, (qaynoq, qizg'in) suhbat, (zarur, muhim) kitob, (qiyin,

murakkab) qurilma, (zararli, ziyonli) hasharot, (nurli, yorugʻ) xona, (qudratli, kuchli) kran, (anʻanaviy, odatdagi) bayram, (anʻanaviy, odatdagi) ish, (tinch, sokin) daryo, (gʻaroyib, ajoyib) odat, (qalin, quyuq) tuman, (chuchuk, shirin) suv, (ozoda, toza) havo, (tiniq, zilol) osmon, (mustahkam, pishiq) mato, (mustahkam, pishiq) devor, (qadrdon, qadrlil) doʻst, (maʻnaviy, maʻnoviy) meros, (qisqa, kalta) suhbat, (sunʻiy, soxta) tola, (tekis, sil-liq) tosh, (qimmatli, qimmat) sovgʻa, (shoʻx, xushchaqchaq) kuy.

257-mashq. Berilgan birikmalardagi xatoni izohlang. Birikmalardagi otning mazmuniga mos sifat qoʻyib yozing.

Keksa echki, asov bola, achchiq bodring, mugʻombir tulki, muattar qovun, bemor qoʻy, tekis tarvuz, yuqori bino, qiyin fan, baquvvat shamol, mayda hovli, totuv doʻst, egri devor, ivirsiq koʻylak, uslubiy qoʻllanma, taxir limon, shirin suv, quyuq maysa.

258-mashq. Berilgan gap juftliklarida ajratib koʻrsatilgan sifatlarning qaysi soʻzga bogʻlanayotganini aniqlang. Bu sifatlar qaysi gapda togʻri, qaysi gapda notoʻgʻri ishlatilganini ayting.

1. Dalalarni **qalin** qor qoplagan. Dalalarni **quyuq** qor qoplagan.
2. Ertalab **qalin** tuman tushdi. Ertalab **quyuq** tuman tushdi. 3. Oshpaz **jazirama** yogʻga goʻshtni soldi. Yozning **jazirama** kunlari boshlandi.
4. Navroʻz kuni yurtimizda **katta** bayram boʻladi. Navroʻz kuni yurtimizda **yirik** bayram boʻladi. 5. Televizordan **xushchaqchaq** qoʻshiq yangradi. Televizordan **quvnoq** qoʻshiq yangradi. 6. Kombinatda **sunʻiy** tola ishlab chiqarilyapti. Kombinatda **soxta** tola ishlab chiqarilyapti. 7. Hoshimjon **sirli** qalpoqcha yordamida jinoyatchilarni fosh qildi. Hoshimjon **sehrli** qalpoqcha yordamida jinoratchilarni fosh qildi.

259-mashq. Berilgan gaplardagi sifatlarni topib, quyidagi maʻno guruhlariga ajratib yozing: 1) xususiyat bildiruvchi sifat, 2) holat bildiruvchi sifat, 3) rang-tus bildiruvchi sifat, 4) shakl-koʻrinish bildiruvchi sifat, 5) hajm-oʻlchov bildiruvchi sifat, 6) maza-taʼm bildiruvchi sifat, 7) hid bildiruvchi sifat, 8) oʻrin va payt bilan bogʻliq belgini bildiruvchi sifat.

1. Bunday tuygʻun, bunday ziyrak, bunday boadab qiz etti iqlimda ham topil-maydi. (*Oybek*) 2. Dunyodagi eng maroqli sayr bolalik yillari

o'tgan ko'chalar bo'ylab sayr etish bo'lsa kerak. (*S. Siyoyev*) 3. Hozirgina don ortib o'tgan mashina orqasidan ko'tarilgan chang havoda mullaq turib qoldi. (*S. Ahmad*) 4. Endi uning osuda turmushini hech kim loyqata olmaydi. (*S. Anorboyev*) 5. Boyoqish ko'p yaxshi odam edi; insofli, hamiyatli edi. (*Oybek*) 6. Eson bobo paykalni oralab, dumaloq, sariq, qoramtir xoli bor qovunni ko'tarib chiqdi. (*S. Yunusov*) 7. Bahor keldi. Maktab sahnidagi o'riklarni oq, pushti gullar bezadi. (*P. Tursun*) 8. Bu vaqt ular Haraqarg'a degan dovondan oshib, ko'z ilg'amas, keng, tekis yaylovga chiqdilar. (*A. Muxtor*) 9. Domla kuni bo'yi yelib-yugurib holdan toyganiga qaramay, ikkita og'ir chamadonni mashinaga o'zi olib chiqdi va bagajnikka o'z qo'li bilan joylashtirdi. (*A. Qahhor*) 10. Butun olam xushbo'y, muattar gullarga burkanib olganday. (*O. Yoqubov*) 11. Xorazm qovunlari juda shirin bo'ladi: ko'k novvoti, gurvak, shirinpechak.. (*J. Sharipov*) 12. Razzoq buqachining iti yovvoyi jiydaga oyog'idan bog'liq turardi. (*S. Ahmad*) 13. Avaz yarim soatcha dam tortib o'tirdi-yu, bu tor, nimqorong'i ustaxonadan zerikib chiqib ketdi. (*S. Siyoyev*) 14. Qora, kulrang, tillarang qo'zichoqlar biram ko'rkliki, ko'rib ko'zim to'ymaydi. (*M. Nazarov*) 15. Ayyor boy qish va iliguzildi – bahor kezlarda o'n bordon g'allani dehqonlarga bo'lib berib, kuzda yana yigirma bordon qilib yig'ib olar edi. (*Y. Shukurov*) 16. Azim tollarning egri shoxlaridagi shokila-shokila popuklar yo'lovchilarni salqinga chaqira boshladi. (*H. G'ulom*) 17. Poyezd bepoyon sahrodan borar edi, ertasiga ertalab biror soatga yaqin to'xtab qoldi. (*A. Qahhor*) 18. Past, baland va qiyshiq uylar ora-sida reja bilan solingan chiroyli oq imoratlar uchrar edi. (*A. Qahhor*) 19. Nahotki u shundoq dangasa bo'lib qoldi? Kitob o'qishga qunti yo'q. (*Mirmuhsin*) 20. U ko'tarinki kayfiyatda edi, kechagi, bugungi ish mahsulidan xursand. (*M. Xayrullayev*) 21. Komiljon ana shu bog'ni tiklashga kirishgan, anchagina joyga kuzgi ko'chatlar o'tqazdirgan edi. (*S. Zunnunova*) 22. Mahkam yelpig'ichga o'xshatib qo'yilgan biletlardan chetkisini tortdi. (*P. Qodirov*) 23. Bahorgi harakat – kuzgi barakat. (*Maqol*) 23. Keksa temirchi chuchuk turp bilan osh yeyishni sevardi. (*Sh. Rashidov*)

Sifatning ma'no turlariga 3-4 tadan misol ayting.

260-mashq. Berilgan sifatlarga **-roq** qo'shimchsini qo'shib ko'ring. Ularni **-roq** qo'shimchasini qabul qila olish-qila olmasligiga ko'ra ikki guruhga ajrating.

Tuxumsimon, chiroyli, kuzgi, ilk, nam, to‘ng‘ich, ho‘l, tinch, baland, chuchuk, do‘ppili, tuzli, sobiq, oilaviy, devoriy, xomush, jingala, boy, qizil, bo‘liq, tonggi, tekis, siniq, mazali, boloxonali, jiddiy.

Savol va topshiriq:

1. Asliy sifat nima?
2. Nisbiy sifat nima?
3. Qanday sifat darjalarini xususiyatiga ega?
4. Asliy va nisbiy sifatga 5 tadan misol keltiring.

261-mashq. Gaplarni o‘qing. Oddiy, qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlarni aniqlab, ularni uch ustunchaga ajratib yozing. Qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlarning qanday vosita orqali hosil bo‘lganligini ko‘rsating.

1. Mashina bir baland tepaning orqasiga o‘tib to‘xtadi. (*S. Anorboyev*) 2. Belimda pul, boshimda savag‘ichdan to‘qilgan katta qafasda kukkulab turgan bir juft qumri. (*G‘. G‘ulom*) 3. Bularni sotgandan so‘ng ketmonchilikka borib, kattaroq bir ketmon izlaydi. (*A. Qodiriy*) 4. Paxtasini keltirib, xirmondagi eng katta to‘pga to‘ka boshladi. (*M. Ismoiliy*) 5. Shirin mevalarga o‘rgangan og‘izlariga bu yerning nordon ne‘matlari yoqmadi. (*Oybek*) 6. –Yo‘q, – dedi xatlar bo‘limining mudiri bilimdonlik bilan. – Mandarin bu po‘rtaxol, apelsindan kichikroq, limondan shirinroq sitrus daraxtining mevasi. (*N. Aminov*) 7. Jahonda eng shirin qovunlar O‘zbekistonda yetishtiriladi. (*“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” dan*)

Savollar:

1. Sifat darajalari deganda nimani tushunasiz?
2. Sifatning qanday daraja shakllari bor?
3. Oddiy darajadagi sifat qanday shaklda bo‘ladi? Bu daraja qanday ma‘noni ifodalaydi?
4. Qiyosiy daraja qanday vosita orqali hosil bo‘ladi? Qiyosiy darajadagi sifat qanday ma‘noni ifodalaydi?
5. Orttirma daraja shakli qanday vosita orqali hosil bo‘ladi? Orttirma darajadagi sifat qanday ma‘noni ifodalaydi?

262-mashq. Kuchaytirma va ozaytirma sifatlarni aniqlab, ularni ikki ustunga ajratib ko‘chiring. Bunday sifat shakllarini yasagan vositalar tagiga chizing.

1. Temir qip-qizil bo‘lgach, omburda qisib oladi-da, kundaga qo‘yadi. (*S. Siyoyev*) 2. Egnidagi to‘q qizil ko‘ylagi, uning ustidan kiyib olgan qora jiletikasi o‘ziga xo‘p yarashgan. (*A. Qahhor*) 3. Uning pomidordek och qizil bag‘baqasi qilqillab turar, ko‘zlari kulgidan yumilib ketgan edi. (*N. Aminov*) 4. Tog‘dan erib tushgan qor va irmoqlardan kattagina anhor hosil bo‘lgan. (*Shuhrat*) 5. Pastda juda katta loyqa ko‘l to‘lqinlanib yotar.. edi. (*A. Muxtor*) 6. Mo‘ylovi maysa bo‘lib qolgan kap-katta yigitning "r"ni ayta olmasligi Elmurodga g‘alati tuyuldi. (*P. Tursun*) 7. Ishkomda qop-qora daroyi uzumlar osilib turibdi. (*A. Ko‘chimov*) 8. La‘lining katta tim qora ko‘zlari yigitni sehrlab qo‘ydi. (*D. Nuriy*) 9. Yodgor yonoq suyaklari turtib chiqqan, kichkina, dum-dumaloq qorachiqli ko‘zlari o‘ynab turadigan bu yigitni yaxshi tanir edi. (*O‘. Hoshimov*) 10. Ko‘p o‘tmay qoramtir bulutlar ko‘k yuzida dag‘dag‘a qila boshladi. (*Mirmuhsin*) 11. Bitta-yu bitta sham yoqilgan yuz kishilik ulkan saroparda bo‘m-bo‘sh va nimqorong‘i edi. (*O. Yoqubov*) 12. Muqimiy oriqrq, kamgo‘sh.. biroz kamgaproq odam edi.. (*T. Obidov*) 13. Komila o‘rtog‘ining oq-sariq, uzunchoqroq nozik yuziga, biroz bo‘rtma qovoqlariga tikildi. (*Oybek*) 14. Hamma yulduzlar va ularning to‘plamlari birlikda yulduzlarning g‘oyat katta – gigant sistemasini tashkil etadi, bu sistema Galaktika deb ataladi. (*«Astronomiya» darsligidan*)

Savollar:

1. Sifatning kuchaytirma va ozaytirma shakli deganda nimani tushunasiz?
2. Sifatning kuchaytirma shakli qanday vositalar bilan yasaladi?
3. Sifatning ozaytirma shakli qanday vositalar bilan yasaladi?

263-mashq. Berilgan sifatlardan oldin *och, to‘q, jiqqa, lang, tim* kabi belgini kuchaytiruvchi yoki kuchsizlantiruvchi so‘zlarni qo‘yib yozing va hosil bo‘lgan kuchaytirma va ozaytirma shakllar ishtirokida 3-4 ta gap tuzing.

Qizil, sariq, ochiq, ho‘l, qora, yashil, ko‘k.

264-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Otlashgan sifatlarni topib, tagiga chizing. Ularning otlik belgilari va gapdagi vazifasini aniqlang.

1. O‘tloqda bedana ko‘p, dangasada – bahona. (*Maqol*) 2. Bosh yorilsa, bo‘rk ichida, deydilar, – bo‘lar-bo‘lmasga kattalarni ishdan qo‘yib g‘irillayverish xunuk narsa. (*S. Ahmad*) 4. Begim, bu ne hol?

Nechun mardona kiyim kiyibsiz? – Nomardlar ko‘payib ketgani uchun mardona kiyindim. (*P. Qodirov*) 5. Va‘daga vafo – mardning ishi, va‘dasiz – subutsiz kishi. (*Maqol*) 6. Mard kishidan o‘lim ham qo‘rqadi. (*I. Rahim*) 7. Bugun havaskorlarimiz televizorda chiqadi. Ularni ko‘rmabsan, dunyoga kelmabsan.. (*Sh. Sa‘dulla*) 6. Keksalarning ayti-shicha, bunday paytlarda biron-bir tepalikning ustiga chiqib, jimgina quloq solib yotsangiz, yerning nafasini eshitarmishsiz. (*O‘ Hoshimov*)

6. Bekor bo‘ldi iqtidorim, bekor bo‘ldi yuragim,

Bekor bo‘ldi she‘riyatim u go‘zalning qoshida. (*A. Oripov*)

7. Oshxona derazasi yonida turib, somsa yasayotgan uyg‘ur yigit ham go‘zal qizdan nigohini uzmasdi. (*Mirmuhsin*) 8. Ming jild kitob o‘qib, bir johilga gap topib berolmasam, mana bu kallani nimaga ko‘tarib yuribman? (*S. Siyoyev*)

Savollar:

1. Sifatning otlashushi deganda nimani tushunasiz?
2. Otlashgan sifat otga xos qanday qo‘shimchalarni qabul qiladi?

265-mashq. Berilgan sifatlarning yasalish asosi va yasovchi qo‘shimchasini belgilang. Sifat yasovchi qo‘shimchalarning qanday ma‘noli sifat yasayotganligini izohlang.

Aqlli, chiroyli, aloqador, unumdor, beodob, besabr, basavlat, baquvvat, sershira, noto‘g‘ri, harakatchan, erinchoq, tortinchoq, kuyinchak, tirishqoq, chopag‘on, toparmon, shartaki, yig‘loqi, egik, so‘niq, qovurma, qisqartma, qiziqarli, qoniqarli, chiyildoq, po‘rsildoq, ilmiy, shaxsiy, oilaviy, kuzgi, tonggi, kechki, qishloqi, bahori, o‘zbekcha, erkakcha, farg‘onacha, vatanparvar, darveshnamo, avliyonamo, kumushsimon, odamsimon.

Savollar:

1. Qanday sifat yasovchi qo‘shimchalarni bilasiz?
2. Otdan sifat yasovchi qo‘shimchalar qaysilar?
3. Fe‘ldan sifat yasovchi qo‘shimchalar qaysilar?

266-mashq. Berilgan qo‘shma sifatlarning yasalish qolipini tushuntiring.

Namuna: bodomqovoq – ot + ot qolipi asosida yasalgan.

Devsifat, xomkalla, dilozor, bodomqovoq, kaltafahm, yoqavayron, tepakal, hozirjavob, kulrang, osmono‘par, diltortar, yebto‘ymas, ochofat, tezpishar, balandparvoz, qirqyamoq, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti, qimmatbaho, gadoytopmas, ikkiyuzlamachi, kamgap, kamqon, otabezori, sohibjamol, cho‘rtkesar, oqbadan, ko‘kko‘z, sarvqomat, jigarrang.

Savol va topshiriq:

1. O‘zbek tilida qo‘shma sifat yasahning qanday qoliplari bor?
2. Ot + ot, sifat + ot, ot + sifat qolipli sifatlarga 5 tadan misol keltiring.

Son

267-mashq. Gaplardan sonlarni aniqlab, ularning ma‘nosi, o‘ziga xos qo‘shimchasi, qaysi so‘zga bog‘langani va gapda qanday bo‘lak vazifasini bajaryotganini izohlang.

1. Ming daraxtning boshini bir bolta chopar. (*Maqol*) 2. Unaqa og‘ayni mingta-dan bitta! (*A. Qahhor*) 3. Ko‘kish havo bilan chulg‘angan jilg‘a etagida bir qora paydo bo‘lgan edi. Bir zumda ikkov, uchov, to‘rtov, beshov bo‘lishdi. (*P. Tursun*) 4. O‘n olti ming qo‘y, ikki yarim ming yilqi hazilakam boylik emas. (*P. Qodirov*) 5. Og‘ir kulfatdan minglab odamlar boshpanasiz qoldi. (*N. Safarov*) 6. XI asrda yashab o‘tgan Nosir Xusravning ma‘lumotlariga qaraganda, birgina Isfahonda 200 tacha sarrof bo‘lgan. (*“Fan va turmush” jurnalidan*) 7. Beshinchi kun deganda ariqcha baland-pastliklardan o‘tib, eski izga tushdi. (*I. Rahim*) 8. Hovlida besh-olti kishi g‘ivirlab yuribdi. (*O‘. Umarbekov*) 9. G‘ulomjon nima qilayotganini o‘zi ham bilmay, qo‘shni darchaga ikki hatlab yetib keldi. (*M. Ismoiliy*) 10. U bir gapirib, o‘n kular, gap orasida Dildordan gina ham qilib qo‘yardi. (*S. Ahmad*) 11. Uch yuz yigirma tonna portlatgich bir yarim kilometr masofadagi toshloqqa chuqur o‘rnatilgan. (*S. Ahmad*) 12. So‘nggi 20 yil mobaynida Orol dengizi sathi 8 marta pasayib, suv hajmi 393 kub kilometr ga kamaydi. (*“Fan va turmush” jurnalidan*)

Savollar:

1. Son turkumi deganda qanday so‘zlarni tushunasiz?
2. Son turkumi qanday so‘roqqa javob bo‘ladi?
3. Sonning qanday lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalari bor?

4. Son turkumiga mansub soʻz qanday soʻzlarga bogʻlanib keladi?
5. Son gapda qanday boʻlak vazifasida keladi?

268-mashq. Oʻqing. Sonlarni topib, oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birga koʻchiring va maʼno jihatdan turini ayting.

1. Quyoshga ters bir hujrada toʻrt kishi gʻuj boʻlib, odatdagicha gurunglashib oʻtirishar edi. (*Oybek*)
2. U ikki qoʻlida uchtdan oltita choynak koʻtarib, hovuz boʻyidagi choyxoʻrlar oldiga ketayotgan Sidiqjonni koʻrib, xuddi koʻziga ishonmaganday, turib qoldi. (*A. Qahhor*)
3. Tolibjon boyning besh oʻgʻli, uch qizi bor ekan. (*Oybek*)
4. Qurbonov choʻntagidan yon daftarcha chiqardi: – Bu kishiga oʻttizta choynak, yuzta paxta gulli piyola taqsimchasi bilan. (*N. Aminov*)
5. Uyda bitta yogʻoch choʻmich bor-u, bitta uchi yeyilib ketgan qora yogʻoch qoshiq. (*J. Sha-ripov*)
6. Yigirma dona non kerak ekan. Narxi qanchadan? deb darrov soʻrab kel! (*A. Qodiriy*)
7. Oqburasoy boʻylarida ham, Chilmahram togʻining etaklaridagi koʻkalamzorlarda ham yuzlab chodirlar va oʻtovlar paydo boʻldi. (*P. Qodirov*)
8. Sidiqjon yuzlarcha kishi ogʻziga qarab turgan majlisni koʻz oldiga keltirib, juda katta tashvishga qoldi-yu, dami ichiga tushib ketdi. (*A. Qahhor*)
9. Ikkala ot bir qiyosda baravar qadam tashlab borar edi. (*A. Qahhor*)
10. Men sizga aytsam, katta koʻrmaganni kichik koʻradi, kichik koʻrmaganni katta koʻradi, ikkalasi birlashib qarasa, hech narsa koʻzdan qochmaydi, deydi xalq. (*A. Qahhor*)
11. Oltovlon ola boʻlsa, ogʻzidagini oldirar, toʻrtovlon tugal boʻlsa, unmaganni undirar. (*Maqol*)
12. Lekin oʻzlari toʻrt ogʻa-ini edilar, toʻrtovi ham kal edi, barisi ham hunarli edi. (*«Ravshan» dostonidan*)
13. Muqaddam besh-olti qadam orqada turar, qorongʻilikda gavdasi elas-elas koʻrinardi. (*Oʻ. Hoshimov*)
14. Fakultetimiz institut boʻyicha umumiy roʻyxatda beshinchi oʻringa tushib qolibdi. (*Oʻ. Hoshimov*)
15. Xonada oʻntacha eski, chang bosgan parta, kiraverishdagi devorga kattakon qora taxta qoqilgan edi. (*P. Tursun*)
16. Koshki edi sizdagi hofiza quvvatining oʻndan biri menda boʻlsa! (*M. Osim*)

Savollar:

1. Sonning qanday maʼno turlari bor?
2. Miqdor son nima?
3. Tartib son deganda nimani tushunasiz?
4. Miqdor sonning qanday maʼno turlari bor?
5. Sanoq son nima?

6. Dona son qanday yasaladi?
7. Chama son qanday yasaladi?
8. Jamlovchi son qanday yasaladi?

269-mashq. Gaplarni o‘qing. Bir so‘zining ma’nolarini aniqlang.

1. Deraza va eshikli, tagi taxtaband, usti tunukali ikki uy, bir oshxona, bir og‘il-xona va bir xashakxona – tamom! (A. Qodiriy) 2. 1989-yil Orol dengizining sathi yana bir metrga pasaydi. (*“Fan va turmush” jurnaldan*) 3. Bir vaqtlar bu uyga onasi bilan mehmon bo‘lib kelgan bir tatar qizi ruscha bir axloqiy romanni unutib qoldirgan. (Oybek) 4. Tojiboy taajjubda qolib, boshini liqillatdi: Bir o‘zingiz-a? Yopiray! Miyangiz achib, yuragingiz toshib ketmaydimi? (P. Tursun) 3. Jonzotlar ichida birgina odamzodga aql ato etib, yuragiga diyonatni joylabdi. (N. Norqobilov) 5. Oqsoy qirg‘oqlardan oshib-toshadi. Ko‘kka bo‘y cho‘zgan, mag‘rur daraxtlarni ag‘darib, arzimagan bir xasday oqizadi. (S. Anorboyev) 6. Keliningizga mana buni oldim, sizga uch-to‘rt bayramlikni bir qilib olib kelaman. (O‘. Umarbekov) 7. Mashina bir baland tepaning orqasiga o‘tib to‘xtadi. (S. Anorboev) 8. Kumush boshqalar bilan bir-bir ko‘rishib chiqdi. (A. Qodiriy) 9. Ular uchun akademik ham bir, ko‘chada yotgan alkash ham bir. (T. Malik) 10. Mana bukun quling o‘rgil-sin bir xiyobonki, ko‘lankasida yastanging keladi. (Oybek) 11. Yulduzxon unga yengilgina bosh iring‘adi va bir kulib qaradiki, Muhiddin shu vaqtgacha qizlar kulgisining bu qadar jozibali, chiroyli, issiq bo‘lishini sira uchratmagan edi. (R. Fayziy)

Bir sonini turli ma’noda qo‘llab 4-5 ta gap tuzing.

270-mashq. Nuqtalar o‘rniga avval **-ta** qo‘shimchasi, so‘ng *dona, tup, bosh, nafar, nusxa* so‘zlaridan mosini qo‘yib o‘qing.

1. Yigirma ... non kerak ekan. Narxi qanchadan deb darrov so‘rab kel! (A. Qodiriy) 2. Yoniga to‘rt ... yasovul olib, Sultonali yo‘lga tushdi. (A. Qodiriy) 3. Salkam million ... daraxti bor Toshkentda nima ko‘p, sersoya joylar ko‘p. (P. Qodirov) 4. Akam bilan Tog‘kamarga tushib chiqdik. O‘sha kamar ichi keng: yuz ... qo‘y soyalashi mumkin. (Sh. Xolmirzayev) 5. Toshkentda bu kitobdan faqat ikki ... bor, xolos. (S. Ahmad)

-ta qo‘shimchasi va *dona, tup, bosh, nafar, nusxa* so‘zlarining qo‘llanish doirasini tushuntiring.

271-mashq. Gaplarni o‘qing. “Sanoq son + o‘lchov so‘z + o‘lchanadigan (sanaladigan) narsa nomi” qolipli birikmalarni ajratib yozing. O‘lchov so‘zlarining ma’nosini tushuntiring.

1. Mashhur hofiz va mashhur o‘yinchi chol o‘n kilometr masofadagi Urganchgacha poyi piyoda yo‘l oladilar. (*M. Qo‘shjonov*) 2. Beh-beh, – deb tovuqlarni donga chaqirar va uning oldida bir to‘da tovuq qutqutlashib, don talashar edi. (*P. Tursun*) 3. Duvullab bir hovuch o‘rik to‘kildi. (*S. Siyoev*) 4. Xosiyat xola olovi ancha pasayib qolgan o‘choq yoniga borib, tuvoqni ko‘tardi-da, oshning ta’mini ko‘rib, bir chimdim tuz tashladi. (*R. Fayziy*) 5. Uch yuz yigirma tonna portlatgich bir yarim kilometr masofadagi toshloqqa chuqur o‘rnatilgan. (*S. Ahmad*) 6. Men o‘n yildan beri azm qilolmay yurgan bu ishga bugun jazm etdim. (*A. Muxtor*) 7. Bir kuni ko‘chada ketayotsam, Umri bir bosh uzum ko‘tarib kelyapti. (*A. Qahhor*) 8. Har o‘n tanob yer bir suv hisoblanib, mana shu maydon hisobidan ariq tozalashga bir hasharchi yuborilar edi. (*I. Jabborov*) 9. Arslonqul barvasta qomat, o‘mrovli, sodda, o‘n sakkiz yashar yigitcha edi. (*Oybek*) 10. – Bir jo‘ra atlas u yoqda o‘ttiz so‘m, – dedi Turob Usmonga. (*O. Husanov*) 11. Alijon, qo‘lida bir karj tarvuz ushlagan holda, boshini sarak-sarak qildi. (*H. Nu‘mon*) 12. Faqat bir-ikki tilim handalak yedi-yu, uch-to‘rt piyola choy ichdi. (*P. Qodirov*) 13. Atmosferaning eng yuqori qatlami – ekzosfera. U yerda havo deyarli yo‘q. Harorat taxminan 2000 daraja issiq deb hisoblashadi. (*“Bolalar ensiklopediyasi” dan*)

Savollar:

1. O‘lchov so‘z nima?
2. O‘lchov so‘zning nimani hisoblashiga ko‘ra qanday turlari bor?
3. O‘lchov so‘z qanday hisoblashiga ko‘ra qanaqa turlarga bo‘linadi?
4. O‘lchov so‘zning qo‘llanish davriga ko‘ra qanday turlari bor?

272-mashq. Berilgan so‘zlarni “sanoq son + olchov so‘z + o‘lchanadigan (sana-ladigan) narsa nomi” qolipida o‘lchov so‘z ma’nosida qo‘llab birikma tuzing. Shu birikmalardan 4-5 tasi ishtirokida gap tuzing.

Namuna: *Etak – bir etak paxta. Nargiza yarim soatda bir etak paxta terdi.*

Etak, mashina, to‘rva, savat, tandir, qop, uy, javon, gala, do‘ppi, piyola, kosa, arava, quchoq, tuya, avtobus, daftar, varaq, tovuq, stakan,

qoshiq, ro‘mol, zal, sinf, qator, paykal, hovuz, chelak, bochka, chamadon.

Qanday so‘zlar o‘lchov so‘z ma’nosida qo‘llana oladi?

273-mashq. O‘qing. Tartib sonlarni arab yoki rim raqami bilan ifodalab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda imlo qoidasiga muvofiq ko‘chiring.

1. Po‘lat quyuvchi Turgenevning kvartirasi zavodning orqasidagi ikki qavatli uyning birinchi qavatida edi. (*I. Rahim*) 2. Ming to‘qqiz yuz qirq beshinchi yilning butun yoz oylari temir yo‘l liniyalarida passajir poyezdlari jadvaldan tashqari harakat qila boshlagan edi. (*S. Ahmad*) 3. Tal’at o‘ninchi sinfni kumush medal bilan tamomladi. (O‘. *Hoshimov*) 4. Jaholatparastlar o‘n sakkizinchi asrda Parij atrofida qurilgan birinchi havo sharini majaqlab tashlaganlar. (*Gazetadan*) 5. Inobatxon institutning birinchi kursidayoq mening jigarimdan urib qolgan edi. (*G‘ayratiy*) 6. Bir ming to‘qqiz yuz to‘qson birinchi yil o‘ttiz birinchi avgust O‘zbekistonimiz uchun asrga tatigulik kun bo‘ldi. Shu kundan boshlab mardona “mustaqillik” so‘zi tilimizga ko‘chdi, ongimiz, tili-mizdagi qulf sharaqlab ochilib ketdi. (*S. Barnoyev*) 7. I.A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarining uchinchi bobi “Ma’naviyatga tahdid – o‘zligimiz va kelajagimizga tahdid” deb nomlangan. Unda hozirgi kunda yoshlar ma’naviyatiga tahdid solayotgan hodisalar va ularning oldini olish haqida so‘z boradi. 8. Bayzo sifat jihatidan Isfahon po‘latidan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. (“*O‘zME*”dan)

Savollar:

1. Son yozuvda qanday ifodalanadi?
2. Tartib son qanday raqamlar bilan yoziladi?
3. Arab raqami bilan ifodalangan tartib son qanday so‘zlar bilan qo‘llandai?
4. Rim raqami bilan ifodalangan tartib son qanday so‘zlar bilan qo‘llandai?
5. Arab raqami bilan ifodalangan tartib son qanday yoziladi?
6. Rim raqami bilan ifodalangan tartib son qanday yoziladi?

274-mashq. Quyidagi arab raqami bilan yozilgan sonlarni rim raqami bilan yozing.

16, 19, 35, 20, 1985, 18, 670, 556, 200, 300, 401, 8790, 769.

275-mashq. Gaplarni yozing. Otlashgan sonlarni topib, ularning gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Birni kessang, o‘nni ek. (*Maqol*) 2. Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni. (*Maqol*) 3. Birning kasri – mingga, mingning kasri – tumanga. (*Maqol*) 4. Nizomov oltmishni qoralagan baqaloq kishi edi. (*S. Siyoyev*) 5. Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotida satirik novellaga asos soldigina emas, u 20-yillardayoq birinchilardan bo‘lib ikkita katta roman – «O‘tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon»ni yozdi. (*Gazeta-dan*) 6. Mamadali amakining har yili beshta-oltita tug‘adigan kuchugi bu yil bittagina tug‘ibdi. (*E. Raimov*) 7. Men o‘n beshga kirganda, ayam o‘ldi. Hali qirqqa bormagandi. Yosh ketdi. (*Oybek*) 8. Men o‘rtamiyona baholarni yomon ko‘raman. Menga yo «besh», yo «ikki» qo‘ying. (*F. Musajonov*) 9. O‘n beshinchi tushmagur bir so‘zli, o‘jar odam ekan. (*S. Ahmad*)

Olmosh

276-mashq. Gap juftlarida ajratilgan olmoshlarning oldingi gapdagi nimaga ishora qilayotganligi, nimani almashtirayotganligini aniqlang.

1. Mulozimlar bu xabarni Mahmudga yetkazib, kurashda ishtirok etishini o‘tinib so‘rabdilar. **U** rozilik bildiribdi. (*H. Homidov*) 2. Bir vaqt yo‘lni changitib, qatorasiga uch mashina keldi. **Ularda** ancha amakilar bor ekan. (*Sh. Sa’dulla*) 3. Yog‘ib turgan qor pardasi ortida uch-to‘rt g‘amgin chordevorlar ko‘rindi. **Ulardan** narida qurib qolgan bir hovuz ham bor. **Shunga** yetsam yo‘lning yarmi qoladi. (*P. Qodirov*) 4. Sohilda kuchli shamol turgan vaqti ham ko‘p, biroq **bunday** shamollar aksari kechalari bo‘ladi.. (*A. Rahmat*) 5. Sahrolardagi dyunalarning bir yonbag‘ri yotiqroq.. ikkinchisi tikroq bo‘ladi. **Bunday** tepaliklar barxanlar deb ataladi. (*“Geografiya” darsligidan*) 6. Bahrombekning ko‘z oldi qorong‘ilashib ketdi. Olti yarim yil! Ozodlikka chiqsam ham, **shuncha** yil umr ko‘rarmikanman? (*“Yoshlik” jurnalidan*) 7. Bayroqdorlar uchuvchiga nishon belgilab turishardi, **buni** endi bildi Quadrat. (*H. Nazir*) 8. Bir qassob do‘koni; **buning** yoniga suqilgan kichkina baqqolchilik. (*Oybek*) 9. Kishining qo‘rqanini sezsa, jur‘atsiz kuchuk ham hujum qiladi, men **buni** yaxshi bilardim. Shuning uchun yuragim vahimadan uvushib ketayotgan bo‘lsa ham, boyagiday shoshilmay,

bo‘rilarni ko‘rmaganday bir maromda yurib borardim. Bir jihatdan menga osonrog‘i **shu** edi. (*P. Qodirov*)

Savollar:

1. Olmosh qanday so‘z turkumi?
2. Olmoshning ma‘noviy xususiyati qanaqa?
3. Olmosh nutqda nimalarni almashtirib, nimalarga ishora qilib keladi?
4. Qaysi olmoshlar ot o‘rnida qo‘llanadi?
5. Qaysi olmoshlar sifat o‘rnida qo‘llanadi?
6. Qaysi olmoshlar son o‘rnida qo‘llanadi?
7. Qaysi olmoshlar ravish o‘rnida qo‘llanadi?
8. Qaysi olmoshlar fe‘l o‘rnida qo‘llanadi?
9. Qaysi olmoshlar taqlid so‘z o‘rnida qo‘llanadi?
10. Qaysi olmoshlar so‘z birikmasi o‘rnida qo‘llanadi?
11. Qaysi olmoshlar gap o‘rnida qo‘llanadi?
12. Olmosh matn o‘rnida ham qo‘llanadimi?

277-mashq. 1- topshiriq. 267-mashqda ajratilgan olmoshlarni matndan anglashilib turgan va o‘zi almashtirib kelayotgan so‘z, so‘z birikmasi, gap bilan almashtirib, gaplarni o‘qing.

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Olmoshlarni o‘zi almashtirib kelayotgan so‘z, so‘z birikmasi, gap bilan almashtirganingizda qanday noqulaylik sezdingiz?
2. Shunga asoslanib olmoshning nutqdagi ahamiyatini tushuntiring.

Olmoshning ma‘no turlari

278-mashq. O‘qing. Kishilik olmoshlarini topib, shaxs va sonini ayting.

1. Men ham sen singari yigirma ikki yoshimda qaynab, toshib yurgan kezlarim edi. (*M. Ismoiliy*) 2. – E, e, akillay berasan-da, Safar! – dedi buqoq, – biz nima deyapmiz-ku, sen nima deyapsan! (*A. Qodiriy*) 3. Kel, qizim, mehmonlaring seni ancha kutib qolishdi-ku. (*S. Zunnunova*) 4. – Tag‘in nima deysiz? – Hech narsa demayman.. Lekin siz ikki yil burungi Kumush emassiz. (*A. Qodiriy*) 5. Begim.. sizda vijdon, insof, va‘da, vafo, yaxhsilikni bilish, boringki, odamgarchilikdan hech gap yo‘q emish. (*A. Qodiriy*) 6. Siz qutlug‘ kunlarda yetib keldingiz, aziz birodarlar! (*A. Muxtor*)

7. Siz mardlar avlodi, sizdagi g‘urur

Po‘lat nayza kabi o‘tkir, bukilmas. (*G‘. G‘ulom*)

8. Musulmonlar! Yaxshi deb yo‘lida jon berganing Azizbek bu kun sizlarga yaxshiligingizni o‘ttiz ikki tanga soliq bilan qaytarmoqchi bo‘ldi. (A. Qodiriy) 9. Zamira «A» tokchasi xatga to‘lib turganini ko‘rdi-yu, borib qo‘l soldi. Uning nomiga g‘alati bir konvert chiqdi: na adresi bor, na markasi va na pochta muhri. (P. Qodirov) 9. Shu zahoti qayoqdandir Ko‘kqashqa paydo bo‘ldi. U quyundek uchib kelib, bo‘rilarga tashlandi. (N. Fozilov) 10. Xudoga shukur, boylarimiz orasida saxovatli odamlar ham bor. Ular faqirlarga zakot beradilar, yalang‘ochlarni kiyintiradilar. (Oybek)

Savollar:

1. Kishilik olmoshiga qaysi olmoshlar kiradi?
2. Shaxs ma’nosi deganda nimani tushunasiz? I shaxs, II shaxs, III shaxs deganda nima tushuniladi?
3. III shaxs kishilik olmoshining I, II shaxs olmoshlaridan farqi nimada?
4. Mashqdagi qaysi misollarda siz olmoshi birlik ma’nosida, qaysilarida ko‘plik ma’nosida qo‘llamilgan?

279-mashq. Berilgan jadvaldagi kataklarga tegishli kishilik olmoshlarini yozib chiqing.

Shaxs \ Son	Birlik	Ko‘plik
I shaxs		
II shaxs		
III shaxs		

Savollar:

1. Kishilik olmoshlari shaxs ma’nosiga ko‘ra necha guruhga bo‘linadi?
2. Kishilik olmoshlari son ma’nosiga ko‘ra necha guruhga bo‘linadi?
3. *Siz* va *ular* olmoshini birlik va ko‘plik ma’nosida qo‘llab gap tuzing.

280-mashq. Gaplardagi *sen* va *siz* olmoshlarining ma’nosi va qo‘llanish sababini tushuntiring.

1. – Sening muddaong, – dedi hoji, – marg‘ilonlik kelinni o‘g‘lingdan ajratib yuborish va bu kelining bilan qoldirish – shundog‘mi? (A. Qo-

diriy) 2. Siz esingizni yeb qo‘yibsiz, o‘g‘lingizni marg‘ilonlikka topshirib qo‘yib, yana el ichida boshingizni ko‘tarib yurmoqchi bo‘lasizmi? (*A. Qodiriy*) 3. Ma, ye shuni, bolajonim, atayin senga ilinib olib keldim. (*Sh. Sulaymon*) 4. Men siyohbaxt dunyoga kelmagan bo‘lsam edi, sizga munchalik kulfatlar, munchalik anduhlar yo‘q edi. (*A. Qodiriy*) 5. – Siz shu yerda andak o‘tirib turing, opa! – dedi haligi qirraburun odam. (*P. Tursun*) 6. – Nizomiddinov, – dedi rais o‘rnidan turib, – siz odamlarning vaqtini olayotirsiz axir. (*A. Qahhor*) 7. Yurtim, senga she‘r bitdim bu kun, qiyosingni topmadim aslo. (*A. Oripov*) 8. Dilda neki hayajon – Bari-bari senga bo‘lsin, Senga bo‘lsin, onajon. (*A. Oripov*) 9. Sendek itdan bizga qipchoq yaxshi! – Xalqning bu javobi ishning na darajaga etganini anglatar edi. (*A. Qodiriy*) 10. – Men senga aytsam, do‘stim, – dedi Elmurod, – xursandchiligim ichimga sig‘maydi. (*P. Tursun*) 11. Boy, men o‘ylagan bu ishga siz ham bosh qo‘shsangiz, savob bo‘larmidi? (*N. Safarov*) 12. Sen ham mening o‘g‘lim tengisan, hovling qarovsiz qolib, juda befayz bo‘lib qopti. (*S. Ahmad*)

Sen va siz olmoshlarining ma‘nosi va qo‘llanishidagi farq nimada?

281-mashq. Berilgan gaplardagi ko‘rsatish olmoshlarini topib, ma‘nosi va vazifasini tushuntiring.

1. Unsin, bu oila qanday? Ketasanmi yo bu yerda qola turasanmi? (*Oybek*) 2. Mana bu uzumni oling, juda yaxshi pishibdi. (*Oybek*) 3. Ko‘z yurakning ko‘zgusi bo‘lsa, nutq – boshdagi fikrning mezoni. Buni Elmurod yaxshi bilar edi. (*P. Tursun*) 4. Qishloq bolasi oyoqlabdiki, shu tepaga tirmashadi, shu tepada o‘ynab o‘sadi. (*N. Norqobilov*) 5. Bu qo‘yni olib borib, sherigi bilan yana bir-ikki oy boqing. (*A. Qahhor*) 6. Ko‘ksoyni yoqalab taqir chorva yo‘li o‘tgan. Cho‘ponlar bu yo‘ldan bahorda toqqa, kuzda qishloqqa mol haydaydilar. (*S. Anorboyev*) 7. O‘simliklar dorivor moddalar manbaidir. Shunday moddalardan biri gul nektaridir. (*“Fan va turmush” turmush jurnalidan*) 9. Direktor o‘sha terilar uchun ko‘rgazmaning oltin medalini oldi. (*S. Ahmad*) 9. – U uyga choy so‘rashsa, Yo‘lchi akangga kelib shipshit, Gulnor qizim! – deb to‘y bekasi Lutfiniso ketdi. (*Oybek*) 10. Chamangda shu qovun necha kilo keladi!

Ko‘rsatish olmoshlari nutqda qanday vazifa bajaradi?

282-mashq. Berilgan soʻz birikmalari orasida qanday maʼno farqi borligini ayting.

- 1) bu hikoya, shu hikoya, oʻsha hikoya, u hikoya;
- 2) bu uy, shu uy, oʻsha uy, u uy;
- 3) bu yigit, shu yigit, oʻsha yigit, u yigit
- 4) buni bering, shuni bering, oʻshani bering, uni bering.

Yuqorida berilgan koʻrsatish olmoshli soʻz birikmalariga *mana, ana, huv ana* soʻzlarini qoʻyib oʻqing va yozing. *Mana, ana* soʻzlarining maʼnosini tushuntiring.

283-mashq. Gaplarni oʻqing. Oʻzlik olmoshini topib, maʼnosi, grammatik shakli va gapdagi vazifasini tushuntiring.

1. Oʻz uying, oʻlan toʻshaging. (*Maqol*) 2. Baʼzan kishi bir-biri bilan gaplashib, koʻnglidagini boʻshatib tursa, oʻzini yengil sezadi. (*P. Tur-sun*) 3. Yering boʻlsa, mehnati ham, rohati ham oʻzingniki boʻladi. (*Oybek*) 4. Hech qayerim jiddiy lat yemagan boʻlsa ham, oʻzimni yomon his qildim. (*O. Moʻminov*) 5. Kumush oʻz xatida yozgandek, darhaqiqat, Zaynab shu keyingi kunlarda yovvosh tortgan. (*A. Qodiriy*)

5. Mukammal koʻrmoqchi boʻldik dunyoni,
Yetuk boʻlolmadik oʻzimiz biroq. (*A. Oripov*)

6. Bilaman, tillarning yomoni yoʻqdir,
Har tilning oʻz koʻrki, ulugʻligi bor. (*Shuhrat*)

Savollar:

1. Oʻzlik olmoshi deganda nimani tushunasiz?
2. Oʻzlik olmoshi necha xil holatda qoʻllanadi?
3. Oʻzlik olmoshi ot oldidan oʻzgarmay qoʻllanganda qanday maʼnoni bildiradi?
4. Oʻzlik olmoshi egalik qoʻshimchasini olib kelganda qanday maʼnoni ifodalaydi?

284-mashq. Berilgan gaplardan soʻroq olmoshlarini topib, nima haqida soʻroq bildirishini ayting.

1. Rafiq, nayni kim chaldi? – Yoʻlchi akam. – A! Rostdanmi? Aldama! (*Oybek*) 2. – Mana bu nima? – Abu Nasr tokchadan barglari mayda quruq oʻtni olib koʻrsatdi. – Zaʼfar – Anixus. (*M. Osim*) 3. Koʻzingizni

oching, otajon, qachon sizni ranjitdim, qachon? (*E. Rahim*) 4. Nega o'rtasrlarda tabiiy fanlar jahonni hayratga solarli darajada taraqqiy etib, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino kabi allomalar yetishib chiqdi? (*S. Karomatov*) 5. Toza sharmanda bo'ldik. Besh-olti yilga kestirib yuborsa, seni qanday qilib qutqarib olamiz? (*P. Tursun*) 6. Nima uchun devorlarga gilam qoqmadinglar? (*M. Ismoiliy*) 7. Qanday beda deng, bog'i quchoqqa sig'maydi. (*Oybek*)

8. Nima bu, qanday tumor,

Do'ppi ichra chatilgan? (*G'. G'ulom*)

9. – O'ho'! – dedi Turdiyev deraza ko'zlarini ko'rib. – Bularga loyiq oynani qayerdan topaman. (*I. Rahim*) 10. Doyacha kim, aqiqaga nechta qo'y kerak, nechanchi kunda to'y o'tkaziladi? (*A. Qodiriy*) 11. O'tgan yillar mobaynida g'isht orqasidan qancha daromad qilgansiz? (*S. Ahmad*) 12. Qizing qani, dedim. «Uyda edi, qayoqqa borardi», dedi. U yoqni qaradik, bu yoqni qaradik, yo'q. Shu qorong'ida qayoqqa boradi? (*Oybek*) 13. – Ha, Bo'taboy aka, bemahalda nima qilib yuribsiz? Tinchlikmi? – Tinchlik, – dedi Bo'taboy. (*A. Qahhor*) 14. – Hay-hay, sizga nima bo'ldi? – dedi Me'mor yugurib borib. (*Mirmuhsin*)

Savollar:

1. So'roq olmoshlariga qaysi so'zlar kiradi?

2. So'roq olmoshi vositasida gapning ifoda maqsadiga ko'ra qanday turi hosil bo'ladi?

3. So'roq olmoshlari qanday ohang bilan aytiladi?

285-mashq. Berilgan so'roq olmoshlarini quyidagi guruhlarga ajrating: 1) insonga nisbatan so'roq, 2) narsa-hodisaga nisbatan so'roq, 3) belgiga nisbatan so'roq, 4) miqdor va tartibga nisbatan so'roq, 5) o'ringa nisbatan so'roq, 6) paytga nisbatan so'roq, 7) sababga nisbatan so'roq, 8) harakat tarziga nisbatan so'roq, 9) harakatga nisbatan so'roq.

Kim, nima, qayer, qachon, qanday, qancha, nima uchun, qani, qayoqqa, nega, nechta, qanaqa, necha, nechanchi, qanday qilib, nima qildi, nima bo'ldi, qayerda, qayerga, qayerdan, nechun.

So'roq olmoshining turlari ishtirokida bittadan gap tuzing.

286-mashq. Gaplarni o'qing. Belgilash olmoshlarini topib, ma'nosini izohlang.

1. Boburning har muhim ishda onasidan maslahat so‘rashi Qosimbekka uncha yoqmas edi. (*P. Qodirov*) 2. Anvar har kim uchun sevimli va xushmuomalasi bar-chaga baravar edi. (*A. Qodiriy*) 3. Bas endi, achchiq ustida har kim har gapni aytadi. (*Hamza*) 4. Har bir qozoqning o‘tovida qimizi, qimroni yoki ayroni doim osig‘liq turadi. (*M. Muhammadjonov*) 5. Bilish uchun har qaysi she’rdan bir-ikki xat o‘qib ko‘rish kerak edi. (*A. Qahhor*) 6. Shuning uchun chinorning ziyoratiga atrof-tevarakdan har yili tumonat odam kelib ketadi. (*A. Muxtor*) 6. Zokir yotig‘i bilan har qancha gapirsa ham, foydasi yo‘qligini sezdi. (*P. Qodirov*)

7. Har bahorda shu bo‘lar takror,

Har bahor ham shunday o‘tadi. (*H. Olimjon*)

8. Arabboyning yoshi o‘n yettida, gavdasi ham kattaroq bo‘lgani uchun, hamma bolalar unga itoat qilardi. (*P. Tursun*) 9. Maktabni bitirgach, hammamiz har yoqqa tarqashib ketamiz. (*P. Tursun*)

10. Barcha shodlik senga bo‘lsin.

Bor sitam, zorlik menga. (*E. Vohidov*)

11. Elchi hozir o‘z podshohining topshirig‘ini bajarish uchun butun ayyorligini ishga solar, tilyog‘lamalik qilib, To‘marisni ko‘klarga ko‘tarar edi. (*M. Osim*) 12. Mahalladagi yigitlarning bari manga ma’lum... Bilish mening ishim-da. (*Oybek*)

Savollar:

1. Belgilash olmoshiga qaysi so‘zlar kiradi?

2. Belgilash olmoshlarini ma’nosiga ko‘ra necha guruhga ajratish mumkin?

287-mashq. Berilgan gaplardan gumon olmoshlarini topib, hosil bo‘lishi va ma’nosini izohlang.

1. Kimdir yugurib, ichkariga qochdi, nimadir gupillab, yerga tushdi, nimadir polga daranglab dumaladi, sindi. (*Shuhrat*) 2. Bektemirga notanish qandaydir qushlar gala-gala bo‘lib, allaqaylarga, go‘zal, issiq diyorlarga safar qiladilar. (*Oybek*) 3. Allaqayerda kuyib-pishib bedana sayraydi. (*Shuhrat*) 4. Farg‘ona vodiysidan boshqa joylarga ekiladigan turp negadir achchiq ta‘m, taxir mazaga ega bo‘ladi. (*K. Mahmudov*) 5. Jahon ota allakimning boqib qo‘ygan qo‘zisini nasiyaga olib keldi. (*R. Rahmonov*) 6. Kimningdir ko‘nglida bahor gulladi. Kimdir kim-

gadir intizor bo'ldi. (*O'. Hoshimov*) 7. Qayerdadir, yer ostida, yumronqoziq nimanidir kemiradi. (*M. Mansurov*) 8. Diktor allaqaysi poyezd kelganini e'lon qildi. (*O'. Hoshimov*) 9. Qalaysan, uka? – birov kelib turti Yo'Ichini. (*Oybek*)

Savollar:

1. Gumon olmoshlari qanday yasaladi?
2. -dir qo'shimchasi yordamida 5 ta gumon olmoshi hosil qilib bu olmoshlar ishtirokida gap tuzing.

288-mashq. Berilgan gaplardan bo'lishsizlik olmoshlarini topib, hosil bo'lishi va ma'nosini izohlang.

1. Anvar xususiy hayoti, ayniqsa, Ra'noga aloqasidan hech kimga og'iz ochmas edi. (*A. Qodiriy*) 2. Hech qayerim jiddiy lat yemagan bo'lsa ham, o'zimni yomon his qildim. (*O. Mo'minov*) 3. Shayboniyxon hali hech qaysi jangga bunchalik jon-jahdi bilan tayyorlangan emas. (*P. Qodirov*) 4. Qanday qilib siz bilan mening dilim bir bo'lsin! Hech qachon bir bo'lolmaydi. Aksincha, o't bilan suvdek zid. (*P. Tursun*) 5.– Odamning qo'lidan kelmaidigan hech bir ish yo'q, – dedi Saodatxon, – odam hamma narsadan zo'r. (*S. Zunnunova*) 6. Dunyo hamon osoyish, charog'on-u chiroyli – qarab hech to'ymaysan. (*M. M. Do'st*) 7. Sendan hech sirimni yashirmayman. (*A. Qahhor*) 8. Bu yigit boshqa hech ishda o'zini ko'rsatmagan edi, shu ishga qo'ydik, bunda o'zini ko'rsatdi. (*A. Qahhor*)

Savollar:

1. Bo'lishsizlik olmoshi qanday hosil bo'ladi?
2. Gapda bo'lishsizlik olmoshi qo'llanganda kesim qanday shaklda bo'ladi?

Fe'l

289-mashq. Matnni o'qihg. Fe'llarni aniqlab, qanday so'roqqa javob bo'lishi, turi (mustaqil yoki yordamchi fe'l ekanligi), gapdagi vazifasini ayting. Harakat va holat bildiruvchi fe'llarni ikki guruhga ajratib yozing.

Urush vaqti edi. Biz Turkiston tizma tog'ining etagida, shahardan yigirma besh chaqirim naridagi kichkina qishloqda turar edik. Harbiy xizmatdagi akamning xotini qish kunlarida qattiq betob bo'lib qoldi-yu, shahardan oyimni chaqirib keling, deb iltimos qildi.

U vaqtlarda mashina juda kam, ot-ulov xo‘jalik ishi bilan band edi. Men piyoda yo‘lga chiqdim. Yog‘ib turgan qor pardasi ostida uch-to‘rt g‘amgin chordevorlar ko‘rindi. Ulardan narida qurib qolgan bir hovuz ham bor. Shunga yetsam, yo‘lning yarmi qoladi.

Atrof biyday dala. Bir vaqt yo‘lning chap tomonida qandaydir sharpa sezganday bo‘ldim. Durustroq qarasam, mendan yuz qadamcha narida ikkita kulrang jonivor turibdi. Men avval ularni it deb o‘yladim. Shu atrofda yoyilib yurgan qo‘y qo‘rasi bordir deb, yon-verimga alangladim. Lekin ko‘z ilg‘aydigan joyda bironta qo‘y yoki poda ko‘rinmas edi. Biri cho‘nqayib olgan, ikkinchisi tikka turgan va meni sergaklanib kuzatayotgan haligi kulrang jonivorlar it emas edi. Men ularning bo‘ri ekanligini tushundim-u, etim junjikib ketdi. Bir lahza o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. Keyin sal hushimni yig‘ishtirib qarasam, oyoqlarim go‘yo o‘z-o‘zidan yurib ketyapti. To‘xtashga ham, jadallashga ham, avzoyimni o‘zgartirishga ham jur‘at yo‘q. To‘g‘riga qarab avvalgiday yurib ket-yapman-u, butun vujudim bilan bo‘rilar tomonga quloq solaman. Menga qarab kelishsa, shitiri eshitiladi-ku, deyman.

Kishining qo‘rqanini sezsa, jur‘atsiz kuchuk ham hujum qiladi, men buni yaxshi bilardim. Shuning uchun yuragim vahimadan uvushib ketayotgan bo‘lsa ham, boyagiday shoshilmay, bo‘rilarni ko‘rmaganday bir maromda yurib borardim. (*P. Qodirov*)

Savollar:

1. Fe‘l turkumiga kiruvchi so‘zlarning umumiy ma‘nosi nima?
2. Mustaqil va yordamchi fe‘l deganda nimani tushunasiz?
3. Tuslanishli va tuslanishsiz fe‘l deganda nima tushuniladi?
4. Fe‘l qanday shakl yasovchi qo‘shimchalar bilan o‘zgaradi?
5. Fe‘l gapda qanday vazifalarni bajardai?

Fe‘lning ma‘no turlari

290-mashq. Berilgan gaplardagi fe‘llarni quyidagi ma‘no turlariga ajratib yozing: 1) harakat fe‘llari, 2) nutq fe‘llari, 3) holat fe‘llari, 4) natijali faoliyat fe‘llari, 5) tafakkur fe‘llari, 6) munosabat fe‘llari.

1. Otlar o‘z-o‘zidan asta-sekin yurib ketdi. (*A. Qahhor*)
2. Eshik oldiga yetganida, negadir o‘zining ham o‘sha yoqqa talpinayotganini sezib, hayajon ichida tutqichni ushladi. (*O‘. Hoshimov*)
3. Ko‘chada gursillab devorlar yiqiladi, sharaqlab daraxtlar qulaydi. (*A. Qahhor*)

4. Charchabsan, azamat, yur endi, blindajga kirib uxlab ol. (*I. Rahim*)
 5. Sekinroq gapir, o'g'lim, xon ayg' oqchilari daydib yurishibdi. (*J. Sharipov*)
 6. Juvon davrani uch aylangandan keyin o'zi singari kiyingan bir yigitni tortdi. (*A. Qahhor*)
 7. Juftlik yolg'iz kishilar orasidagina emas, yer yuzidagi har bir maxluqda ham bor – dedi Anvar. (*A. Qodiriy*)
 8. Boboqul otani buzoqning haqi bor deb sut ichmaydigan avliyo sanab, ixlos qo'ygan edi-yu! Sherbek xafa bo'ldi. (*S. Anorboyev*)
 9. –Yo'q, oyi, hech nima kerak emas, – yana muloyim gapirdi qizi, – kuyovingizni jo'nataman, deb charchadim. (*Oybek*)
 11. Ularni kuzatib o'tirgan Sunbulxon aya ich-ichidan quvonardi. (*Mirmuhsin*)
 12. Suq to'ymas, o'g'ri boyimas. (*Maqol*)
 13. Siz ko'pni ko'rgansiz. Sizni eshitsak, aqlimizga aql qo'shiladi, otaxon, so'zlayvering. (*S. Anorboyev*)
 14. O'ylamay qilingan ish – boshga keltirar tashvish. (*Maqol*)
 15. Hayot faqat jang, mehnat emas, fikrlashdan ham iborat. (*Shukrullo*)
 16. Buvim oyimlarni yaxshi ko'rardilar. Hozir ham sira tillaridan qo'ymaydilar. (*E. Rahimov*)
 17. Shaharda uch qavatli oynavand yorug' binolar qurilib, to'g'ri ko'chalar ochildi. (*Mirmuhsin*)
 18. Dadam taqachilikni jinidan battar yomon ko'rsa ham, taqa yasashga kirishdi. (*A. Qahhor*)
 19. Hujradan ikkita savag'ich topdim-da, rostakam katta varrak yasashga tushdim. (*H. Nazir*)
 20. Badia otining oldiga kelib, uni erkaladi, egar, jabduq urib, qayishlarini mahkam tortib bog'ladi. (*Mirmuhsin*)
 21. Janob Ahmadbek, kamina bog'larning suratini chizganda, bir chetida bog'bonni ham tasvirlashim mumkin. (*P. Qodirov*)
 22. Sherbek yigitning yuzsizligidan nafratlandi. (*S. Anorboyev*)
 23. Abduvahob gulzor orqasidagi xonadan bir necha arralangan g'o'lalarni ko'tarib chiqdi. (*Sh. Toshmatov*)

Fe'lning ma'no turlariga 5 tadan misol keltiring. Har bir ma'no turiga kiruvchi fe'l ishtirokida bittadan gap tuzing.

291-mashq. Nuqtalar o'rniga *demoq, aytmoq, gapirmoq, so'zlamok* nutq fe'llaridan mosini qo'yib gaplarni o'qing. Bu so'zlarning qo'llanishidagi farqni tushuntiring.

1. – Naziraxon juda odamshavanda, yaxshi qiz ekan, shu qizni kelin qilsak qanday, bo'larkin, – ...di Saodat. (*F. Musajonov*)
 2. Ikki tomon tog'.. – ...di Hafiza mashina oynasidan baland tog'larga ag'rayib, – muncha chiroyli! (*Mirmuhsin*)
 3. – Tariqcha insof bormi sizda! –

bo'g'ilib ...di O'ktam. (*Oybek*) 4. Gulandom dutorni olib sozlarkan, ...di: – Dutor bo'lmasa, bu zindonda yuragim yorilib o'lar edim. (*Oybek*) 5. Ona bir navi yashab turganini, qudasi Jo'ravoy aka uch-to'rt kelib xabar olganini ...di. (*H. G'ulom*) 6. Oysha xola qalbdan silqib chiqqan mehribon bir ohangda ...di. (*S. Zunnunova*) 7. Oz ..., ko'p tingla. (*Maqol*) 8. Nonushta pirovard bo'lguncha, domla sharq tabobati va uning mashhur kishilari to'g'risida ...di. (*A. Qahhor*) 8. Qatnashuvchilarning ko'pchiligi, ozmi-ko'pmi, yaxshimi-yomonmi, ishqilib, ...di. (*A. Qahhor*) 9. Jabborov texnikani yana bir sidra ko'zdan kechirish uchun besh kun imkoniyat borligini ...di. (*N. Hayitqulov*)

O'timli va o'timsiz fe'l

292-mashq. Berilgan fe'llarni o'timli va o'timsizga ajratib yozing. O'timli fe'llarni tushum kelishigidagi so'z bilan bog'lab so'z birikmasi tuzing. Shu so'z birikmalalaridan ikki-uchtasi ishtirokida gap tuzing.

Namuna: *arralamoq – o'tinni arralamoq. Bolalar o'tinni arralayapti.*

Arralamoq, uyalmoq, kesmoq, qurimoq, qurmoq, qizarmoq, kelmoq, olmoq, shamollamoq, o'qimoq, eshitmoq, ketmoq, yurmoq, qizimoq, turmoq, termoq, tortmoq, bo'yamoq, uchmoq, qiyshaymoq, kulmoq, ichmoq.

293-mashq. O'qing, o'timli va o'timsiz fe'llarni aniqlang. Ko'chirib, o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantirgan qo'shimcha tagiga bir to'g'ri chiziq, o'timsiz fe'lni o'timliga aylantirgan qo'shimcha tagiga to'lqinli chiziq chizing.

Yoz, yozildi, uyaltirdi, ko'rindi, egildi, qizartir, ko'rin, sindir, o'chir, uzildi, buzildi, pishir, kuldir, charchatdi, o'ylandi, chayqaldi, kiritdi, isit, qurildi, ko'tarildi, kamaytirdi, bezandi, uxlatdi, bo'yaldi, tushirdi, yasatdi, kiyin, teshildi, o'tkazdi.

Savollar:

1. Qaysi qo'shimcha o'timsiz fe'lni o'timliga aylantiradi?
2. Qaysi qo'shimcha o'timli fe'lni o'timsizga aylantiradi?

Fe'l nisbatlari

294-mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarning shakli va ma'nosidagi farqni aniqlang. So'ng fe'llarni quyidagi guruhlarga ajratib yozing:

1) harakatning bajaruvchisi ega bo'lib keladi va harakatni bevosita o'zi bajaradi;

2) bajaruvchi bu harakatni boshqa birovning buyrug'i, ta'siri, iltimosi va hokazo asosida bajaradi;

3) harakatning bajaruvchisi noaniq;

4) bajaruvchi harakatni o'z ustiga oladi, harakat bajaruvchining o'ziga qaytadi;

5) harakat bajaruvchisi bu harakatning bir nechta ishtirokchisidan biri.

1. Qirmizxon tushayotib, oldingi o'rindiqdagi tugunni oldi. (*N. Aminov*) 2. Toshkentdagi Yusufbek hoji to'dasidan amaliy choralar ko'rsatilib yozilgan javob maktubi olindi. (*A. Qodiriy*) 3. Qutbiddinlar ikki kun davomida lojuvard konini o'rganishdi, o'n kilogramcha namuna olishdi. (*S. Karomatov*) 4. Mohira oyim har bir hayitda biror oylar ilgari eriga aytib, bolalariga kiyimlik oldirar edi. (*A. Qodiriy*) 5. Sanobarxon oyog'iga paytava o'rab, mahsisini kiydi. (*S. Zunnunova*) 6. Abror asabiylashib, parishonlanib kiyindi. (*O. Muxtorov*) 7. Arslon naridan-beri ovqatlanib, qayta kiyindi-da, stadionga – futbolga ketdi. (*Mirmuhsin*) 8. Qorovulxonada ularga hech kim indamadi, yo'lakda qo'llariga bittadan karbid fonar olib, boshlariga kaska kiyishdi-da, kongga kirib ketishdi. (*A. Muxtor*) 9. Eshitganlar shoirga rahmat aytib, biri to'n kiydirib, biri ot mindiribdi. (*Shukrullo*) 10. Ikkovimiz ham bir institutda o'qidik. U ham a'lochi edi, – dedi Elmurod. (*Shuhrat*) 11. Po'latjon akamlar bizni maktabda o'qitganlar. U kishidan umr bo'yi qarzdormiz. (*Mirmuhsin*) 12. Shayboniyxon hali hech qaysi jangga bunchalik jonjahdi bilan tayyorlangan emas. (*P. Qodirov*) 13. Nazarov bo'linmasini oshxonaga olib bordi. Qaynoq karam sho'rva, seryog' bo'tqa va javdari non berildi. (*H. G'ulom*)

Savollar:

1. Fe'l nisbatlari deganda nima tushuniladi?
2. O'zbek tilida fe'ling qanday nisbat shakllari bor?
3. Aniq nisbat nima? Aniq nisbatdagi fe'l qanday shaklda bo'ladi?
4. Orttirma nisbat nima? U qanday yasaladi?
5. Majhul nisbat nima? U qanday qo'shimcha bilan hosil bo'ladi?
6. O'zlik nisbat nima? Bu nisbat qanday yasaladi?
7. Birgalik nisbat nima? U qanday yasaladi?

8. Siz guruhlarga ajratib yozgan fe'llar qaysi nisbat shaklida?

295-mashq. Matnni o'qing. Aniq nisbatdagi fe'llarni aniqlang.

Yomg'ir kechasi tindi. Beg'ubor zangori osmonda lovullagan quyosh nuri ko'm-ko'k barglar, baxmal sabzalar orasiga to'karmoqda. Hamma dalada. Bog'larda ko'klam taraddudi.

O'qishdan keyin rasm to'garagida mashg'ulot o'tkazib, kechroq uyga keldim. Oyim issiq non yopib qo'ygan ekanlar. Ovqatlanib bo'lganimdan so'ng oyim:

– Darsingni keyinroq tayyorlaysan. Bobongning qorni ochib qoldi. Tezroq ovqat olib bor! – deb qo'linga non bilan ovqatni tutqazdilar. Dalaga jo'nadim. O'rtog'im Abboslarning bog'iga yaqinlashganimda qarshimdan qafas ko'tarib Mahkam, Xoltoy va Sharifjonlar chiqib qolishdi. (*G'ayratiy*)

296-mashq. Orttirma nisbatdagi fe'llarni aniqlang. Nisbat yasovchi qo'shimchalar tagiga chizing.

1. Anvar boyagicha kuldi. (*A. Qodiriy*) 2. Umrida minbarga chiqmagan Mirvali bangi ham, o'zicha aytganda, mehrobgga so'zga chiqib, so'zining oxirida hammani kuldiradi. (*A. Qodiriy*) 3. Jo'ra boboning to'rig'i uloqqa jipsroq chopdi. (*T. Murod*) 4. Andijonda yuz bergan vahshatlar xabarini Samarqandga yetkazish uchun loy sachratib ot choptirib borayotgan Tohir endi Quvaga yaqinlashdi. (*P. Qodirov*) 5. G'ulomjon, uzoq yillar og'ir yotib turgan kasalday, bahor va yoz pal-lalarini qishloqda istirohat bilan o'tkazdi. (*M. Ismoiliy*) 6. Navoiy o'zi tengi keladigan Mirzabekni ichkilikdan qaytarishga, unda she'r va musiqiyga havas uyg'otishga harakat qilardi. (*M. Osim*) 7. U qayroqi bug'doy unidan yog'li patir, somsa yopdi, qatlama pishirdi. (*I. Rahim*) 8. – Necha marta ko'rgansan, kelgan kuni ko'rsatdim-ku, – dedi Erali qavat-qavat qilib buklangan xatni serjantga uzatarkan. (*I. Rahim*) 9. Obid aka buklama pichog'ini tarvuzning dumiga shunday tegizishi bilan tarvuz yorilib ketdi. (*O'. Umarbekov*)

Orttirma nisbat shakli qanday qo'shimchalar bilan yasaladi?

297-mashq. Berilgan fe'llarga turli orttirma nisbat qo'shimchalarini qo'shing. So'ng ayni bir fe'ldan yasalgan orttirma nisbat shakllarini ketma-ket almashtirib gap tuzing.

Namuna: *to'lmoq – to'ldirmoq, to'lg'izmoq. Nodir qopni olma bilan to'ldirdi. Nodir qopni olma bilan to'lg'izdi.*

Ichmoq, o'tmoq, ketmoq, uzaymoq, chiqmoq, to'lmoq, botmoq, kiymoq, oqmoq, yurmoq.

Orttirma nisbatning bir o'zakdan turli qo'shimcha bilan yasaluvchi shakllarini ma'nodosh shakllar deyish mumkinmi?

298-mashq. Gap juftliklari orasidagi ma'no farqini tushuntiring. Ikkinchi gaplarga bajaruvchini bildiruvchi to'ldiruvchi qo'shib o'qing.

Namuna: *Nazira kir yuvdi. – Nazira singlisiga kir yuvdirdi.*

1. Nazira kir yuvdi. Nazira kir yuvdirdi. 2. Olim aka osh pishirdi. Olim aka osh pishirtirdi. 3. Nodir o'tin yordi. Nodir o'tin yordirdi. 4. Nafisa rasm chizdi. Nafisa rasm chizdirdi. 4. Otam qo'shnimizni chaqirdilar. Otam qo'shnimizni chaqirtirdilar. 5. Chol olmalarni terdi. Chol olmalarni terdirdi. 6. Hoshim devorni oqladi. Hoshim devorni oqlatdi.

Savollar:

1. Orttirma nisbat qo'shimchasi o'timli fe'lga qo'shilganda harakat bajaruvchisi qaysi gap bo'lagi bo'lib keladi?

2. Bunday holda gapning egasi qanday ma'noni bildiradi?

299-mashq. O'qing. O'zlik nisbati shaklida qo'llangan fe'llarni topib, yasalishi aniq nisbat shaklidagi fe'ldan farqini ayting.

1. Bahor keldi. Maktab sahnidagi o'riklarni oq, pushti gullar bezadi. (*P. Tursun*) 2. Tez kunda albomning varaqlari fotosuratlariga va bo'yoq qalamda chizilgan gullarga bezandi. (*H. Nazir*) 3. Qurilish tresti unga yotoqxonadan joy berdi. (*O'. Hoshimov*) 4. Isfandiyor joyidan qo'zg'al-madi, Islomxo'ja ham fikrlarini jamlab, muroqabaga berildi. (*S. Siyoyev*) 3. Sherzod katak-katak linoleum polli yo'lakdan yurib borarkan, ikki kundan buyon devor ostida turgan karavot yig'ib olinganini ko'rib, tag'in quvondi. (*O'. Hoshimov*) 4. Chayla oldidagi guvala o'choqdan buralib-buralib tutun ko'tarildi. (*S. Ahmad*) 5. Kimdir bozorga

oshiqadi, kimdir turtinib-surtinib, korxonasiga shoshadi. (*X. To‘xta-boev*) 6. Aravakashning ichki holatini sezib turgan Badia chidab turolmay, darhol otasini turtdi: – Suv beraymi, ota? (*Mirmuhsin*) 7. Azaldan kasalmand Bashorat xola erining o‘limidan keyin yana ham qiynalib qoldi. (*N. Safarov*) 9. Sopol ko‘za bir zumda sinib, suvlari yerga singdi, mis ko‘za esa terlagan qo‘ldan chiqib ketdi-yu, toshdan toshga urilib, pastga yumaladi. (*Sh. Rashidov*) 10. Kumush Otabek yaqiniga surildi va tirsaklari bilan uning tizzasiga yonboshlab, erkalandi. (*A. Qodiriy*)

300-mashq. O‘qing, majhul nisbatdagi fe’llarni topib, ko‘chring, yasalishi va o‘zlik nisbatdan farqini ayting.

1. “Voy shaytonlar, rosa o‘xshatibdi!” – dedi-da, jimgina tomoshaga berildi. (*Oybek*) 2. Bu qiy-chuv orqasidan mehmonlarga quyuyq-suyuq berildi. (*A. Qodiriy*) 3. Hovlidagi katta jiyda shoxida yotgan kulankir xo‘roz uchinchi bor qichqirayotganda, Qutoyoq birdan vovullab, eshikka tashlandi. (*A. Muhitdin*) 4. Osti taxta pol bo‘lgani holda, polning ustiga qizil gilam tashlangan, ikki yon devorga ham qizil gilamchalar qoqilgan edi. (*S. Ayniy*) 5. Uch yuz gektarcha yerning g‘o‘zasi uchinchi marta ekildi. Ammo biz ham bo‘sh kelmadik: g‘o‘za quloq ko‘rsatdi deguncha parvarishlab, yaganalayverdik. (*Y. Shamsharov*) 6. Yog‘och uyga yerdan bir qancha baland ko‘tarib taxta terilgan, uning ustiga qanor qoplardan palos to‘shalgan. (*I. Rahim*) 7. Sadaf xushbo‘y zira solingan shavlani cholga surib qo‘ydi. (*Sh. Xolmirzayev*) 8. Rosmana javharlimu limon mevasini bijg‘itib olinadi. (*K. Mahmudov*) 9. Olaxo‘ja maxsum boshiga qo‘qqisdan to‘qmoq bilan urilganday, gangib qoldi. (*P. Tursun*) 10. Yigitali qorong‘ida timirskilanib, chapga burilganda, na’matakning tikanli shoxlari bexosdan yuziga urildi. (*D. Nuriy*) 11. Xalq taomiliga ko‘ra, choyxonalar hashar yo‘li bilan quriladi. (*O‘. Hoshimov*)

301-mashq. Quyidagi fe’llardan o‘zlik va majhul nisbat shaklini hosil qiling, ikki ustuncha shaklida yozing. Hosil bo‘lgan ikkala nisbat shakllarini qatnashtirib 4 ta gap tuzing.

Namuna: *maqtamoq: maqtanmoq – maqtalmoq*

Nosir mashinasi bilan maqtandi. Ilg‘or terimchilar maqtaldi.

Bezamoq, kiymoq, ko‘rmoq, surmoq, yopmoq, yashirmoq, bo‘yamoq, o‘ramoq, yuvmoq, tortmoq, taramoq, surtmoq.

302-mashq. O‘qing. Birgalik nisbat shaklidagi fe’llarni aniqlab, yasalishi va ma’nosini tushuntiring.

1. Askiyaga juda usta ekan, olamda dard nima, o‘lim nima ekanini butkul unutib, rosa kulishdik. (*A. Qahhor*) 2. Oldinda yo‘l boshlovchi, keyinda Nazirali bilan kampir balandlikka ko‘tarilishdi. (*Oydin*) 3. Shuhrat oshpazga sabzi to‘g‘rashdi. 4. Otliqlar qor bosgan qirg‘oq bo‘ylab yarim soatcha kezishdi. (*H. G‘ulom*) 5. Yigit yalt etib qo‘shni dalaga qaradi. U yerda xotin-xalaj, bola-chaqa chuvullashib, paxta terishayotgan edi. (*M. Ismoilii*) 6. Ariqlar bo‘yida o‘tlar ko‘karib, chuchmomalar gullabdi, qizchalar, ukam tengi bolalar to‘p-to‘p bo‘lib jag‘jag‘, otquloq uzishyapti, ko‘k beda terishyapti. (*X. To‘xtaboev*) 7. Tursunboy qanorni ko‘tarishib, mashinasining tumshug‘iga olishdi. So‘ngra himo bilan Alijonning orqasiga qo‘ydi. (*H. Nu‘mon*) 8. Karvon ketidan kelayotgan ikki sarboz orqadan eshitilgan nogahoniy chinqiriqdan baravar to‘xtashdi. (*S. Karomatov*) 9. Avaz o‘zib ketmoqchi bo‘ldi. Gulsum undan qolishmadi, baravar, yonma-yon chopishdi. (*P. Tursun*) 10. Kutib turgan xotinlar, Kumushni ko‘rgan on, bir-birlariga qarashib, lablarini tishlashdi. (*A. Qodiriy*)

Qaysi gaplarda birgalik nisbat shakli “birgalik-ko‘plik”, qaysi gaplarda “birgalik-yordamlashish” ma’nosini ifodalagan?

Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar

304-mashq. O‘qing. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llarni aniqlab, ma’nosidagi farqni tushuntiring. Ularni ikki guruhga ajratib yozing va bo‘lishsizlik ma’nosini ifodalovchi vositalar tagiga chizing.

1. Nafisa yig‘ladi-yalindi, yalindi-yig‘ladi.. Lekin A‘zamning be-mehr ko‘ngli yumshamadi. (*Shuhrat*) 2. Bunday hayot bir qarichlikdan yo‘qchilikka, mehnatga ko‘nikib o‘sgan qizni sira bezdirmaydi. (*Oy-bek*)

3. Xalqim, moziy o‘tdi, tole ko‘rmading,

Pishirding, o‘zingga benasib taom. (*A. Oripov*)

4. Jinday damimni rostlab olay, uh, haliyam oyog‘imning qaltirog‘i bosilgani yo‘q. (*Hamza*) 5. Bu safar bank vaqtida pul beribdi. Kassir oylik tarqatyapti. (*Sh. Toshmatov*) 6. Boltaboy kechki ovqatdan keyin

keldi. (A. *Qahhor*) 7. Bobur bu gal yana aldanmaslik uchun shahar ichidagi tarafdorlarining hech biriga xabar bermasdan, faqat o‘z kuchiga ishonib, tavakkal qilib keldi. (P. *Qodirov*) 8. Akam birovning tomini teshib qamalgan emas, yo birovning haqini yegan emas. (Oybek) 9. Yunusali ota shu kungacha ularning bordi-keldi gaplariga aralashmay chidab keldi. (S. *Ahmad*) 10. Yurt ishiga yaramagan bola qay ishga yaraydi? (S. *Ahmad*) 11. Kuyovning qayerda ekanini hech kim bilmaydi. Kelin uyga qamalib olgan – na yolvorganga ko‘nadi, na aldaganga. (A. *Qahhor*) 12. Kun misday qizib ketgan, faqat adir va soy-lardan kelgan shabada kunning taftini kesib, odamlarga orom berib turmoqda. (H. *Nazir*)

Fe‘l mayllari

305-mashq. Gaplarni o‘qing. Fe‘l kesimlarning qaysi mayl shaklida ekanligi va ma’nosini tushuntiring. Aniqlik, buyruq-istak va shart-istak maylidagi fe’llarni alohida-alohida yozing.

1. Onasi tandir oldida qo‘liga yengcha kiyib, loladek qip-qizil kulcha betiga suv sepyapti. (S. *Ahmad*) 2. – Gapir, – dedi Dildor. (S. *Ahmad*) 3. Sidiqjon bo‘sag‘adan bir qadam ichkarida cho‘nqaydi-da, bolani yerga qo‘yib, onasiga yo‘lladi. (A. *Qahhor*) 3. Tezroq tuzatib beringlar, bugun-erta nevaram askarlikdan keladi. (T. *Ashurov*) 4. Buni Kenjaga bering. Ichidan yaroqlisini ajratib bersin. (A. *Qahhor*) 5. Kech deganda, martning birinchi yarmida chigitni ekib olsak, marra bizniki. (N. *Safarov*) 6. Ishqilib Tursunboyginamga ham xudo insof bersin-da. (S. *Ahmad*) 7. Gorchakovo stansiyasiga Toshkent tarafdin kechasi soat uch yarimda keladigan passajir poyezdi endi kuniga uch-to‘rt mahal o‘tadi. (S. *Ahmad*) 8. Qani endi birov loaqal bitta pichoq charxlatsa. (A. *Qahhor*) 9. Shunaqa qimmatidan olmasdan, gazmol olib kelsangiz-ku, bir xil qilib tikib berardim. (R. *Fayziy*) 10. Ilohim, baxtli bo‘l! Onangga, otangga rahmat, senga ish o‘rgatishibdi. (Oybek) 11. Endi darsni ham boshqa joyda tayyorlasak. (A. *Qahhor*) 12. Men boray. Ertaga zo‘r ish bo‘ladiganga o‘xshaydi. (S. *Ahmad*)

306-mashq. Gaplarni o‘qing. Qaysi gapda **-sa** shaklidagi fe‘l shart, qaysi gapda istak ma’nosini ifodalaganini aniqlang.

1. Bola yig‘lamasa, ona sut bermas. (*Maqol*) 2. Qani endi, dunyoda vafo bo‘lsa, har kim tilagiga yetsa. (*A. Qahhor*) 3. Bobur mirzoning orzulari shulkim, Movarounnahr yana Ulug‘bek davridagi kabi birlashsa, poytaxt asliga qaytsa, hamma viloyatlar hamjihat-u obod bo‘lsa.. (*P. Qodirov*) 4. Mehnatingni ayamasang, suv bo‘lsa, o‘zing ham, moling ham to‘q. (*S. Siyoyev*) 5. Kishi bir kasbga yoshlikdan mehr qo‘ysa, oxiri baxayr bo‘ladi. 6. Nihol jildirab suv oqib turgan jo‘yakka ekilmasa, amal olmaydi. (*A. Ko‘chimov*) 7. Ko‘zi yoshli odamni ko‘zim aslo ko‘rmasa. (*Shuhrat*) 8. Agar suv olib kelinsa, ming yillardan beri chorva qiylari qatlam-qatlam bo‘lib ketgan bu joyda paxtadan eng baland hosil olsa bo‘ladi. (*S. Ahmad*)

9. Muzqaymoqdan tog‘ bo‘lsa,
Nuqul gilos bog‘ bo‘lsa,
Bir qozon qaymoq bo‘lsa,
Tuyaday pishloq bo‘lsa... (*G‘. G‘ulom*)

Fe‘l zamonlari

307-mashq. Gaplarni o‘qing. Fe‘llarning zamonini aniqlang. Zamon ma’nosini ifodalagan qo‘shimchalarning tagiga chizing. O‘tgan, hozirgi va kelasi zamonni ifodalagan fe‘llarni uch guruhga ajratib yozing.

1. Kech soat o‘nga yaqin poyezd jo‘nadi-yu, u derazadan qo‘l silkita-silkita ko‘rinmay ketgan Gavharni ko‘z oldidan ketkazolmay, vokzal-dan sekin chiqdi. (*P. Qodirov*) 2. Tog‘asi o‘sha kitobni o‘qibdi. Keyin kitobdan o‘rganganlarini ishga solibdi. Natijada so‘ridagi uzumlarni yetishtiribdi. (*N. Maqsudiy*) 3. Qarshi tomondagi boloxonada Iqbol xolaning sarishta qo‘llari bilan ipga tizilgan marjon-marjon garmdorilar osilib turibdi. (*O‘. Hoshimov*) 4. Qarshida o‘riklar allaqachon danak qotirib qolgan, bu yoqlarda bo‘lsa, endi gullayapti. (*S. Ahmad*) 5. Kitob bir necha ming yillar avval paydo bo‘lgan, bu davrda u turli xil ko‘rinishda bo‘lgan. Bobilliklar, ossuriyaliklar va boshqa qadimgi xalqlar kitobni loydan tayyorlashgan. (*“Bolalar ensiklopediyasi” dan*) 6. Imom g‘azab bilan o‘rnidan turib, Safar bo‘zchiga xezlangan edi, uni Samad buqoq ushlab qoldi. (*A. Qodiriy*) 7. Ariqlar bo‘yida o‘tlar ko‘karib, chuchmomalar gullabdi, qizchalar, ukam tengi bolalar to‘p-to‘p bo‘lib jag‘jag‘, otquloq uzishyapti, ko‘k beda terishyapti. (*X. To‘xtaboyev*) 8. Qalandarov idoraga kirib ketayotgan edi, eshikdagi kattakon e‘lonni

ko‘rib to‘xtadi. (A. *Qahhor*) 9. Tezroq tuzatib beringlar, bugun-erta nevaram askarlikdan keladi. (T. *Ashurov*) 10. Ko‘ksoy o‘zanidan ko‘tarilayotgan quyuq tuman archazor ustiga salobat bilan bostirib bormoqda. (S. *Anorboyev*) 11. Qip-qizil quyosh barkashi qoyalar uchlarini ham qizilga bo‘yab botayotir. (M. *Mahmudov*) 12. Bir donodan so‘ragan ekanlar: “Kim polvon?” U ikkilanmay: “Farzand dog‘iga chidagan ona!” – degan ekan. (*Shuhrat*) 13. Yaqin orada dekanatdan ruxsat olib, qishloqqa boraman. (O‘. *Hoshimov*)

14. Uchqur zamon bilan qalqib, chayqalib,

Charx urib boraman girdoblar aro. (E. *Vohidov*)

15. Hozir Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan har kim o‘z bilganicha ishlatib, foydalanmoqda. (“*Fan va turmush*” jurnalidan) 16. Allaqayerda kuyib-pishib bedana sayraydi. (*Shuhrat*) 17. Jon qizim, eringni izzat qil! Qaynanangni izzat qil! Ertalab salomga chiqayotibsanmi? (A. *Qahhor*) 18. Ammo tashvishlanmang, tuzalib ketarlar. (O‘. *Umarbekov*) 19. Zalning o‘rtasida marmardan ishlangan hovuzcha, zilol suvlar sekin oqadi: tabiiy issiq havoga bir oz orombaxsh salqinlik beradi. (*Oybek*) 20. Bekitmay qo‘ya qoling. Sizning usta fokuschi ekanligingizni hamma biladi. (F. *Musajonov*)

Savol va topshiriqlar:

1. Fe‘l zamonlari deganda nimani tushunasiz?
2. Zamon ma‘nosi necha xil ko‘rinishga ega?
3. O‘tgan zamon shakllari qanday yasaladi?
4. Mashqdagi misollar asosida o‘tgan zamon shaklidagi fe‘llarning ma‘nosidagi farqni tushuntiring.
5. Hozirgi zamon shakllari qanday yasaladi?
6. Mashqdagi misollar asosida hozirgi zamon shaklidagi fe‘llarning qo‘llanishidagi farqni tushuntiring.
7. Kelasi zamon ma‘nosi qanday shakllar bilan ifodalanadi?
8. Zamon shakllarining har biri ishtirokida bittadan gap tuzib, yozing.

308-mashq. Gaplardagi fe‘llarning zamon shakli va ma‘nosini izohlang. Bu gaplarda aslida qaysi shakl qo‘llanishi lozimligini, nima uchun berilgan gaplarda shu shakl qo‘llanganini ayting.

1. Alisher Navoiy 1941-yilda tug‘ildi. 2. Saidxon aka... bu qanday ko‘rgilik-a? Endi men nima qildim? (O‘. *Umarbekov*) 3. – Endi sizning etagingizni ushlaganim ushlagan, O‘rmonjon aka, – deb ko‘ziga yosh

olganday bo‘ldi. (A. *Qahhor*) 4. Safar ikkimiz yantoq ortilgan eshagimiz qadamiga qarab kelyapmiz. Bir jihatdan bo‘riga yem bo‘lmay omon qolganimizga xursand bo‘lsak, ikkinchi tomondan bedana ovidan mahrum bo‘lganimizga achinardik. (N. *Safarov*) 5. Erta kuz kunlaridan birida Kamol: “Singlingning to‘yi bo‘lyapti, tezda yetib kelinglar!” degan telegramma oldi. (Sh. *Xolmirzayev*) 6. Shu kuni yo‘lakka kelib quloq soldim. Hovli jimjit, ariq bir qiyomda shovullaydi, chorvog‘ tomondan ba‘zan barra ma‘raydi. Qayerdadir sariq so‘piyon kiyovlaydi... birozdan keyin hovlidan tap-tup va shildiragan, jiringlagan tovush eshitildi. (A. *Qahhor*) 7. Bu ishning har bir varag‘idan shaxsiy g‘araz hidi keladi-ku. – Xo‘sh, qandoq shaxsiy g‘araz ekan? – Poraxo‘r deyiladi, poraxo‘rligiga dalil yo‘q. Xotinni zo‘rlagan, odam o‘ldirgan deyiladi, da‘vogar yo‘q. (A. *Qahhor*) 8. Boya menga uchrashdi; g‘uldirg‘uldir qiladi, maqsadiga hech tushunolmadim. (A. *Qodiriy*)

Fe‘lda shaxs-son

309-mashq. Matnni o‘qing. Tuslangan fe‘llarni topib ko‘chiring. Tuslovchi qo‘shimchalar tagiga chizing va shaxs-sonini izohlang. Shaxs-son qo‘shimchalari fe‘lning qanday shakliga qo‘shilganini aniqlang.

O‘qishdan keyin rasm to‘garagida mashg‘ulot o‘tkazib, kechroq uyga keldim. Oyim issiq non yopib qo‘ygan ekanlar. Ovqatlanib bo‘lganimdan so‘ng oyim:

– Darsingni keyinroq tayyorlaysan. Bobongning qorni ochib qoldi. Tezroq ovqat olib bor! – deb qo‘limga non bilan ovqatni tutqazdilar. Dalaga jo‘nadim. O‘rtog‘im Abboslarning bog‘iga yaqinlashganimda qarshimdan qafas ko‘tarib Mahkam, Xoltoy va Sharifjonlar chiqib qolishdi.

– Yur, qush ovlaymiz! – dedi gerdayib, o‘zini ovchilarday ko‘rsatib Mahkam. – Qarqunoq bolasini olib beraman! – qo‘limdan tortdi Xoltoy.

– Bobomning oldilariga borishim kerak, – dedim qo‘limdagi narsalarni ko‘rsatib.

– Bo‘lmasa tezroq kel! – dedi Sharif. – Katta terakzorda seni kutamiz.

Men ulardan arang ajralib yo‘lga tushdim. Anchagina kech qoldim. Yuragim po‘killay boshladi.

– Assalomu alaykum! – dedim. Bobom daraxtni payvand qilish bilan ovora ekanlar.

Salom bergan edim, bobom kulib: – Vaalaykum assalom, terlab ketibsan, bolam, chopdingmi? – dedilar. – Bobomning qorni ochib qoldi, deb o‘ylagansan-da. Bekor shoshibsan. Jamoa xo‘jaligi idorasiga borganimda ovqatlanib olgan edim.

– Bobomning bu gapidan juda xursand bo‘lib ketdim. Qo‘limdagi narsalarni bir chekkaga qo‘yib bobomga yordamlashdim. Daraxt shoxlarini bir joyga to‘plab bog‘ladim.

Payvand qilingan butoqlarga loy chapladim. Bobom payvand qilar ekanlar:

– Ko‘zing pishsin, o‘rganganing foyda, bolam! – deb qo‘yar edilar...

Uyga ertaroq qaytdik. Men mayda-chuyda narsalarni ko‘tarib olgan edim... Qulogimga yig‘i ovozi eshitildi.

– Bobo, – dedim, – siz ham eshityapsizmi, birov yig‘layapti.

Bobom hayron bo‘lib, atrofga alangladilar.

– Yugur, xabar ol-chi!

Chopib borib qarasam, o‘rtogim Mahkam ingrab yotibdi. Hamma yog‘i tirlangan. Yuz-ko‘zi qon. (*G‘ayratiy*)

310-mashq. Quyidagi fe‘l shakllarini uch shaxsda tuslang. Ularni tuslanish xususiyatiga ko‘ra to‘rt guruhga ajrating.

Kel, kelyapti, kelayotir, kelibdi, kelgan, keldi, kelibdi, kelar ekan, o‘qidi, bor-gani, o‘qigan edi, o‘qisa.

311-mashq. Gaplarni o‘qing. Boshqa shaxs-son shakli o‘rnida qo‘llangan shaxs-son qo‘shimchalarini aniqlab, ma’nosini izohlang.

1. Bir qancha vaqtdan buyon vajohatli, salla-kallali ulamo, mudarris, a’lamlar orasida qoldim. Kelishadi, qaytara olmaysan. Juda xunob bo‘ldim. (*Oybek*)
3. Mana shunday serma’no ulfatchilikdan foydalanib, kamina siz yoshlarga bir-ikki og‘iz so‘z aytmoqchi. (*O‘. Usmonov*)
4. – Xush kelibdilar, qozi domla, – dedi. – Xushvaqt bo‘lsinlar, qulluq. – Qadami muboraklari bilan bizni sarafroz ayladilar. (*M. Ismoiliy*)
5. G‘aybarov orzu qildi: Uxlasang, hech kim uyg‘otmasa, hech qachon uyg‘onmasang, og‘riq sezmasang... Dengiz, uning beshik-beshik to‘lqinlari seni ko‘mib yuborsa-yu qaytib turmasang. (*M. M. Dost*)
6. Hammang or qilasan, – dedi Mahanboy. (*M. M. Dost*)
7. Balli, men

ham oz-moz odam taniyman. Maktabning ko‘pini ko‘rdik, uka. (*M. M. Dost*) 8. Men piyoda yo‘lga chiqdim. (*P. Qodirov*) 9. Be-e, menda po‘lat nima qiladi, taqsir. Eski taqalar, temir-tersaklar bilan zo‘rg‘a qimirlab turibmiz. (*M. Ismoil*)10. Mahamat chatoq raisning gapini bo‘lib, yana “e-e” deb qo‘l siltadi. – Qo‘l siltamang! Nimaga biz buncha kerilamiz o‘zi, qani ayting-chi? Nari borsa omi bir odam bo‘lsak... (*O‘. Umarbekov*)

Fe‘lning vazifa shakllari

312-mashq. Tuzgan gaplaringizda fe‘l vazifa shakllarining qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kelayotganligini aniqlang. Berilgan harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh, sof fe‘l shakllarini qatnashdirib 5-6 ta gap tuzing.

1. Sug‘orish, archish, pshirish, kuylamoq.
2. Ochilgan, ekan, bergan, bukilmas.
3. Shoshib, ko‘rgani, kelgach, borguncha.
4. Chiqdik, borsin, teringlar, pishiraman.

Savollar:

1. Fe‘lning vazifa shakli deganda nimani tushunasiz?
2. Sof fe‘l nima? Sof fe‘l qaysi gap bo‘lagi vazifaida keladi?
3. Harakat nomi fe‘lning qanday shakli? Harakat nomi qaysi gap bo‘lagi bo‘lib keladi?
4. Sifatdosh fe‘lning qanday shakli? Sifatdosh qaysi gap bo‘lagi vazifaida keladi?
5. Ravishdosh fe‘lning qanday shakli? Ravishdosh shaklidagi fe‘l qaysi gap bo‘lagi vazifasini bajaradi?

313-mashq. Gaplarni o‘qing. Harakat nomini topib, yasalishi, ma’nosi otga va fe‘lga xos belgilarini ayting; gapdagi vazifasini izohlang.

1. Laylakning ketishiga boqma, kelishiga boq. (*Maqol*)
2. Karima Oysha opadan dastlab bolalarni sevishni o‘rgandi. (*S. Zunnunova*)
3. Butun dunyodagi bizga o‘xshash mehnatkashlar bilan bir safda urushga qarshi, tinchlik uchun kurashmoq burchimiz. (*Oybek*)
4. Shundan boshlab Oysuluvning har kuni kunbotarda Ko‘zyoshibuloq tomonga qatnovi boshlandi. (*S. Anorboyev*)
5. Huzuringizga kelishimning bosh sababi shundadir! – dedi Hasanali. (*A. Qodiriy*)
5. Hayot faqat jang, mehnat emas, fikrlashdan ham iborat. (*Shukrullo*)
6. Til bilmaslik

birinchi haftalarda ularni qattiq qiynadi. (*Oybek*) 7. Biz Vatanni sevmog'ni dono bobolarimizdan o'rganmog'imiz kerak. (*X. Davron*) 8. Matqovul quduqdan suv tortib turib, bu yoqqa qarab-qarab qo'yar, qulog'iga yetib kelgan gaplarni eshitmaslikka tirishar edi. (*M. Ismoiliy*) 9. Mamlakatimizning mustaqillikka erishuvi arafasida va mustaqillikning dastlabki yillarida til siyosatida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. 10. Jabr-zulmga qarshi, huquqsizlikka qarshi kurashmoq kerak. (*Oybek*)

11. Yashagan sayyorangni
Bilmoqlik farz, debdilar. (*A. Oripov*)

314-mashq. Berilgan gaplardagi fe'l kesimlarni namuna asosida harakat nomli birikmaga aylantiring.

Namuna: *Yozuv bundan 4-5 ming yil oldin kashf qilingan.* – *Yozuvning kashf qilinishi insoniyat taraqqiyotida muhim voqea bo'ldi.*

1. Yerda fasllar doimiy ravishda almashinib turadi. 2. Yaxshi kayfiyat sog'liqni mustahkamlaydi. 3. Soy shovullab oqyapti. 4. Qayerdadir bedana sayrayapti. 5. Hasadgo'y kishi birovning muvaffaqiyatini ko'rolmaydi. 6. Ba'zi kishilar to'yda isrofgarchilikka yo'l qo'ymoqda. 7. Keyingi yillarda yoshlarimizning kitob o'qishga qiziqishi ortmoqda. 8. Nodirjon hech kimning dilini og'ritmaydi. 9. Yozuv bundan 4-5 ming yil oldin kashf qilingan.

315-mashq. Gaplarni o'qing. Sifatdoshlarni topib, yasalishi, qaysi so'zga bog'langanligi, sifatga va fe'lga xos xususiyati, gapdagi vazifasini izohlang.

1. Rayhonlar qad ko'tarib, hid sochdi, birin-ketin ochilgan rangbarang gullar ustida kapalaklar qanot qoqa boshladi. (*A. Qahhor*) 2. Yigitlar, go'yo karamzor boshidagi daraxtlarda tinmay sayrayotgan bulbulga quloq solayotgandek, jim qolishdi. (*P. Tursun*) 3. Demak, bizning qilgan ishimiz izsiz ketmaydigan, umrimiz oqar suvdek bekorga oqmaydigan bo'libdi. (*P. Tursun*) 4. Akatsiya, beda, lipa daraxti gulidan yig'ilgan asal nihoyatda tiniq bo'ladi. (*L. Ikromov*) 5. Mamlakatimizning turli iqlimiy zonalarida o'suvchi o'simliklar turli vaqtlarda gullaydi. ("*Fan va turmush*" jurnalidan) 6. Endi, mehmonlar, aybga buyurmaysizlar, mening qiladigan ishim, boradigan yerim ko'p. (*A. Qahhor*) 7. Bugun atrofida parvona bo'layotgan qadrdon jigarloriga aytgulik biron gapi yo'qmi? (*S. Ahmad*) 8. 1991-yil 31-avgust

O‘bekistonimiz uchun asrga tatigulik kun bo‘ldi. (*S. Barnoyev*) 9. Bur-nigacha berkitib ro‘mol o‘rab olgan Zuhra buvi yelpatak bo‘lib, choy taraddudini ko‘rdi. (*H. Nazir*) 10. Hayotni qiyinchiliklar, muammolar oldida yengilmas kishilargina rivojlantira oladilar. (*O. Mo‘minov*)

9. Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni. (*A. Oripov*)

316-mashq. Berilgan fe’llarga -gan, -kan, -qan qo‘shimchalaridan birini qo‘shib, uch guruhga ajratib yozing. Uchala guruhdagi sifatdoshlarning imlosini tushuntiring.

Ek, yoz, yot, kes, chop, kir, tik, kechik, boq, sig‘, siq, ol, tug, chiqar, ko‘nik, yop, chiq, yog‘, os, chiniq, suz, siniq, taq, og‘, oq, kiy, to‘k.

317-mashq. Berilgan gaplarni namuna asosida sifatdoshli birikmaga aylantiring.

Namuna: *Onam tandirga non yopdilar. – Onam tandirda yopgan nonning hidi dimogimga urildi.*

1. Shoxlarda o‘riklar hil-hil pishib turibdi. 2. Qishlog‘imiz chekka-sidan soy oqib o‘tadi. 3. Taniqli shoirlar talabalar bilan uchrashuvga ke-lishdi. 5. Navro‘z bayrami yurtimizda har yili keng nishonlanadi. 6. Ho-zirgi kunda texnika va texnologiya jadal rivojlanib bormoqda. 7. Jahl, g‘azab, alam, nafrat kabi tuyg‘ular kasallikka olib keladi. 8. Talabalar o‘rtasida shaxmat bo‘yicha musobaqa o‘tkazildi.

318-mashq. Gaplarni o‘qing. Ravishdoshlarni topib, yasalishi, ma’nosi, qaysi so‘zga bog‘langanligi va gapdagi vazifasini izohlang.

1. Ayol qo‘lidagi qoshiqni qo‘ydi-da, yugurib deraza oldiga bordi. (*S. Zunnunova*) 2. Ikromjon yura-yura charchadi. (*S. Ahmad*) 3. Ma-shina sharshara ko‘prigidan o‘tib, katta shag‘al yo‘lga tushgach, o‘nqir-cho‘nqir joylarda tebrana boshladi. (*I. Rahim*) 3. – O, kelin palov-xonto‘rani boplabdilar-ku, tilladay osh bo‘pti-ku, maza qilamiz ekan-da! – Ziyod maqtay-maqtay yeng shimarishga tushdi. (*M. Mansurov*) 4. Kalit topila bermagach, maxdumning toqati tugadi, chiqib, qizlar ichidan Ra‘noni chaqirdi. (*A. Qodiriy*) 5. Bog‘bon o‘zi ekkan yo ulagan ko‘chati tutib, bo‘y tortib ketguncha, har kun tagiga necha marta keladi. (*M. Ismoiliy*) 6. Nilufar qo‘g‘irchoqni bag‘riga bosgancha, yugurib

oyisining yoniga bordi. (*S. Ahmad*) 7. Men go'sht-yog'ni tashib bo'lib, hovlining to'riga o'rik tergani bordim. (*M. Ismoiliy*) 8. Non yasab bo'l-guncha, tandir qizidi. Keyin bir chekkadan yopdim. (*Oybek*)

319-mashq. Berilgan gap juftlaridan kengaygan ravishdosh birikmali bitta gap tuzing.

Namuna: *Quyosh botdi. Atrofga qorong'ilik cho'kdi. – Quyosh botib, atrofga qorong'ilik cho'kdi.*

1. Bahor keldi. Dehqonlar dala ishlarini boshlab yubordi. 2. Ovqat suzildi. Butun oila dasurxon atrofiga yig'ildi. 3. Xizmatchilar ilonni tutdi va qafasiga qamadi. 4. Hozir kitob bosish uchun harflar kompyuterda teriladi. Ungacha bosmaxonada harflar qo'lda terilgan. 5. Palovning zirvagi tayyor bo'ldi. Oshpaz qozonga guruchni soldi. 6. Sen ko'chatlarni olib kel. Ungacha men chuqurchalarni kovlab qo'yaman. 7. Yoyilgan o'rik quridi. Onam uni qopga soldilar. 8. Nasiba o'qishni bitirdi. So'ng o'z qishlogiga qaytdi va u yerda o'qituvchilik qildi.

Fe'ning harakat tarzi shakllari

320-mashq. Berilgan gaplarni o'qing. *Olmoq, tashlamoq va boshlamoq* fe'li gaplarga qanday qo'shimcha ma'no berayotganligi va fe'ning qaysi shakli bilan birikib kelayotganini ayting.

1. Nodir masalani yechdi. – Nodir masalani yecha oldi. – Nodir masalani yechib tashladi. 2. Sobir to'nkani yordi. – Sobir to'nkani yora oldi. – Sobir to'nkani yorib tashladi. 3. Bolalar yerni ag'dardi. – Bolalar yerni ag'dara boshladi. – Bolalar yerni ag'darib tashladi. 4. Ustalar devorni tikladi. – Ustalar devorni tiklay boshladi. – Ustalar devorni tiklab tashladi. 5. Kombayn bug'doyni o'rdi. – Kombayn bug'doyni o'ra boshladi. – Kombayn bug'doyni o'rib tashladi.

Savollar:

1. Fe'ning harakat tarzi shakllari daeganda nimani tushunasiz?
2. Harakat tarzi shakllari qanday yasaladi?
3. Yetakchi fe'l nima?
4. Ko'makchi fe'l nima?

321-mashq. Quyida berilgan fe'llardan *turmoq, qolmoq, ko'rmoq, bermoq, yurmoq* ko'makchi fe'llari yordamida harakat tarzi shakllari hosil qiling va bu

shakllar ishtirokida gap tuzing. Mazkur yordamchi fe'llar yetakchi fe'lga qanday ma'no qo'shishini aniqlang.

Namuna: *o'qimoq – oqib turmoq – Nafisa “Boshlang'ich ta'lim” jurnalini o'qib turadi.*

O'qimoq, chiqmoq, aytmoq, sezmoq.

322-mashq. Gaplarni o'qing. Fe'ning harakat tarzi shakllarini topib, yasalishi va ma'nosini izohlang.

1. Dalalarda kech kuzning achchiq shamoli esa boshladi. (*S. Ahmad*)
2. Axir necha yuz bet keladigan asarni kecha-kunduz uxlamay, ko'z nurini to'kib, qo'lda yozib chiqishning o'zi ham mehnatga kirmaydimi? (*Shukrullo*)
3. Tomorqa etagidagi devorning omochli traktor kimgudek joyi buzib tashlangan edi. (*A. Obidov*)
4. Qarshi bobo har qancha hurmatga arziydi. Agar biron kun uyda qamalib yotsa, dalani sog'inib qoladi. (*A. Ko'chimov*)
5. So'fiylikning amaliyotiga ko'ra, barkamol inson o'z nafsini tiya oladigan, akl-zakovatni har qanday hissiyotdan ustun qo'ya oladigan, qalbi yaxshilik, ezgulik bilan to'la kishidir. (*“Fal-safa” kitobidan*)
6. Dilshod kechqurun chiroq atrofini o'rab oladigan parvonalariga ham hayron bo'lib boqardi. (*S. Zunnunova*)
7. Otam o'y-lanib qoldi. Soqolini barmoqlari bilan taradi. (*Oydin*)
8. – Naykamalak! – dedi Anorxon osmonga ko'zi tushib. Sevinganidan qarsak chalib yuborganini o'zi ham bilmay qoldi. (*I. Rahim*)
9. Tasodifni qarangki, Muhiddin Soliyaxonga duch kelib qoldi. (*R. Fayziy*)
10. Yuk vagonlari qasir-qusur qilib, u yoqdan bu yoqqa o'tib turibdi. (*S. Ahmad*)
11. Dadam suvog'i ko'chgan devorlarga, eski shkaf, oyog'i maymoq stullarga bir qarab qo'ydi. (*S. Siyoyev*)
12. Kecha ishchilar GES poydevoriga beton quyib, stantsiya devorini tiklab bo'ldilar. (*S. Ahmad*)
13. Qolganlardan bir qismi soyning o'rtasiga yetmasdan qaytish-ga majbur bo'ldi. Ikki kishi oqib ketayozdi. (*A. Qahhor*)
14. Kela-kel-guncha mashinada o'tiraverib, beli qotib ketgan Hojimurod u yoq-bu yoqqa yurib, chigilini yozmoqchi bo'ldi. (*S. Ahmad*)
15. Bodom daraxti yer tanlamaydi, toshloq, qumloq joylarda ham o'saveradi.
16. G'afur akaning: – Qochadigan odam yo'q, kelavering, – degan hazilnamo chaqirig'i eshitildi. (*Shukrullo*)

323-mashq. Quyida harakat tarzi shakllarining ma'nosi berilgan. Shu ma'nolarni ifodalovchi harakat tarzi shakllarini yozing.

1) harakatni bajarigshga kirishish, 2) harakatni bajarishga imkoniyat, qobiliyat, 3) harakatning davomli muddatda ora-sira bajarilishi, 4) harakatning kutilmaganda sodir bo‘lishi, 5) harakatning tugallanganligi, 6) harakatni sinash maqsadida bajarish, 7) harakatning uzoq davom etishi, 8) harakatning oson bajarilishi, 9) harakatning ma’lum muddatgacha davom ettirilishi.

To‘liqsiz fe’l

324-mashq. Gaplarni o‘qing. To‘liqsiz fe’llarni topib, ma’nosi va imlosini tushuntiring.

1. Odamxo‘r devlarni yuzlab chaqirim joydan ko‘rgan zahoti Burgutning ko‘zlaridagi olov devga borib chaqmoq bo‘lib urilar ekan. 2. Hirot-da hazrat bobom nomiga ham madrasa qurilgan-ku. Hech bo‘lmasa o‘shal madrasaga dafn etsalar bo‘lmasmidi? 3. – Gavharshodbegim – mening onam ekanini unutmag, amirzoda. 4. – Meni afu eting, hazrat otajon... Qamoqda yotganimda o‘tgan alamlar hali xotiramdan chiqqan emas. 5. Elchilar orqali Alouddavlaga shu savol berilganda, “Podshoh hazratlari bizni ma’zur tutsinlar, inimiz Abulqosim Bobur bilan urush harakatlari to‘xtagan emas”, – deb javob berdi. 6. Bu soqchilar tashqi ko‘rinishidan begimni qo‘riqlab yurgan bo‘lsalar ham, aslida Alouddavla tomonidan qo‘yilgan xufiyalar edi. 7. Alouddavla momosining Ulug‘bekka yoki Abulqosim Boburga yon bosishida xavotirda bo‘lgani uchun begimning har bir qadamini kuzatib turadigan qo‘riqchilar qo‘ygan.

Fe’l yasalishi

325-mashq. Berilgan fe’llarning yasalish asosi va yasovchi qo‘shimchasini belgilang. Fe’l yasovchi qo‘shimchalarning qanday ma’noli fe’l yasayotganligini izohlang.

O‘g‘itla, moyla, betonla, jilovla, kishanla, tikla, tekisla, dumaloqla, to‘g‘rila, tushovla, shodlanmoq, salomlashmoq, afsuslanmoq, ajablanmoq, zavqlanmoq, lazzatlanmoq, janjallashmoq, ravshanlashmoq randa, qaychila, egovla, arrala, chirqillamoq, chirsillamoq, likillamoq, guvullamoq, shuvullamoq, mo‘ltillamoq, bezillamoq, yarqiramoq, sirqiramoq, mo‘ltiramoq, yaltiramoq, urug‘la, mog‘orla, bolala, chuhla,

dodla, gumburla, sizla, senla, oshamoq, qonamoq, o‘ynamoq, bo‘shamoq, qiynamoq, shildiramoq, jildiramoq, ozaymoq, qoraymoq, toraymoq, ko‘paymoq, oqarmoq, ko‘karmoq, qisqarmoq, eskirmoq, suvsiramoq, tuzsiramoq, gumonsiramoq, birikmoq, yo‘liqmoq, kechikmoq, zo‘riqmoq, tinchimoq, boyimoq, changimoq, to‘latmoq, berkitmoq.

326-mashq. Berilgan qo‘shma fe’llarning qolipini aniqlang. Bu fe’llarni *ism + fel* va *fe’l + fe’l* qolipli qo‘shma fe’llarga ajratib yozing. *Ism + fel* qolipli fe’llarga 10 ta misol topib yozing.

Xursand bo‘lmoq, paydo bo‘lmoq, sayr qilmoq, nazorat qilmoq, obod bo‘lmoq, javob bermoq, safar qilmoq, azob chekmoq, huzur qilmoq, huzur ko‘rmoq, hordiq chiqarmoq, sotib olmoq, olib bormoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, olib qochmoq, ishlab chiqarmoq.

Ravish

327-mashq. Gaplardagi ravishlarni topib, ma’no turi va gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Mavlon mingboshi.. tasodifan loyga sirg‘anib yiqildi. Kishilar rosa kulishdi. (*T. Obidov*) 2. Shunday ekan, kel, ochiqchasiga gaplashaylik. (*T. Ashurov*) 3. Farg‘ona dehqonlari kanal qazib, Norindan cho‘lga suv olib chiqish uchun astoydil bel bog‘ladilar. (*N. Safarov*) 4. Odamzod shundayki, bor narsa asta-sekin yo‘qolsa ham, payqaydi, lekin yo‘q narsa asta-sekin paydo bo‘lsa, payqamaydi. (*A. Qahhor*) 5. Orombaxsh, salqin bog‘da sayr etib yurgan ikki yosh yurak bu safar ham tunda uylariga atayin piyoda jo‘nashdi. (*Mirmuhsin*) 6. Odam ba’zan bir marta noto‘g‘ri bosib qo‘ygan qadami uchun umrbod javob beradi. (*O‘. Hoshimov*) 7. Osmonning kunchiqish qismi endi oqara boshlagan, lekin hatto barvaqt turadigan qishloq ahli ham hali uyquda. (*O.Yoqubov*) 8. Sabr kosasi to‘lib ketgan qiz noiloj yorilishga majbur bo‘ldi. (*J. Abdullaxonov*) 9. Issiq birmuncha bo‘shashgandek tuyulsa ham, dimlik zaptida edi. (*M. Ismoiliy*) 10. Elbek o‘z kabinetiga qaytgandan keyin asabiylik bilan nari-beri yurib, uzoq o‘yladi. (*A.Muxtor*) 11. O‘roz qayerdandir katta tarvuz keltirib, o‘rtaga qo‘ydi. (*Oybek*) 12. Shavkat militsionerning gaplarini deyarli eshitmas, ich-etini tashvish kemirar edi. (*Q. Kenja*) 13. Tongotarda hujradan chiqqan Me’mor karvonsaroy hovlisini kesib o‘tib, darvozadan tashqariga yo‘l oldi. (*Mirmuhsin*)

14. U yoz bo‘yi Mansur uchun ataylab yalpiz, sariqbosh, isiriq, yana allaqanaqa giyohlarni yig‘ib yurardi. (*O‘.Hoshimov*) 15. Yaqinda Qumri ish bilan yana Toshkentga keldi. (*Mirmuhsin*) 16. Boyagiga qaraganda anchagina yengillashib, ichkariga kirdi. Harakatlari ham birmuncha o‘zgargan edi. (*A. Qodiriy*) 17. Yuragi gupillab urar, sharmoldan quloqlari shang‘illar, tizzasining ko‘zi muzday yerga tegib turganini sal-pal sezardi. (*O‘. Hoshimov*) 18. Shu yerga sardoba zarurligi ko‘rinib turibdi. (*Mirmuhsin*) 19. Bobur.. otini quhcoqlab, navkarlar qurshovini yorib chiqqanda, yuziga shabada tegib, xiyol yengillashdi. (*P. Qodirov*) 20. So‘qqabosh mahalla qorovuli tomiga atayin kaptarxonona qurib, ellik-oltmishtacha kaptar boqardi. (*Mirmuhsin*) 21. Mehnat qilgan odam doim boshqalarning yuziga dadil qaraydi. (*T. Ashurov*)

328-mashq. Berilgan ravishlarning yasaliş asosi va yasovchi qo‘shimchasini belgilang. Bir xil qo‘shimcha bilan yasalgan ravishlarni guruhlab yozib, yasaliş asosi qaysi so‘z turkumiga mansubligini aniqlang.

Tasodifan, vijdonan, betinim, taxminan, fikran, avvalgiday, beijozat, doimgidek, mardlarcha, bevosita, keragicha, bedarak, o‘zbekcha, bemalol, surunkasuga, nomiga, tirnoqcha, birdaniga, qanaqasiga, oylab, donalab, boshqacha, xolisona, harflab, fidokorona, bo‘g‘inlab, yaxshilab, qatorasiga, zo‘raki, yigitchasiga, ko‘plab, yoshlayin, butunlay, qahramonlarcha, do‘stona, yangicha, bolalarcha, ochiqchasiga, otalarcha, navbatsiz, vahshiylarcha, telbalarcha, yangiligicha, mardona, yaxshilikcha, xomligicha, butunligicha, hazilnamo, qishloqcha, oliftanamo, dehqonchasiga, uyalgannamo, qishin-yozin, oldin, oqilona, itoatkورونا, dom-daraksiz, hazilsimon, rostakamiga, xafasimon, erkalangansimon, osonlikcha, o‘g‘rincha, vaqtincha, o‘zgacha, yashirincha, o‘zicha, tiriklayin, istagancha, ko‘pincha, to‘xtovsiz, hozircha, bittalab, keyincha, boricha, yodaki, qishloqchasiga, harbiychasiga, mahsichang, ko‘ylakchang.

329-mashq. Berilgan ravishlarni qo‘shma, juft, takroriy ravishlarga ajratib yozing va qanday yasalganligini tushuntiring.

U yerga, bu yerda, eson-omon, o‘sha yoqdan, yo‘l-yo‘lakay, bu orada, galma-gal, shu kuni, azza-bazza, shu zahoti, o‘lda-jo‘lda, shu onda, onda-sonda, shu asnoda, imi-jimida, har kuni, har yili, har yoqqa,

chaqqon-chaqqon, har taraf, to‘g‘ridan to‘g‘ri, har dam, sekin-sekin, har gal, har yoqdan, qayta-qayta, uzundan uzoq, har lahza, birma-bir, bir kuni, bir dam, o‘qtin-o‘qtin, bir nafas, birpas, bir on, darajama-daraja, bir onda, bir zamon, bir tekis, biroz, ahyon-ahyonda, birmuncha, bir talay, bir nav, hamma yoqda, hamma vaqt, zinhor-bazinhor, hamma joyda, qay vaqt, qay choq, qay zamon, qay payt, qay mahal, allamahal, birga-birga, allanechuk, allapayt, allazamonlar, asta-sekin, nari-beri, qop-qop, ochin-to‘qin, oldinma-keyin, ozmi-ko‘pmi, erta-yu kech, kecha-kunduz, bir zumda, qishin-yozin, tun-kun, uzil-kesil, ura-sura, unda-bunda, dom-daraksiz, mo‘l-ko‘l, ora-sira, hamma yerda, ro‘y-rost, sal-pal, har zamonda, chala-chulpa, shu o‘rtada, emin-erkin, huda-behuda, bir boshdan, oz-moz, eran-qaran, biryo‘la, asta-asta, gul-gul, o‘sha zamon, tez-tez, es-es.

YORDAMCHI SO‘ZLAR

330-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni vazifasiga ko‘ra quyidagi jadvalga joylashtiring.

1. Ilm amal **bilan** sharofatlidir. (*G‘. G‘ulom*)
2. Ba‘zi ota-onalar bolalarini ayagan bo‘ladilar-da, ularni hayot **uchun** yaroqsiz, jismoniy zaif qilib qo‘yayotganlarini bilmay qoladilar. (*S. Zunnunova*)
3. – Choy damlab kelay**mi**, chanqagandirsiz? (*S. Nurov*)
4. O‘qituvchiga kibr-u havo **va** takabburlik aslo yarashmaydi, chunki yosh avlod undan ibrat oladi. (*R. Usmonov*)
5. Chumchuqlar daraxt shoxlarida yozdagi **kabi** bazm qurishgan. (*A. Obidjon*)
6. Safarov ularni kuzatib qaytdi **va** arizalarni birma-bir ko‘zdan kechirdi (*A. Qahhor*)
7. **Hatto** ota-onasidan ham sir saqlagan bir yigitning o‘z o‘g‘lim bo‘lib chiqqani menga qiziq ko‘rinadir. (*A. Qodiriy*)
8. Yo‘lchi birinchi kun bozorni aylana-aylana, kechga **qadar** uch-to‘rt yerga yuk orqaladi. (*Oybek*)
9. Yomg‘ir betinim yog‘ar, **lekin** uning tomchilari chang zarralaridek ko‘zga ilinmas edi. (*P. Tursun*)
10. Otaxon, deyman, o‘yinga usta ekansiz-**ku**. (*A. Qahhor*)
11. **Nahot** endi hammasiga sen javob bersang,
Axir o‘zing pokdomonmi, shuning o‘zi bas. (*A. Oripov*)

Tobe soʻzni hokim soʻzga bogʻlashga xizmat qiladi	Uyushiq boʻlak va sodda gaplarni bogʻlashga xizmat qiladi	Soʻz va gapga qoʻshimcha maʼno beradi
Koʻmakchi	Bogʻlovchi	Yuklama

Koʻmakchi

331-mashq. Koʻmakchilarni topib, maʼnosi va qaysi soʻzni qaysi soʻzga bogʻlayotganini izohlang.

1. Bu asboblarni oʻzlari ishlatadilar. Ketmon bilan yer chopadilar. Belkurak bilan daraxtlarning tagini yumshatadilar. (*M. Ismoilij*) 2. Taqdir taqozosi bilan Akmal shaharda yashab qoldi. (*M. Hazratqulov*) 3. Toʻy arafasida kuni bilan qor yogdi, shunday elab yogʻdiki, koʻzlarni ochirmay qoʻydi. (*M. Ismoilij*) 4. Qishloqning oʻrtasidan shiddat bilan oqayotgan soy tinimsiz shovullaydi. (*T. Rasulov*) 5. Nishonboy birga ishlaydigan yigitlar bilan chorpoyada oʻtirardi. (*T. Ashurov*) 6. Kuy boshlanib, raqqosa oʻyinga tushishi bilan atrof jimjit boʻlib qoladi. Hamma oʻtirgan joyida tebranardi. (*T. Obidov*) 7. Qoʻmondonning buyrugʻi bilan uchala oʻgʻildan bir ekipaj tashkil etilibdi. (*I. Rahim*) 8. Qamalgan tutun juda sekin tarqalmoqda edi. Yoʻlchi nafasini rostdash uchun eshikka chiqdi. (*Oybek*) 9. Toʻy uchun kuyov tomonidan oʻn besh arava yuk yuborilgan. Har bir aravada boshqa-boshqa mollar va buyumlar. (*Oybek*) 10. Yoʻlda qattiq toliqqanligi uchun durust ovqat ham yemadi. Faqat bir-ikki tilim handalak yedi-yu, uch-toʻrt piyola choy ichdi. (*P. Qodirov*) 11. Onam meni ish uchun tuqqan emas. (*Oybek*) 12. Oliy nav un ugra, lagʻmon, manti kabi taomlar uchun qoʻl keladi. (*K. Mahmudov*) 13. Hayot nashidasi shu kurash, xavf-xatar, toʻsiqlarni yengib oʻtish, intilish borligi uchun ham qiziq, lazzatli. (*S.Nurov*) 14. Kampir derazadan mehmonxona tomonga qarab qoʻydi.. Gulday toza, topar-tutari yaxshi, obroʻyi baland. (*S. Nurov*) 15. Tezlikda Samarqandga – Ulugʻbek mirzoga choparlar orqali noma joʻnatildi. (*Mirmuhsin*) 16. Mayin esayotgan shamol uning betidan marvarid donalari singari tizilib yotgan terlarni yalab ketdi. (*N. Safarov*) 17. Tun sovugʻi bilan qotgan loy oyoq ostida, siniq shisha parchasi kabi, qirs-qirs ushaladi. (*Oybek*) 18. Umarali bir parcha sur goʻshtni toʻgʻramcha

qilib, masalliqning ustiga qo‘ydi-da, oshxonaga qarab ketdi. (*Oybek*)
19. Ammo yozuvchi haqida, uning kitobi haqida kimki o‘ylab, xolisaniillo fikr aytmasa, sharmanda bo‘lishi turgan gap ekan. (*Shukrullo*)

332-mashq. *Bilan, uchun, sari, kabi, singari* ko‘makchilari ishtirokida so‘z birikmasi, *qadar, beri, so‘ng, boshlab, bo‘ylab* ko‘makchilari ishtirokida gap tuzing.

333-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan ko‘makchilarni **-ga, -da, -dan** qo‘shimchalidan mosi bilan almashtirib, gaplarni ko‘chiring. Bu gaplarni o‘zaro qiyoslab, mazmun farqini izohlang.

1. Buxoroga poyezd **bilan** keldik. 2. Navro‘z bayrami **uchun** katta tayyorgarlik ko‘rildi. 3. Bu kitobni ukam **uchun** oldim. 4. Nodir paxtazor **orqali** o‘tib, katta yo‘lga chiqdi. 5. Nazira yo‘lning cheti **bilan** yurib kelardi. 6. Bu rasm mo‘yqalam **bilan** chizilgan. 6. Bu yangilikni televizor **orqali** eshitdik.

Bog‘lovchi

334-mashq. Gaplarni o‘qing. Bog‘lovchilarni topib, vazifasiga ko‘ra turi va nimani bog‘lashga xizmat qilayotganini ayting.

1. San’atkorda kuch va ishonch, erk va dadillik bo‘lmas ekan, u o‘z miqsadiga ershia olmaydi. (*F. Musajonov*) 2. Havo shu qadar issiq, dim ediki, ertalab o‘rilgan pichan kechgacha shaqirlab qurib qoldi. (*S. Anorboyev*) 3. – Hay, o‘t yigit, haligi so‘zlaring oltinga arziydi, ammo har kimga so‘zlayverma! (*Oybek*) 4. Malohat diplom yozar, imtihonlarga tayyorlanar, shuning uchun tun bilan kunning farqi qolmagan edi. (*H. G‘ulom*) 5. Suv o‘tga kor qila boshladi va oradan biror soat o‘tar-o‘tmas, alanga pasaydi. (*H. G‘ulom*) 6. Hech narsani oldin olib qo‘yish kerak emas, chunki pul bekor band bo‘lib qoladi. (*A. Qahhor*)

335-mashq. Teng bog‘lovchilarni topib, ma’no turi va nimani bog‘lashga xizmat qilayotganini ayting.

1. Sabzavot, meva hamda rezavorlarning o‘zbekcha tansiq taomlar tayyorlashda ahamiyati kattadir. (*K. Mahmudov*) 2. Bahor ariq bo‘yiga o‘tirib, pomidor, bodring va piyoz yuvdi. (*Sh. Rashidov*) 3. Sofiyaning

quloqlari ostida otasining do‘rildoq, ammo erkalovchi ovozi yangragandek bo‘ldi. (*O‘. Hoshimov*) 4. Quyosh botgan, lekin kun hali yorug‘, har yoqqa oqshom sukunati cho‘zilgan. (*Oybek*) 5. Duduq odamning gapirishi qiyin, ammo uning gapini eshitish undan ham qiyin. (*F. Musajonov*) 6. Har bir qozoqning o‘tovida qimizi, qimroni yoki ayroni doim osig‘liq turadi. (*M. Muhammadjonov*) 7. Qoraqand mevasi bilan chinor po‘stlog‘idan tayyorlangan sharbat ham qandli diabetni davolashda yaxshi vosita ekan. (*“Fan va turmush” jurnalidan*) 8. Ko‘p qavatli binolar goh bulutlar soyasiga qo‘shilib, yo‘q bo‘lib ketadi, goh yana quyosh chiqib, olamga issiq-issiq nur sochganda, qaytadan paydo bo‘ladi. (*P. Qodirov*) 9. Yozuvchi bilan rassom qo‘lni qo‘lga berib, do‘stona xayrlashishdi. (*S. Ahmad*) 10. O‘quvchi «biz ko‘pchilikmiz, o‘qituvchi hammamizni baravar ko‘rolmaydi», deb o‘ylaydi. Holbuki, o‘qituvchi sinfdagi har bir bolaning nima qilayotganini aniq bilib turadi. (*O‘. Hoshimov*) 11. Ba‘zan Qoratoyni ishxonasida, ba‘zan choyxonada tunab yurdi. (*Oybek*) 12. Kuchlilik – kurashda yiqitishda emas, balki g‘azabi kelganda, o‘zini bosib olishdadir. (*Hadis*) 13. Bola big‘ilab yig‘lar, Munira esa bunga e‘tibor bermasdi. (*F. Musajonov*)

336-mashq. Gaplarni o‘qing. Ergashtiruvchi bog‘lovchilarni topib, ma‘no turi va nimani bog‘lashga xizmat qilayotganini ayting.

1. Ovoz shu qadar tiniq, dilrabo ediki, Muqaddam hayajondan entikib ketganini sezdi. (*O‘. Hoshimov*) 2. O‘qituvchiga kibr-u havo va takaburlik aslo yarashmaydi, chunki yosh avlod undan ibrat oladi. (*R. Usmonov*) 3. Qish kechalari juda uzun, shuning uchun choyxonalar obod. (*A. Qodiriy*) 4. Maktab – bilim darvozasi, ya‘ni faqat bilim olish yo‘lini ko‘rsatib beradi, xolos. (*P. Tursun*) 5. Hindistonning qoramtir changalzorlarini, qalin bambukzorlarini, ya‘ni junglini ko‘rish uchun ertalab yo‘lga chiqish ma‘qulligini aytishdi. (*Z. Akramov*) 6. Agar u har kuni ertalab, kechqurun soyga tushmaganda edi, ko‘za-ko‘za suv quyib, tomiriga nam yubormaganda edi, o‘rik allaqachon xazon bo‘lardi. (*Sh. Rashidov*) 7. Agar qiyinchilikdan qo‘rqilmasa-chi, insonga rom bo‘lmagan narsa yo‘q ekan. (*H. Nazir*) 8. Modomiki, o‘z g‘arazi yo‘lida istibdod orqali el ustiga hukmron bo‘lg‘uvchilar yo‘qolmas ekanlar – bizga najot yo‘qdir. (*A. Qodiriy*) 8. Mabodo qiynalsang, to‘g‘ri oldimga kelaver. (*S. Siyoyev*)

Yuklama

337-mashq. Gaplarni o'qing. Yuklamalarni topib, ma'no turini ayting. Qaysi yuklama butun bir gapga, qaysi yuklama ma'lum bir so'zga qo'shimcha ma'no qo'shganini ayting.

1. Bemaza kitobni-ku jonga tekkan joyda shartta yopib qo'ysa bo'lar, biroq umr kitobini-chi? (*X. Sultonov*) 2. Ha, aytganday, qudangiznikiga yuborgan kishingiz keldimi? (*A. Qodiriy*) 3. Buvaydadan chiqib ketganimga yigirma yildan oshgandir, ko'p ham bo'lgandir. (*A. Qahhor*)

4. Lekin tanimizda kezar-ku beshak

Olis bobolarning ming yillik qoni. (*A. Oripov*)

5. Hatto umri bo'yi qorni to'ymagan qashshoq ham, ko'zi basir tilanchi ham, bir kun bo'lsa-da, ko'proq yashasam, deydi. (*S. Anorboyev*)

6. Axir bu yerga saltanat dushmanlari, badtarin kimsalar, g'oyatda xavfli shaxslar tashlanar edi-ku! (*Mirmuhsin*)

6. Serkalar butun suruvni o'z orqalaridan ergashtirib, xuddi bo'ri quvganday, vahima ichida to'ppa-to'g'ri jarlikka qarab chopmoqda edi. (*S. Anorboyev*)

7. Rustam esa naq piyoladek oq achchiq olmani kars-kars tishlar edi. (*A. Eshonov*)

8. Shoir qiziq xalq-da, haqiqiy darvesh bo'ladi. (*Shukrullo*)

9. Nahotki u shundoq dangasa bo'lib qoldi? Kitob o'qishga qunti yo'q. (*Mirmuhsin*)

10. Devorlari va shipini qop-qora dud bosgan bu uyga quyosh nurlari kichik bir tuynukdan tushardi, xolos. (*J. Sharipov*)

11. Go'yo ikki navqiron yigit shu bugun boriboq O'rtaqo'rg'onni zabt etadiganday, baland ruh bilan nutq so'zladi. (*M. M. Do'st*)

12. Umid g'oyatda xursand, ikki xonali kvartiraga order olgan kuniyoq, darov ko'chib keldi. (*Mirmuhsin*)

13. Faqat o'z sohasini biluvchi odam xuddi bir tomoniga yuk ortilgan qayiqqa o'xshaydi. (*Shukrullo*)

14. Shahar atrofini o'rab olgan paxsa devorlar ustida soqchilargina u yoqdan bu yoqqa yurib turar edi. (*Oydin*)

15. Uch haftadan beri na xat bor, na bir xabar.. darvoza tiq etsa, pochtachi xat tashlab ketdimikan, deb ko'chaga yuguraman. (*N. Qilichev*)

16. Faqat uch tup qayrag'ochgina ko'hna tarix nishonasi bo'lib turibdi. (*I. Rahim*)

ALOHIDA SO‘Z TURKUMLARI

Modal so‘zlar

338-mashq. Gaplarni o‘qing. Modal so‘zlarni aniqlab, ma’no turini ayting.

1. Uylanish sizga ham farz, ham qarz. Bunga qolganda, albatta, bir uzr ko‘rsatolmaysiz. (A. Qodiriy) 2. Jahl ustida urishib qolgan bo‘lsangiz, ehtimol, yarashib qolarsiz. Oilangizni buzmag! (Mirmuhsin) 3. Darhaqiqat, bir-biriga o‘xshamagan nonlar tarashadek qotib qolgan edi. (A. Qodiriy) 4. Qishloqqa bahor ilgariroq keldi, shekilli, Vasila Nazarovna tanaffus paytida yo‘lakda yugurib ketayotgan bir qizaloqning qo‘lida gunafsha ko‘rib qoldi. (O‘.Hoshimov) 5. Albatta, kampir kelinlarini ro‘zg‘ordan siqmasdi. Ammo rejani buzmay, masalliqni isrof qilmay ish tutardi. (S. Ahmad) 6. Eshik, deraza, pol, to‘sin kerakmi? Demak, duradgorlik ustaxonasi kerak. (N. Safarov) 7. Bo‘lmasa, ilgaridan eringizning o‘sha harakatlarini ham bilar ekansiz-da? (A. Qodiriy) 8. Sersuv va xilma-xil uzum ko‘p. Qorajanjal, bedona, sohibi, dilikaftar, buvaki – xullas, bularning navi behisob. (Oybek) 9. – Meniki mubolag‘a emas, – dedi Anvar, – masalan, sen hozir gullar yonidasan, ham chindan-da gullarning ra’nosisan. (A. Qodiriy) 10. Cho‘l shamollari, jumladan, garmsel havoni quruqlashtiradi. (“Fan va turmush” jurnalidan) 11. Avvalo, yigit kishi sabrli, toqatli bo‘ladi. Ikkinchidan, mard bo‘ladi. (R. Rahmon) 12. – Ming afsuski, hozir to‘ylarda o‘yinkulgi, chiroyli an’analar san’atini namoyish qilish emas, isrofgarchiliklar me’yoridan oshib ketadi. (Mirmuhsin) 13. Xayriyat, eshikning kaliti burnida qolgan ekan. (S. Ahmad)

Undov so‘zlar

339-mashq. O‘qing. Undov so‘zlarni topib, ma’no turini aniqlang va ma’nosini izohlang.

1. Eh, attang, orzular uchdi havoga. (Y. Qurbon) 2. Eh, maza! Maza! – Popuk sevinchidan quyonday dikong-dikong sakradi. (H. Nazir) 3. Samolyotga yetdik. Ehe, uning vahimasini ko‘ring. (H. Nazir) 4. Bay-bay-bay, husn-u latofatini qarang, behisht qizlaridek, huru g‘ilmonlaridek. (X. To‘xtaboyev) 5. Bay-bay, bu bolalarning dastidan o‘lib bo‘ldim; axir bu tosh qurut, jig‘ildonlaringni teshib yuboradi-ku. (Oybek)

6. Assalomu alaykum, – dedim ostonadan bir qadam narida turib. (*E. Rahimov*) 7. Otga juda epchil ekansan-ku, qizim! Barakalla-e. (*A. Qahhor*) 8. Rahmat, yuzga kir, uvali-juvali bo‘l, o‘g‘lim. (*Oybek*) 9. Ajabo, Mavlonqulov bu zahar-zaqqum gaplarga pinak ham buzmad. (*X. Sultonov*) 10. Mustafo eshagiga xalacho‘p bosdi: – Xix, jonivor, xix! (*M. M. Do‘st*) 11. Oh, u damlar!.. eslasam, qalbimni quvonch, ruhimni shodlik quchadi. (*J. Jabborov*) 12. Bos oldin, tulporim, chu, azamat, chu. (*G‘. G‘ulom*) 13. Hoy, onasi, suyunchini cho‘z. (*E. Rahim*) 14. – Xayr, sog‘ bo‘ling, – dedi Saodat Lolaxonni eshikkacha uzatib. (*S. Zunnunova*) 15. Xudoga ming qatla shukur, ko‘zim ochiq paytda qizginamning to‘yini ko‘radigan bo‘ldim. (*A. Qahhor*) 15. Ey, bobo, nechuk g‘amnok ko‘rinasiz. (*S. Ahmad*) 16. Obbo, Qorabotir bo‘lib qolding shekilli. Birovning sevgisiga raxna solishing qoluvdi. (*O‘. Hoshimov*)

340-mashq. Berilgan undov so‘zlarni ma’no turiga ko‘ra quyidagi jadavalga joylashtiring. Undov so‘zlarning har bir ma’no turi ishtirokida ikkitadan gap tuzing.

Iye, marsh, ofarin, oh, esonmisiz, o, pish-pish, bay-bay, assalomu alaykum, barakalla, tashakkur, hayt, rahmat, beh-beh, shukur, qulluq, barakalla, kisht, uf, uh, ho, allo, o‘h-ho‘, ehe, e, hay-hay, aha, qoyil, hay-hay, chu, aha, bor bo‘ling, eha, o‘, qulluq, mah-mah, marhabo, i, xix, a, omonmisiz, o‘h, marhamat, obbo, iya, he, ura, iye-voy, vodarig‘, esiz, evoh, vah-vah, ajabo, balli, hoy, oy, ay, ey, ma, tss, qani, jim, tek, hormang, pisht, dirr, ish, eh, xuyt, xayr, xo‘p.

His-hayajon undovlari	Haydash-chaqirish undovlari		Rasm-odat undovlari
	Shaxsga qaratilgan	Hayvon-parrandalarga qaratilgan	

Taqlid soʻzlar

341-mashq. Oʻqing. Taqlid soʻzlarni topib, maʼnosi va gapdagi vazifasini izohlang. Tovushga taqlid va holat-koʻrinishga taqlidni bildiruvchi soʻzlarni ikki guruhga ajratib yozing.

1. Nafisa uning piyozni gʻarch-gʻurch chaynab, non bilan tushirayotganini zavqlanib tomosha qilarkan, soʻzlarining magʻzini chaqishga urinardi. (*A. Muxtor*) 2. Darvozaxona yoʻlagida dupur-dupur oyoq saslari eshitildi. (*S. Nurov*) 3. Hasan soʻfi toshga qulogʻini bosib tingladi. Ancha tinglab yotdi: Duk-duk bor-u.. juda olis. (*M. Ismoiliy*) 4. Mahbuba yalt etib yuzimga qaradi. (*O. Yoqubov*) 5. Oʻchoqda tezak miltillab yonar, qora chovgum biqir-biqir qaynardi. (*S. Anorboyev*) 6. Polvonning kuchi oshib, oʻz raqibini aylantirib chunonam urdiki, u gup etib yerga yiqildi. (*J. Sharipov*) 7. Qishloq tinchligini buzgan bu yakka ot tuyoqlarining taraq-turuqi, taqalarning toshlarga urilishidan chiqqan yalt-yult chaqmoq dam oʻtmay uzoqlashdi. (*S. Anorboyev*) 7. Quyosh damini gʻir-gʻir esgan shamol kesar edi. (*Oybek*) 8. Chol qult etib yutindi. Oʻychan koʻzlarini nayga qadab, tikilib qoldi. (*Oʻ.Hoshimov*) 9. Koʻkni bulut qoplagan, milt etgan yulduz yoʻq edi. (*I. Rahim*) 10. Sidiqjon shunday qattiq kuldiki, burchakda kulcha boʻlib yotgan mushuk shoshib oʻrnidan turdi va Sidiqjonga qarab, «miyov» dedi. (*A. Qahhor*) 11. Aloqachi ham ogʻziga turshak solib shimib oʻtirar, danagini qasir-qasir chaqar, magʻzini yerdi. (*M. Muhamedov*)

342-mashq. Gaplardagi taqlid soʻzlarni taqlid soʻzdan yasalgan feʼlning ravishdosh shakli bilan almashtiring. Taqlid soʻz va ravishdoshning maʼno munosabatini izohlang.

Namuna: *Doshqozonda sumalak biqir-biqir qaynayapti.* – *Doshqozonda sumalak biqirlab qaynayapti.*

1. Doshqozonda sumalak biqir-biqir qaynayapti. 2. Soyning suvi shar-shar oqardi. 3. Nodir turpni kurs-kurs chaynadi. 4. Askarlar gurs-gurs qadam tashlab oʻtib ketdi. 5. Shamol gʻuv-gʻuv esardi. 6. Suvning shildir-shildir oqishi kishiga orom bagʻishlardi.

343-mashq. Berilgan taqlid soʻzlardan qoʻshimcha yordamida feʼl yasang. Taqlid soʻzdan feʼl yasovchi qoʻshimchalarni ajrating.

Namuna: *gumbur-gumbur* – *gumburlamoq*

SINTAKSIS

SO‘Z BIRIKMASI

344-mashq. Matnni o‘qib, gaplarni aniqlang. Har bir gapni so‘z birikmalariga ajrating.

Men, Hasan, Husan, Fotima, Zuhralar mashinaga chiqib oldik. Paxta-zorlarni yoqalab o‘tib, cho‘lga chiqdik. Shunday cho‘lga chiqishimiz bilan qovun poliziga kirdik. Biram katta dalaki, u yog‘ini ko‘rib bo‘l-maydi. Uzun-uzun pushtalarda katta-katta olachipor tarvuzlar dumalab yotibdi. Ko‘m-ko‘k palaklar ichida sarg‘ayib qovunlar ko‘rinadi. Biram ko‘pki!

Poliz oralab bejirim chaylaga kirdik. Ichi salqin ekan. Tog‘am dastur-xon yozdilar. Hasan choydushga o‘t yoqqani o‘choq boshiga chiqdi.

Chaylada yangi uzilgan umrboqi, ko‘kalapish, doniyor qovunlar, qo‘zivoy tarvuzlar dumalab yotibdi. (*Sh. Sa‘dulla*)

345-mashq. Keltirilgan birikmalardagi hokim so‘z qaysi so‘z turkumidan ekanligini ayting. So‘z birikmalarini otli va fe‘lli so‘z birikmalariga ajrating.

Samimiy do‘stlik, quyosh nuri, farovon hayot, singlimga xat, ham-masidan yaxshi, sabzi to‘g‘ramoq, yomon xotira, tez o‘qimoq, birdan gapirmoq, yam-yashil dala, ilg‘orlarni tabriklamoq, qishloqda yashamoq, hayot uchun kurash, bunday odam, to‘kilgan olmalar, ukamning do‘sti, mustaqillikni asrash, birga o‘qish, dunyo bilan hamnafas, zavq bilan ishlash.

346-mashq. Gaplarni o‘qing ajratilgan tobe so‘z qaysi hokim so‘zni kengaytirib u bilan so‘z birikmasi hosil qilishini aniqlang. Ushbu so‘z birikmalarini aniqlovchili, to‘ldiruvchili, holli birikmalar kabi guruhlariga ajratib ko‘chiring.

1. Ko‘cha yuziga **katta, dang‘llama** uy tushgan-u, hali bitmagan edi (*N. Fozi-lov*) 2. Lekin mening tomirimda chinakam toza qon aylanyapti (*H. K. Andersen*) 3. Shu oylik davomida ko‘chalar chekkasiga, **ariqlar-ning** bo‘yiga, **xiyobonlarga** naq uch yuz mingga yaqin **mevali** va **manzarali** ko‘chatlar o‘tqazishdi. (*X. To‘xtaboyev*) 4. Bobom bilan huvullagan **hovlida** yana **birpas** qoldik. (*A. Jo‘rayev*) 5. Otasi **o‘g‘li-ning** bu yaxshi **ishidan**, oliyjanobligidan shodlanib ko‘ziga yosh oldi

(*Ertakdan*) 6. Akam **makkapoyalarni o‘roq bilan** qo‘zg‘atayotganida chaylaning ichi changib ketdi. (*O. Husanov*)

347-mashq. Avval bitishuv, keyin boshqaruv, so‘ngra moslashuv usuli bilan birikkan so‘z birikmalarini ko‘chiring.

Paxta terish, ko‘chaga chiqish, uzukning ko‘zi, toza suv, o‘roq bilan o‘rmoq, tabiatni asrash, qaynagan suv, birinchi o‘qituvchim, sekin gapirmoq, telefon orqali aytmoq, qiziqib tomosha qilmoq, qishloq ko‘chalari, kumush qoshiq, to‘kin dasturxon, qovunni so‘ymoq, kuzda pishmoq, shoir bilan uchrashuv, suvning shovullashi, qizg‘in suhbat.

348-mashq. Matnni o‘qing. Moslashuv yo‘li bilan birikkan so‘z birikmalarini ko‘chiring. Hokim va tobe so‘zning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini izohlang.

Yozning issiq kunlari, quyosh tikka ko‘tarilgan. Bepoyon, ko‘m-ko‘k dala ko‘ksida yonayotgan quyosh shu‘lasi laxcha cho‘g‘ bo‘lib, go‘zalar ustida tovlanib ko‘rinadi. Murod bilan ikkimiz mayda-chuydani ko‘tarib, katta yo‘lning shimol tomonidagi yolg‘izoyoq yo‘ldan jo‘nadik.

Ertalabki shirchoyni bobom bilan birga ichdik. O‘rtog‘imni hovli orqasidagi bog‘ga olib chiqdim. Bir tarafi gulzor, ikkinchi tomoni turli meva daraxtlari bilan to‘lgan so‘lim bog‘dan sira chiqib ketgimiz kelmas edi. Oq olma, ko‘ksulton rosa pishgan ekan, yeb turgan edik, birdan allaqanday hayvonning qichqirgani eshitildi. Murod taajjublanib atrofiga qaradi. Shu chog‘ bobomning bo‘rsig‘i esimga tushdi.

– Nimaning ovozi? – dedi o‘rtog‘im.

– Bobomning bo‘rsig‘i-ku!

– Rostdanmi? Qayerda? – dedi hayron bo‘lib Murod.

– Yur, ko‘rsataman, – dedim-da, do‘stimni boshlab bog‘ etagidagi qafasda turgan bo‘rsiq oldiga olib bordim. (*G‘ayratiy*)

349-mashq. *1-topshiriq.* Matndan bitishuv yo‘li bilan bog‘langan so‘z birikmalarini topib ko‘chiring. Hokim va tobe so‘zning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini izohlang.

Yomg‘ir kechasi tindi. Beg‘ubor zangori osmonda lovullagan quyosh nuri ko‘m-ko‘k barglar, baxmal sabzalar ustiga to‘kilmoqda. Hamma dalada. Bog‘larda ko‘klam taraddudi.

O‘qishdan keyin rasm to‘garagida mashg‘ulot o‘tkazib, kechroq uyga keldim. Oyim issiq non yopib qo‘ygan ekanlar. Ovqatlanib bo‘lganimdan so‘ng oyim:

– Darsingni keyinroq tayyorlaysan. Bobongning qorni ochib qoldi. Tezroq ovqat olib bor! – deb qo‘linga non bilan ovqatni tutqazdilar. Dalaga jo‘nadim. (*G‘ayratiy*)

2-topshiriq. Quyidagi qolipli bitishuvli birikmalarga 2 tadan misol yozing.

Otli birikmalar

Sifat + ot

Ot + ot

Son + ot

Olmosh + ot

Sifatdosh + ot

Fe‘lli birikmalar

Sifat + fe‘l

Ravish + fe‘l

Ravishdosh + fel

350-mashq. Matndan boshqaruv usuli bilan bog‘langan birikmalarni aniqlab, ularni kelishikli boshqaruv va ko‘makchili boshqaruv sifatida ikkiga ajratib yozing.

Zebining choy damlab kelishini kutib uyda – dasturxon boshida o‘tirgan Saltanat ikkala qanoti ochiq turgan eshik orqali bu holni ko‘rganidan keyin o‘rnidan turib o‘rtog‘ining yoniga chiqdi. Zebi uni uzr aytib qarshi oldi:

– O‘rtoqjon, – dedi, – otam avrodda o‘tirib qoldi, shekilli, shunaqa odati bor. Endiyoq kirib kelsa kerak. Xafa bo‘lmang-a?

Bu so‘nggi kalta jumlaning aytilishidagi samimiyat bir-biri bilan yaqin o‘rtoq tutingan yosh qizlardagina bo‘ladi. “Xafa bo‘lmang-a?” deb turgan vaqtida Zebi-ning yuzini ko‘rish kerak edi, bir qo‘lida supurgi, bir qo‘li tizzasida, supurgi ham yerdan uzib olingan emas, faqat bosh yuqori ko‘tarilgan-u butun vujud Saltanatning ixtiyorida! Ko‘ngil, orzu, sevgi, sevinch... bular hammasi Saltanat tomon uchadi, unga tomon otiladi, uni o‘rab, uni aylantirib, uni quchadi! Zebining yuzlaridagi oyday tiniq va quyoshday yorug‘ bu holat moddiy haqiqatlar qadar ochiq ko‘rinardi.

O‘rtog‘ining bu samimiyatini Saltanat ham ko‘z bilan ko‘ribgina emas, ko‘ngil bilan sezib anglagan edi. Shuning uchun u Zebining so‘ziga javob ham berib o‘tirmasdan birdaniga uning qo‘lidagi supurgiga yopishdi. O‘z ko‘nglida, supurgini olib biroz supurishib bersa haligi samimiyatga yarasha javob bergan bo‘lardi. (*Cho‘lpon*)

351-mashq. O‘qing. So‘z birikmalarini ajratib, ularni to‘liq tahlil qiling. Ulardagi sintaktik aloqaga kirituvchi vosita (egalik, kelishik qo‘shimchasi yoki ko‘makchi so‘z)larni aniqlang.

1. Hayotda sening aqlli boshingga beminnat xizmat qiladigan ulug‘ ustoz kitobdir (*Y. Shukurov*) 2. Nogahon yuz bergan bu mudhish mo‘jizadan echki dong qotib qolgan edi (*M. Xidir*). 3. “Bilmaslik – ayb emas”, deymiz, ammo fazilat ham emas (*G‘. Salomov*). 4. Yagona yaxshi maqsad yo‘lida birlashing. Shunda sizni hech kim yenga olmaydi. 5. Gulliver ularga parvo qilmay yotaverdi va o‘tkir vinoning kayfi bilan tezda uxlab qoldi (*Jonatan Svift*). 6 Qaddi-qomati kelishgan novcha niholcha asta-sekin o‘zidan ketib, allaqanday sehrli xayolot nash’asi bilan mast bo‘la boshladi, keyin o‘sha kun – haddan tashqari qizdirib yuborgan 19-iyun kuni kunduz soat oltalarda jon berdi (*X. To‘xtaboyev*)

SODDA GAP

352-mashq. O‘qing. Matndagi gaplarni tuzilish jihatdan (sodda va qo‘shma gap) tahlil qiling. Sodda gaplarni ko‘chirib yozing. Sodda gapning qo‘shma gapdan farqini ayting.

Urush vaqti edi. Biz Turkiston tizma tog‘ining etagida, shahardan yigirma besh chaqirim naridagi kichkina qishloqda turar edik. Harbiy xizmatdagi akamning xotini qish kunlarida qattiq betob bo‘lib qoldi-yu, shahardan oyimni chaqirib keling, deb iltimos qildi.

U vaqtlarda mashina juda kam, ot-ulov xo‘jalik ishi bilan band edi. Men piyoda yo‘lga chiqdim. Yog‘ib turgan qor pardasi ostida uch-to‘rt g‘amgin chordevorlar ko‘rindi. Ulardan narida qurib qolgan bir hovuz ham bor. Shunga yetsam, yo‘lning yarmi qoladi.

Atrof biyday dala. Bir vaqt yo‘lning chap tomonida qandaydir sharpa sezganday bo‘ldim. Durustroq qarasam, mendan yuz qadamcha narida ikkita kulrang jonivor turibdi. Men avval ularni it deb o‘yladim. Shu atrofda yoyilib yurgan qo‘y qo‘rasi bordir deb, yon-verimga alangladim.

Lekin ko‘z ilg‘aydigan joyda bironta qo‘y yoki pada ko‘rinmas edi. Biri cho‘nqayib olgan, ikkinchisi tikka turgan va meni sergaklanib kuzatayotgan haligi kulrang jonivorlar it emas edi. Men ularning bo‘ri ekanligini tushundim-u, etim junjikib ketdi. Bir lahza o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. Keyin sal hushimni yig‘ishtirib qaragam, oyoqlarim go‘yo o‘z-o‘zidan yurib ketyapti. To‘xtashga ham, jadallashga ham, avzoyimni o‘zgartirishga ham jur‘at yo‘q. To‘g‘riga qarab avvalgiday yurib ketayapman-u, butun vujudim bilan bo‘rilar tomonga quloq solaman. Menga qarab kelishsa, shitiri eshitiladi-ku, deyman.

Kishining qo‘rqanini sezsa, jur‘atsiz kuchuk ham hujum qiladi, men buni yaxshi bilardim. Shuning uchun yuragim vahimadan uvushib ketayotgan bo‘lsa ham, boyagiday shoshilmay, bo‘rilarni ko‘rmaganday bir maromda yurib borardim. (*P. Qodirov*)

Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari

353-mashq. Matnni o‘qing. Undagi gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turini aniqlang, farqini ayting.

Bobom bir kuni katta ko‘k eshagimizni yetaklab chiqib:

– Qani, orqamga mingash-chi, – deb qoldilar.

– Qayoqqa boramiz? – deb so‘rayman sevinib.

– Qashqar qishloqdan o‘rik ko‘chati olib kelamiz.

– O‘rik ko‘chati o‘zimizda bor-ku?

– U boshqasi, o‘g‘lim.

– Qanaqasi?

– Bas endi, jim ket.

– Yo‘q, oldin qanaqaligini ayting, keyin jim ketaman. Bo‘lmasa eshakning junidan tortaman.

– Qoy, bolam, junidan torta ko‘rma, yana yiqitsa, ishimiz bitmay qoladi... Qashqarda qoraqandak degan o‘rik bor, faqat o‘sha yerda o‘sadi u. Quruq, suvsiz yerni xohlaydi, shekilli. Mevasi hay-hay, biram shirin bo‘ladiki, tog‘alaringnikiga borganda yegansan-ku.

– Yeganim yo‘q, – deyman.

– Yegansan, cho‘ntagingni to‘ldirib berishardi-ku!

– Bobojon, nega qoraqandak deyishadi?

– Quriganda shirasi ko‘p bo‘lgani sabab rangi qorayib qoladi-da.

Shu yo'sin Qashqarga borib bir quchoq mayda ko'chat olib qaytdik.
(X. To'xtaboyev)

Darak gap

354-mashq. Berilgan darak gaplarda qanday modal ma'nolar ifodalanganini izohlang. Darak gaplarning kesimi qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini aniqlang.

1. Domla ikkita qo'rga ko'milgan jo'xori bilan bitta sopol tovoqda moshxo'rda chiqarib berdi. (*G'. G'ulom*) 2. Tohir uni yelkasidan quchib bag'riga bosgan edi, Robiya uning arvoq emasligiga endi ishonib yig'lab yubordi: – Tirik! Tirik! Xudoga shukur, tirik! (*P. Qodirov*) 3. Behunar, ilmsiz xalqni istiqbolda zavol kutajak. (*S. Siyoyev*) 4. Voy-bo', isitmang bor-ku! (*O'. Hoshimov*) 5. Meniyam orzu-havaslarim bor, to'y-hasham ko'rmoqchiman. (*Oybek*) 6. – Voy, onang aylansin! Rangini shunchalik oldirib qo'yibdi-ya, bolam bechora. (*D. Nuriy*) 7. Qayg'urmang, opajon. Qora kunlar o'tar, yorug'likka chiqarmiz. (*Oybek*) 8. Obbo azamat-ey, zap ajoyib yigit ekansan-ku! (*M. Hazratqulov*) 9. Ajabo, ustozning inson qalbiga solgan ijod ishq shogirdning matonati bilan qo'shilsa, mo'jiza tug'ilar ekan. ("*Guldasta*"dan) 10. – Ablah odam ekansan! – dedi imom. – Siz ham ahmoq mulla ekansiz! – dedi Safar bo'zchi. (*A. Qodiriy*) 11. Qizning onasi zor qaqshab, qidirib yurgandir. (*S. Ahmad*)

So'roq gap

355-mashq. O'qing. Avval so'roq olmoshi, so'ngra so'roq yuklamasi, undan so'ng so'roq ohangi orqali ifodalangan so'roq gaplarni ko'chiring, so'roq ifodalovchi vositalar tagiga chizing.

1. Anovi qor odamni sizlar yasadilaringmi? (*O. Husanov*) 2. Otni o'rganishimga shu bola sabab bo'lgan. – Bola sabab bo'lgan? (*A. Qahhor*) 3. Rafiq, nayni kim chaldi? – Yo'lchi akam. (*Oybek*) 4. – Xo'sh, dardi? – Muhabbat. – Muhabbat? – Muhabbat, – deb takrorladi Hasanali. (*A. Qodiriy*) 5. Ko'ldan baliq ovlayapsanmi? (*J. Sharipov*) 6. Otabeklar nega qamaldilar, qanday gunohlari bor ekan? (*A. Qodiriy*) 7. – Qishloqqa qachon qaytasiz? (*M. Ismoiliy*) 8. Afg'oniy xanjaringizni beraman degan edingiz-a? (*A. Qodiriy*) 9. Bir o'zingiz-a? Yopiray!

Miyangiz achib, yuragingiz toshib ketmaydimi? (*P. Tursun*) 10. Biror qishloqqa o't ketsa, odamlar darhol voqif bo'ladilar, yong'in daf etiladi. Yurak yonsa-chi? Unsiz, tutunsiz laqqa cho'g' bo'lib yonib kulga aylangan dil oh-zorini eshituvchi bormi? (*S. Karomatov*) 11. Olaxo'ja tovushining boricha baqiradi: – A!?! Targ'il ho'kiz o'lib qoldi? Nima? Nega o'lar ekan? (*P. Tursun*) 12. Birodar, Azizxon degan polvon bolani qaydan topsam bo'ladi? (*S. Ahmad*)

356-mashq. Berilgan so'roq gaplarni turlarga ajrating: sof so'roq gap, ritorik so'roq gap, so'roq-buyruq gap. Ularning farqini tushuntirib bering.

1. Nimalarning rasmini chizyapsan, Po'latjon? (*T. Hayit*) 2. Hissiz qalblarga borliq va go'zallik ruhi qanday singishi mumkin? (*I. Haqqul*) 3. Ozod, echkemardan qo'rqasanmi? 4. Har holda taqdirning bunchalik o'yinlari turgan bir zamonda biz nima ham qila olur edik? (*A. Qodiriy*) 5. Nega otam uzatgani chiqmadi? (*Cho'lpon*) 6. To'y bo'lsa, sizga nima g'am, ayajon? Siz ham taralani vang qo'yib yuravermaysizmi? (*Hamza*) 7. Jondan kechmasang, jonona qayda, tog'ga chiqmasang, do'lana qayda? (*Maqol*) 8. Ayol zotining bosh-adog'i zarga o'ralgani bilan, o'zi yomon bo'lsa, kimga keragi bor? (*T. Murod*) 9. Unsin, bu oila qanday? Ketasanmi yo bu yerda qola turasanmi? (*Oybek*) 10. Dunyoda ilmdan ortiq ham lazzatli shirin ne'mat bormi? (*Hamza*) 11. Obbo, xamiri achimagan-ey, tusha qolmaysanmi endi!?! (*N.Safarov*) 12. Qanday qilib siz bilan mening dilim bir bo'lsin! Hech qachon bir bo'lolmaydi. (*P. Tursun*) 13. Tut yemaymizmi? (*A. Qahhor*) 14. Qolaversa, o'zimizning shoir bobomiz Boborahim Mashrabning haq, haqiqat, adolat haqidagi g'azallarini kim bilmaydi? (*K. Yashin*) 15. Odam bolasi nimalarga ko'nmaydi? (*P. Tursun*) 14. Bu deyman, yo'li shunaqamas-ku, xo'jayin, dangal kirib kelavermaysizmi? (*A. Muhiddin*)

357-mashq. Berilgan darak gaplarni so'roq gapga aylantiring. So'roq gap hosil qiluvchi vositalarni belgilang.

1. Rustam anhor bilan hovuz o'rtasidagi supaga joy solib berdi-da, o'zi qayoqqadir ketdi (*H. Nazir*) 2. Siz ham, sen ham bir og'izdan chiqadi. 3. So'z ko'p yerda ma'no kam bo'ladi. 4. So'z so'zlashda va undan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. (*A. Qodiriy*) 5. Yo'lchi boshini ko'tarib cholga va atrofga dadilroq qaray boshladi (*Oybek*) 6. Yilning

ikki xil hisobi bor. Birida Quyoshning, ikkinchisida Oyning ko‘rinishi asos qilib olinadi. 7. Markaziy Osiyolik olimlar ham jahon madaniyati va faniga munosib hissa qo‘shganlar. 8. Nomingga munosib, xuddi quyoshdek abadiy yashaysan, Mustaqil O‘zbekiston!

Buyruq gap

358-mashq. Misoldagi buyruq gaplar qanday ma’no ifodalayotganligini ayting. Gaplarning kesimi qaysi mayl shaklida ekanligini izohlang.

1. Oysara, tirik yetim qilmang og‘lingizni! (*O‘. Hoshimov.*)
2. Yaxshi so‘zlashni odat qil, chunki tili shirin odamning do‘sti ko‘p bo‘ladi. (*Hadis*)
3. Bo‘pti, yaxshi.. Sen oldinda borasan, boshlovchi bo‘lib.. (*H. Nazir*)
4. Qo‘shni, bemalol bo‘lsa, bizni xoli qo‘ysangiz! (*Uyg‘un*)
5. Yaxshilik qil, lekin maqtanib uni yuvib yuborma (*F. Musajonov*)
6. – Iltimos, siz qoling, – dedi Gavhar yana yalinib. (*O‘. Hoshimov*)
7. Qo‘rqmang, hech narsa bo‘lgani yo‘q. Yuz-ko‘zi sal shilingan xolos. (*G‘ayratiy*).
8. – Qani, jo‘nadik! – u ko‘tarinki bir vaziyatda qo‘llarini qovushtirdi. (*S. Anorboyev*)
9. Chaqir bobongni, tez bo‘l (*Oybek*)
10. – Erta bilan yo‘lga chiqaylik. – Ma’qul, – dedi Me’mor. (*Mirmuh-sin*)
11. Oyijon, bizdan xavfsiramay qo‘ya qoling, aytganingizni qilamiz, sizni qiynamaymiz. (*H. Nazir*)
12. Loqal bu baxtsiz singlingiz uchun birgina bosh og‘ritsangiz-chi. (*A. Qodiriy*)
13. Bolalaring orzusini ko‘r, topganing to‘yga, yaxshiliklarga buyursin! (*N. Safarov*)
14. Yashasin mustaqillik! Yashasin hurriyat!

Gapning his-hayajonga ko‘ra turlari

359-mashq. O‘qing. Undov gaplarni topib, turlarga ajrating: darak-undov, so‘roq-undov, buyruq-undov gaplar. Undov gaplarda his-hayajon qanday vosita yordamida ifodalanganini aniqlang.

1. Obbo azamat-ey, zap ajoyib yigit ekansan-ku! (*M. Hazratqulov*)
2. Muncha serpiching bo‘lib ketibsiz. Menda alamingiz bormi! (*Shuhrat*)
3. Meni qarg‘amang, qarg‘amang badbaxt qizingizni, onajon! (*Hamza*)
4. Bechora kampir bu shum xabardan adoyi tamom bo‘ldi-ku! (*S. Ahmad*)
5. Xalq tovushi tinimsiz guvullaydi: – Bu yoqqa chiq, itlar! (*Oybek*)
6. Xalq oldida mening obro‘yimni bir pul qilib kalaka qilishga kim huquq beribdi unga?! (*P. Tursun*)
7. Sharqiroq ariq yoqasida, o‘siq

yalpizlar orasida o‘tirib, ko‘klam quchog‘ida yastanib yotgan fusunkor dalaga suqlanib to‘yib bo‘larmikan?! (*N. Yoqubov*) 8. Behuda qon to‘kmoq, yurtni parchalamoqdan azim gunoh yo‘q! (*Oybek*) 9. – Kumushning ko‘nglini yaxshilab oching-lar, qizlar! (*A. Qodiriy*) 10. Ablah odam ekansan! – dedi imom. – Siz ham ahmoq mulla ekansiz! – dedi Safar bo‘zchi. (*A. Qodiriy*) 11. Beg‘alva yura olmaysanmi?! (*N. Safarov*) 12. Hamma urushdan qochsa, sen bu ajdahoning komiga o‘z ixtiyoring bilan bormoqchimisan?! (*P. Qodirov*) 13. Ha, yashshamagurlar! Bola emas, balo bular! Tegma gullarga! (*S. Nurov*) 14. Xudbin va dilozor kimsaning axir Og‘zi qon yirtqichdan qanday farqi bor?! (*A. Oripov*)

Sodda gapning tuzilishiga ko‘ra turlari

360-mashq. Matn va gaplarni o‘qing. Bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli sodda gaplarni aniqlang. Bir bosh bo‘lakli gaplarda eganing qo‘llanmaganligi sababini tushuntiring.

I. Akam chayla yoniga yetganimizda aravani to‘xtatib, eshak ustidan pastga irg‘idi. Biz ham birin-ketin pastga tushdik.

Uchovimiz ichkariga mo‘raladik. Chaylaning ichi o‘tin-cho‘pga, yem-xashakka to‘la edi. Akam makkapoyalarni o‘roq bilan qo‘zg‘ayotganida chaylaning ichi changib ketdi.

– Tashqariga chiqib turinglar, – dedi akam. – Eshakdan ham xabardor bo‘lib turinglar, aravani olib ketib qolmasin.

Chaylaning orqasiga o‘tdik.

– Alisher, qor odam yasaymizmi? – dedim men.

– Bo‘pti. Yur. Qayerda yasaymiz? – dedi Alisher.

– Huv, ana u yerda. (*O. Husanov*)

II. 1. Xurofotlarning puch, bema‘ni va zararli ekanini sodda tilda tushuntirish kerak. (*Oybek*) 2. Navro‘zda uy-joyni tozalaydilar. 3. Bugungi ishni ertaga qo‘yma. (*Maqol*) 3. Bahor. Hali yerlarda qor ko‘p. (*M. Alaviya*) 4. Demak, yolg‘onchilik kasaliga muhtalo bo‘lgan kishini rostgo‘y odamning qoni bilan davolasa bo‘ladi. (*X. To‘xtaboyev*) 5. Yurak, sensan mening sozim. (*U. Nosir*) 6. Kuzda tokni ko‘madilar.

361-mashq. O‘qing. Sodda yig‘iq va yoyiq gaplarni aniqlang. Ikki bosh bo‘lakli sodda yoyiq gaplarni yig‘iq gapga aylantirib ko‘chiring.

1. Qani, yur! (*X. To‘xtaboyev*) 2. Kelinoyim tuzalib ketdi. Keyin akam urushdan yarador bo‘lib qaytib keldi. (*P. Qodirov*) 3. Ertalabki shirchoyni bobom bilan birga ichdik. (*G‘ayratiy*) 4. Ahmad ko‘chaga chiqdi. Kun issiq, borliq lov-lov yonardi. (*F. Musajonov*) 5. – Chida, o‘g‘lim, chida. Shaharga tushaverishda buloq bor. O‘shandan ichasan. Biz ham ichamiz. Ulovlarni ham sug‘oramiz. (*Sh. Xolmirzayev*) 6. Hamroboy ota hasrat bilan o‘rikning g‘adir-budur tanasini qo‘llari bilan ohista siypaladi. (*S. G‘afurov*) 7. O‘qishlar ham tugadi. Karim ertaga buvasi bilan tog‘ga jo‘naydi. (*S. Anorboyev*) 8. – Ko‘ylaging juda chiroyli ekan, ortoqjon. (*M. Murodov*)

Gap bo‘laklari

Bosh bo‘laklar

362-mashq. O‘qing. Gaplarning ega va kesimini topib, qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting. Gaplarni ikkinchi darajali bo‘laklarni tushirib o‘qing. Bosh bo‘laklarning gap tuzilishidagi ahamiyatini tushuntiring.

1. Saman qo‘rquv ichida butun kuchini to‘plab yana oldinga sakradi. (*N. Fozilov*) 2. Unsin uy ishlarida kampirga ko‘maklashadi. (*Oybek*) 3. Biz Vatanni sevmog‘ni dono bobolarimizdan o‘rganmog‘imiz kerak. (*X. Davron*) 3. Toshkent ko‘chalaridan avtobus, tramvaylar qatnaydi. (*M. Hamidova*) 4. Vodil – qadimdan bozori qishloq. Bu yerda har dushanba kuni nihoyatda gavjum, tirband bozor bo‘ladi. (*K. Yashin, Hamza*) 5. Toshkent do‘stlik, tinchlik, birodarlik shahri sifatida butun dunyoga mashhurdir. (*M. Hamidova*) 6. Otasining hunarini yaxshi egalab olgan bu yigitcha uchun qishloqda ish ko‘p edi. (*S. Ahmad*) 7. Ko‘nglimga yaqin bironta do‘stim yo‘q. Hayotimdagi birdan-bir ilinjim, ovunchog‘im – ish. (*S. Nurov*) 8. Maktabimizning oldida kattakon do‘nglik bor. (*E. Raimov*)

Kesim

363-mashq. 1-topshiriq. Berilgan so‘z bog‘lanmalarini o‘qing. Ularning tugal fikr ifodalay olmasligining sababini ayting.

1. Kuzning birinchi oyida nok, olma, shaftoli, uzum va anorlar g‘arq 2. Uchinchi sinf o‘quvchilari olmazorga 3. Akbar shaxmat to‘garagiga 4. Boqi G‘azalkentda G‘azalkent bilan Toshkent

orasida chiroyli baland bir tepalik 5. Buxoro – juda qadimiy va mashhur 6. Navro‘zda sumalak, halim

2-topshiriq. Ko‘pnuqtalar o‘rniga mos keladigan so‘zlarni qo‘yib o‘qing. Tugal fikr ifodalanishini ta‘minlagan bu so‘zlar qaysi gap bo‘lagi vazifasini bajarayotganini ayting.

3-topshiriq. Birinchi va ikkinchi topshiriqni bajarish asosida kesimning gapdagi o‘rni va fikr ifodalashdagi ahamiyatini tushuntiring.

364-mashq. Quyidagi so‘zlarni kesimlik shaklida qo‘llab gap tuzing.

Namuna: *olmoq – Ol. Oldim. talaba – Talabaman.*

Kelmoq, yugurmoq, olmoq, talaba, haydovchi, aqlli, xursand, beshta, kim, qayerda.

Gap birgina kesimdan ham iborat bo‘lishi mumkinmi?

365-mashq. Quyidagi parchani o‘qing. Birgina kesimdan iborat gaplarni ko‘rsating.

Kanizak zavq qilib kuldi.

– Majlisda gap so‘rashsa xuddi shu gapni ayting, Sidiqjon aka! Aytasizmi?

– Aytaman.

– Aytsangiz xo‘p kulgi bo‘lar edi. Mondalab aytoilmaysiz. Odam shoshib qoladi.

– Shoshib qolmayman.

– Shoshasiz.

– Hech!

– Qani, qanaqa qilib boshlaysiz? (*A. Qahhor*)

366-mashq. Matni o‘qing. Gaplarning kesimini topib, fe‘l kesim va ot kesim guruhlariga ajratib yozing.

Ko‘cha yuziga katta, dang‘illama uy tushgan-u, hali bitmagan edi. Ko‘chadan o‘tganlar: “Yaxshi uy bo‘larkan-u...” deyishar, uning ko‘p-dan beri chala yotganini ko‘rib: “Biroq ko‘chaning husnini buzib turgani yomon bo‘libdi-da”, – deb achinardilar.

Bilmasangiz bilib oling, ko‘cha husnini buzib turgan bu uy Husanlarniki edi. Mana, bugun uyning kam-ko‘stini tuzatish uchun hasharchilar kelishgan. Ular orasida kechagina Husanning o‘zi borib chaqirib kelgan Iso bobo ham bor. Iso bobo shu qishloqda imorat ustasi. U kimgap, o‘nta gapirganingda zo‘rg‘a bitta og‘iz ochib javob qaytaradi. Xushi kelib tursa, sergap bo‘lib ketadigan odati ham bor. Boshqa hasharchilar tomida o‘zlari bilan o‘zlari ovora. Ular deyarli yoshlar edi. Nima ham bo‘ldi-yu, hasharchilar o‘z o‘g‘illarini maqtay ketishdi. Biri o‘g‘lini odobli desa, biri o‘g‘lini qo‘rqmas, kuchli deb maqtar edi. Ba‘zan ular tomdan:

– Nima deysiz, Iso bobo, shundaymi? – deyishsa, Iso bobo ham hech mulohazaga bormay, ensasi qotib:

– Shunday! – deb qo‘ya qolardi. (*N. Fozilov*)

367-mashq. Gaplardagi kesimni aniqlab, sodda kesim va murakkab kesimga ajratib yozing. Murakkab kesimlarni murakkab fe‘l kesim va murakkab ot kesimga ajratib, tuzilishini tushuntiring.

1. Bu yer bo‘lsa dengiz sathidan ikki-uch ming metr baland, havo ancha siyrak. (*S. Anorboyev*) 2. Ertalab soat yettilarda yotoqxona oldiga usti yopiq yuk mashinasi keldi. (*S. Siyoyev*) 3. Charos allaqanday o‘ychan, jizzaki bo‘lib qoldi. (*O‘. Hoshimov*) 4. Baland, serbezak shiftda, oltin suvi yugurtirilgan kuchli zanjirda kattakon qandil hisobsiz chiroqlari bilan gavharday tovlanib turar edi. (*M. Ismoiliy*) 5. Ahmad Husayn yana bir necha kun uydan qo‘zg‘almadi. Uning ermagi yolg‘iz kitoblar bo‘ldi. (*Oybek*) 6. Omon mustaqil fikrli, cho‘rtkesar, uzoqni ko‘ra oladigan, tadbirkor, yaxshi do‘st edi. (*S. Karomatov*) 6. Biroq hayotning ravon yo‘lidan ko‘ra so‘qmog‘i ko‘p. (*S. Karomatov*) 7. Yer! Qanday boysan, saxiysan, go‘zalsan. (*R. Fayziy*) 8. Qimirlagan jon yo‘q emish. Behishtday bir olam emish. (*T. Murod*) 9. Sharofatxon bir katta kosada semiz qo‘y go‘shidan pishirilgan sho‘rvadan keltirdi. (*Oybek*) 10. Qishloqda birovdan kaltak eyish azal-azaldan er yigit uchun or sanaladi. (*N. Norqobilov*) 11. Saroy vaziri podsho huzurida o‘zini sokin va betakalluf tutgan hakimni birinchi marotaba ko‘rishi edi. (*M. Osim*) 12. Arra ham qilichdekkina ekan. (*X. To‘xtaboyev*) 13. Boshlang‘ich ta‘lim bilimlar poydevori hisoblanadi. (*“Fan va turmush” jurnalidan*) 14. O‘qish tugarmidi? O‘la-o‘lguncha o‘qish kerak. (*Uyg‘un*)

368-mashq. Berilgan gaplardagi kesimlarning mustaqil yoki nomustaqilligiga ko‘ra turini ayting.

1. Yerda ham xosiyat ko‘p.. Yerga cho‘pni tiqib qo‘ysang, ko‘karib, qulochga sig‘mas daraxt paydo bo‘ladi. (*Oybek*) 2. Boylik botqoqqa o‘xshagan narsa. Domiga bir tortsa, bir umrga g‘arq bo‘lib ketishing turgan gap. (*F. Musajonov*) 3. Do‘stim, hayotga chuqurroq qarasangiz, to‘g‘ri bilan egrini ayira bilasiz.. (*Oybek*) 4. Bir tup tok eksang, bir tup tol ek. (*Maqol*) 5. To‘g‘ri bo‘lsang, o‘sib borib, gul bo‘lasan, egri bo‘lsang, o‘sib borib, kul bo‘lasan. (*Maqol*) 6. Dadamga mening arzimni aytsangiz, albatta, qaytarmas. (*A. Qodiriy*) 7. Siz shu yo‘sinda yura bersangiz, erta-indin o‘g‘ildan ajralasiz. (*A. Qodiriy*) 8. Sen xafa bo‘lsang, men ham xafa bo‘laman-da, qo‘zichog‘im. (*H. Nazir*)

Ega

369-mashq. Kesimlardagi shaxs-son qo‘shimchasiga asoslanib nuqtalar o‘rniga egani qo‘yib yozing.

1. ... bo‘lgan voqeani aytib berdim. (*T. Ashurov*) 2. Ba‘zan qiziqsinib, ... ham kaptar otib ko‘rmoqchi bo‘lardik. (*Shukrullo*) 4. Nimaga xafasan? Mana, ... sog‘-salomat qaytdim. (*Oybek*) 5. Nega yongan yuragimga yana ... ham zahar sochasan! (*A. Qodiriy*) 6. ... tiriklik to‘g‘risida o‘ylayman. to‘qlikka sho‘xlik qilasanlar. (*A. Qodiriy*) 7. ... do‘st-dushmani ajratib muomala qilgin. (*P. Tursun*) 8. ... ko‘prik qurish bilan qurilish materialini tanqisligidan uzil-kesil qutulamiz. (*A. Muxtor*)

Bajarilgan mashq asosida eganing gapdagi o‘rni va vazifasi haqida fikr bildiring.

370-mashq. Gaplardagi egani aniqlab, nima bilan ifodalanganini ayting.

1. Alisher bu katta bog‘ hovlining har bir burchagini tomosha qilib uzoq yurdi. (*Oybek*) 2. Sovliq oldinga qarab yurdi, qo‘zichoq orqasidan yugurdi. (*S. Anorboyev*)

3. Sen mening jonimni olgin,
Men sening darding olay,
Barcha sog‘lik senga bo‘lsin,
Barcha bemorlik menga. (*E. Vohidov*)

4. Otlar o‘z-o‘zidan asta-sekin yurib ketdi. (A. Qahhor) 5. Millatni uyg‘otish – uyg‘onganlarning vazifasi. (Cho‘lpon) 6. O‘tirganlar bir tebranib olishdi. (S. Ahmad) 7. Saxiy xor bo‘lmas, baxil behishtga kirmas. (Maqol) 8. Hozir uning horg‘in yuzidagi yumshoq jilmayish birdan so‘ndi. (A. Muxtor) 9. Saodatxonning ko‘ngli yorishib ketganligi chehrasidan ko‘rinib turar edi. (S. Zunnunova) 10. Tun sukunatida otlarning dupuri quloqqa baralla chalinardi. (P. Qodirov) 11. Uchovimiz ichkariga mo‘raladik. (O. Husanov)

Ot, olmosh, harakat nomi, otlashgan sifat, sifatdosh, son, taqlid so‘z, iborani ega vazifasida qo‘llab gap tuzing.

Ega bilan kesimning shaxs-sonda mosligi

371-mashq. Gaplarni yig‘iq gap tarzida ko‘chirib, ega va kesimning shaxsi va sonini ayting, ularning shaxsda moslashuvini tushuntiring.

1. Men bo‘lgan voqeani aytib berdim. (T. Ashurov) 2. Sen ularga ruhiy oziq berasan, men moddiy tomondan suyayman. (Shukrullo) 3. Sen hali ko‘p yashaysan. (X. Sultonov) 4. Birodari aziz, siz mening bu so‘zlarimdan xafa bo‘la ko‘rmangiz.. (A. Qodiriy) 5. Uyimiz oldida chuchmomalar o‘vardi. Biz ularni bo‘tako‘z deb terar edik. (Sh. Xolmirzayev) 6. Oftob oyim erining keyingi so‘zi bilan anchagina bo‘shashdi. (A. Qodiriy) 7. Siz qutlug‘ kunlarda yetib keldingiz, aziz birodarlar! (A. Muxtor)

372-mashq. Gaplarni o‘qing. Ega va kesimning sonda mosligini izohlang. Nima uchun ega ko‘plikni bildirganda kesimga -lar qo‘shilmaganligini tushuntiring.

1. Bola ingradi (A. Qahhor) 2. Ot yo‘rti (A. Qahhor) 3. Olqordan bir dehqon ketmon peshlatgani keldi (A. Qahhor) 4. Telefon jiringladi (A. Qahhor) 5. Shu yigit birdaniga uylanish taraddudiga tushdi (A. Qahhor) 5. U nemischani shu lavozimda turib o‘zicha o‘rgangan (A. Qahhor) 6. Saida sandiqni ochdi (A. Qahhor) 6. Mehmonlar juda charchagan edi. (A. Qahhor) 8. Otlar o‘z-o‘zidan asta yurib ketdi (A. Qahhor) 9. Chiroqlar o‘chdi (A. Qahhor) 10. Qattiq shamolga o‘rganmagan daraxtlar quladi (A. Qahhor) 11. Beshta otliq yetib keldi (A. Qahhor) 12. Bir lahza hamma kishi jim qolibdi (A. Qahhor) 13. Har

kuni son-sanoqsiz odam kirib chiqadi (A. *Qahhor*) 14. Ehsonni kuzatgani vokzalga ko‘p odam chiqdi (A. *Qahhor*) 15. Tepalikdagi baqate-rakdan gur etib ko‘tarilgan bir to‘p qarg‘a «qa-qug‘» deganicha to‘rt tomonga uchib ketdi (A. *Qahhor*) 16. Ota-onam katta tashvishga tushib qoldi (A. *Qahhor*) 17. – Ota, bular cho‘pon emas! – dedi Badia. (*Mirmuhsin*) 18. O‘ttiz sakkiz kishining ko‘pi ot ulovli o‘rta dehqon bo‘lsa kerak. (A. *Qahhor*) 19. Bodring issiqsevar, yorug‘sevar va namga talabchan o‘simlik. («*Fan va turmush*» jurnalidan) 20. Meni sergaklanib kuzatayotgan haligi kulrang jonivorlar it emas edi. (P. *Qodirov*)

373-mashq. Gaplarni o‘qing. **-lar** qo‘shimchasining kesimga ortiqcha, noo‘rin qo‘shilganligini qoida asosida tushuntiring.

1. Namangan, toshkent, qashqadaryolik san‘atsevar talabalar faxrli uchinchi o‘ringa sazovor bo‘ldilar (“*Ma‘rifat*” gazetasidan) 2. Musobaqada 1-, 2-, 4-, 5-, 9-, 10-, 11-, 15-, 31- o‘rta maktablardan 64 nafar sportchilar ishtirok etdilar. (“*Ma‘rifat*” gazetasidan) 3. Tinglovchilar zamonaviy o‘t o‘chirish mashinasini ishlatish jarayoni bilan tanishmoqdalar (“*Ma‘rifat*” gazetasidan) 4. Bu gal ham qizg‘in bahslar ostida o‘tgan «Yil o‘qituvchisi – 2001» ko‘rik tanloviga turli viloyatlardan kelgan 14 nafar sara o‘qituvchilar qatnashdilar (“*Ma‘rifat*” gazetasidan) 5. Bola xalqi har bir so‘zing, har bir xatti-harakating, yurish-turishingdagi kichik xatolarni ham tez ilg‘ab oladilar. («*Boshlang‘ich ta‘lim*» jurnalidan) 6. Dengizchilar safarlarining qolgan qismini Enrikesiz davom ettirishga majbur bo‘ldilar (“*Gulxan*” jurnalidan) 7. Shu sababli inglizlar ham raketalarni harbiy ishda qo‘llay boshladilar. (“*Gulxan*” jurnalidan) 8. Chiriyotgan o‘tlar suvda erib, to‘yimli muhit barpo qiladilar. (“*Jahon jug‘rofiyasi*” ko‘rsatuvidan) 9. Mamlakatimiz terma jamoasi Eronda o‘z tengqurlari bilan uchrashuv o‘tkazdilar. (“*Ma‘rifat*” gazetasidan) 10. Ikki guruhga bo‘linib, o‘quvchilar bu ishni bajarishga kirishadilar (“*Boshlang‘ich tahlim*” jurnalidan) 11. Sho‘r botqoqlar million yillar davomida o‘z qiyofalarini o‘zgartirib boradilar. (“*Jahon jug‘rofiyasi*” ko‘rsatuvidan)

Matbuot, radio, televideniya kesimga -lar qo‘shimchasi ortiqcha, noo‘rin qo‘shilgan 10 ta misol topib yozing.

Ega va kesim orasida tirening ishlatilishi

374-mashq. O‘qing. Ega va kesim orasiga qaysi qoidaga muvofiq tire qo‘yilganini tushuntiring.

1. O‘zbekistonning poytaxti – Toshkent. 2. 1-Sentabr – O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik bayrami. 3. Millatni uyg‘otish – uyg‘onganlarning vazifasi. (*Cho‘lpon*) 4. Maqsadimiz – o‘qish. 5. Aytilgan so‘z – otilgan o‘q. (*Maqol*) 6. O‘qish – hayotni tushunish. 7. Bir hafta – yetti kun. 8. Salomatlik – tuman boylik. 9. Bu – buloq suvi. 10. Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi. 11. Bulbul – sayroqi qush. 12. Maqsadim – o‘qituvchi bo‘lish.

375-mashq. Zarur o‘rinlarga tire qo‘yib ko‘chiring. Tireni qaysi qoida asosida qo‘yganingizni tushuntiring.

1. Navro‘z bahor bayrami. 2. El sog‘lig‘i yurt boyligi. 3. Olti karra olti o‘ttiz ol-ti. 4. U tajribali shifokor. 5. Bu qovun shirin. 6. Bolani televizor va internetga nazoratsiz topshirib qo‘yish katta xato. 7. Sog‘lom bo‘lishning muhim sharti sport bilan shug‘ullanish. 8. Bu majnuna Zaynab edi. (*A. Qodiriy*) 9. Talabalar soni yigirmata. 10. Yaxshi so‘z jon ozig‘i, yomon so‘z bosh qozig‘i. (*Maqol*) 11. Bu Yaponiyada chiqarilgan kompyuter. 12. Maktab ilm o‘chog‘i. 13. Boylikning eng yaxshisi ko‘ngil boyligidir. 14. Mana shu bizning qishlog‘imiz. 15. Mening orzularim ko‘p. 16. Botir ham haydovchi. 17. Har bir talabaning eng sharafligi, eng muqaddas burchi o‘qishdir. 18. Akam uchuvchi bo‘ldi.

Qanday hollarda ega bilan kesim orasiga tire qo‘yilmaydi?

Ikkinchi darajali bo‘laklar

To‘ldiruvchi

376-mashq. Matnni o‘qing. To‘ldiruvchilarni topib, turi va qanday ifodalanganini ayting. To‘ldiruvchini o‘zi bog‘lanib kelgan (boshqarayotgan) so‘z bilan birikma tarzida ko‘chiring.

Unsin uy ishlarida kampirga ko‘maklashadi. Bolalarni yuvintiradi, eski-tuski kiyimlarni yamab-yasqab, butun qiladi. Kechqurun sho‘rva, atala-umoch, moshxo‘rda kabi ovqatlarni pishiradi. Shokir ota boshliq

hammalari o‘rtada baham ko‘rishadi. Lekin qiz bularni ish deb hisoblamaydi.

Unsin otaning mehnatkashligini yaxshi biladi. U otaning ishini yengillashtirishni istaydi. Dastlab ip eshib, mumlab beradi. Mahsilarga shon qoqadi, shondan tushiradi, pardoalaydi, lok surkaydi. Ammo bu bilan otaning ishi yengillashtirmaydi. Unsin oilaga yordam berish chorasini ko‘p o‘ylaydi. Oxiri mahsi tikishni o‘rganishga qaror qiladi. U Shokir otadan shogirdlikka olishni so‘raydi. Ota avvaliga rozi bo‘lmaydi. Keyinchalik qizning intilishini ko‘rib, mahsi tikishni o‘rgatadi. Ota unga so‘zan, bigiz tutishni o‘rgatadi. Ziyrak qizning qo‘li darrov kelisha qoladi. (*Oybek*)

377-mashq. Vositasiz to‘ldiruvchilarni aniqlab, ularning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligini tushuntiring.

1. Azizim, qizingizning baxtini birovlarning ostonasidan qidirmang. (*A. Qahhor*) 2. Kim bilan kovlayman bu kanalni. Kanal kovlaydigan ketmonchilarimni olib ketishdi. (*I. Rahim*) 3. Xayol bilan bo‘lib, baliqni aylantirishni ham unutib qo‘yibman, bunday qaragam, seli chiqib jizillayapti. (*N. Fozilov*) 4. Ayrilganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri yer. (*Maqol*) 5. Sholining orqasidan kurmak suv ichadi. (*Maqol*) 6. Ehe, bu ko‘sa yerlar ham shunday gullab ketsinki, odamlar bir sayr qilishni orzu qilsin. (*Oybek*) 7. Yaxshini ham ko‘rdi, yomonni ham. Ichidan o‘ziga loyig‘ini tanlab oldi. (*J. Abdullaxonov*) 8. So‘rining ustida qushlarning chug‘ur-chug‘urini eshitib yotdim. 9. Birni kessang, o‘nni ek. (*Maqol*) 10. Bechoraning oh-u dodini tinglang, uni xushnud qiling. 11. Men yoshlikdan otamga qarashdim, poda boqdim, mashoq terdim. (*Oybek*) 12. To‘mtiq qoshlari, chaqnagan ko‘zlari bir ko‘rganni dovdiratib qo‘yardi. (*S. Ahmad*)

378-mashq. Vositasiz to‘ldiruvchilarni topib, belgisi yoki belgisiz tushum kelishigi shaklida ifodalanganlikni sababini tushuntiring.

1. Bo‘pti, qaynoq-qaynoq choy ich-da, borib yot. (*S. Ahmad*) 2. Qanisan, bolam? Manavi choyni ich. Dolchin solib damlaganman. (*S. Ahmad*) 3. Dehqonchilik qilib, paxta ham ekkanman. O‘toq qilganman, g‘o‘za chopganman, paxta terganman. (*N. Safarov*) 4. Paxtani terib

olaylik, dam olish bo'lsa qochmas. (*N. Safarov*) 5. Afandim, kim qurbonlikka qo'y so'ysa, qiyomat kuni qil ko'prikdan o'sha qo'yni minib o'tar emish, shu rostmi? ("*Latifalar*"dan) 6. Har vaqt maqtaydigan pichog'ini qinidan sug'urib, tarvuzni kesdi. (*Oybek*)

Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi,
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol. (*H. Olimjon*)

379-mashq. Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gaplardan murakkab vositasiz to'ldiruvchili sodda gap hosil qiling.

Namuna: – *Meni yolg'iz tashlab ketmang, – dedi Qumri Qamchiga yolvorib. – Qumri Qamchiga yolvorib o'zini yolg'iz tashlab ketmasligini so'radi.*

1. – *Meni yolg'iz tashlab ketmang, – dedi Qumri Qamchiga yolvorib. (H. G'ulom)* 2. *Juftlik yolg'iz kishilar orasidagina emas, yer yuzidagi har bir maxluqda ham bor.. – dedi Anvar. (A. Qodiriy)* 3. – *Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, – dedi Boqijon Baqoyev, yuzidagi terni artib. (A. Qahhor)* 4. – *Xudoyi taolo insonni hamma jonivorlardan azizu mukarram etib yaratdi, – dedi Me'mor o'rtadagi sukutni yo'qotib. (Mirmuhsin)* 5. *Hozir hosil uchun kurashning avji vaqti, – dedi O'ktam jiddiy tus bilan. (Oybek)* 6. *Odamning qo'lidan kelmaydigan hech bir ish yo'q, – dedi Saodatxon, – odam hamma narsadan zo'r. (S. Zunnunova)*

380-mashq. Vositali to'ldiruvchilarni aniqlab, grammatik shaklini izohlang.

1. *Bir soatlik tafakkur bir yillik toatdan afzal. (Oybek)* 2. *Bu asboblarni o'zlari ishlatadilar. Ketmon bilan yer chopadilar. Belkurak bilan daraxtlarning tagini yumshatadilar. (M. Ismoilijiy)* 3. *Yaxshiga yondash, yomondan qoch. (Maqol)* 4. *Erim deb tug'gan onangdan kechasanmi, yuzsiz? (A. Qodiriy)* 5. *Mulla Fazliddin yosh Boburga Navoiy haqida juda ko'p ajoyib hikoyalar aytib bergan edi. (P. Qodirov)* 6. *Tarlunga azonda besh kilo, tushda besh kilo, oqshomda ham shuncha arpa yem berdim. (T. Murod)* 7. *Olmada A belgili darmondori va ancha miqdorda S belgili darmondori bor. (K. Mahmudov)* 8. *Ona tabiatimizni hamisha toza, pokiza saqlash haqida qayg'urmog'imiz lozim. (Sh. Rashidov)*

9. Mast uchun gulzor bilan sho‘razor baravar – yanchib o‘taveradi. (*Oybek*) 10. Shoirlarda zehn va shuur o‘tkir, xayol dengizi esa teran bo‘ladi. (*A. Hakimov*) 13. Do‘sting uchun zahar yut. (*Maqol*) 14. Novvoy chol peshonasini boylab, tandirga o‘t qalayapti. (*S. Ahmad*)

Aniqlovchi

381-mashq. Matnni o‘qing. Aniqlovchilarni topib, turi, so‘rog‘i, ifodalanishi va qaysi so‘z bilan bog‘lanib kelganini ayting.

Bugun o‘n yetti kundirki, Bobur Hirotda Alisher Navoiy istiqomat qilgan muh-tasham Unsiyada yashaydi. Unsiyaning baland peshtoqlari, niliy gumbazi, oftobda jilolangan rang-barang koshinlari Boburga Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasini eslatadi. Lekin Unsiyaning to‘rt tomonidagi to‘rtta minorasi Ulug‘bek madrasasinikidan balandroq, binoning hajmi ham kattaroq edi. O‘zi bundan o‘n besh yilchagina oldin qurib bitirilgan, hali hamma bezaklari yap-yangi edi.

Unsiyaning ichidagi xonalardan bir qanchasini Navoiyning shaxsiy kutubxonasi egallagan. Bobur kutubxonadagi kitoblarni varaqlaganda ularning ba‘zi joylarida ulug‘ shoirning dastxatini ko‘rdi-yu, Samarqandda undan olgan maktubini esladi. Navoiyni ko‘rishga muyassar bo‘lolmagani uchun yuragini ma‘yus tuyg‘ular chulg‘adi. (*P. Qodirov*)

382-mashq. Matnni o‘qing. Sifatlovchi aniqlovchilarni topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Ona diyorimizga oltin kuz o‘zining barakali sepini yoydi. Salqin kechalar, ertalab maysa-ko‘katlar, dov-daraxtlar barglarini bezaydigan shudringlar kuz kelganidan darak bermoqda.

Tog‘ daralaridagi shaffof shalolalar sadosi pasaydi, asriy muzlar erishdan to‘xtadi, tog‘ havzalaridagi suvlar kamaydi. Na‘mataklar mevasi qizil rang oldi.

Bu davrda paxta dalalari ham o‘ziga xos manzara kasb etadi. Quyosh ufqdan bosh ko‘tarishi bilan uning zarrin nurlari g‘o‘za qator oralariga tushib, barglaridagi shudringlar rango-rang bo‘lib tovlanadi. Quyosh nuri tushgan barglar, kech ochilgan gullar, lo‘ppi-lo‘ppi paxtalar ko‘zni qamashtiradi. (*“Saxovatli fasl” matnidan*)

383-mashq. Quyidagi soʻzlardan sifatlovchili birikmalar tuzing. Shu birikmalardan 4-5 tasini qatnashtirib gap tuzing.

Keng, moviy, zilol, unumdor, birinchi, boshlangʻich, ertapishar, temir, zumrad, xushboʻy, muattar, duv-duv, toʻrt tup, bu, dukur-dukur, oqayotgan, toʻkilgan, qizil, tinch, mahoratli, serqatnov.

Osmon, tuproq, tovush, terak, gap, koʻcha, hayot, taʼlim, suv, oʻriklar, qiz, gul, hid, muallim, daryo, bahor, olma, qoshiq, hovli, aktyor.

384-mashq. “Goʻzal bahor”, “Daryo sohilida”, “Bogʻimiz”, “Toʻy” mavzularidan birida matn tuzing. Tuzadigan matningizda sifatlovchi aniqlovchilardan foydalaning.

385-mashq. Gaplardagi qaratqich aniqlovchilarni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birgalikda koʻchiring. Qaratqichli aniqlovchini qaysi soʻz turkumiga mansubligini aniqlang.

1. Safarali – bizning tegirmonchimiz. Juda qiziq yigit. (*A. Qahhor*)
2. Kambagʻalchilik odamning yorugʻ dunyodan boʻlgan umidini kemi-rib, zangday yeb tashlar ekan. (*A. Qahhor*)
3. Otning oyogʻiga yem tushsa, oyogʻi qotib qoladi. Paylari dirillab uchadi. (*T. Murod*)
4. E, e, bolam, togʻ havosiga nima yetsin. Turgan-bitgani shifo-ku. (*S. Anorbo- yev*)
5. Oʻnning ikkinchi darajasi yuz.
6. Qoʻy sogʻdirishning oʻziga yarasha gashti bor. (*Sh. Xolmirzayev*)
7. Bu qishloq suvini bir ichgan odam, tamom, shu yerda tub qoʻyib, ildiz otib ketmay iloji yoʻq. (*F. Nasriddinov*)
8. – Madaniyatli boʻlishning eng birinchi sharti – soddalik, tabiiylik, – deb yubordim. (*F. Musajonov*)
9. Maqtanganning uyiga bor, kerilganning toʻyiga bor. (*Maqol*)
10. Yaxshining soʻzi – qaymoq, yomonning soʻzi – toʻqmoq. (*Maqol*)
11. Bizning vazifamiz ilmni xalq tajribasi bilan boyitish va shu bilan birga xalq tajribasini ilmning elagidan oʻtkazishdir. (*A. Qahhor*)

Qaratqich va qaralmish deganda nimani tushunasiz?

386-mashq. Oʻqing. Gaplardagi izohlovchilarni topib, izohlanmish bilan birga koʻchiring va izohlovchining maʼnosini tushuntiring.

1. Usta Olim oʻz uyiga doʻkon qurgan ekan, ginalab yurmasin, deb fotihaga kelgan edim. (*A. Qodiriy*)
2. Mahallada, shoir Shukrullo taxta

imorat qurib, ko‘chamizning husnini buzdi, unda did yo‘q ekan-ku, degan gap tarqalibdi. (*Shukrullo*) 3. Butun borliq og‘ir uyquga cho‘mganday. Faqat Begmat boyo‘g‘ligina uxlayolmasdi. (*O‘. Usmonov*) 4. Do‘stining dov-daragini surishtirish uchun Qoratoy temirchi yelib-yugurdi. (*Oybek*) 5. O‘zbek sistemaviy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi professor Abdulhamid Nurmonovning nomi bilan bevosita bog‘liq. (*“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali*) 6. Biz o‘zimiz yashab turgan mamlakatni ona-Vatan deb ataymiz. (*M. Hamidova*) 7. Qo‘qonda nomerda bir o‘ris injener bilan tanishdim. (*Oybek*) 8. Bilasan-ku, G‘anijon akam mo‘min-qobil, mehnatkash, zehni baland yigit edi. (*Oybek*) 9. Saodat xola bir bo‘yracha joydagi jo‘xorizordan uch-to‘rtta so‘ta olib kelgan edi. (*H. Nuriy*) 10. Soli sovuq mingboshining o‘ng qo‘li bo‘lsa, Juman pismi Soli sovuqning o‘ng qo‘li. (*M. Ismoiliy*) 11. Orolni asrash komitetining tashabbusi bilan O‘zbekiston melioratsiya va suv xo‘jaligi vaziri K. Sapaev bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. (*Gazetadan*) 12. Xolasi chevar-jomado‘z edi. (*Oybek*) 13. Hovli eshigidan yosh-yosh o‘g‘il va qiz bolalar chuvullashib chiqishdi. (*Oybek*) 14. Yubiley komissiyasining raisi – bosh injener Umrzoq minbarga chiqdi. (*S. Ahmad*) 15. Ko‘prikdan qochib ketayotgan oxirgi soldatlar orasida nemis kapitanining mundiri ko‘rinib koldi. (*I. Rahim*) 16. Norin daryosi tog‘ oralaridan buralib, ko‘pirib oqib chiqyapti. (*S. Ahmad*) 17. Men “Tafakkur” jurnalini sevib mutolaa qilaman. 18. Navoiy ko‘chasi tun qo‘ynida g‘oyatda so‘lim edi: behisob chiroqlar yulduzdek miltirab yonib yotibdi. (*Mirmuhsin*) 19. Ular Kamoliddin Behzod nomidagi Rassomlik va dizayn institutiga imtiyozli tarzda, imtihonsiz qabul qilinadilar. (*Gazetadan*) 20. Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat o‘z vatandoshlarini zamonaviy bilimlarni puxta egallash va ilg‘or xalqlar qatoridan o‘rin olishga chaqirgan.

387-mashq. Berilgan namunalar asosida izohlovchili birikmalarga besh-oltitadan misol toping. Topgan misollaringizni qatnashtirib 4-5 ta gap tuzing.

- 1) direktor Qodirov, professor Ne‘matov, ...
- 2) qirg‘iz ayol, o‘zbek shoiri, ...
- 3) ayol qo‘shiqchi, erkak shaxmatchi, ...
- 4) oshpaz Mamat, Nodir duradgor, shoir Abdulla Oripov, ...
- 5) Salim chaqqon, Halim puchuq, Ahmad kalla, ...
- 6) Baykal ko‘li, Zarafshon daryosi,

7) “Yoshlik” jurnali, “Ma’rifat” gazetasi, ...

8) Navoiy ko‘chasi, Muqimiy nomidagi teatr, ...

Hol

388-mashq. Gaplarni o‘qing. Hollarni topib, quyidagicha tahlil qiling: 1) so‘rog‘i, 2) qaysi gap bo‘lagiga tobelanib kelayotganligi, 3) ma’nosiga ko‘ra turi, 4) qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligi va grammatik shakli, 5) tuzilishiga ko‘ra turi.

Namuna: *Qishloqda birorta qimir etgan jonivor ko‘rinmaydi.* – *Qishloqda* – hol, qayerda? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, kesim vazifasidagi *ko‘rinmaydi* so‘ziga tobelanib kelgan, o‘rin holi, o‘rin-payt kelishigidagi ot bilan ifodalangan, sodda.

Hozirgina yomg‘ir yog‘ib o‘tgani uchun dov-daraxt yaproqlari yaraqlaydi. – *Hozirgina yomg‘ir yog‘ib o‘tgani uchun* – hol, nima uchun? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, kesim vazifasidagi *yaraqlaydi* so‘ziga tobelanib kelgan, sabab holi, *-gani* shaklidagi sifatdoshga *uchun* ko‘makchisini qo‘shish bilan hosil bo‘lgan, kengaygan birikma bilan ifodalangan murakkab hol.

1. Yo‘lchi nafasini rostlash uchun eshikka chiqdi. (*Oybek*) 2. Ahmad ko‘chaga chiqdi. Kun issiq, borliq lov-lov yonardi. (*F. Musajonov*) 3. Vaqt xuftondan o‘tgandan keyin Umurzoq ota o‘zini ancha bardam his eta boshladi. (*D. Nuriy*) 4. Uch kunlik emas, kamida bir haftalik oy tog‘lar ortidan sekin ko‘tarilib kelardi. (*O. Yoqubov*) 5. Kech kirgani uchun sovuq yana ham zo‘raygan, izg‘irin yuz-ko‘zlarni ayovsiz chimchilardi. (*O‘. Usmonov*) 6. Otabek shoshib tokchadan xitoyi norin tovoqni oldi. (*A. Qodiriy*) 7. Zarafshon vodiysining ob-havosi juda beqaror, bir kunda yuz marta o‘zgaradi. (*Sh. Toshmatov*)

Savollar:

1. Hol qanday gap bo‘lagi?
2. Hol qaysi so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Hol qaysi gap bo‘lagiga tobelanib keladi?
3. Holning qanday ma’no turlari bor?
4. Hol qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi?
5. Hol qanday grammatik shakllar bilan ifodalanadi?
6. Holning tuzilishiga ko‘ra qanday turlari bor?

389-mashq. Gaplarni o‘qing. O‘rin va payt hollarini topib, ifodalanishini tushuntiring.

1. O'rikzorda qizil ko'ylakli bir ayol ko'rindi. (*P. Tursun*) 2. Tarlonga azonda besh kilo, tushda besh kilo, oqshomda ham shuncha arpa yem berdim. (*T. Murod*) 3. Zargishloqda har kuni bir yangilik, har kuni bir mo'jiza yuz berardi. (*S. Ahmad*) 4. Abdumajidlar, Zarif ota taxmin qilganidek, o'n ikkidan ancha oshganda kelishdi. (*O'.Usmonov*) 5. Tog'dan sovuqqina yel esardi. (*P. Tursun*) 6. Egri-bugri shoxlari butun hovlini tutgan katta nashvati daraxti tagida bir to'da bolalar o'tirishibdi. (*F. Nasriddinov*) 7. Kishi qarigandan keyin kindik qoni to'kilgan joyini qo'msab qolarkan. (*B. Rahmonov*) 8. Dovondan o'tib olishsa, u yog'i oson. Katta tosh yo'lga chiqishadi-yu, shaharga bexatar yetib olishadi. (*M. Ismoilijoy*) 9. Murod quyosh yoyilganda turdi. (*T. Ashurov*)

390-mashq. Sabab va maqsad hollarini topib, ifodalanishini tushuntiring.

1. Kambag'al dehqonlarning qancha-qancha ziroatlari suvsizlikdan qurib ketgan. (*H. Nosirova*) 2. Issig'im balandligidan suv ustiga suv ichar edim. (*M. Ismoilijoy*) 3. Saidg'ozini o'tirganlarning diqqatini tortish uchun tomoq qirib yo'taldi. (*S. Anorboyev*) 4. Qishlog'imiz katta bo'lmagani uchun doktorxona yo'q. Ammo apteka bor. (*A. Ko'chimov*) 5. Maqol fikrni ixcham, lo'nda, obrazli qilib berganligi sababli uzoq yodda saqlanadi. 6. Minglab kishilar suvning yo'lini to'sish maqsadida g'ov va dambalar qurdi. (*"Fan va turmush" jurnalidan*) 7. Raketalar tufayli biz Quyosh sistemasini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldik. (*"Fan va turmush" jurnalidan*) 8. O'tgan yil bahorda qurtga barg kesgani tutga chiqdim. (*A. Qahhor*)

391-mashq. Vaziyat va miqdor-daraja hollarini topib, ifodalanishini tushuntiring.

1. Ko'chalar qanotidagi ariqlarda zilol suvlar sharqirab oqib turibdi. (*L. Ergashev*) 2. Nazokatning yuzi bo'zdek oqardi. (*A. Muxtor*) 3. Uy-ro'zg'orga ham epchil: yaxshi kiyinadi, yaxshi yeydi. O'n kulib, bir gapiradi. (*Oydin*)

4. Derazamning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'lib gulladi. (*H. Olimjon*)

5. Davron bir necha marta narkoz ta'sirida bo'ldi, ikki marta operatsiya qilishdi. (*T. Rustamov*) 6. Oydinda chiroyli yiltiragan chillaki luchchak shaftolilar duv-duv to'kildi. (*Oybek*) 7. Bu hazildan faqat Risolat kuldi. Dangal va chiroyli kular edi. (*F. Musajonov*) 8. Namxush havoda qish

uyqusini tark etgan tuproqning mayin isi ohista qanot qoqadi. (*O‘. Ho-shimov*) 9. Adolat xamirni yoyib, soch tolasiday ingichka, chiroyli qilib kesib berdi. (*S. Zunnunova*) 10. Gapni kam so‘zla, ishni ko‘p ko‘zla. (*Maqol*)

392-mashq. Gaplardagi sifatlovchi aniqlovchi va vaziyat hollarini aniqlab, farqini tushuntiring.

1. Bunaqa chiroyli qizni umrim bino bo‘lib ko‘rmaganman. (*O‘. Ho-shimov*) 2. Gulandom «siz bilasiz» degan kabi, qoshi bilan chiroyli imo qildi. (*Oybek*) 3. Hamma yoq serqatnov, ravon yo‘l, hammayoq adil imoratlar, qasrlar, bog‘lar, fontanlar.. (*H. G‘ulom*) 4. Kechasi charx-palak yangi joyga ko‘chirildi va tongotarda dashtga bir jo‘yak suv ravon oqdi. (*I. Rahim*) 5. Narigi qirg‘oqdagi mevazorlar-da o‘rik, olcha, olma, shaftolilar qiyg‘os gullab yotibdi. (*H. G‘ulom*) 6. O‘choqdagi o‘tni astasekin kul bosdi. (*Oybek*) 7. Yarim soatdan keyin haligi yigit, yaydoq ot ustida o‘qday uchib o‘tdi. (*A. Muxtor*)

393-mashq. “O‘qish kitobi” darsliklaridan holning har bir ma’no turiga ikkita-dan misol topib yozing.

Gapning uyushiq bo‘laklari

394-mashq. Gaplarni o‘qing. Uyushiq bo‘laklarni topib, qanday so‘roqqa javob bo‘lishini, gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini ayting.

1. Narigi qirg‘oqdagi mevazorlarda o‘rik, olcha, olma, shaftolilar qiyg‘os gullab yotibdi. (*H. G‘ulom*) 2. Usta temirni cho‘g‘ga solib bolg‘alaydi, cho‘zadi, yassilaydi. (*Oybek*) 3. Tuvaklarda oq, sariq, pushti gullar ochilib yotibdi. (*S. Siyoyev*) 4. Sidiqjon bolaligi o‘tgan tor ko‘chalarni, qishloq, anhor bo‘ylarini, sigir boqqan joylarini borib ko‘rdi. (*A. Qahhor*) 5. Tomlarda, daraxtlarda qor ancha qalinlashgan. Yana shiddat bilan yog‘ishda davom etadi. (*Oybek*)

Savollar:

1. Uyushiq bo‘lak nima?
2. Gapning qaysi bo‘laklari uyushib kelishi mumkin?

395-mashq. Quyidagi gaplarni bitta uyushiq bo‘lakli gapga aylantirib yozing. Topshiriqni bajarish asosida gap bo‘laklarini uyushtirishning nutqdagi ahamiyatini tushuntiring.

I. 1. Kuzda turnalar issiq o‘lkalarga uchib ketadi. 2. Kuzda laylaklar issiq o‘lkalarga uchib ketadi. 3. Kuzda qaldirg‘ochlar issiq o‘lkalarga uchib ketadi.

II. 1. Navro‘zda sumalak pishiriladi. 2. Navro‘zda halim pishiriladi. 3. Navro‘zda ko‘k somsa pishiriladi. 4. Navro‘zda kulcha pishiriladi. 5. Navro‘zda lochira pishiriladi.

III. 1. Hozirgi davr o‘qituvchisi axborot texnologiyalarini yaxshi bilishi lozim. 2. Hozirgi davr o‘qituvchisi yangi pedagogik texnologiyalarni yaxshi bilishi lozim. 3. Hozirgi davr o‘qituvchisi xorijiy tillarni yaxshi bilishi lozim.

396-mashq. Gaplarni o‘qing. Uyushiq bo‘laklar qanday vositalar yordamida bog‘langanligi va ular orasida tinish belgilarining nima uchun qo‘yilganligini izohlang.

1. Xolisa taqsimchalarda qora mayiz, mag‘iz, dudlangan qazi keltirib qo‘ydi. (*S. Nurov*) 2. Bora-bora cho‘l sahroga aylandi, odamlar va otlarning suvga ehtiyoji osha bordi. (*M. Osim*) 3. Bahor ariq bo‘yiga o‘tirib, pomidor, bodring va piyoz yuvdi. (*Sh. Rashidov*) 4. Ahmadjon bilan Mannon bu nogahoniy kulgidan dovdirab qolishgan edi. (*Y. Shamsharov*) 5. Ellikdan ortiq duradgor faqat belkurag-u ketmonga sop yasash bilan ovora. (*S. Ahmad*) 6. To‘yga aytish juda qiziq, ammo ayni paytda juda serdaxmaza yumush ekan. (*F. Musajonov*) 7. Opa bir-ikki marta gapga og‘iz juftladi-yu, gapirolmadi. (*S. Ahmad*) 8. Hoshimjon ro‘paradagi akas daraxti tagiga gazeta yozdi-da, qo‘lidagilarni qo‘ydi. (*O‘. Usmonov*) 9. Ularni odamlar nigohidan na quyuq bog‘lar, na tun zulmati, na biron ovloq go‘sha yashira oladi. (*O. Muxtor*) 10. Haqqush bo‘lsa to‘xtovsiz sayrar, yoz shabadasida uning ovozi goh sekin, goh baralla eshitilardi. (*O‘. Hoshimov*) 11. Nimaiki maslahat yoki yordam kerak bo‘lsa, biz xizmatimizga hozirmiz. (*Shuhrat*)

397-mashq. Uyushiq kesimlarni aniqlang. Kesimni shakllantiruvchi vosita (kesimlik qo‘shimchasi, bog‘lama)lar uyushiq kesimning oxirgisi yoki har biriga qo‘shilganligi sababini tushuntiring.

1. Qoratoy qizil cho‘g‘ bo‘lgan temir parchasini bolg‘a bilan gurs-gurs urar, yassilar, cho‘zar, qayirar edi. (*Oybek*) 2. Kumush titrar edi, ko‘karar edi, to‘lg‘anar edi... (*A. Qodiriy*) 3. Yosh-u yalang, qari-yu qartanglar bir-birlariga gap otishadi, askiya qilishadi, kuylashadi. (*M. Ismoiliy*) 4. Komila kelishgan, ko‘zlari jozibali, aqlli, latofatli, sho‘x edi. (*Oybek*) 5. Munis tengqurlariga o‘xshamasdi: juda erka edi, serjahl edi. (*O‘. Umarbekov*) 6. Qarindoshim, tug‘ishqonim, ulkan qozoqsan o‘zing. (*G‘. G‘ulom*) 7. Ertalab yomg‘ir tingan, havo naqadar muloyim va orombaxsh. (*J. Abdullaxonov*) 8. Yer! Qanday boysan, saxiysan, go‘zalsan. (*R. Fayziy*) 9. Odamning ko‘ngli nozik bo‘ladi: bir kichkina narsa bilan yo sinadi, yo ko‘tariladi. (*M. Ismoiliy*)

398-mashq. Berilgan gaplarning egasini toping. Ularning gapdagi qaysi bo‘lakka bog‘lanayotganini ayting.

1. Inson uchun havo, quoyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, Vatan ham shunchalik mo‘tabardir. (*X. Davron*)
2. Samovar to‘la odam. Ashula, askiya, hangoma, qahqaha avjida. (*K. Yashin*)
3. Odamlarda g‘ayrat va tashabbus yashnab ketdi. (*A. Qahhor*)
4. Ilg‘orlik bilan qoloqlik, samimiylik bilan hasad, oliyjanoblik bilan tubanlik to‘qnashadi. (*Shukrullo*)
5. Har bir qozoqning o‘tovida qimizi, qimroni yoki ayroni doim osig‘liq turadi. (*M. Muhammadjonov*)

Uyushgan ega bir-biri bilan qanday vositalar orqali bog‘lanadi?

399-mashq. Berilgan gaplardagi uyushiq hollarni aniqlang. Ularning gapdagi qaysi bo‘lakka bog‘lanayotgani va qanday ohang bilan aytilayotganini izohlang.

1. Kumush uyaliy, zo‘rg‘agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib, bo‘yin egdi. (*A. Qodiriy*)
2. Hamdo‘stlik, hamkorlik yaxshi kunlarimizda ham, yomon kunlarimizda ham bizga doim asqatib kelgan. (*N. Safarov*)
3. Serkalar butun suruvni o‘z orqalaridan ergash-tirib, xuddi bo‘ri quvganday, vahima ichida to‘ppa-to‘g‘ri jarlikka qarab chopmoqda edi. (*S. Anorboyev*)
4. Torini asta-sekin cherta boshladi. Keyin zavq bilan, harorat bilan chalishga tushdi. (*O‘. Hoshimov*)
5. Zarqishloq ko‘chalarida, adir va soylarida, serdaraxt bog‘larida ko‘klam namoyishi kezadi. (*S. Ahmad*)

400-mashq. Uyushiq to'ldiruvchilarni aniqlab, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

1. Sidiqjon bolaligi o'tgan tor ko'chalarni, qishloq, anhor bo'ylarini, sigir boqqan joylarini borib ko'rdi. (*A. Qahhor*) 2. Xiyobonlar bola yetaklagan ayollar, qo'ltiqdashib yurgan yosh-yalanglar bilan to'la. (*S. Zunnunova*) 3. Azizbek bo'lsa javohir qadalgan tojlar, oltin taxtlar, nozanin parivashlar, dongdor mahramlar haqidagina o'ylar edi. (*A. Qodiriy*) 4. Do'stim, hayotga chuqurroq qarasangiz, to'g'ri bilan egrini ayira bilasiz.. (*Oybek*) 5. Men sizga o'g'ilman, farzandingizman. Uri-shishga, so'kishga, tergashga haqqingiz bor. (*S. Ahmad*) 6. Elmurodning qalbini bu xat ezib yubordi. Onasining tog'day yuragi, quyoshday issiq mehri oldida o'zini ojiz sezganday bo'ldi. (*Shuhrat*)

401-mashq. Uyushiq aniqlovchilarni topib, ma'no turi va qaysi so'zga bog'lanayotganini ayting.

1. Yoz kunlari Maxdumning hovlisi oq, nimrang, ola, zangor, malla, lojuvard va boshqa tus kapalaklarning yalt-yult uchishlari bilan alohida bir ko'rinishga kirar edi. (*A. Qodiriy*) 2. Jambil, rayhonning isi yetti mahalla naridan dimoqqa uriladi. (*Shukrullo*) 3. Alifbo – inson hayotining, inson kamolining eng buyuk ijodiyoti; jahon madaniyati, butun ilm, o'lmas badiiy, falsafiy, axloqiy boylıklar shu harflarga asoslangan. (*K. Yashin*) 4. Qurbon ota yelib-yugurib, sal kunda qishki va yozgi choyxonaning kam-ko'stini to'g'rilab oldi. (*A. Qahhor*)

402-mashq. Uyushiq va uyushmagan aniqlovchilarni topib, farqini tushuntiring.

1. Keng, tekis ko'chaga uzoqdan chiroqlar tuman ichida xira, sovuq nur sepadi. (*Oybek*) 2. Ikki yonida adil teraklar shovullagan keng asfalt yo'l. (*H. G'ulom*) 3. Naq shu pallada darvozadan katta qora sigir shata-loq otib, orqasidan bir kishini surib kirdi. (*Oybek*) 4. Katta, keng gulzorlar orasidan o'tib, serpanjara, hashamatli bino oldida to'xtadilar. (*Oybek*) 5. Erta nahor chog'ida, dengizning yoqimli orombaxsh mayin shamoli esib turganda.. Kaspiy ajib jilvagar ko'rindi. (*N. Safarov*) 6. Juvon yoqimli, shikasta tovush bilan xirgoyi qilardi. (*S. Ahmad*) 7. Poytaxtimizda ko'p qavatli osmono'par binolar, istirohat bog'lari,

mehmonxonalar bor. (*M. Hamidova*) 8. Tol kurtaklari yorilib, undan boʻz momiq gʻunchalar chiqadi. (*M. Alaviya*)

403-mashq. Gaplarni oʻqing. Nima uchun ayrim gapda kelishik qoʻshimchasi yoki koʻmakchi uyushiq boʻlakning oxirgisiga, ayrim gapda har bir boʻlakka qoʻshilayotganini tushuntiring.

1. Qizaloqlar onasining qoʻlidan qozon-tovoq, sidir-supur, tikish-ilishni olishadi, ukalarini oʻynatishadi. (*S. Nurov*) 2. – Yoʻq, otajon! – dedi Shermat, – tinchlikni, hurriyatni, haqiqat oftobining balqib chiqqanini siz ham koʻrasiz! (*Oybek*) 3. Adir va togʻlarda bugʻdoyiq va har xil oʻtlar oʻsadigan yaylovlar bor. (*“Oʻzbekiston geografiyasi” dan*) 4. Goʻzal bogʻlarda, ekinzorlarda endi boshvoqsiz qoramollarning diringlab chopganini koʻrdi. (*Oybek*) 5. Oybolta, qoʻlarga, tesha bilan daraxtlarning qingʻir-qiyshiq oʻsgan shoxlarini kallaklaydilar. (*M. Ismoiliy*) 4. Yer kuch bilan, ter bilan unum beradi. (*Oybek*) 5. Oqbosh, supurgi, shuvoq, yovshan, chitir dastalarini rayhon suviga chayib, quritib, taxlab qoʻyibdilar soyaga.. (*A. Muxtor*) 6. Hovli bilan bitta boʻlib toʻkilgan dovuchchalar, barglar va xaschoʻplarni dastasi uzun supurgi bilan supurishga tushdi. (*H. Nazir*) 7. Asal glukoza, fruktoza, saxaroza va mineral moddalardan tashkil topadi. (*“Fan va turmush” jurnalidan*) 8. Boshqalardan oʻzini aziz tutgan havoli kishi oʻz maqsadi yoʻlida har qanday tubanlikdan, yaramaslikdan qaytmaydi. (*M. Alaviya*) 9. Tokchalarda dasta-dasta kosalar, piyolalar va choynaklar terilib turardi. (*S. Zunnunova*) 10. Narigi qirgʻoqdagi mevazorlarda oʻrik, olcha, olma, shaftolilar qiygʻos gullab yotibdi. (*H. Gʻulom*) 11. Ayniqsa, zebra, qoʻtos, begemot, fil va ohularning koʻp turi tarqalgan. (*«Fan va turmush» jurnalidan*) 12. Bolbollar Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Oltoy, Janubiy Sibir, Moʻgʻuliston va Sharqiy Yevropada uchraydi. (*«Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi» dan*) 13. Kuzdan darak beruvchi sargʻaygan yaproqlar yoʻl ustida, ariq boʻyida yotardi. (*J. Sharipov*)

404-mashq. Gaplarni oʻqing. Umumlashtiruvchi boʻlakni toping, ifodalani-shini izohlang, tinish belgilarining ishlatilishini tushuntiring.

1. Nimrang toifi, pushtirang husayni, tillarang qirmisqa, qahrabo husayni, har donasi yongʻoqday keladigan kattaqoʻrgʻon – hammasi shigʻil pishgan. (*S. Anorboyev*) 2. Bogʻning turli joylarida har xil mevali

daraxtlar: nok, o‘rik, behi, jiyda va hokazo anchagina. (*Oybek*) 3. Ilonlardan tashqari turli xil hasharotlar: beshiktervatar, qora chigirtka, ninachi va boshqalar ham o‘z rivojlanishi davomida qobig‘ini yangilaydi. (*«Fan va turmush» jurnalidan*) 4. Fidokorlik, tashkilotchilik, kamtarlik, odamshavandalik – bularning hammasi talantli olimlarga xos fazilat. (*«Yoshlik» jurnalidan*)

405-mashq. Umumlashtiruvchi bo‘laklarni toping va tushirilgan tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Olimovning hikoyasi bolalarning zehnidagi shunday taassurot qoldirdi: issiq bilan sovuq, qor bilan yomg‘ir, suv bilan havo, o‘simlik va hayvonlar bularning hammasi tabiatdagi qazish, o‘yish, yemirish kuchlari hisoblanar ekan.. (*H. Nazir*) 2. Xonaning burchagida Me‘morning asboblari o‘lchovlar.. andoza, kurak, tesha, tabar, cho‘qmorlar ham to‘plab qo‘yilgan. (*Mirmuhsin*) 3. Yo‘lning ikki chetida esa har xil daraxtlar: sambittollar, kallakdor tutlar qad ko‘targan. (*Sh. Toshmatov*) 4. Ichkilik, bezorilik, buzilish, odobsizlik hammasi bekorchilikdan kelib chiqadi. (*A. Muxtor*) 5. Gilmoya tabiatda har xil oq, kulrang, qo‘ng‘ir va boshqa ranglarda uchraydi. (*M. Zokirov*) 6. O‘sh tog‘lari, qo‘rqinch jarlari, jilg‘alari, adirlari barchasi bizga ko‘pdan oshna. (*Mirtemir*) 7. Har qanday yaraga dori bo‘lgan balzammoy, qalam-pirmunchoq, tomirdori, qo‘yingchi, hamma narsa bor. (*G‘. G‘ulom*)

Gapning ajratilgan bo‘laklari

406-mashq. Gaplarni o‘qing. Qaysi gap bo‘lagi ajratilganini aniqlang.

1. Bolalar ana shu yoyilma chetrog‘ida, suv kun taftida ilib qolgan joyda cho‘milishayotgan ekan. (*Y. Shamsharov*) 2. Yo‘lchi o‘zi uchun mushkul masalani, ya‘ni xo‘jayin oldiga kirib, undan pul talab qilishni o‘yladi. (*Oybek*) 3. Jazirama yozda ham, qahraton qishda ham geologlarning qiladigan ishi asosan bitta – muttasil izlanish. (*«Fan va turmush» jurnalidan*). 4. Men – Po‘latova Madina, Buxoro davlat universitetining pedagogika fakultetida o‘qiyman. 5. Negadir bu voqeaga keragidan ortiqcha baho berib, unga, Oqilaga sinovchan nazar tashlab yuradigan bo‘lishdi. (*M. Jaloliddinova*) 6. Siyrak daraxtli ikkinchi bir tepalikda bir necha kishining, erkak va ayollarning, qorasi ko‘rindi. (*Oybek*)

Savollar:

1. Gapning ajratilgan bo‘lagi deganda nima tushuniladi?
2. Gapning qaysi bo‘laklari ajratilishi mumkin?

407-mashq. Gaplarni o‘qing. Kerakli o‘rinlarga tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Uzoqda tog‘ yonbag‘irlarida behisob qorako‘l qo‘ylari o‘tlaydi. (*Mirmuhsin*)
2. Unsin qo‘lidagi tugunni bir eski paxtalik nimcha, bir chit ko‘ylak, onasidan qolgan eski shol ro‘molni akasiga berdi. (*Oybek*)
3. Toshkentda respublikamiz poytaxtida metro qatnovi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.
4. Biz ya‘ni ota-bola tramvaydan tushdik. (*G‘. G‘ulom*)
5. Endi odamlar otliq, piyoda, yosh-qari uchray boshladi. (*Oybek*).
6. Men G‘ani Jo‘rayev 1978-yilda tug‘ilganman.
7. Otam Safar Barnoyev bolalar yozuvchisi.

408-mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratilgan izoh to‘ldiruvchini aniqlang.

1. Nerv to‘qimasi nerv hujayralaridan, ya‘ni neyronlardan hosil bo‘ladi, neyronlar esa tana va o‘simtalardan iborat. (*«Anatomiya» kitobidan*)
2. Odam tanasida A vitamini faqat boshqa biror moddadan, chunki, sabzavotlar, ko‘katlardan ajralib chiqadigan karotin degan moddadan hosil bo‘ladi. (*F. Mahkamov*)
3. Suvga, uning oynaday tiniqligiga G‘ulomjon juda havaslanib qarab turdi. (*M. Ismoiliy*)
4. Siddiqa dorilarning xillari, dozalarini, ya‘ni qaysi dorida qanday aralashmalar borligini va bu aralashmalar miqdori qancha ekanligini ham ayta oladi. (*N. Hakimova*)
5. U kishi rayhonni, ayniqsa Namangan sadarayhonini juda xush ko‘rardi. (*«Guldasta» to‘plamidan*)
6. Smetana tarkibida sut yog‘idan tashqari oqsil, sut qandi, organik kislotalar, mineral tuzlar, shuningdek, vitaminlar mavjud. (*«O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi»-dan*)

Ajratilgan izoh to‘ldiruvchi ishtirok etgan ikkita gap tuzing.

409-mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratilgan izoh aniqlovchilarni topib, turini aniqlang.

1. Buni bilish qiyin bo‘lsa ham, uning, Otabekning, hozirgi ba‘zi harakatlari diq-qatni jalb etarli edi. (*A. Qodiriy*)
2. Nasiba opa issiq, hozirgina tandirdan uzilgan nonlarni savatga solib, ayvonga keltirdi.
3. Qobil bobo, yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan, og‘il eshigi

yonida turib dag‘-dag‘ titraydi. (*A. Qahhor*) 4. Abdulla Qodiriy – buyuk yozuvchimiz, Turkistonning tanazzulga uchrash sabablarini chuqur ochib berdi. 5. Bu qizlarning, Malohat va Yulduzning orzusi – oliy o‘quv yurtiga kirib o‘qish. 6. Biz, yoshlar, xalqqa xizmat qilamiz. 7. Nyu Yorkda baland, osmono‘par binolar ko‘p.

8. Zavodlarda yigitlar, ilg‘or,
Po‘lat quyib, hayot quradi.
Fabrikada qizlar, ijodkor,
Ozod mehnat zavqin suradi. (*Oybek*)

410-mashq. Quyidagi so‘z birikmalari ajratilgan izoh aniqlovchi bo‘lib kelgan gaplar tuzib yozing.

Iste‘dodli rassom, taniqli bolalar shoiri, mashhur olim, mashhur bastakor, buyuk shifokor, taniqli xonanda.

411-mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratilgan izoh hollarni aniqlang.

1. Uzoqda, tog‘ yonbag‘irlarida, behisob qorako‘l qo‘ylari o‘tlaydi. (*Mirmuhsin*) 2. Har yili kuzda, xazonrezgi vaqtida, daraxtzorni aylanib yuraman. (*O‘. Umarbekov*) 3. Bektemirga notanish qandaydir qushlar gala-gala bo‘lib, allaqaylarga, go‘zal, issiq diyorlarga safar qiladilar. (*Oybek*) 4. Shu daqiqadan boshlab, Suyarqulning quloqlari tom bitdi. Tanaffus boshlanishini ham hammadan keyin – sinfda g‘ovur-g‘uvur boshlanganda bildi. (*A. Ko‘chimov*) 5. Bir kuni kechqurun, yotar mahalda ayamni chetga tortib shivirladim. (*S. Siyoyev*) 6. Ko‘prikning naryog‘ida, ishkonga poyasi kesib olingan keksa tol yonida, Dildor bilan A‘zamjon turardi. (*S. Ahmad*)

Ajratilgan izoh hol ishtirok etgan ikkita gap tuzib yozing.

412-mashq. O‘qing. Ajratilgan bo‘laklarni topib, tinish belgilariga diqqat qiling. Namunadan foydalanib, tarjimayi holingizni yozing.

Men – Zarina Tursunova, 1992-yil 23-martda Buxoro viloyatining Jondor tumanida tug‘ilganman.

Otam – Ochil Tursunov, kasalxonada shifokor bo‘lib ishlaydi. Onam – Nazira Tursunova, maktabda o‘qituvchi. Akam – Nodir Tursunov, fermer.

Men 2013-yilda Buxoro davlat universitetining boshlang'ich ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirdim. Hozir shu yo'nalishning 3-kursida o'qiyapman.

2015. 20. 11

(imzo)

Z. Tursunova

Undalma

413-mashq. Gaplarni o'qing. Undalmani aniqlab, nutq kim yoki nimaga qaratilayotganini izohlang.

1. – Tog'a, bu uzumlarni qanday qilib yetishtirdingiz? (*N. Maqsudiy*)
2. Quyosh, nuring to'ka ber mo'l-ko'l!
Bahor, ketma bizning bog'lardan. (*Oybek*)
3. Bu tol ilgari yo'q edi-ku, qachon ekkansiz, dada? (*O. Husanov*)
4. – Hoy, qo'shni, turing, qochamiz! – Yurtdan, eldan ayrilib qayerga qochamiz, qo'shni! ("*Oltmish gaz arqon*" ertagidan)
5. – Ey, soy, menga suv ber. Ekinimni sug'oray. ("*Soy suvi haqida ertakdan*")
6. – Chida, o'g'lim, chida. Shaharga tushaverishda buloq bor. (*Sh. Xolmirzayev*)
7. – Yo'lda charchagan ko'rinasiz, Kumush. (*A. Qodiriy*)
7. Qani ayt, maqsading nimadir sening?
Nechun tilkalaysan bag'rimni, ohang? (*A. Oripov*)

Savollar:

1. Undalma deganda nimani tushunasiz?
2. Insondan boshqa narsalarning nomini bildirgan so'zlar ham undalma bo'lib kelishi mumkinmi?
3. Undalmaning egadan farqi nimada?

414-mashq. Undalmalarni topib, tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. – Oyi sariq gulli ko'ylagim qani? Tezroq topib bering. (*M. Murodov*)
2. – Bobo, bobo Kim odobli, menmi yoki Shuhratmi? (*X. To'xtaboyev*)
3. – Tur o'glim shaharni yov bosdi. El-yurt qo'zg'aldi. ("*Oltmish gaz arqon*" ertagidan)
4. – O'-o' Yolqinjon kelganing juda yaxshi bo'libdi-da. (*N. Maqsudiy*)
5. Shunday qilsang, xafa bo'lmayman bolam. (*M. Ismoiliy*)
6. Endi mehmonlar aybga buyurmaysizlar, mening qiladigan ishimi, boradigan yerim ko'p. (*A. Qahhor*)

415-mashq. Gap boshida kelgan undalmalarni gap o'rtasida va gap oxirida keltirib, gaplarni ko'chiring, zarur tinish belgilarini qo'ying.

1. Do'stim, hayotga chuqurroq qarasangiz, to'g'ri bilan egrini ayira bilasiz. (*Oybek*) 2. Ota, tashvish tortmang, sal o'tmay otday bo'lib ketasiz. 3. Bilasizmi, Mansur aka, maktabni bitirib, institutga kirmoqchiman. (*O'. Hoshimov*)

416-mashq. Har bir gapning egasini undalmaga aylantirib, gapni qayta tuzib ko'chiring, zarur tinish belgilarini qo'ying.

1. Talabalar badiiy asarlarni muntazam ravishda o'qib turibdi. 2. Dildora maqola yozishni o'rganyapti. 3. O'g'lim xushfe'l va xushmuomala. 4. Talabalar gazeta va jurnallarga obuna bo'lyapti. 5. G'ani xolasini bekatgacha kuzatib qo'ydi.

417-mashq. Gaplarni o'ing. Yig'iq va yoyiq undalmalarni aniqlang.

1. Bu nima degan gap, qizlar, ish qolib, tariqday sochilib, tuproqday to'zib, yallo qilib yuribsizlar. (*Sh. Sa'dulla*) 2. Azizim, qizingizning baxtini birovlarining ostonasidan qidirmang. (*A. Qahhor*) 3. Siz qutlug' kunlarda yetib keldingiz, aziz birodarlar! (*A. Muxtor*) 4. Ey, do'stim, hozirchi, tuxum qilmaydigan tovuqqa hech kim don bermaydi. (*Shukurullo*) 5. Ey, bobo, nechuk g'amnok ko'rinasiz. (*S. Ahmad*)

6. Xayr, ey, bearmon kezgan qirlarim.

Xayr, ey, yiroqqa qochgan so'qmoqlar. (*A. Oripov*)

7. Naqadar suluvsan, naqadar inju,

Ey, sen shimol yurtin cho'ng o'rmonlari. (*A. Oripov*)

8. Ey, uzoq o'lkadan kelgan paxtakor,

So'zlaring xazina, paxta qomusi. (*G'. G'ulom*)

Yoyiq undalma ishtirok etgan 4 ta gap tuzib yozing.

Kirish so'z va kirish birikma

418-mashq. O'qing. Kirish so'z va kirish birikmalarni aniqlab, ma'nosini izohlang.

1. Jahl ustida urishib qolgan bo‘lsangiz, ehtimol, yarashib qolarsiz. Oilangizni buzmag! (*Mirmuhsin*) 2. Albatta, kampir kelinlarini ro‘zg‘ordan siqmasdi. Ammo rejani buzmay, masalliqni isrof qilmay ish tutardi. (*S. Ahmad*) 3. Afsuski, mayda-chuyda g‘iybatlarga berildim, birovni birovga qarshi qayradim, xullas, umrim o‘tib ketdi. (*M. M. Do‘st*) 4. Menimcha, Qoratoy aka, Shokir ota, butun kulfatlar turmushning yomon tuzilganidan keladi. (*Oybek*) 5. Baxtga qarshi, bu umid ham bo‘sh chiqdi. (*A. Qodiriy*) 6. Ming afsuski, hozir to‘ylarda o‘yin-kulgi, chiroyli an‘analar san‘atini namoyish qilish emas, isrofgarchiliklar me‘yoridan oshib ketadi. (*Mirmuhsin*) 7. Bobomning aytishlaricha, bir zamonlar qishlog‘imizga sargashta-yu jahongashta bir musofir kelib qolgan ekan. (*S. Karomatov*) 8. Nimadir "tirs" etdi: qizilurug‘ qovun dum berdi shekilli. (*A. Eshonov*) 9. Eshik, deraza, pol, to‘sin kerakmi? Demak, duradgorlik ustaxonasi kerak. (*N. Safarov*) 10. Birinchidan, bola-chaqali odam xotin ustiga xotin olsa, uyda har kun janjal-suron bo‘lishi shubhasiz. (*Oybek*) 11. Mayli, ishingiz zarur bo‘lsa, sizga javob, do‘stim, ertagacha xayr. (*K. Yashin*) 12. Qanday qilib siz bilan mening dilim bir bo‘lsin! Hech qachon bir bo‘lolmaydi. Aksincha, o‘t bilan suvdek zid. (*P. Tursun*) 13. Ha, ota – ko‘cha kishisi, ona uy farish-tasi bo‘lar ekan. (*L. Tojiyeva*) 14. Keldi-ketdi bo‘lib, Nizomjon uch-to‘rt kun Dildor bilan bafurja uchrasholmadi.. Nihoyat, uydan mehmon-larining oyog‘i uzildi. (*S. Ahmad*) 15. Yo‘q, hayotni jo‘nlashtirib bo‘l-maydi. U o‘zining chigal, murakkab o‘zanlari bo‘ylab oqadi. (*A. Mux-tor*) 16. Don mahsulotlari orasida guruch Osiyo xalqlarining asosiy ozuqasi hisoblanadi, binobarin, dunyo aholisining teng yarmi guruch bilan tirikchilik qiladi. (*K. Mahmudov*) 17. Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor, qo‘li gul odam. (*A. Qahhor*) 18. Inson hamisha olg‘a intilishi, o‘rganishi, hayot sirlarini o‘zlashtirib olishi zarur. Aks holda, aql-zakovati yillar o‘tishi bilan o‘tmaslashadi, zavol topadi. (*S. Karo-matov*) 19. Aftidan, ular endigina zavoddan chiqqan bo‘lsa kerak, bo‘yoq isi gupullab dimoqqa urib turibdi. (*I. Rahim*) 20. Avvalo, shuni aytib qo‘yayki, senga boshqa muallim topib qo‘ydim, ertaga boshlab kelgayman. (*M. Osim*) 21. To‘g‘ri, keksalarimiz dehqonchilikda juda mohir. (*Oybek*) 22. Ayniqsa, zebra, qo‘tos, begemot, fil va ohularning ko‘p turi tarqalgan. (*“Fan va turmush” jurnalidan*) 23. Shunday qilib, yozning butun ko‘rkamligi ish bilan o‘tib ketdi. Esiz-esiz. (*G‘. G‘ulom*) 24. Xullas, surat bor-u, siyrat yo‘q. Siyratsiz tana o‘lik emasmi? (*S. Siyoyev*)

Savollar:

1. Kirish soʻz nima?
2. Kirish soʻz qanday tinish belgisi bilan ajratiladi?
3. Kirish soʻzlarni maʼnosiga koʻra qanday guruhlarga ajratish mumkin?

419-mashq. “Kitob – hayotni oʻrgatuvchi ustoz” mavzusida matn tuzing. Unda kirish soʻzlardan foydalaning.

420-mashq. Oʻqing. Kiritma gaplarni aniqlab, ularning gap mazmuniga qanday qoʻshimcha axborot kiritayotganini izohlang.

1. Bu gapni Anvarga (sen uni bilasan) aytgan edim. 2. Mirzakarimboy boshqalarga maqtanmasa ham (maqtanchoqlikni yomon koʻrar edi), baʼzan ichida faxrlanardi. (*Oybek*) 3. Azamatlar oʻnlab aravalarga va ikki mashinaga (oʻn kun avval yana bir yuk mashinasi olingan edi) har nav yuklarni ildamlilik bilan ortmoqda edilar. (*Oybek*) 4. Toshkent tinchlangandan keyin (agar salomat boʻlsam) oʻzim xabar yuboraman. (*A. Qodiriy*)

Bir bosh boʻlakli gap

421-mashq. Oʻqing. Bir bosh boʻlakli va ikki bosh boʻlakli gaplarni aniqlang.

1. Anavi kuni mendan xafa boʻldingiz-a.. (*Oʻ. Hoshimov*) 2. Endi men Husan aka bilan baqamti oʻtirib gaplashishni istardim. (*Sh. Xolmirzayev*) 3. Oldin daryoning chuqur, sayoz joylarini bilish kerak. (*Oybek*) 4. Har kim oʻz vazifasini bilishi kerak. 5. Qushlar parr etib osmonga koʻtarildi. (*Oybek*) 6. Tagʻin bir marta Talʼatning oldiga bori-shiga toʻgʻri keladi. (*Oʻ. Hoshimov*) 7. Otabek oʻzining yolgʻonlashidan vijdoni oldida qizarindi. (*A. Qodiriy*) 8. Marhumlarning xotirasiga oʻtkaziladigan maʼrakalarga azadordan koʻngil soʻrash uchun boriladi, aslida. 9. Kimningdir koʻnglida bahor gulladi. Kimdir kimgadir intizor boʻldi. (*Oʻ. Hoshimov*)

Savollar:

1. Bir bosh boʻlakli gap deganda nimani tushunasiz?
2. Bir bosh boʻlakli gapning qanday turlari bor?

422-mashq. Oʻqing. Shaxsi maʼlum gaplarni koʻchirib yozing.

1. Men bo‘lgan voqeani aytib berdim. (*T. Ashurov*)
2. Yurtim, senga she‘r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo. (*A. Oripov*)
3. Sinfimiz bolalar kulgisidan zirillab ketdi. (*T. Murod*)
4. Be, bo‘lmag‘ur gapni qo‘ysangiz-chi. Eshitmasangiz, ko‘rmasangiz, qayoqdan bilasiz! (*P. Tursun*)
5. Biz bari bir bahorni har gal sog‘inib kutib olamiz. (*«Saodat» jurnalidan*)
6. Ovqatni Komiljon kelganda suzasan, jamoat jam bo‘lib ichamiz. (*I. Rahim*)
7. Yo‘lning ikki yoqasida teraklar shovullaydi, bulbullar sayraydi. (*H. G‘ulom*)

423-mashq. Shaxsi ma‘lum gaplar tuzing. So‘ng ulardan egasi ifodalangan gaplar hosil qiling.

Namuna: *Xalqimiz an‘analarini chuqur o‘rganamiz. – Biz xalqimiz an‘analarini chuqur o‘rganamiz.*

424-mashq. Gaplarni o‘qing. Shaxsi umumlashgan gaplarning kesimi qaysi shaxs shaklida bo‘lishini tushuntiring.

1. Sinamagan otning sirtidan o‘tma.
2. Yerning sho‘rini yuvish uchun chilla suvi bilan sug‘oradilar.
3. Yomon bilan yo‘ldosh bo‘lma.
3. So‘ylamasdan o‘ylab ol.
4. Odatda ko‘chatni kuzda o‘tqazadilar.
5. Qildan qiyiq qidirma.
6. Oshga guruch solishdan oldin uning zirvagini yaxshilab pishiradilar.
7. Farg‘ona vodiysida chaqaloqni ham sizlaydilar.

425-mashq. Quyida berilgan Navro‘z urf-odatlarini davom ettiring.

Navro‘zda uy-joyni tozalaydilar.

Navro‘zga qadar daraxtlar tanasini oqlaydilar.

Navro‘zda bug‘doy undirib, sumalak pishiradilar.

Navro‘zda yaxshi niyatlar qiladilar.

426-mashq. Shaxsi noma‘lum gaplarni aniqlang. Bu gaplarning kesimi qanday tuzilganini tushuntiring.

1. Bularning qishloq bolalarimi yo shahar bolalarimi ekanligini ajratib bo‘lmaydi. (*M. Ismoiliy*)
2. Hayotni qiyinchiliklar, muammolar oldida yengilmas kishilargina rivojlantira oladilar. (*O. Mo‘minov*)
3. Ehtiyot bo‘lishim kerak. Yana bir hiyla-nayrang to‘qiganga o‘xshaydi. (*Oybek*)
4. Bunaqa ayol bilan umrning oxirigacha yashab bo‘ladimi?

Hayotning nuqul kemtik tomonini ko‘radi. (*S. Nurov*) 5. Undan keyin tag‘in bir yig‘ilishga borishga to‘g‘ri keladi. (*O‘. Hoshimov*) 6. Aql, fahm-farosat bilan ko‘ngilni yo‘lga solib turish kerak. (*A. Qahhor*) 7. O‘rmon yoqalab to‘rt soat yurdik. (*T. Rustamov*) 8. Endi bolalik bo‘stonidan hatlab o‘tib, o‘spirinlik davriga qadam qo‘ygansiz, hayot uchun kerakli kasb-hunar orttirish lozim. (*M. Osim*) 9. Teatr bilan dramaturgni et bilan tirnoqqa qiyos qilish mumkin. (*N. Safarov*)

427-mashq. Berilgan kesim shakllarini qo‘llab gap tuzing. Bu gaplarda qanday mazmun umumiyligi borligini aniqlang.

O‘qish kerak, bilish shart, borish lozim, asramoq darkor, eksa bo‘ladi.

428-mashq. Egasi ifodalangan gap tuzing. Shu gap asosida shaxsi ma‘lum va shaxsi topilmas gap hosil qiling.

Namuna: Biz bolalar adabiyotini chuqur o‘rganyapmiz. – Bolalar adabiyotini chuqur o‘rganyapmiz. – Bolalar adabiyotini chuqur o‘rganish kerak.

429-mashq. O‘qing. Atov gaplarni toping. Bu gaplar ko‘z oldingizda nimani gavdalantirishini tushuntiring.

1. Bahor. O‘riklar oppoq gulladi, olcha novdalari munchoq-munchoq bo‘rtidi. (*Mirmuhsin*) 2. Qiyom chog‘i edi. Quyosh damini g‘ir-g‘ir esgan shamol kesar edi. (*Oybek*) 3. Biyday dasht. Sokinlik. Otlar olg‘a bosadi. (*Sh. Xolmirzayev*) 4. Iliq tun.. Qo‘shoyoqlarning chiyillashi, ahyon-ahyonda dardchil buzoqning azob chekib ingrashi singari sovuq nidolar ham eshitiladi. (*J. Abdullaxonov*) 5. Oppoq qor. Qosh qorayganda, yupun kiyingan odamlar qunushib, dildirashib, choyxonaga tomon kela boshladi. (*A. Qahhor*) 6. Fasli bahor. Qo‘shnim G‘afur G‘ulomning ellik yilligi. O‘shanda Bulbul Mamedov to‘yxonaning guli bo‘lgan edi. (*H. Nazir*) 7. Kuz kunlari. Ishkomlarda husayni, dilikaptar, kishmish, shivirg‘onilarning boshi yerga tegay deb engashgan. (*S. Abdulla*) 8. Norin. Sho‘x daryo, asov daryo. Tutqich bermas telba daryo. (*N. Safarov*) 9. Ro‘parada past-baland cho‘qqilarini osmonga turtib, ko‘kish tuman pardasiga burkangan Chotqol tog‘lari. (*P. Tursun*)

430-mashq. So‘z-gaplarni aniqlab, ma‘no turini ayting.

1. – Yaxshi ko‘rasanmi o‘zi? – Ha. Bir kun ko‘rmasam, yuragim jizillab turadi. (*P. Tursun*) 2. Xush kelibsizlar. Qani, dasturxonga marhamat. (*S. Ahmad*) 3. – Qalay endi, tuzukmisiz? – Shukur, rahmat. (*S. Ahmad*) 4. – Ona tilimizda odam «o‘zida» emas, aniq bir joyda, masalan, kabinetda bo‘ladi. – Uzr, Saidmurod aka. (*M. M. Do‘st*) 5. – Assalomu alaykum, Echkiyoy buva – oldingi o‘ng oyog‘ini ko‘ksiga bosibdi. – Me-e, vaalaykum assalom, – deya qiroat bilan alik olibdi Echki. – Kam bo‘lma, bo‘tam. Otangga rahmat. (*A. Obidjon*) 6. Dod! Voy dod! Qaroqchilar bosdi!!! (*M. Ismoiliy*) 7. – Barakalla, chevarim. Balli, himmatli qizim. (*Q. Muhammadiy*) 8. – Ehtimol, – dedi Otabek va nima uchundir g‘ayriixtiyoriy bir tebrandi. (*A. Qodiriy*) 9. – Aslo bizdan bemaslahat ish qilmang, Madaminboy. – Albatta, albatta, taqsir! (*P. Tursun*) 10. Mustafo eshagiga xalacho‘p bosdi: – Xix, jonivor, xix! (*M. M. Do‘st*)

6. Xayr, ey, bearmon kezgan qirlarim.

Xayr, ey, yiroqqa qochgan so‘qmoqlar. (*A. Oripov*)

QO‘SHMA GAP

431-mashq. Berilgan gaplarning tuziishiga ko‘ra turini aniqlang. Ularning nima uchun sodda gap, nima uchun qo‘shma gap ekanligini tushuntiring.

1. Taqachining ustaxonasiga yaqin yerdagi ko‘lmakda bir baqa yashar ekan. (*A. Abdurazzoq*) 2. Tepalikning havosi toza va g‘ir-g‘ir shabada esar edi. (*A. Irisov*) 3. Inson uchun, havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, Vatan ham shunchalik mo‘tabardir. (*X. Davron*) 4. Soyning o‘ng betidagi serdaraxt mahallada mavlono Fazliddin bulturdan beri istiqomat qilayotgan peshayvonlik mo‘jaz uy bor. (*P. Qodirov*) 5. Ko‘z qo‘rqoq, qo‘l botir. (*Maqol*) 6. Kuz kelganda uyimizda to‘y bo‘ladi. (*T. Yo‘ldosh*) 7. Hadeb qor yog‘averganidan kamqatnov yo‘llarda yurish qiyinlashob qoldi. (*O. Husanov*) 8. Yomg‘ir betinim yog‘ar, lekin uning tomchilari chang zarralaridek ko‘zga ilinmas edi. (*P. Tursun*)

Savollar:

1. Qo‘shma gap nima?
2. Qo‘shma gapning sodda gapdan farqi nimada?

Bog‘langan qo‘shma gap

432-mashq. *1-topshiriq.* Daftaringizga jadval chizing. Berilgan bog‘lovchilar orasidan teng bog‘lovchilarni ajratib, jadvalni to‘ldiring.

Agar, chunki, va, shuning uchun, hamda, lekin, ammo, zeroki, biroq, shu sababli, na... na, yoxud, natijada, dam... dam, goh... goh, yo.

Biriktiruv bog‘lovchilari	Ayiruv bog‘lovchilari	Zidlov bog‘lovchilari
va	yo	lekin

2-topshiriq. Teng bog‘lovchilarni qo‘llab qo‘shma gaplar tuzing.

Savollar:

1. Bog‘langan qo‘shma gap deganda nimani tushunasiz?
2. Bog‘langan qo‘shma gapning qanday turlari bor?

433-mashq. Biriktiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplarni topib ko‘chiring, vergulning qo‘yilish yoki qo‘yilmaslik sababini tushuntiring.

1. Sokin, bejon va tilsiz cho‘lning ham o‘z joni, o‘z tili, tovushi va o‘z tug‘yoni bo‘larkan. (*A. Hakimov*) 2. Ra‘no tabassum bilan javob berdi va unda bir oz qizarinish belgisi bor edi. (*A. Qodiriy*) 3. Bu hammasi hayotning eng nozik, eng muhim tomonlari edi va hammasi mual-laq bir ahvolda yotardi. (*P. Qodirov*) 4. Bolalar uxlab qoldi-yu, kattalar allamahalgacha uxlashmadi. (*H. G‘ulom*) 5. Suvonjon qir bag‘ridagi ang‘izga qo‘ylarni yoyib yubordi-da, o‘zi ajriq ustiga yonboshladi. (*S. Anorboyev*) 6. Urushning ikkinchi yili otasi armiyaga ketdi-yu, qo‘lida hunari yo‘q ona ikki bola bilan qoldi. (*P. Qodirov*) 6. Hasanali tuzatinib oldi va ichkariga kirdi. (*A. Qodiriy*) 7. Yomgir boyagidan ancha tezlashgan bo‘lsa-da, osmon yorisha boshlagan edi. (*S. Karomatov*) 8. Bo‘pti, qaynoq-qaynoq choy ich-da, borib yot. (*S. Ahmad*) 9. Eshik g‘irch etib ochildi-da, ruxsat so‘rab Darveshali kirdi. (*Oybek*) 10. Ba‘zi ota-onalar bolalarini ayagan bo‘ladilar-da, ularni hayot uchun yaroqsiz, jismoniy zaif qilib qo‘yayotganlarini bilmay qoladilar. (*S. Zunnunova*) 10. Qo‘shiq tamom bo‘ldi-yu, u boyagiday tabassum bilan ohista bosh egib qo‘ydi. (*O‘. Hoshimov*)

434-mashq. Bog‘langan qo‘shma gaplarning turini aniqlang. Zarur o‘rinda tinish belgisini qo‘yib ko‘chiring. Qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning qanday vosita yordamida bog‘langanini izohlang.

1. Kampir hamon kelinning og‘zini poyladi lekin kelindan hech bir hasrat qiladigan gap chiqmadi. (*Oydin*) 2. Bolalar uxlab qoldi-yu kattalar allamahalgacha uxlashmadi. (*H. G‘ulom*) 3. Umuman, go‘zallik kishi uchun katta baxt ammo kishini bezovchi barcha sifatlar ichida mehnatsevarlik bebaho ziynatdir. (*R. Usmonov*) 4. Shirmonxonning qulog‘iga uzuq-yuluq so‘zlar chalindi-yu hech narsa uqolmadi. (*S. Zunnunova*) 5. O‘zi tuzuk shoir biroq tanqidni ko‘tarmagani yomon. (*A. Qahhor*) 6. Sizlarga mening g‘ashligim yo‘q, ammo havasim keladi. (*Mirmuhsin*)

435-mashq. Berilgan gaplardagi ayiruv bog‘lovchilarining vazifasi va ifodalayotgan ma‘nosini izohlang. Zarur o‘rinda tinish belgisini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Narigi uydan dam pianino ovozi eshitilar, dam qizlarning kulgisi jaranglar edi. (*S. Zunnunova*) 2. Yo‘lchi ertadan kechgacha dam u ekinda, dam bu ekinda Qambar bilan birga ishlaydi. (*Oybek*) 3. Ikki atrofda paxtasining cho‘g‘i qochgan dalalar goh cho‘p bo‘lib g‘o‘zapoyasi qolgan, goh paxtasi egatlarga oqib tushgan paykallar bilan almashinadi. (*M. Mansurov*) 4. Shaftolizorda sa‘vaning goh fig‘onli nolasi, goh shiddatkor chaqchaqi tinmaydi. (*S. Ahmad*) 5. Goh derazaga olov urilgandek bo‘ladi, goh tomda tunuka ustida nimalardir dahshat bilan yugurayotgandek tuyulardi. (*S. Zunnunova*) 6. Poyezd sekinlab, goh to‘xtab, goh jadallab, qor bosgan bepoyon sahrodan borar edi. (*A. Qahhor*) 7. Goh bo‘ron o‘kirar, goh bo‘ralar qor. Chinorlar dosh bermay, beli dol bo‘lar. (*Mirtemir*) 8. Aytishlaricha, butun Yaponiyada bir necha million kimono bo‘lsa ham, yo rangida, yoki gullarida, yoki bichimida albatta tafovut bo‘ladi. (*H. Hasanov*) 9. Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir. (*A. Avloniy*) 10. Bu fe‘ling bo‘lsa, yo murodingga etasan, yo boshingni yeysan. (*S. Siyoyev*)

Ergashgan qo‘shma gap

436-mashq. O‘qing. Ergashgan qo‘shma gaplarni topib, bosh va ergash gapni ko‘rsating.

1. Quyosh tikkaga kelib, ayovsiz qizdirayotgani uchun, har yer-har yerda soyabonlar tikilgan. (*N. Aminov*) 2. Dehqonlar bilishadiki, bema-hal yog‘gan yomg‘ir g‘o‘zaga shira tushirib yuboradi. (*H. Nazir*) 3. Organizmda vitaminlar yetarli bo‘l-masa, turli avitaminoz kasalliklar yuzaga chiqadi. (*N. Ismoilov*) 3. Navro‘z arafasida keksalar oq kiyim tayyorlashadi, yoshlar rang-barang gulli ko‘ylaklar tiktirishadi. (“*Sao-dat*” *jurnalidan*) 4. Ilm-hunar shunday beminnat mulkki, odamga hech qachon ularning og‘irligi tushmaydi. (*R. Usmonov*) 5. Agar stenogra-fistka qiz ush-lab qolmaganida, deraza tagidagi guli qurib qolgan tuvak-ka boshi bilan urilardi. (*S. Ahmad*) 6. Onam bilan manim baxtimga kut-magan joydan mo‘jizadek bu maktub topildi-da, men xizimatingizga yugurdim. (*A. Qodiriy*) 7. Biror soha yo‘qki, unga o‘qituvchining bevo-sita yoki bilvosita qo‘shgan hissasi bo‘lmasin. (*R. Usmonov*) 8. O‘qi-tuvchiga kibr-u havo va takabburlik aslo yarashmaydi, chunki yosh av-lod undan ibrat oladi. (*R. Usmonov*) 9. Laganlar bo‘shayotganda, eshik-dan sersavlat bir qora odam kirib keldi. (*P. Tursun*) 10. Otabek keyingi vaqtlarda savdogaga yurishni tark qilib qo‘ygani uchun Hasanali ishsiz qolgan. (*A. Qodiriy*) 11. Anvar xususiy hayoti, ayniqsa, Ra’noga alo-qasidan hech kimga og‘iz ochmas edi. (*A. Qodiriy*)

437-mashq. Berilgan qo‘shma gaplarni sodda gapga aylantiring. Qo‘shma gap sodda gapga aylantirilganda ergash gap qaysi gap bo‘lagiga aylanishini izohlang.

1. Hamma kasal shundaki, siz xalq kuchiga ishonmaysiz. (*Sh. Rashi-dov*) 2. Ilm-hunar shunday beminnat mulkki, odamga hech qachon ularning og‘irligi tushmaydi. (*R. Usmonov*) 3. Dehqonlar bilishadiki, bema-hal yog‘gan yomg‘ir g‘o‘zaga shira tushirib yuboradi. (*H. Nazir*) 4. Kimki odamlar o‘rtasini buzib yuruvchi bo‘lsa, u ham mo‘min emas-dir. (*Hadis*) 5. Arpa qayerda pishsa, chumchuq o‘sha yerda. (*Maqol*) 6. Kimning xulqi yomon bo‘lsa, u o‘zini azobga giriftor qiladi. (*Hadis*)

Ergashgan qo‘shma gapning kengaytirilgan birikmali sodda gap bilan o‘zaro munosabati nimada?

438-mashq. 1-topshiriq. Berilgan qo'shma gaplardagi kesim ergash gap qismini aniqlang. Bosh gap tarkibidagi kesim tobe gapga ishora qiluvchi qismni aniqlang.

1. Ona tilini maktabda o'qitishdan maqsad shuki, o'quvchilar mustaqil fikrlashni o'rganishsin, ona tilining cheksiz imkoniyatlaridan foydalana olishsin. 2. Kitob oyligining o'ziga xos xususiyati shundaki, ko'pdan buyon harakatsiz yotgan eski kitoblarga ikkinchi umr baxsh etiladi. 3. Kishi ismlari imlosiga xos bo'lgan yana bir xususiyat shundaki, ba'zi so'zlar ismga ko'chgach, so'zning talaffuzida ham ayrim o'zgarishlar yuz beradi. (*E. Begmatov*) 4. Senga beradigan maslahatim va nasihatim shuki, umidsizlikka tushma. (*S. Ayniy*) 5. Vazifa shundan iboratki, poytaxtimizning har muyulishi, har ko'chasi doim ozoda, doim botartib bo'lishi zarur. 6. Shunday qilish kerakki, xamirdan qilni beozor tortib olishday bo'lsin. (*A. Hakimov*)

2-topshiriq. Yuqoridagi gaplardan kesimi kengaygan birikma bilan ifodalangan sodda gaplar hosil qiling.

439-mashq. Kesimi kengaygan birikma bilan ifodalangan quyidagi sodda gaplardan kesim tobe gapli qo'shma gap hosil qiling.

1. Ta'limning poydevori bilimning hayotda kerakligini bolaning ongiga yetkaza bilishdir. (*P. Usmonov*) 2. Bizning vazifamiz ilmni xalq tajribasi bilan boyitish va shu bilan birga xalq, tajribasini ilmning elagidan o'tkazishdir. (*A. Qahhor*) 3. Rahbar axloqidagi asosiy narsa so'z va ish birligini o'z faoliyatining mazmuni deb bilishdir. 4. Asosiy vazifalardan biri yosh havaskor yozuvchilarning ijodiy yuksalishiga yordam berishdir. (*N. Safarov*)

440-mashq. Istalgan bir mavzuda 8 – 10 gapdan iborat matn tuzing. Matnda kesim ergash gapli qo'shma gaplardan, kesimi kengaygan birikmali sodda gaplardan foydalaning.

441-mashq. 1-topshiriq. Berilgan ega ergash gapli qo'shma gaplarda bosh va ergash gapni belgilang. Ergash va bosh gap tarkibidagi bir-biriga ishora qilib turuvchi qismlani aniqlang.

1. Kimki bilimga tayansa, u doimo kamol topadi. 2. Shunisi diqqatga sazovorki, tomoshabinlar asarni yaxshi tushunishlari uchun har bir

kartina oldida jonli prototiplar turardi. (*S. Ahmad*) 3. Kimning xulqi yomon bo'lsa, u o'zini azobga giriftor qiladi. 4. Shunisi hayajonliki, men uning ko'zlarida zarracha ham yosh ko'rmadim. (*P. Tursun*) 5. Ko'ziga nima ko'rinsa, shu uni qiziqтира boshladi. (*Oybek*) 6. Kim sening kamchiliklaringni to'g'ri ko'rsatsa, u sening haqiqiy do'sting. 7. Uning oldiga kimki biror hojat bilan kelsa, noumid qaytmagan. (*H. Nosirova*)

8. Kim minsa, shu bilar otning bopini,
Sayis olar ildam otning tobini. ("*Hasanxon*" dostonidan)

2-topshiriq. Yuqoridagi qo'shma gaplardan egasi kengaygan birikma bilan ifodalangan sodda gaplar hosil qiling.

442-mashq. Nuqtalar o'rniga bosh gap mazmuniga mos ergash gapni qo'yib ko'chiring. Ergash gapning turini belgilang.

1. Shunisi ma'lumki, 2. Nima ko'p bo'lsa, 3. Kimki o'tanasini hurmat qilsa, 4. Har kimki vafo qilsa, 5. Kimdan xalqqa jabr-zulm sodir bo'lsa, 6. Kimki qunt bilan bilim olsa, 7. Kim seni mol-davlatning yoki amaling uchun hurmat qilsa,

443-mashq. Ega ergash gapli qo'shma gaplarga xalq maqollari va hikmatli so'zlardan misol toping.

444-mashq. *1-topshiriq.* Berilgan qo'shma gaplar tarkibidagi ergash gaplarni aniqlab, bosh va ergash gapni bog'lovchi vositalarni belgilang.

1. Oyimxon sirni baralla ochib gapira boshlagan edi, Gulsum uyalganidan muloyim ovoz bilan kuldi. (*P. Tursun*) 2. Qayerdagi intizom mahkam, u yerda ish yirik. Qayerdagi intizom buzildi, u yerda ish rasvo. (*Uyg'un*) 3. Chaqimchilik yomon illatdir, chunki u tufayli odamlar o'rtasi buziladi. 4. Har kishi ter to'kib qiladi mehnat, xalqimning turmushi obod bo'lsin deb. (*G'. G'ulom*) 5. Tosh shu qadar silliqki, go'yo haykaltarosh xo'p hafsala bilan yo'ngan. (*H. Nazir*) 6. Agar odamlar bir-biri uchun mehnat qilsa, yer yuzining o'zi jannat bo'ladi. (*A. Qahhor*) 7. Issiq birmuncha bo'shshgandek tuyulsa ham, dimlik zaptida edi. (*M. Ismoiliy*) 8. Azimboy shunday zulm o'tkazdiki, oqibatda xalqning sabr kosasi to'ldi. (*S. Ahmad*) 9. Daraxtning bo'yi qancha cho'zilsa, ildizi ham shuncha chuqur ketishi kerak. (*E. Usmonov*)

2-topshiriq. Yuqoridagi qo‘shma gaplardan kengaygan hol birikmali sodda gaplar hosil qiling.

Namuna: *Intizom mahkam yerda ish yirik.*

3-topshiriq. Yuqoridagi hol ergash gapli qo‘shma gaplarda ergash gap bosh gap-ning qaysi jihatini ochib berayotganini aniqlang.

445-mashq. *1-topshiriq.* O‘qing. Payt ergash gaplarni topib, bosh gapga bog‘lovchi vositalarini aniqlang.

1. Ilon bilanglab qocha boshlagan edi, xoda bilan urdim. (*S. Anorboyev*) 2. Asqar polvon o‘ylanib, hali javob berganicha yo‘q edi, og‘ir bulutli havoni artilleriya dahshatli gumburlatib yubordi. (*Oybek*) 3. U shaloplatib suv olar ekan, qamishzorlarning narigi chetidan qaqag‘lagan tovush eshitildi. (*S. Siyoyev*) 4. Oybodoq keta boshlagan edi, Otabek uni to‘xtatdi. (*A. Qodiriy*) 5. Sanobar javon oldida ko‘ylak tanlar ekan, yana o‘y surib ketdi. (*M. Xayrullayev*) 6. O‘sha to‘polon tinchigandan keyin bir hafta o‘tuvdi hamki, men uy poylab qoldim. (*E. Raimov*) 7. Orif ota gullarning ta‘rifini hikoya qilgudek bo‘lsa, hamsuhbatining og‘zini ochirib qo‘yadi. (*R. Fayziy*) 8. G‘ishtlarni birma-bir olishgan edi, oltin to‘la xunning og‘zi ko‘rindi. (*S. Yunusov*) 9. Yomg‘ir yog‘a boshlasa, ish taqqa to‘xtaydi. (*H. G‘ulom*)

2-topshiriq. Yuqoridagi qo‘shma gaplarni sodda gapga aylantiring.

3-topshiriq. Payt ergash gapli qo‘shma gapga 4 ta misol yozing.

446-mashq. *1-topshiriq.* Berilgan o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplardagi bosh va ergash gapni aniqlang. Bosh va ergash gap tarkibidagi bir-biriga ishora qiluvchi vositalarni ko‘rsating.

1. Odamzod kindik qoni to‘kilgan joyni tark etsa, qushmijoz bo‘lib qolarkan. 2. Qayerda yashash qulay bo‘lsa, o‘sha yerga in quraverar ekan. (*“Yoshlik” jurnalidan*) 3. Siz qayerda bo‘lsangiz, biz ham o‘sha yerda bo‘lamiz. (*B. Rahmonov*) 4. Qayerdagi hayot mavjud ekan, o‘sha yerda hayotiy jarayonlarning muntazam ritmi, maromiyligi mavjud. (*“Tafakkur” jurnalidan*) 4. Tabiat hamma narsani bir-biriga mos, mutanosib qilib yaratgan. Qayerdagi bu mutanosiblik buzilsa, fojia kelib chiqadi. (*S. Siyoyev*)

2-topshiriq. Yuqoridagi qo‘shma gaplarni sodda gapga aylantiring.

3-topshiriq. 4 ta o‘rin ergash gapli qo‘shma gap tuzib yozing.

447-mashq. 1-topshiriq. Berilgan sabab ergash gapli qo‘shma gaplardagi bosh va ergash gapni aniqlang. Sabab ergash gapning bosh gapga nima yordamida bog‘langanini ayting.

1. O‘qituvchiga kibr-u havo va takabburlik aslo yarashmaydi, chunki yosh avlod undan ibrat oladi. (*R. Usmonov*) 2. Bolalar chana uchishgan bo‘lsa kerak, anhor ustidagi ko‘prik yaxmalak bo‘lib ketibdi. (*H. G‘ulom*) 3. Qishloqqa bahor ilgariroq keldi, shekilli, Vasila Nazarovna tanaffus paytida yo‘lakda yugurib ketayotgan bir qizaloqning qo‘lida gunafsha ko‘rib qoldi. (*O‘. Hoshimov*) 4. Biz tabiatni muhofaza qilishga yetarli e‘tibor bermadik, shuning uchun ba‘zi qushlar va hayvonlar kamyob bo‘lib qoldi. 5. Lekin azalda taqdirimiz qora bitilgan ekanmi, tez kunda boshimizga og‘ir kunlar tushdi. (*Oybek*) 6. Tut beor emasmi, tez tutib, o‘sa boshladi. (*T. Ashurov*)

2-topshiriq. Yuqoridagi qo‘shma gaplarni sodda gapga aylantiring.

3-topshiriq. 4 ta sabab ergash gapli qo‘shma gap tuzib yozing.

448-mashq. Berilgan qo‘shma gaplardagi *shuning uchun* bog‘lovchisini *chunki* bog‘lovchisi bilan, *chunki* bog‘lovchisini *shuning uchun* bog‘lovchisi bilan almashtiring. Bunda ular tarkibidagi sodda gaplar tartibi, ergash va bosh gaplarning munosabatida qanday o‘zgarish ro‘y berayotganini izohlang.

1. Yog‘och yengil, shuning uchun u suvda cho‘kmaydi. 2. Dangasa bahona izlaydi, chunki unga mehnat yoqmaydi. 3. Badantarbiya odamni so‘g‘lom qiladi, shuning uchun doimiy ravishda badantarbiya bilan shug‘ullanish lozim. 4. Ma‘rifatli inson hayotda adashmaydi, chunki ma‘rifat insonni to‘g‘ri yashashga o‘rgatadi. 5. Choyni damlaganimga ancha bo‘ldi, shuning uchun sovib qolgan bo‘lsa kerak. 6. Yolg‘on gap-pirmanglar, chunki yolg‘on iymonga ziddir.

449-mashq. 1-topshiriq. Berilgan maqsad ergash gapli qo‘shma gaplardagi bosh va ergash gapni aniqlang. Maqsad ergash gapning bosh gapga nima yordamida bog‘langanini ayting.

1. Odamlar yaxshi yashasin deb, tinchlikka imzo chekdik. (*G‘. G‘ulom*) 2. Zargar yasar tillaqosh, kelinchaklar taqsin deb. (*“Oq olma, qizil*

olma” qo’shig’idan) 3. Aymoq xalqi bizni do’stdek kutar deb, yurtningizga biz sig’inib kelganmiz. (*“Yodgor”dostonidan*) 4. Bizning maqsadimiz kishilarga ong, tushuncha bermoq; toki har bir kishi yaxshilik va yomonlikni, oq-u qorani o’zi ajratib oladigan bo’lsin! (*P. Tursun*) 5. Odamzod umr bo’yi boshimda bir yaxshiroq boshpanam bo’lsin deb, tinmay yelib-yuguradi. (*N. Qilichev*) 6. Salmoqqa yarasha ish qilish kerak, toki do’st-oshnolar desinlar balli. (*G’. G’ulom*)

450-mashq. Nuqtalar o’rniga maqsad ergash gap qo’yib ko’chiring, zarur tinish belgilarini qo’ying.

1. ... yer yaxob suvi bilan sug’orildi. 2. ... ko’chalar kengaytirilmoqda. 3. ... ko’p daraxtlar ekdik. 4. bolalar ohista gaplashardi. 5. ... O’zbekiston hukumati sportga katta e’tibor bermoqda. 6. ... telefon ixtiro qilingan.

451-mashq. Berilgan shart ergash gapli qo’shma gaplardagi bosh va ergash gapni aniqlang. Shart ergash gapning bosh gapga qanday vosita yordamida bog’langanini ayting.

1. Qalb salomat bo’lsa, fikr ham salomat bo’ladi. 2. Bir ish ko’ngildagidek ado etilsa, ikkinchisini bajarish ancha yengillashadi. (*Sh. Rashidov*) 3. To’nkalarni kavlab, bir chekkadan yorilsa, talay o’tin beradi. (*Oybek*) 4. Fosfor va kaliy o’g’itlari me’yoridagidan ortiqroq berilsa, kartoshkaning yetilishi tezlashadi. (*“Fan va turmush” jurnalidan*) 5. Yurak – zarur narsa. Yurak baquvvat bo’lsa, ish ham unumli bo’ladi, kishi charchamaydi. (*Uyg’un*) 6. Fursat boy berildimi, ishning keyin ketishi turgan gap. (*N. Safarov*) 7. Agarda xon ko’tarish manim qo’limda bo’lsa edi, xon qilib Otabekni ko’tarar edim! (*A. Qodiriy*) 8. Pol har doim yog’ tushsa yalaguday yarqirab tursin emish, bo’lmasa mehmon-izmon, oshna-og’aynidan nomus qilarmishlar. (*H. Nazir*)

452-mashq. Berilgan to’siqsiz ergash gapli qo’shma gaplardagi bosh va ergash gapni aniqlang. To’siqsiz ergash gapning bosh gapga nima yordamida bog’langanini ayting.

1. Urush har qancha dahshatli bo’lsa ham, hayotni to’xtatib qolishga qodir emas. (*H. G’ulom*) 2. Yomgir boyagidan ancha tezlashgan bo’lsada, osmon yorisha boshlagan edi. (*S. Karomatov*) 3. Ammo qanchalik

mushkul ish bo‘lmasin, jumboqni yechamiz. (*S. Karomatov*) 4. Garchi shuncha mag‘rur tursa ham, piyolaga egilar choynak. (*E. Vohidov*) 5. Otang mirob bo‘lsa ham, ariqni tozalab suv ich. (*Maqol*)

453-mashq. Quyidagi sodda gaplardan to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gap tuzing.

1. Yo‘l sirpanchiq edi. Nodir tayrilmasdan yurib kelar edi. 2. Yaylovni ko‘m-kok o‘t qoplab yotibdi. Mol kam. 3. Paxtazor juda katta edi. Terimchilar kun bot-masdan paxtasini terib bo‘lishdi. 4. Quyosh kunbotarga og‘ib, soyalar cho‘zilib qolgan. Tepalar hamon oftob selida jimirlab yotardi. 5. Otasi qattiq gapirdi. Salim xafa bo‘lmadi. 6. Darvoza ochiq. Uyda birov ko‘rinmasdi.

454-mashq. Berilgan miqdor-daraja ergash gapli qo‘shma gaplardagi bosh va ergash gapni aniqlang. Bosh va ergash gap tarkibidagi bir-biriga ishora qiluvchi vositalarni ko‘rsating.

1. Bug‘doy qanchalik sernam erga ekilsa, hosil shunchalik mo‘l bo‘ladi. (*“Sharq yulduzi” jurnalidan*) 2. Biroq Anvar o‘qishda qancha baxtli bo‘lsa, peshonada o‘shancha baxtsiz edi. (*A. Qodiriy*) 3. Men qancha xaroblashsam, u shuncha xursand bo‘ladi. (*Oybek*) 4. Normatovni sizlar qancha bilsalaring, men ham shuncha bilaman-da. (*A. Qahhor*) 5. O‘zbek oyim nabira masalasida qancha xursand bo‘lsa, Otabek shunchalik xafa edi. (*A. Qodiriy*) 6. Ochil qanchalik tez va ko‘ngli yumshoq bo‘lsa, Mahkam shunchalik vazmin edi. (*P. Qodirov*) 7. Hukmdor qanchalik oqil va odil bo‘lsa, ulamo, fuzalo ham haqgo‘ylikka shunchalik yuz tutadi. (*M. Mahmudov*)

455-mashq. Berilgan o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gaplardagi bosh va ergash gapni aniqlang. O‘xshatish ergash gapning bosh gapga nima yordamida bog‘langanini ayting.

1. Hozirgi ko‘tarinkilik, hayajon shu qadar qudratli ediki, go‘yo hosil to‘yiga millionlab kishi qatnashayotganday. (*R. Fayziy*) 2. Osmon shu qadar beg‘ubor, shu qadar ko‘m-ko‘k ko‘rinadiki, go‘yo hech qayerda bunaqa tiniqlik bo‘lishi mumkin emasdek. (*J. Abdullaxonov*) 3. Tosh shu qadar silliqki, go‘yo haykaltarosh xo‘p hafsala bilan yo‘ngan-u, ko‘tarolmay tashlab ketgan deysiz! (*H. Nazir*) 4. Do‘l shunday shiddat

bilan yogʻardiki, goʻyo yerdan chang koʻtarilib, havoni gʻubor bosdi, kunduz qorongʻilashdi. (*N. Safarov*) 5. Beda orasi juda issiq, goʻyo quyoshning butun olovi beda ichiga yashiringanday. (*Oybek*)

456-mashq. Berilgan natija ergash gapli qoʻshma gaplardagi bosh va ergash gapni aniqlang. Natija ergash gapning bosh gapga nima yordamida bogʻlanganini ayting.

1. Havo shu qadar issiq, dim ediki, ertalab oʻrilgan pichan kechgacha shaqirlab qurib qoldi. (*S. Anorboyev*) 2. Doʻl bir zumda shunday jadaliga oldiki, yer oppoq boʻldi. (*Sh. Rashidov*) 3. Safar qaridi. Gʻulomjon aka yurtini shunchalik sogʻingan ediki, har eslaganda, yurak-bagʻri ezilib ketardi. (*J. Abdullaxonov*) 4. Qop-qorongʻi tun shu qadar tinch va sokin ediki, hatto har bir sharpa ham bahuzur eshitilib turardi. (*R. Fayziy*) 5. Azimboy shunday zulm oʻtkazdiki, oqibatda xalqning sabr kosasi toʻldi. (*S. Anorboyev*)

457-mashq. Quyidagi sodda gaplardan natija ergash gapli qoʻshma gap hosil qiling.

1. Baʼzan odamning ruhida yengillik paydo boʻladi. Qanot chiqazib, olis ufqlarga uchib ketging keladi. 2. Poyezd tez yurib borardi. Atrofdagi narsalarni koʻz ilgʻamasdi. 3. Baʼzan shamol kuchli esadi. Unga qarshi yurish mumkin boʻlmay qoladi. 4. Ovoz juda tiniq, dilrabo edi. Muhabbat hayajondan entikib ketdi. 5. Nodirjon kitobga juda qiziqib qoldi. Koʻziga uyqu ham kelmay qoldi.

458-mashq. 1-topshiriq. Berilgan toʻldiruvchi ergash gapli qoʻshma gaplardagi bosh va ergash gapni aniqlang. Toʻldiruvchi ergash gapning bosh gapga nima yordamida bogʻlanganini ayting.

1. Shuni bilingki, xalq oʻz ishini bilib qiladi. (*Oybek*) 2. Kimki boʻlsa dilozor, undan el-u yurt bezor. (*Maqol*) 3. Biz shunga erishmogʻimiz kerakki, birorta ham bola sababsiz dars qoldirmasin. 4. Xalqimiz tushundiki, istiqlolni saqlash, uni rivojlantirish oson emas ekan. 5. Kim umumning manfaati uchun xizmat qilsa, uni xalq hamisha qoʻllab-quvvatlaydi. 6. Kuyovingizning qiziq tabiatini shundan ham yaxshi bilib olsangiz boʻlardiki, shu choqqacha ota-onalari ham bu fojidan

xabarsiz ekanlar. (A. Qodiriy) 7. Kishilar istaydiki, yer yuzi gulbo-
g'ining musaffo havosidan hamma bo'lsin bahramand. (G'. G'ulom)

2-topshiriq. Yuqorida berilgan qo'shma gaplardan to'ldiruvchi kengaygan bilan ifodalangan sodda gaplar tuzing va ularni gap bo'laklari bo'yicha tahlil qiling.

459-mashq. Quyidagi sodda gaplardan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap tuzing.

1. Ayol yigitning avzoyidan yomon niyatli kishi emasligini payqadi. (R. Rahmonov) 2. Bu ham sening o'z ishingga sadoqatingning zo'rligini bildiradi. (S. Ahmad) 3. Otlarning kishnashi, odamlarning hoy-huylashi manzilning yaqinligini bildirar edi. (M. Ismoiliy) 4. Ertalab Sohibaning ketib qolganligini eshitdim. 5. Olimlarimiz sabzavot va mevalar tarkibida 30 xildan ortiq darmondorilar mavjudligini aniqlaganlar. (K. Mahmudov) 6. Homidning bunday ishlari bor ekanidan xabarsiz yurganimizga hayron qolaman. (A. Qodiriy) 7. Berta Davidovaning bundan keyingi ijodi yanada barkamol, yanada istiqbolli bo'lishiga ishonamiz. (B. Nasriddinov)

460-mashq. *1-topshiriq.* Berilgan qo'shma gaplar tarkibidagi aniqlovchi ergash gapni va uni bosh gapga bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. Ilm-hunar shunday beminnat mulkki, odamga hech qachon ularning og'irligi tushmaydi. (R. Usmonov) 2. Ayrim talabalar borki, ular kitob o'qishga ahamiyat bermaydi. 3. Qaysi bir oilada totuvlik bo'lsa, u xonadon doim fayzga to'la bo'ladi. 4. Kimki ilmga tashna bo'lsa, uning qalbida yaxshilik guli bor. 5. Mehnat intizomi shunday bir vositaki, u ishda uyushqoqlikni, tashabbuskorlikni, ijodkorlikni ta'minlaydi. 6. Kenja botir ilgari qaysi yo'l bilan kirgan bo'lsa, yana shu yo'l bilan darvozabonning oldiga chiqdi. (Ertakdan)

2-topshiriq. Yuqoridagi qo'shma gaplardan sodda gap hosil qiling.

461-mashq. Quyidagi gaplardan **-ki** bog'lovchisi yordami bilan aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap tuzib yozing, zarur o'rinlarga vergul qo'ying.

1. Internet shunday tarmoq 2. Shunday o‘qituvchilar bor 3. Biz shunday zamonda yashayapmiz 4. Adabiyot shunday kuch 5. Insonda shunday yashirin imkoniyatlar bor 6. Kesim shunday gap bo‘lagi

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar

462-mashq. O‘qing. Qo‘shma gap qismlari orasida vergul va nuqtali vergulning ishlatilish sababini tushuntiring.

1. Kun botgan, butun atrof qorong‘ilashgan edi. (*S. Ayniy*) 2. Kumushbibi boshlovchi qizlar bilan uyga kirdi, undan taralgan atir ishlari bilan uy to‘ldi. (*A. Qodiriy*) 3. La‘lixon ishdan chetlatildi; asablari dab-dala bo‘lgan Jo‘raqulov yana jangga kirdi. (*Mirmuhsin*) 4. Cho‘loq turnachaning qaltirashi bosilgan, uning vujudiga bir bexavotirlik va ishonch kirgan edi. (*Sh. Xolmizayev*) 5. Gulnorning yuragi kuchli to‘l-qinlandi, butun gavdasini totli bir titroq bosdi. (*Oybek*) 6. Mayin yel cho‘qqilarni quchib yotgan qor nafasini olib keladi; muzlikdan sizib tushayotgan suv shildirab oqadi. (*Y. Shamsharov*) 7. Zumrad barmog‘ini siladi; nodir uzuk barmog‘ini, yo‘q, yuragini siqayotgandek bo‘ldi. (*S. Siyoyev*)

463-mashq. O‘qing. Qo‘shma gap qismlari orasida ikki nuqtaning ishlatilish sababini tushuntiring.

1. Tashqariga chiqib, ko‘ngli yanayam yorishib ketdi: badqovoq kulrang bulutlar uzoq-uzoqlarga chekingan. (*A. Obidjon*) 2. Ayolim qishin-yozin ichkari hovlining yumushini qiladi: kir yuvadi, uy-joyini supuradi, non yopadi, ko‘rpa qaviydi. (*Oybek*) 3. Ayniqsa, qorako‘l qo‘zilari nozik bo‘ladi: zax yerga yotdi deguncha, o‘pkasiga bag‘riqurt tushib, o‘lib ketadi. (*S. Anorboyev*) 4. Otamurod uzoqdan bo‘lsa-da, sezdi: boshliq og‘ir ahvolda qolibdi. (*M. Mansurov*) 5. Uni birdan qo‘rquv bosdi: go‘yo allaqanday yashirin ko‘zlar tevarakdan ularni poylab turgandek sezildi. (*Oybek*) 6. Odamning ko‘ngli nozik bo‘ladi: bir kichkina narsa bilan yo sinadi, yo ko‘tariladi. (*M. Ismoiliy*) 7. Muhsina xonimning chiroyi ochildi: erini bunday jahldor-u cho‘rtkesar holda ko‘rish unga yoqardi. (*M. M. Do‘st*) 8. Bir qadam tashlab, birov orqasidan tortganday to‘xtadi: mashina eshigi plashining belbog‘ini qisib

olgan edi. (*A. Ko'chimov*) 9. Fidoyilik bilan qilingan mehnat o'z samarasini ko'rsatdi: mo'l hosil yetishtirildi. 10. Rentgenolog vrachning rang-quti o'chdi: bemorning tomog'ida bilinar-bilinmas dog' bor edi. (*I. Rahim*) 11. Bola atrofga bir qarab tushundi: harakat qilish ham befoyda. (*Sh. Xolmirzayev*)

464-mashq. O'qing. Qo'shma gap qismlari orasida tirening ishlatilish sababini tushuntiring.

1. Suv keldi – nur keldi. (*Maqol*) 2. Jismimiz yo'qolur – o'chmas nomimiz. (*H. Olimjon*) 3. Qo'shning tinch – sen tinch. 4. Vaqting ketdi – naqding ketdi. (*Maqol*) 5. Egri ozadi – tog'ri o'zadi. (*Maqol*) 6. Biroz qor yog'di – sovuq bo'lmadi. 6. Hut kirdi – dehqonning ichiga qurt kirdi. 7. Qor yog'di – don yog'di. (*Maqol*)

Ko'chirma gapli qo'shma gap

465-mashq. O'qing. Ko'chirma gap va muallif gapini aniqlang. Tinish belgilarining ishlatilishiga e'tibor bering.

1. “Illo, bu bebaqo dunyoda faqat haq so'z boqiy qolur”, – dedi Bobur Mirzo. (*X. Sultonov*) 2. “Yo'q, otajon! – dedi Sheramat, – tinchlikni, hurriyatni, haqiqat oftobining balqib chiqqanini siz ham ko'rasiz!” (*Oybek*) 3. Bo'ri yugurib kelib, chol-ga: “Ota, bir mergan quvib kelayotibdi, meni bekitib qo'ying”, – debdi. (“*Chalpak yoqqan kun*” erta-gidan) 4. Elmurod hayron bo'lib so'radi: “I-y-e. Hali sizni birov o'ldirmoqchi ham bo'lganmi? Qanday yovuz ekan u?” (*P. Tursun*) 5. Yormat Yo'lchiga buyurdi: “Hov yigit, kechagi chopiqni bitirib qo'ying!” (*Oybek*)

Savollar:

1. Qanday gap ko'chirma gapli qo'shma gap deyiladi?
2. Ko'chirma gap nima?
3. Muallif gapi deganda nima tushuniladi?
4. Ko'chirma gap va muallif gapi qanday joylashadi?

466-mashq. Qo'shtirnoqlar ichiga muallif gapining mazmuniga mos ko'chirma gaplar qo'yib, ko'chiring.

1. „“ , – dedi otasi. 2. „ ... ? “ – deb so‘radi dugonasi. 3 „ ... !“ – xitob qildi Sobirjon. 4. „“ , – dedi professor Hamid Ne‘matov.

Ko‘chirma gap muallif gapidan oldin kelib, darak, so‘roq, undov gap bo‘lganda tinish belgilari qay tarzda qo‘yiladi?

467-mashq. Berilgan gaplarni zarur tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Nima, biron narsa tushib qoldimi beparvo so‘radi Salim. (*Oybek*)
2. O, tog‘lar, naqadar go‘zalsiz dedi to‘lqinlanib Akbar. 3. Men bozorga tushib, sabzi-piyoz olib kelaman dedilar dadam. 4. Buvim keldilar qichqirdi Nazira. 5. Yer – xazina, suv – gavhar deydi xalqimiz. 6. Senga nima bo‘ldi dedi u Asrorning sochini silab.

468-mashq. Qo‘shirnoqlar ichiga ko‘chirma gap qo‘yib yozing. Tinish belgilarining ishlatilishini izohlang.

1. Nodir Zulfiyadan so‘radi: “...?” 2. Zulfiya javob berdi: “”.
3. Qodirjon iltimos qildi: “...”. 4. Guruh rahbarimiz dedi: “...!” 5. Onasi o‘g‘liga dedi: “...”. 6. Ukasi akasiga yalindi: “...!”

Ko‘chirma gap muallif gapidan keyin kelib, darak, so‘roq, undov gap bo‘lganda tinish belgilari qay tarzda qo‘yiladi?

469-mashq. Berilgan gaplarni zarur tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Jo‘ravoy ota hamon o‘y surib o‘tirgan aftoda qiziga dedi: Hadeb o‘y sura ber-ma, E‘zoz (*H. G‘ulom*) 2. Iskandar yo‘lovchidan so‘radi Beshariqqa qanday borsam bo‘ladi 3. Qurbon ota zavqlanib dedi Yashanglar, azamatlar, boplabsizlar 4. Shodmon aka o‘g‘lidan so‘radi Qovunni qayerdan sotib olding 5. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul shunday deb yozgan edi Nafs amriga tobelarda hech payt ma‘naviy osoyishtalik bo‘lmaydi. 6. Salim o‘rtog‘iga dedi Hoy Sodiq, ko‘zingni och Keyin pushaymon bo‘lasan

470-mashq. Gaplarni o‘qing. Tinish belgilarining ishlatilishiga e‘tibor bering.

1. “Bultur ana shu kezda, – dedi Safar engashinqirab, – bozorga sakkizta bo‘z olib tushgan edim”. (*A. Qodiriy*) 2. “Qarg‘ashning hech keragi yo‘q, – dedi Marhamat. – Lekin bunaqa taltaytirish ham

yaxshimas-da”. (*H. Nazir*) 3. „Ulusning sho‘ri qursin! – dedi Tohir. – Kasofat podsholar urushmay turolmasa“. (*P. Qodirov*) 4. „Onajon, – dedi Otabek, – sizning zaharli so‘zlaringizga nima deyishga ham hayronman“. (*A. Qodiriy*) 5. „Shoir bilan uchrashuv qachon bo‘lar ekan? – so‘radi Zamira. – Men ham bormoqchi edim“.

Muallif gapi ko‘chirma gapning o‘rtasida kelsa, tinish belgilari qay tarzda qo‘yiladi?

471-mashq. Berilgan gaplarni zarur tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Qo‘zg‘almanglar dedi bizga samovarchi hali aravakash bu yerda dam olib, bafurja jo‘naydi. (*N. Safarov*) 2. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi dedi domla bolaning ruhiyatini chuqur bilishi kerak. 3. Menda ixtiyor yo‘q, oyijon dedi Kumush Sizlar nimani ma‘qul ko‘rsalaringiz, menga baribir. (*A. Qodiriy*) 4. Endi aravani chiqaraverasan-da, o‘g‘lon dedi G‘ani tog‘a O‘zim qo‘shib beraveraman. 5. Ishni tugatdingizlarmi so‘radi Zamira opa Oshni suzaveraymi 6. Pul topish qiyin soqolini tarab dedi boy ammo pul xarajat qshishni bilish undan ham qiyin. (*Oybek*)

472-mashq. Nuqtalar o‘rniga ko‘chirma gap qo‘yib ko‘chiring.

1. Mansur: „ ... “, – deb aytdi. 2. Otam „ ... “, – deb uqtirdilar. 3. Dugonam „ ... ?“ – deb so‘radi. 4. Bog‘bon ota: „ ... !“ – deb xitob qildi.

Ko‘chirma gap muallif gapining o‘rtasida kelsa, tinish belgilari qay tarzda qo‘yiladi?

473-mashq. Berilgan gaplarni zarur tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Arazlab turgan Ziyodaxon Sherbekning gapiga yumshab Bolalikdagi sho‘xligingiz haliyam qolmabdi dedi. (*S. Anorboyev*) 2. Yusufbek hoji Hasanalini ko‘rishi hamoni Ho-o-o, bizning Hasanali-ku dedi. (*A. Qodiriy*) 3. Ahmadjon undan sekin Jo‘ram qayoqqa ketayotibmiz deb so‘radi. (*A. Qahhor*) 4. Bobolar Qanotli chumoli chiqsa, yomg‘ir yog‘ishi kutiladi deyishadi. 5. Doro kamon qoshlarini chimirib, baland ovoz bilan: Hay odam, o‘zing kimsan deb so‘radi. (*M. Osim*) 6. Xotin umrida birinchi marta eriga tik qarab: Kim sizni tushungan odam deydi! dedi. (*Mirmuhsin*)

474-mashq. O‘qing. Tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qiling. Ko‘chirma gapni muallif gapidan keyin keltirib, tinish belgilarini qo‘ying.

1. „ Men olma tergani bog‘ga chiqqan edim“, – dedi Sanobar.
2. „Bizning qishlog‘imizday go‘zal qishloq yo‘q!“ – deb xitob qildi Anvarjon.
3. „ Arilarning g‘ashiga tega ko‘rmanglar, bir yopishsa qo‘ymaydi“ – deb ogohlantirdi Olim aka.
4. „Biz Kattaqo‘rg‘on tomondan bo‘lamiz, og‘lim“, – dedi chol.
5. „ Asal qanday dardlarga davo bo‘ladi?“ – deb so‘radi bir o‘quvchi.

475-mashq. Quyidagi gaplarga mashqning oxirida berilgan muallif gaplaridan mosini qo‘shib, tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Xo‘sh, bolalar, qani, aytinglar-chi, hozir sinflaring davomat masalasida nechanchi o‘rinda turibdi? ... (*X. To‘xtaboyev*)
2. Men o‘zbo-shimchalik qilganim yo‘q (*O‘. Umarbekov*)
3. ... Oh, o‘laman, ko‘p so‘zlama! (*A. Qodiriy*)
4. Bizga choy keltirib bersangiz ...
5. Qirgovul bilan bedana ... hech qachon tushgan joyida turmaydi.

(javob berdi bola yig‘lamsirab, dedi Maqsud kulib, deb so‘radi direktor, Kumushbibi ortiq chidolmadimi, qo‘rqinch bir tovush bilan hayqirdi, deb iltimos qildi Zulfiya opa)

476-mashq. Berilgan qoliplar asosida ko‘chirma gapli qo‘shma gap tuzing.

1. M: „K“. 2. M: „K?“ 3. M: „K!“ 4. M: „K“, – m. 5. M: „K?“ – m.
6. M: „K!“ – m. 7. „K“, – m. 8. „K?“ – m. 9. „K!“ – m. 10. „ K, – m. – K“.

477-mashq. Matni o‘qing. Ko‘chirma gapning suhbat nutqida qanday berilishiga e‘tibor bering.

Podsho Botir merganni so‘ramay-netmay dorga osmoqchi bo‘libdi. Shunda mergan podshoga:

– Taqsiri olam, sizga savollarim bor. Shularga javob bering, so‘ngra dorga ossangiz roziman, – debdi.

Podsho:

– Qanaqa savollar? – deb so‘rabdi.

Botir mergan podshoga:

- Taqsir, bola och qolsa, kimdan non so‘raydi? – debdi.
- Podsho o‘ylab turib:
- Otasi bilan onasidan so‘raydi, – debdi.
- Bola kimga erkalik qiladi? – deb so‘rabdi yana mergan.
- Ota-onasiga, – deb javob beribdi podsho.
- Unday bo‘lsa, taqsir, men sizning molingizni yolg‘iz o‘zim o‘g‘ir-lab yeganim yo‘q. Qirq uyli ovulimni qishdan sog‘-salomat olib chiq-dim. Ularni o‘limdan saqlab qoldim. (*„Botir mergan va chaqimchi“ ertagidan*)

O‘zlashtirma gap

478-mashq. Berilgan ko‘chirma gaplarni o‘qing. Ularni o‘zlashtirma gapga aylantiring.

1. „Ish qurollarini ishlatib bo‘lgach, doim tozalab qo‘yish kerak“, – deydilar dadam. 2. „Hozirgi kun yoshlari kamida uchta xorijiy tilni bilishi kerak“, – dedilar professor Hamid Ne‘matov. 3. „Maftuna, hozir qaysi badiiy asarni o‘qiyapsan?“ – deb so‘radi Nigina. 4. – Odamning qo‘lidan kelmaydigan hech bir ish yo‘q, – dedi Saodatxon, – odam hamma narsadan zo‘r. (*S. Zunnunova*) 5. – Xo‘sh, qanday yangiliklar bor? – dedi O‘ktam. (*Oybek*) 6. „She‘riyat tili – yurak, hissiyot, ruhiyat tili“, – deb yozadi adabiyotshunos Ibrohim Haqqul. 7. „Zamira, hovliga suv sep“, – deb buyurdi onasi. 8. „Menimcha, bu yil meva-cheva serob bo‘ladi“, – dedi Salim ota. 9. Xatda shunday deyilgan: „Afsuski, qurilish ishlari deysinib qoldi“.

Savollar:

1. O‘zlashtirma gap nima?
2. Ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda gapning tuzilishida qanday o‘zgarish yuz beradi?
3. Ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda undov va kirish so‘zlar ishlatiladimi?
4. Ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda undalma qay tarzda ifodalanadi?

479-mashq. Quyidagi ko‘chirma gaplarni **-ibdi** shakli yordamida o‘zlashtirma gapga aylantiring.

Namuna: „Uchrashuvga shoir Erkin Vohidov keldi“ – dedi Nazira. – Uchrashuvga shoir Erkin Vohidov kelibdi.

1. Tohir Malikning „Mehmon tuyg‘ular“ kitoboni uch kunda o‘qib chiqdim“, – dedi Nigora. 2. „Dadam bu yil bog‘ga 20 tup olma ekdilar“, – dedi Salim. 3. „Marjona „Yosh qalamkash“ tanlovida birinchi o‘rinni oldi“, – dedi Nozima. 4. „Mehmonlar bugun ertalab Buxoroga keldi“, – dedi Botir. 5. „Samad aka sport bilan shug‘ullanish orqali qandli diabet kasalidan xalos bo‘ldi“, – dedi Komil aka.

480-mashq. Matnni o‘qing. **-ibdi** shakli orqali ifodalangan o‘zlashtirma gaplarni aniqlab, ularni ko‘chirma gapga aylantiring.

– Tog‘ajon, bu uzumlarni qanday qilib yetishtirgansiz? – deb so‘radi Yolqinjon.

– Tokni qanday parvarish qilish to‘g‘risida bir dongdor sohibkor kitob yozibdi, – dedi tog‘asi. – O‘sha sohibkor o‘zining oltmish yillik tajribasini shu kitobda bir-bir bayon qilibdi.

Tog‘asi o‘sha kitobni o‘qibdi. Keyin kitobdan o‘rganganini ishga solibdi. Natijada so‘ridagi uzumlarni yetishtiribdi. (*N. Maqsudiy*)

481-mashq. Berilgan o‘zlashtirma gaplarni ko‘chirma gaplarga aylantirib ko‘chiring. Muallif gapining kesimi qaysi so‘z bilan ifodalanganini aytib bering.

1. Sobir aka ertaga havo ochiq bo‘lishini aytdi. 2. Zarina Umidadan matematika fanidan o‘tilgan mavzuni tushuntirib berishni iltimos qildi. 3. Shavkat aka iyul oyi dehqonlar hayotida eng mas’uliyatli davr ekanligini aytdi. 4. Guruh rahbarimiz badiiy asarlarni doimiy ravishda o‘qib turish lozimligini uqtirdi. 5. Sobir Nodirdan ta’tilda qayerga borishini so‘radi. 6. Mahmudjon Buxoroning diqqatga sazovor joylarini tomosha qilmoqchiligini aytdi.

PUNKTUATSIYA

482-mashq. Gaplarda qo‘llangan tinish belgilarining nomini va vazifasini ayting. Ularni: a) qo‘llanish o‘rniga ko‘ra, b) qo‘llanish usuliga ko‘ra, d) tuzilishiga ko‘ra tasnif qiling.

I. Inson uchun havo, quoyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, Vatan ham shunchalik mo‘tabardir.

Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat uning dalalari, qir-adirlari, moviyrang tog‘lari, dasht-u sahrolariga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi.

Qadimda dushmanlar turk davlatining xoqoni O‘g‘uzxondan unga qarashli tashlandiq, hech narsa bitmaydigan yerni talab qilishadi.

Bobomiz shunda: “Vatan yolg‘iz bizning mulkimiz emas. Mozorda yotgan otalarimiz va endi tug‘ilajak avlodlarimizning bu muborak tuproqda haqlari bordir. Vatandan ozgina bo‘lsa ham yer bermakka hech bir kimsaning haqqi yo‘qdir”, deb javob beradilar.

Biz vatanni sevmoqni dono bobolarimizdan o‘rganmog‘imiz kerak. Inson uchun Vatandan ortiq mehriyo bormi? Yo‘q, albatta! Vatan – ona kabi yagona. Yagonaligi bilan muqaddas va bebahodir! (*X. Davron*)

II. 1. Dasturxon yonida Kumushbibining latif bilagiga Otabek oltin uzuk solar ekan, u yerga qaragan holda edi.

– Men sizga hech narsa ham hozirlamagan edim...

– Hozirlamaganingiz uchun o‘kinasizmi?

– ... (*A. Qodiriy*)

2. Kecha bu gapni Nozimaga (sen uni yaxshi bilasan) aytgan edim.

3. Mayin yel cho‘qqilarni quchib yotgan qor nafasini olib keladi; muzlikdan sizg‘ib tushayotgan suv shildirab oqadi. (*Y. Shamsharov*)

Savollar:

1. Punktuatsiya bo‘limida nima o‘rganiladi?
2. Tinish belgilarining ahamiyati nimada?
3. O‘zbek tilida nechta tinish belgisi bor?
4. Tinish belgilari qo‘llanish o‘rniga ko‘ra qanday tasniflanadi?
5. Tinish belgilari qo‘llanish usuliga ko‘ra necha guruhga bo‘linadi?
6. Tinish belgilari tuzilishiga ko‘ra necha guruhga bo‘linadi?
7. Tinish belgilari vazifasiga ko‘ra qanday tasniflanadi?
8. Tinish belgilari gap mazmuniga ta’sir etadimi?

483-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtaning o‘rnini, ya’ni mazmuni va tuzilishiga ko‘ra qanday gaplar oxiriga qo‘yilganini izohlab bering.

1. Osmonni yana quyuuq bulut qoplagan. Birda-yarim yomg‘ir tomchilab qo‘yadi. (*P. Qodirov*) 2. Bir ish ko‘ngildagidek ado etilsa, ikkinchisini bajarish ancha yengillashadi. (*Sh. Rashidov*) 3. Ko‘z qo‘rqoq – qo‘l botir. (*Maqol*) 4. Bahor. Adirlarda g‘ir-g‘ir shabada esadi. (*Y. Shamsharov*) 5. – Menga ham varrak yasab bering. Anavi Daroz bolaning varragidan chiroyli bo‘lsin. (*Y. Shamsharov*) 6. Qarg‘ashning hech keragi yo‘q, – dedi Marhamat. – Lekin bunaqa taltaytirish ham yaxshimas-da. (*H. Nazir*) 7. „Ulusning sho‘ri qursin! – dedi Tohir. – Kasofat podsholar urushmay turolmasa“. (*P. Qodirov*)

484-mashq. Gaplarni o‘qing. So‘roq belgisining ishlatilish sababini tushuntiring.

1. Ha, Bo‘taboy aka, bemahalda nima qilib yuribsiz? Tinchlikmi? (*A. Qahhor*) 2. Bosh-ko‘zimni aylantirib, qo‘lga oldingiz, endi hunar chiqaryapsizmi? (*S. Karomatov*) 3. Birodar, Azizxon degan polvon bolani qaydan topsam bo‘ladi? (*S. Ahmad*) 4. Ha, aytgandek, qudangiznikiga yuborgan kishingiz keldimi? (*A. Qodiriy*) 5. – Kim kelyapti: Sarvimi, Rahbarmi yo akangning bolalarini yetaklab kelyapsanmi? (*G‘. G‘ulom*) 6. Nega jim o‘tiribsizlar? Og‘izlaringizga tolqon solib oldilaringizmi? Chirmanda chalib, qo‘shiqni boshlanglar! (*I. Rahim*) 7. Na o‘tin bo‘lma-sa, na o‘tinni yorgani teshasi bo‘lmasa, nima qilaman? 8. Bobongiz xafa bo‘lsalar maylimi? (*Hikoya sarlavhasi, M. Ismoiliy*) 8. Bu ishning hammasini yarim soat (?) ichida bajarar ekanmiz.

485-mashq. Oxiriga undov belgisi qo‘yilgan gaplarning turini (darak-undov, so‘roq-undov yoki buyruq-undov) ayting.

1. Behuda qon to‘kmoq, yurtni parchalamoqdan azim gunoh yo‘q! (*Oybek*) 2. Sendek itdan bizga qipchoq yaxshi! – Xalqning bu javobi ishning na darajaga yetganini anglatar edi. (*A. Qodiriy*) 3. Muncha serpiching bo‘lib ketibsiz. Menda alamingiz bormi! (*Shuhrat*) 4. Hoy, bo‘rilar! So‘zlaringdan qayt! (*Hamza*) 5. Iloyo, baxtingni bersin, yaxshi qayliqqa uchrab, bu kunlaring unut bo‘lsin, bolam! (*Oydin*) 6. – Olib bor, bachchag‘arni! Qamab qo‘y! – deb baqirdi mingboshi. (*Cho‘lpon*) 7. Shunday rohat turmushimizdan, shunday shirin umrimizdan darrov

bir yili ketdimi! Oh, dod deyman. (*A. Qahhor*) 8. Endi Halima chirsillab ketdi: – Ha, senga hazil qilib ham bo‘lmaydimi! (*O‘. Usmonov*) 9. To‘g‘ri tut ishingni va halol yasha! (*Shuhrat*) 10. Nega, mening dilim, titraysan nechun, Nechun yuragimni tirnaysan, g‘ashlik! (*A. Oripov*) 11. O‘z bolalaridan ikkitagina qurushqoq limonni ayaydirgan ota qanaqa ota axir! (*G‘ayratiy*) 12. – Ablah odam ekansan! – dedi imom. – Siz ham ahmoq mulla ekansiz! – dedi Safar bo‘zchi. (*A. Qodiriy*)

486-mashq. Gaplarning oxiriga nuqta, so‘roq yoki undov belgisini qo‘yib ko‘chiring.

1. Yigit yugurib borib, o‘tovlarning biridan qimiz olib keldi Ochil buva, Azimjon, shofyor navbatlashib ikki kosadan shimirdilar (*A. Muxtor*) 2. Marg‘ilonga nima yumush bilan kelgan edingiz (*A. Qodiriy*) 3. Men bunday haqoratga ortiq chidolmayman (*Z. Said, N. Safarov*) 4. Sen yuzingga oyoq tirab ketgan o‘sha beti qattiq xotiningnikiga bordingmi (*S. Ahmad*) 5. Yo‘lchi tishini qisirlatib dedi: –To‘pning og‘ziga qo‘yib, otib yuboringlar meni, qonxo‘rlar (*Oybek*) 6. Siz xalq bo‘ronini to‘smoqchimisiz Ovozini bo‘g‘moqchimisiz (*Oybek*) 7. O‘z ota-onasining ra‘yini qaytargan bolaning hech qachon kosasi oqarmaydi (*Mir-muhsin*) 8. O, yurak, yor kelmay, orziqqaning kelmay turib muncha o‘rtanmasang (*M. Ismoiliy*)

487-mashq. Berilgan gaplarni ohang va pauzaga rioya qilib o‘qing. Vergulning qo‘llanish o‘rnini aniqlab, vazifasini tushuntiring.

1. Narigi qirg‘oqdagi mevazorlarda o‘rik, olcha, olma, shaftolilar qiyg‘os gullab yotibdi. (*H. G‘ulom*) 2. Odamning ko‘ngli nozik bo‘ladi: bir kichkina narsa bilan yo sinadi, yo ko‘tariladi. (*M. Ismoiliy*) 3. Sochlari duv oqargan, ammo ko‘z qarashlari tiyrak doktor opa har kuni Sherzoddan nima tush ko‘rganini so‘raydi. (*O‘. Hoshimov*) 4. Ozod, echkemardan qo‘rqasanmi? (*M. Xidir*) 5. Bu tol ilgari, yo‘q edi-ku, qachon ekkansiz, dada? (*O. Husanov*) 6. Endi, mehmonlar, aybga buyurmay-sizlar, mening qiladigan ishim, boradigan yerim ko‘p. (*A. Qahhor*) 7. Albatta, u o‘z yuragini hech kimga ocha olmagan. (*Oybek*) 8. Yetmish kunlik bir qamal, yetmish kunlik chetdan va eng ozi qishloqlardan munosabatni uzib turish, albatta, Toshkentni bo‘ldirib qo‘ygan edi. (*A. Qodiriy*) 9. Ha, G‘ani samovarchi eski qadrdonim. (*H. G‘ulom*)

10. Yo‘q, Sulton dardini jiyaniga zinhor-bazinhor oshkor etmoqchi emas. (*X. Sultonov*) 11. Uzoqda, tog‘ yonbag‘irlarida, behisob qorako‘l qo‘ylari o‘tlaydi. (*Mirmuhsin*) 12. Kumushbibi boshlovchi qizlar bilan uyga kirdi, undan taralgan atir islari bilan uy to‘ldi. (*A. Qodiriy*) 13. Osmonning kunchiqish qismi endi oqara boshlagan, lekin hatto barvaqt turadigan qishloq ahli ham hali uyquda. (*O. Yoqubov*) 14. Ilm-hunar shunday beminnat mulkki, odamga hech qachon ularning og‘irligi tushmaydi. (*R. Usmonov*) 15. Iidiz oziq bersa, novda ko‘karar. (*Maqol*) 16. „Onajon, – dedi Otabek, – sizning zaharli so‘zlaringizga nima deyishga ham hayronman“. (*A. Qodiriy*)

488-mashq. Zarur o‘rinlarga vergul qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. – Bobojon kichik Vatan ham bo‘ladimi? – Bo‘ladi bolam bo‘ladi. Odamning yashaydigan uyi, hovli-joyi kichik Vatani. 2. Oq o‘rik shotut shaftoli va g‘aynolining sap-sariq yaproqlari hovli betini ko‘mib yotibdi. (*I. Rahim*) 3. Hayot abadiy, ammo u yosh avlod bilan barhayot. (*R. Usmonov*) 4. Yo‘q endi Mengliboyni hech kim yo‘ldan urolmaydi. (*S. Ahmad*) 5. Ammo do‘stingdan yaqin bir odamingdan to‘satdan shunday gap eshitish menga albatta og‘ir. (*P. Tursun*) 6. Ha o‘z manfaatini xalq manfaatidan yuqori qo‘yganlar doim adashadi. (*Uyg‘un*) 7. Yoshing yigirma beshga qarab ketyapti – dedi onasi – xotin kishi o‘ttizga kirsam, o‘tin bo‘ladi. (*O‘. Hoshimov*) 8. Shaftolizorda sa‘vaning goh fig‘onli nolasi goh shiddatkor chaqchaqi tinmaydi. (*S. Ahmad*) 9. Mansur Gavharning nozik ammo chayir qo‘lini mahkam qisdi. (*O‘. Hoshimov*) 10. Bora-bora cho‘l sahroga aylandi odamlar va otlarning suvga ehtiyoji osha bordi. (*M. Osim*) 11. Aql va baxt birlashsa insonning hayot yo‘li ravon bo‘ladi. (*Gazetadan*) 12. Afshonsoy tomonda qurbaqalar qurillar, dimoqqa archa, na‘matakgul, yovshan, bo‘ztikan va yovvoyi piyoz hidi gup-gup urardi. (*O. Yoqubov*) 13. Tajribalardan ma‘lum bo‘ldiki kobraning zahari hatto rak o‘smasini ham o‘sishtan to‘xtata olar ekan. (*«Fan va turmush» jurnali-dan*) 14. Oh bu yoqimli hid qayerdan keldi ekan. (*X. To‘xtaboyev*)

489-mashq. Gaplarni o‘qing. Tirening qo‘llanish o‘rni va sababini tushuntiring.

1. Baykal – jahondagi eng chuqur chuchuk suvli ko‘l. (*“Bolalar ensiklopedi-yasi”dan*) 2. Millatni uyg‘otish – uyg‘onganlarning vazifasi. (*Cho‘lpon*) 3. Og‘riq tishning davosi – ombur. (*Maqol*) 4. Endigi muhim vazifa – o‘rim-yig‘imni g‘oyatda qisqa fursatda uyushqoqlik bilan o‘tkazish. (*Gazetadan*) 5. Vaqting ketdi – baxting ketdi. (*Maqol*) 6. Ichkilik, bezorilik, buzilish, odobsizlik – hammasi bekorchilikdan kelib chiqadi. (*A. Muxtor*) 7. Rejasiz ish – qolipsiz g‘isht. (*Maqol*) 8. Ko‘z qo‘rqoq – qo‘l botir. (*Maqol*) 9. Men – Po‘latova Madina, Buxoro davlat universitetining pedagogika fakultetida o‘qiyman.

10. – Buva, cho‘ponlik yomonmi? – dedi Karim sekin.

– Yo‘q, chirog‘im.

– Qorovulchilik-chi?

– Qorovulchilik ham yomon emas.

– Hisobchi bo‘lish-chi?

– Hisobchilik ham yaxshi.

– Ichida eng yaxshisi qaysi?

– Kasbning yomoni bo‘lmaydi, – dedi buvasi. (*S. Anorboyev*)

490-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtali vergulning ishlatish sababini tushuntiring.

1. Bozorda hamma narsa bor: anjir, olma, o‘rik, nok; tesha, o‘roq, ketmon, belkurak; kosa, piyola, tovoq; tovuq, o‘rdak, kurka; shim, ko‘ylak, paypoq; qo‘y, echki, qoramol va hokazo. 2. Mayin yel cho‘qqilarni quchib yotgan qor nafasini olib keladi; muzlikdan sizib tushayotgan suv shildirab oqadi. (*Y. Shamsharov*) 3. Hozirgi asosiy vazifa quyidagilar: a) ariq-zovurlarni qazish va tozalash; b) yerlarni tekislash (balandliklarni surish yo‘li bilan); d) traktorlar ta‘mirini tugallash; e) bahorgi ekish ishlarini uyushqoqlik bilan boshlab yuborish.

491-mashq. Gaplarni o‘qing. Ko‘pnuqtaning qo‘llanish o‘rni va sababini aniqlang.

1. Kelimning shu yo‘sin yaxshi bo‘lishiga qaramasdan uning tabiatida harchand tirishilsa ham maqtab bo‘lmaydigan xususiyatlar bor: xasislikka o‘xshagan holat, tamagirlik kabi odat, ichiqoraliq kabi harakat va amsoli... (*A. Qodiriy*)

2. – Zaharni kim beradi?

Nima deyishga ham hayron tabib:

– Men... men... o‘zingiz o‘ylab ko‘ring-chi... Men darrov dori yuboray, darrov ichiring, tuzukmi? – dedi. (*A. Qodiriy*)

3. – Nahotki podshoh Bobur sen bo‘lsang?!

– Ha, men podshoh edim!

– Hozir-chi?

– Hozir... toj-u taxt da’vosidan voz kechdim. Endi faqat shoirona hayot kechirmoqchimen. (*P. Qodirov*)

4. Seni ham qayta ko‘rolmasmen deb o‘ylagan edim. Bosh omon bo‘lsa, ham-masi o‘tar ekan... (*P. Qodirov*)

492-mashq. Gaplarni o‘qing. Ikki nuqtaning qo‘llanish o‘rni va sababini aniqlang.

1. Bog‘ning turli joylarida har xil mevali daraxtlar: nok, o‘rik, behi, jiyda va hokazo anchagina. (*Oybek*) 2. Ayolim qishin-yozin ichkari hovlining yumushini qiladi: kir yuvadi, uy-joyni supuradi, non yopadi, ko‘rpa qaviydi. (*Oybek*) 3. Rentgenolog vrachning rang-quti o‘chdi: bemorning tomog‘ida bilinar-bilinmas dog‘ bor edi. (*I. Rahim*) 4. Elmurodga rota komandiri yoqmadi: tili qalampirdek achchiq, har gapni pisanda qilganday burab gapiradi. (*Shuhrat*) 5. Bola atrofga bir qarab tushundi: harakat qilish ham befoyda. (*Sh. Xolmirzayev*) 6. Mahalla ko‘chalari hech qachon bunchalar gavjum bo‘lmagan edi: baqir-chaqir ovozlari, arralarning chiyillashi, bolg‘alarning taqillashi eshitilardi. (*«Saodat» jurnalidan*) 7. Otamurod uzoqdan bo‘lsa-da, sezdi: boshliq og‘ir ahvolda qolibdi. (*M. Mansurov*) 8. Ziyo aka ajablanib dedi: – Qanday dardmandlik? Otabek sog‘-ku! (*A. Qodiriy*)

493-mashq. Gaplarni o‘qing. Qo‘shirnoq belgisining qo‘llanish o‘rni va vazifasini izohlang.

1. Mirzo Ulug‘bek da’vogarga: “O‘sha daraxtdan uch-to‘rt barg olib kel, men uning vositasida haqiqatni aniqlayman”, – debdi. (*“Yolg‘onchining izza bo‘lishi” rivoyatidan*) 2. «Kosmetika» aslida grekcha so‘z bo‘lib, u «go‘zallashtirish» degan ma’noni anglatadi. (*«Saodat» jurnalidan*) 3. Xo‘p, hozir ko‘ramiz.. «Yaxshi!».. «O‘rta».. «O‘rta».. Qani «a’lo»? Ruschadan nima uchun «yaxshi»? (*A. Qahhor*) 4. Birdan aya-majizning «ho‘kiz o‘ldirar» izg‘irini boshlandi. (*S. Nurov*) 5. Bashirjon

tili soʻzga kelmay, «qiyomatli» ukasiga ancha vaqt agʻrayib turdi, nihoyat, zoʻrma-zoʻraki jilmaygandek boʻldi. (*N. Aminov*) 6. “Tafakkur” jurnalini maroq bilan oʻqiyman. 7. “Yulduzli tunlar”da “Boburnoma”dan olingan parchalar ham uchraydi. 8. Anvarning tevaragida “xolis” maslahatgoʻylar ham koʻrinishib qoldilar. Ayniqsa bu “xolis”lardan biri pochchasi edi. (*A. Qodiriy*) 9. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning “Navoiyga qaytish” kitobi “Fan” nashriyotida chop etildi. 10. Ingliz tili boʻyicha oʻtkazilgan olimpidaning viloyat bosqichida 8-“A” sinf oʻquvchisi Gulchiroy Safarova 1-oʻrinni egalladi. 11. “OʻzDEU avto” qoʻshma korxonasida 1996-yildan boshlab “Neksiya”, “Damas” va “Tiko” yengil avtomobillari ishlab chiqarila boshladi. 12. Moskvadan uchib kelgan “Boing–767” samolyoti Toshkent aeroportiga qoʻndi. 13. “Oʻzbekiston Qahramoni” unvoni va “Oltin Yulduz” medali bilan 2005-yilgacha 55 kishi taqdirlangan. (*“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” dan*)

494-mashq. Gaplarni oʻqing. Qavs belgisining qoʻllanish sababini izohlang.

1. Fayzulla Qosimov (matematika oʻqitish metodikasi fani oʻqituvchisi) talabalar uchun “Tipik arifmetik masalalar” degan metodik qoʻllanma nashr ettiribdi. 2. Azamatlar oʻnlab aravalarga va ikki mashinaga (oʻn kun avval yana bir yuk mashinasi olingan edi) har nav yuklarni ildamlilik bilan ortmoqda edilar. (*Oybek*) 3. Propolis – asalarilar ajratadigan yelimsimon, smolali xushboʻy modda (tibbiyot va farmatsevtikada qoʻllanadi). (*“Oʻzbek tilining izohli lugʻati” dan*) 4. Julietta. Yana shovqin! Fursatim ziq! O, aziz xanjar! (Romeoning xanjarini oladi) Seni gʻilofingga solay! (Koʻksiga uradi) (*V. Shekspir*)

495-mashq. Punktatsiya qoidalariga muvofiq zarur tinish belgisini qoʻyib gaplarni koʻchiring.

1. Koʻp oʻtmay tolol zinasida vazmin qadam tovushlari eshitildi Humoyun eshikdan kirganda Bobur uning koʻzlariga endi lab ustini qoplagan nozik moʻyloviga kuchga toʻlib turgan xipcha sogʻlom gavdasiga havasi kelib tikildi Boburni qiynayotgan iztirobli tuygʻular uni behalovat qilayotgan issiqlar Humoyun uchun goʻyo yoʻq edi oʻn sakkiz yoshimda men ham shunday yigit edim-a endi nimam qoldi degan oʻydan Boburning koʻngli qattiq ezildi

Ota-bola ko‘rishib-so‘rashganlaridan so‘ng Humoyun otasining ro‘baro‘sigacha cho‘kka tushdi-da kulimsirab qo‘ynidan chiroyli sadaf quticha oldi

Hazratim shuni bir ochib ko‘ring

Bobur qutichani qo‘liga olib shoshilmay ochdi...

Bu qanday javohir deb so‘radi Bobur o‘g‘lidan.

Olmos emish (*P. Qodirov*)

2. – Tohir og‘a men Agar Andijonga siz bormasangiz men ham ketmasmen. Neki bo‘lsak shu yerda birga (*P. Qodirov*) 3. Obbo azamat-ey zap ajoyib yigit ekansan-ku (*M. Hazratqulov*) 4. Ichkari hovlida keksa Me‘mor atrofida qizi va xotini shumshayib o‘tirishardi o‘rtada ustiga eski dasturxon yopilgan kursi, kursi ustida non, qand-qurs, choy... (*Mirmuhsin*) 5. Do‘kon ikki bo‘lmadan iborat edi kichkina ayvonchadan o‘tib kiriladigan dahliz va soch-soqol olinadigan ichkari xona. (*S. Siyoyev*) 6. Tog‘larda odatda ayiq, bo‘ri, yovvoyi cho‘chqa, silovsin, bo‘rsiq, tulki, jayra uchraydi. (*M. Musayev*) 7. Ilonlardan tashqari turli xil hasharotlar beshiktervatar, qora chigirtka, ninachi va boshqalar ham o‘z rivojlanishi davomida qobig‘ini yangilaydi. (*“Fan va turmush” jurnalidan*)

USLUBIYAT

NUTQ USLUBLARI

496-mashq. Berilgan matnlarni o‘qing. Ularda nima haqida gapirilgan – bitta narsa haqidami yoki turli narsa haqidami? Qanday gapirilgan – bir xildami yoki turli tarzdami? O‘ylab ko‘ring, har bir matn qayerda qo‘llanishi mumkin? Misol uchun birinchi va ikkinchi matnni oiladagi suhbatda qo‘llash mumkinmi? Uchinchi matnni birinchi matn o‘rnida qo‘llab bo‘ladimi? Nima uchun?

1. O‘zbekistonning geografik xaritasiga nazar tashlar ekanmiz, respublikamiz O‘rta Osiyoning markaziy qismida, Sirdaryo bilan Amudaryoning oralig‘ida joylashganini ko‘ramiz. Faqat Toshkent va Namangan viloyati Sirdaryoning o‘ng tomonida, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘istonning bir qismi Amudaryoning chap tomonida joylashgan.

Tutgan o‘rni va murakkab relyefi tufayli O‘zbekistonning tabiiy sharoitlari ham har xil. Respublikaning sharqi va janubi-sharqiy Tyan-shan (Tangritog‘), Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog‘lari bor. Tog‘larning cho‘qqilari muzliklar, doimiy qor qatlamlari bilan qoplangan. Respublikamizning g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy qismiga borgan sari ulkan tog‘lar pasayib, tog‘ yonbag‘ri tekisliklari go‘zal xushmanzara vodiylarga aylanadi. So‘ng vodiylar tugab, asta-sekin suvsiz cho‘llar, poyonsiz qumliklar boshlanadi. (*“Bolalar ensiklopediyasi”dan*)

2. O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston,

Dostonlarda bitgan guliston –

O‘zbekiston deya atalur,

Uni sevib el tilga olur.

Chiroylidir go‘yo yosh kelin,

Ikki daryo yuvar kokilin

Qorli tog‘lar turar boshida,

Gul vodiylar yashnar qoshida.

Chor atrofga yoyganda gilam

Aslo yo‘qdir bundayin ko‘klam.

Tog‘lardagi qip-qizil lola

Bo‘lib go‘yo yoqut piyola,

Buloqlardan uzatadi suv

El ko‘zidan qochadi uyqu. (*H. Olimjon*)

3. Men yurtimizni xo‘p kezganman. O‘zbekiston zap ajoyib o‘lkada. Bir tomoni tog‘, bir tomoni vodiy, bir tomoni cho‘l. Farg‘ona

vodiysidagi tog'larga chiqqanman. Biram balandki, cho'qqisiga qarasang, do'pping tushib ketadi. Soylarining suvidan ichib maza qilganman.

Yurtimizning meva-yu qovun-tarvuzlarini aytmaysanmi? Oldida asal bekor. Buxoroda bitta qovunni bir o'zim tushirganman. Mazasi haliyam og'zimdada.

Yurtimizning odamlari-chi? Biram odamoxun, xushsuhbatki, hango-malashib to'ymay-san. (*Suhbatdan*)

Matnlarning uslubini aniqlang. Har bir uslubga xos leksik va boshqa vositalarni ko'rsating.

497-mashq. Berilgan gaplarning qaysi uslubda ekanligini aniqlang. Har bir gapning leksik va grammatik uslubiy belgilarini ko'rsating.

1. Hoy juvonmarg, zumrasha, tag'in ko'chagami? Bu yoqqa kel, o'tinni tutashtirib ket, tutay berib, ko'zimni ko'r qilayozdi. 2. Favvorachalardan oftob nurida kumushday tovlanib taralayotgan suv zarrachalari atrofga ajib bir tarovat baxsh etardi. 3. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. 4. Yurtimizda bolalar sportini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, barcha imkoniyatlarga ega sport inshootlari, zallari qurib ishga tushirilmoqda. 5. Manfiy zaryadli eng kichik zarracha elektrondir. 6. Quyosh terakzor orqasiga botayotgan, g'arb ufqiga alvonrang shafaq yoyilgan ajib oqshom edi. 7. Nima qilib bu ezma-churukni sudrab yuribsiz, beti qursin. 8. Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. 9. Ma'lum bo'lishicha, barg hujayralaridagi alohida modda – xlorofillning yashil donachalarida suv va karbonad angidrid gazining qand va kraxmalga aylanishi sodir bo'lar ekan. 10. Toshkent shahrida 2014-yil 28-mart kuni Shanxay hamkorlik tashkiloti Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi kengashining navbatdagi yigirma to'rtinchi majlisi bo'lib o'tdi. 11. Akam paqirning qornini yorsang, alif chiqmaydi-yu, tag'in falon-u pismadon deganiga kuyaymi! 12. Azot oqsil moddalari tarkibiga kiradi. Oqsil esa bakteriyalar, o'simliklar, hayvonlar va nihoyat odam kabi barcha tirik mavjudot asosidir. 13. Bu ko'zlarda tuyg'unlik, oliyjanoblik, ko'ngilning bahoriy tozaligi, iliqligi jilvalanar edi. 14. Uzoq tumandan kelganligimni va qatnab o'qishga imkoniyatim yo'qligini e'tiborga olib, menga talabalar yotoqxonasidan joy berishingizni so'rayman. 15. Barkamol avlod va ma'naviyatli yoshlar, so'zsiz, millat va davlat tayanchidir. Yurt poydevori ma'naviyat bilan mustahkamlansa, mamlakat rivojlanadi, dunyo hamjamiyatida o'z munosib

oʻrnini topadi. 16. Koʻklam noxush koʻngilning bir chetini yorishtirib turar, surur, sevinch bagʻishlar, koʻrkini «koʻz-koʻz» qilardi. 17. Yulduzlardan tashqari Galaktika tarkibiga mayda qattiq kosmik chang va gazlarning juda yirik siyrak buluti ham kiradi. 18. Pismani ja xursand, ogʻzi qulogʻida, yoʻrgʻalagancha ketyapti. 19. Kichikligidan kitobga oshno boʻlgan bola toza qalb egasi boʻlib kamolga etadi, xalqimizning boy maʼnaviy merosiga hurmat bilan qarashni, avaylab-asrashni oʻrganadi. 20. Abituriyentlardan hujjat qabul qilish jarayonini nizom talablariga muvofiq tashkil qilish masʼul kotib N. Rahimov zimmasiga yuklatilsin.

Soʻzlashuv uslubi

498-mashq. Matnni oʻqing. Soʻzlashuv uslubiga xos soʻz va iboralarni aniqlang.

– Xoʻsh, oʻzingning ishing qanday?

– E, meniki ham, qoʻyaver, tozayam maza qildim-da, bu jonivor sigir shunday yovvosh, shunday bir baraka topgur ekanki, yetaklab olib yurib, bir uvatga qoʻyaman, xuddi qoziqqa bogʻlab qoʻyganday oʻsha yerdan bir qarich qimirlamasadan oʻtlaydi, oʻtlab turgan joyida oʻt sop boʻlib qolsa, “Naryoqqa oʻtsam mumkinmi?” deganday qilib menga sekin qiya qarab qoʻyadi. “Ha, jonivorgina”, deb yetaklab nariroqqa jildirib qoʻyaman. Shunday qilib, qaragam, sigir emas, jonning rohati ekan, keyin bir seroʻtloq uvatga yetaklab olib borib qoʻydim-da, ariq boʻyidagi tolning salqinida maza qilib uyquni urdim. Ikki-uch kundan buyon boʻlgan hamma hordiqalarim chiqib ketdi. (*Gʻ. Gʻulom*)

499-mashq. Matnni oʻqing. Soʻzlashuv uslubiga xos fonetik, leksik, frazeologik xususiyatlarni izohlang.

– Adol, etikni tort!

– Ha, erimmisan?

– Seni er olsa jon derding-a. Burningni qara!

– Burnimga nima qipti?

– Oynakka qaraganmisan oʻzing. Bu burun emas, Xalcha xolam kovush yechib qoʻyganga oʻxshaydi. Etikni tort!

Adol ham boʻsh kelmadi.

– Sen oʻlgurni er olmaydi. Er senga xotin boʻlib tegadi. Prikaz berishini qaranglar-a! Ovozing oʻlgur ham moʻridan chiqqandek gumbur-

laydi. Oting o'lgur ham erkakcha, Asror. Basharang habashga o'xshagan qop-qora, yurishing ayiqqa o'xshaydi. Bitta mo'ylov kam. Mo'ylov qo'ysang, sen bilan kechqurun yurgan qiz gap-so'z bo'ladi.

Qizlar qotib-qotib kulishdi.

– Ha, bo'sh kelma, Adol. U bittani gapirsa, sen o'ntani qo'ndirasan-a.

– Ke, bo'ldi, etikni tort. Men shatta qolaman. Biznikiga kirib ayamga aytib qo'yasizlar. Dildor opaning oldida qoldi deb qo'yarsizlar. Bo'p-timi?! (S. Ahmad)

500-mashq. Matnni o'qing. To'liqsiz gaplarda qaysi gap bo'lagi tushirib qoldirilganini aniqlang.

Otabek yana dedi:

– Odam qo'shsangiz men keltiray guvohimni!

– Tinchlaningiz, Otabek, – dedi qushbegi. Otabek biroz o'zini yig'ib olgandan keyin so'radi:

– Nima olgan edingiz?

– Maktub.

– Kimdan?

– Otamdan.

– Qachon?

– Toshkentda isyon boshlanishi oldidan.

– Undan keyin-chi?

– Olmadim. (A. Qodiriy)

501-mashq. “Kiyinish odobi haqida davra suhbat”, “Navro'z saylida”, “Tarbiya sirlari haqida suhbat”, “Tilimiz haqida fikrlar” mavzularidan birini tanlab matn tuzing. Bunda so'zlashuv uslubiga xos vositalardan foydalaning.

Ilmiy uslub

502-mashq. Matnni o'qing. Ilmiy uslubga xos leksik va grammatik vositalarni aniqlab, izohlang.

Ertak – xalq og'zaki ijodidagi qadimiy janr, cho'pchak. Ertak barcha xalqlar og'zaki ijodida qadimdan shakllangan va faol janrlardan sanaladi. Ertaklar asosan nasrda yaratilib, sujeti asosida sehrli-fantastik, sarguzasht yoki maishiy xarakterdagi voqealar yotadi, voqealar bayoni va talqinda ijodiy fantaziya, to'qima salmoqli o'rin tutadi. Shuning uchun ham ertakchilar tomonidan hikoya qilingan ertak tinglovchilar

tomonidan avvalo ertak deb, ijodiy fantaziya mahsuli deb qabul qilinadi. Biroq bu ertaklar voqelik bilan tamoman aloqasini uzgan degani emas. Ertaklarda (ayniqsa, maishiy ertaklarda) reallik bilan aloqa yaqqol koʻzga tashlanadi. Qadimiyligi tufayli ertaklarda ajdodlarimizga xos mifologik tafakkur elementlari, totemizm, anemizm qoldiqlari saqlanib qolgan. Mazkur hol sehrli ertaklar bilan hayvonlar haqidagi ertaklarda koʻproq koʻzga tashlanadi, bu ularning nisbatan qadimyroq ekanligining dalolatidir. Kishilik jamiyati taraqqiyoti barobarida ertaklar ham sifat jihatdan oʻzgarib boradi: hayotiy tajriba va kuzatishlarga asoslangan maishiy mavzudagi ertaklar kengroq oʻrin egallay boshlaydi, sehr-jodudan deyarli forigʻ sarguzasht-avantyur sujetli ertaklar yaratiladi, hayvonlar haqidagi ertaklarning totemistik va animistik mazmun yoʻnalishi majoziylik bilan almashadi va h. (*Adabiyotshunoslik lugʻatidan*)

503-mashq. Berilgan terminlarni qaysi fanga oidligiga koʻra guruhlab, sarlavha bilan yozing. Har bir terminning maʼnosini izohlang. Shu terminlarning 8 tasi ishtirokida gap tuzib yozing.

Kesim, son, aylana, undalma, kompas, bogʻlama, soʻz, metafora, xarita, turoq, koʻpaytirish, ayirish, bosh boʻlak, yulduz, arxaizm, sayyora, metonimiya, uslub, osmon jismi, vazn, sifat, doira, atoqli ot, turdosh ot, perimetr, ertak, ufq, hikoya, atmosfera, tovush, majoz, giponim, materik, okean, boʻgʻin, denotativ maʼno, badiiy obraz, band, masal, istorizm, harf, alifbo, kometa, gap, raqam, band, istiora, konnotativ maʼno, boʻlish, togʻ, latifa, bitishuv, jonlantirish, masshtab, asotir, jargon, gerbariy, ildiz, tekislik, janr, barxan, sheʼr, daryo, meteor, semema, globus, yil, masala, sutka, sujet, maqol, adir, doston, kvadrat, topishmoq, daryo, kanal, komediya, xarita, toʻgʻri toʻrtburchak, adir, tenglama, tugun, obraz, adabiy ertak, ergash gap, anafora, choʻl, tenglik, qoʻshiq, rivoyat, qofiya, dengiz, ildiz, qissa, oʻxshatish .

504-mashq. “Kesim”, “Leksikologiya”, “Gap”, “Toʻrtburchak”, “Tenglama”, “Aylana va doira”, “Maqol”, “Sujet”, “Barg”, “Materiklar” mavzularidan birini tanlab, ilmiy matn tuzing.

Rasmiy uslub

505-mashq. Berilgan matnlarni o‘qing. Rasmiy uslubga xos leksik va grammatik xususiyatlarni izohlang.

1. **9-modda.** Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo‘yiladi. Referendum o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

10-modda. O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O‘zbekiston xalqi nomidan ish olib borishi mumkin emas.

11-modda. O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishiga asoslanadi. (*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan*)

2. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi²

Ushbu sohadagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha tegishli takliflarni tayyorlash maqsadida:

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruh va kichik ishchi guruhlar tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ishchi guruh (A.Aripov)ga bir oy muddatda soha mutaxassislari va ekspertlarini keng jalb qilgan holda, ilg‘or xorijiy tajribalarni inobatga olib, quyidagi masalalarni atroflicha o‘rganish va chuqur tahlil qilish asosida tegishli takliflarni ishlab chiqish topshirilsin:

aholi, ayniqsa, yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo‘lgan talabni o‘rganish, shu jumladan, ijtimoiy so‘rovlar orqali aniqlash, nashriyotlar tomonidan chiqariladigan badiiy, ma‘rifiy, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga doir adabiyotlarning (shu jumladan, elektron shaklda) umumiy buyurtma ro‘yxatini shakllantirish tizimining holati;

² Farmoyish qisqartirib olindi.

kitoblarni chop etish hamda aholiga yetkazib berishni o‘z ichiga olgan boshqaruv tizimining, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga va o‘zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini chet tillariga tarjima qilish ishlarining tanqidiy tahlili;

noshirlar va adiblarni moliyaviy rag‘batlantirish, bolalar adabiyotiga ixtisoslashgan nashriyotlarga moliyaviy imtiyozlar berish va moddiy qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish, matbaa korxonalarini va nashriyotlarga kitob ishlab chiqarish uchun sifatli qog‘oz va matbaa xomashyolarini chetdan xarid qilish tartibini takomillashtirish.

3. Ishchi guruh (A. Aripov) ikki oy muddatda mutasaddi vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, matbuot va axborot hamda axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi yagona davlat siyosatini yurituvchi vakolatli davlat organini belgilash, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini rivojlantirishni inobatga olgan holda tegishli kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun kiritсин.

4. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev
Toshkent shahri,
2017-yil 12-yanvar

506-mashq. Quyida ish qog‘ozlaridan ariza, ma’lumotnoma va tushuntirish xati berilgan. Ularni o‘qib leksik va grammatik xususiyatlarini izohlang.

Buxoro davlat universiteti maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti dekani B. J. Umarovga
4-3BTU-17 guruhi talabasi Marjona Murtazoyevadan

ARIZA

Kasalligim tufayli qishki semestrda yakuniy nazoratlarni vaqtida topshira olmadim. Ana shu yakuniy nazoratlarni topshirishga ruxsat berishingizni so‘rayman.

Arizamga kasalligim haqidagi shifokor ma’lumotnomasi ilova qilindi.

2006. 22. 02

(imzo)

M. Murtazoyeva

MA'LUMOTNOMA

Ushbuni ko'rsatuvchi Safarova Gulchiroy haqiqatan ham Buxoro shahar Piridastgir ko'chasi 1-uy 32-xonadonda turadi.

Ma'lumotnoma Buxoro shahar pasport bo'limiga ko'rsatish uchun berildi.

Mahalla komissiyasi raisi

D. Kamolov

Kotiba

R. Rajabova

2006. 17. 05

Buxoro davlat universiteti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani B. J. Umarovga
4-3BTU-17 guruhi talabasi Adiba Haydarovadan

TUSHUNTIRISH XATI

Men 2006-yilning 12- noyabaridan 28-noyabrigacha bo'lgan davrda onamning qattiq betoblighi tufayli 46 soat darsga qatnasha olmadim.

Ilova: onamning kasalligi haqidagi shifokor ma'lumotnomasi.

2006. 29.11

(imzo)

A. Haydarova

507-mashq. Namunaga qarab ariza, ma'lumotnoma yoki tushuntirish xati yozing.

Publitsistik uslub

508-mashq. Matnlarni o'qing. Publitsistik uslubga xos leksik va grammatik xususiyatlarini izohlang.

1. O'zbekistonning Tokiodagi elchixonasida mamlakatimizning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mavzusiga bag'ishlangan davra suhbatini bo'lib o'tdi. Unda Yaponiya ilmiy akademik, ishbilarmon doiralari, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Tadbirda mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti rivojlanishining barqaror yuqori sur'atlari, ijtimoiy-iqtisodiy va demokratik islohotlar hamda "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturining hayotga tatbiq etilishi bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Davra suhbatida chog'ida mustaqil rivojlanish yillari davomida respublikamizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti asosidagi kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga yo'naltirilgan demokratik huquqiy davlatni barpo qilish borasida keng qamrovli o'zgarishlar ro'y berayotgani qayd etildi. (*"Xalq so'zi" gazetasidan*)

2. Nihoyat Charos Zulfiyaxonim siymosini tabiatdagi eng go'zal va yorqin ranglar asosida yaratishga kirishdi. U shoira qizari, hayo-yu ibo yog'ilib turuvchi suluv yuzlari rangini chiqarish uchun bir nuqta sanchgan ignasiga endi ikkinchi rangdagi ipak bilan igna uradi. Ranglar ranglarni boyitib, hali biz ehtimol nomlamagan tuslarni yuzaga keltiradi. Shoira chiroyli boqishlarini tabiiy va ta'sirchan chiqarmoq uchun Charos o'nlab tusdagi iplarga murojaat qiladi. Zulfiyaxonim egnidagi atlasga jilo bermoq uchun quyoshning chiqishi-yu, botishidan turfa tovlanishlar qidiradi...

Hikoya qilganimizdek, ota-ona ko'magi, ustozlar xizmati, qolaversa, mamlakatimizda yosh avlod kamolotiga, ayniqsa, ularning san'atga oshno bo'lib yetishiga hukumat miqyosida ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar sharofati bilan iqtidor o'z bo'y-bastini ko'rsatayotir. Zero iste'dodni gulga qiyoslasak, u parvarish etilsagina, unib-o'sib el-yurt xizmatiga shaylanadi. Onajon vatanimiz bag'rida yuzlab iste'dodlar mehr va ixlos ila tarbiya etilayotgani esa diyorimizning ertangi saodatli kunlaridan xushxabarlar yo'llaydi. (*"Ma'rifat" gazetasidan*)

Badiiy uslub

509-mashq. Matndagi badiiy tasvir vositalarini aniqlab tahlil qiling.

Baland cho'qqilarni, adirlarni, daraxtlarni bosib qolgan bu yerda shunday yumshoq va iliq ko'rinadiki, go'yo tog'ga qor tushgan emas, mayin oq kigiz yopilgan. Ikki cheti muzlasa ham sharqirab oqayotgan daryochalar qaynagan qozonday bug'lanadi, soyda oq bulutlar ko'chib yurganday tuyuladi. Yaqindagina vazmin shovullab, salobat to'kib turgan azim chinorlar endi oq to'n yopingan mo'ysafidlarday sokin mudraydi. Faqat yuksak qoyalar bag'ridagi ko'm-ko'k archalar momiq oq kigiz sathida yana ham yashilroq ko'rinib, bahri dilini ochadai kishining. Mashrabga shunday tuyuladiki, go'yo bular archa emas, oq ro'moldan chiroyiga chiroy qo'shilgan suluv kelinchaklar... (*O. Yoqubov*)

510-mashq. Abdulla Oripovning "Bahor" she'ridan olingan parchani o'qing. Tasviriy vositalarni topib, izohlab bering.

Dilbar kelinchakning ko'ksida g'ulu,
 Zardolu shoxiga tashlar ko'z qirin.
 Barg aro shu'lalar, kaftlarmikan u,
 Bahor tetapoya go'dakday shirin,
 Yuksak arg'uvonning uchida hilol
 Paxmoq bulutlarni etadi nimta.
 Qaydadir shoira kuylaydi behol:
 – Ko'nglim ham bu kecha oyday yarimta...
 Uvada kamzulda billur tugmaday
 Bulutlar ortidan boqadi yulduz.
 Qaydadir yurtini eslab ingrar nay,
 Qaydadir qo'zigul yoradi ildiz.
 Qaydadir gulshandan axtarib visol
 Yel kezar – tog'larning go'zal arvohi.
 Shoirning dilrabo baytlari misol
 Oh tortib tizilar turnalar gohi.
 Qizg'aldoq bargiday uchar dildan g'am,
 Toshqinlar kiradi qalbinga manim.
 Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam,
 Mening O'zbekiston – dilbar vatanim.

LEKSIK USLUBIYAT

511-mashq. Nuqtalar o'rniga fikrni eng aniq ifodalaydigan so'zlarni qo'yib yozing. Tanlovingizni asoslab bering.

1. Komiljon xotiniga mehr bilan uzoq... (tikilib, termilib, qarab, o'qrayib) turdi. (*S. Zunnunova*) 2. Abdug'afur ota hamsuhbatini birinchi marta ko'rayotgandek, unga qattiq... (termildi, qaradi, tikildi, o'qraydi). (*“Sharq yulduzi” jurnalidan*) 3. Konkursda yosh tadqiqotchilarning diqqati fan va texnikaning eng (zarur, asosiy, muhim, katta) yo'nalishlariga qaratilgani namoyon bo'ldi. (*«Fan va turmush» jurnalidan*) 4. Xudoyi taolo (kishini, odamni, insonni) hamma jonivorlardan aziz-u mukarram etib yaratdi. (*Mirmuhsin*) 5. Olma to'p etib yerga ... (yiqildi, tushdi, quladi). 6. Ko'chada gursillab devorlar... (tushadi, yiqiladi, qulaydi), sharaqlab daraxtlar (tushadi, yiqiladi, qulaydi). (*A. Qahhor*) 7. Hozir institutga ... (ketaman, boraman). 8. Do'stlarining soni bilan emas, sodiqligi bilan ... (g'ururlan, faxrlan, mag'rurlan). (*Shuhrat*) 9. Ergash dunyoda shunday ajoyib narsaning borligini

Xolmuroddan ko‘ra yaxshiroq bilganidan ... (faxrlanayotgani, g‘ururlanayotgani, mag‘rurlanayotgani) ko‘rinar edi. (*P. Tursun*) 10. ... (shirin, chuchuk) suvni sog‘inish tuyg‘usi hali menga tanish emas, lekin shu daqiqadan uni men seza boshladim. (*A.Muxtor*) 11. Ba‘zan jon boshiga bazo‘r yarim stakandan tegadigan ... (ichimlik, ichimli, ichkilik) suvni gul tagiga quyishar edi. (*T. Rustamov*)

512-mashq. Leksik birikuvchanlikning buzilishiga olib kelgan so‘zlarni ko‘rsating. Nutqiy xatolarni tuzating.

1. Nodir pol qoqish uchun yo‘gon taxta sotib oldi. 2. Qo‘ylar galasi yaylovga yoyilib ketdi. 3. Qadimgi Buxoro o‘zining betakror madaniy obidalari bilan mashhur. 4. Bu avtobus markaziy dorixonaga ketadimi? 5. Sen meni to‘g‘ri yashashga bermayapsan. 6. Yaxshi ishlasak, turmushimiz obod bo‘ladi. 6. Shipdagi qandil yumshoq yog‘du taratardi. 7. Insonning qimmatini uning xulqi va mehnati bilan o‘lchanadi. 8. Dot-sent Fayzulla Qosimov matematika o‘qitish metodikasidan uslubiy qo‘llanma chiqardi. 9. Axloqsizlik XX asrning ulug‘ fojiasidir. 10. Bu vaqtda 30-40 daqiqadan ortiq yurmang, 3 kg dan ortiq buyumlarni ko‘tarmang. 11. Kam-kamdan tez-tez ovqat qabul qilish kerak. 12. Bu holda og‘riyotgan joyini bosib ko‘rsangiz og‘riq ko‘payadi.

513-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni sinonimlari bilan almashtiring, bunda ularning ma‘nosini kuchaytirishga, jumla ma‘nosiga kuchli hissiylik kiritishga harakat qiling.

1. **Osmonda** burgutlar **uchib yuribdi**. 2. Bolaning ko‘zlarida **hayronlik** aks etdi. 3. Uchqun oyisining boshiga tushgan **tashvishdan** bexabar. 4. Qaynarbuloq tomondan **g‘amgin** nay **ovozi** eshitildi. 5. Saratonda muallaq qotgan havo **changi** shabnam bilan yana o‘z onasi – tuproq **quchog‘iga sekin** cho‘kdi. 6. “Uylanish vaqti-ya, lekin **pul** qurg‘ur yo‘q” – dedi Abdulvohid piyolani bo‘shatib. 7. So‘nggi **pushaymon** kishiga foyda bermaydi. 8. **Ozg‘in** bola suv to‘la chelaklarni bazo‘r ko‘tarib kelardi. 9. Hilola uning **yoqimsiz yuzini** ko‘rishni istamasdi. 10. O‘ktamni tanholik, g‘ariblik, yo‘qsizlik **azobi** qiynardi.

MORFOLOGIK USLUBIYAT

514-mashq. Gaplarni o‘qing. Otlarda **-lar** qo‘shimchasi qanday ma’no ifodalayotganini izohlang.

1. G‘ulomjonning ko‘nglida yayragan quvonch bahori ko‘zlarida javlon urdi. (*M. Ismoiliy*) 2. Sentabr boshlarida polk g‘arbga tomon yo‘l oldi. (*Oybek*) 3. Bodom qovoqlari ostidagi javlon ko‘zlari mamnun-mamnun kuladi, yuzlari kuladi, go‘zal g‘uncha lablari kuladi. (*Shuhrat*) 4. Xo‘p, mayli, o‘zim ham yotaverib, yuraklarim zardobga to‘lib ketdi. (*N. Aminov*)

5. Shodliklarga to‘lib bir umr

Huzuringda qolgim keladi. (*A. Oripov*)

6. O‘ylardimki, nomingni sening

Takror etmas endi tillarim. (*A. Oripov*)

7. Seni ko‘ray dedim – tonglarim otdi,

Orazing yorishib, tunni yo‘qotdi. (*A. Oripov*)

8. Yomg‘irlar yog‘ardi qirq kecha-kunduz,

Qorlar yog‘ar edi terakni ko‘mgan.

Tulporlar bo‘lardi ko‘zlari yulduz,

Poygada raqiblar changini ko‘rgan. (*A. Oripov*)

515-mashq. Berilgan gaplardagi kichraytirish va erkalash qo‘shimchalari qanday ma’no ifodalayotganini aniqlang.

1. Hoy, aylanay o‘g‘rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko‘zimga uyqu keladimi? (*G‘. G‘ulom*) 2. – Hali xotinchangizni ham borib ko‘rarsiz, – gap bilan chimchilab oldi u. (*O‘. Umarbekov*) 3. To‘raboy akaning qo‘lidagi hali terisi qurimagan qo‘zichoqlar ahyon-ahyon mayingina «ba» deb qo‘yadi. (*S. Anorboyev*) 4. Voy bo‘yginangdan-ey.. tushimmi-o‘ngimmi, bolaginam.. Biram basavlat bo‘lib, gungursday bo‘lib ketibsanki.. (*A. Muxtor*) 5. Qani, o‘sha bir paytlar kattalarning suhbatiga aralashmasdan, mehr bilan kuzatadigan tortinchoq bolakaylar va qizaloqlar. (*Gazetadan*) 6. Iloyo, shu yigitchaniyam umri uzoq bo‘lsin. Baxti bezavol bo‘lsin. (*O‘. Hoshimov*) 7. – Charchagandirsan, qo‘zichog‘im. Ichaging uzilib ketgandir. Bo‘ldi qila qol, – deb zorlandi ona. (*H. Nazir*) 8. – Chakkki emas! – dedi Xolmat. So‘ngra so‘radi: – Oti Zebinisami? – Ha, Zebinisaxon. Yigitchaning shu “xon” degan qo‘shimchasida “mening Zebinisam” degan ma’noda bir maqtanish, bir g‘urur ohangi bor edi. (*Cho‘lpon*) 9. Ey-y, Sodiqcha, sen hali

nimani ko‘rding-ku, nimangga ishonding. (*A. Qodiriy*) 10. Yo‘lingizdan qolmang, yigit-cha, – dedi qiz.

SINTAKTIK USLUBIYAT

516-mashq. Berilgan gap juftliklaridagi gaplarning uslubiy farqini tushuntiring.

1. Hoy, aylanay o‘g‘rigina bolam, boshimda shunday musibat turgan-da ko‘zimga uyqu keladimi? (*G‘. G‘ulom*) – Hoy, aylanay o‘g‘rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko‘zimga uyqu kelmaydi-da. 2. Bolani kim sevmaydi? – Bolani hamma sevadi. 3. Ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmaydi. – Ilmni mehnatsiz egallab bo‘ladimi?! 4. Kim ham yurtini o‘z ixtiyori bilan tashlab ketardi? – Hech kim yurtini o‘z ixtiyori bilan tashlab ketmaydi. 5. Shirin so‘zga, erkalashga qaysi ayol bardosh bera oladi-yu, mehr qaysi ayolning yuragini eritib, sel qilib yubormaydi. (*F. Musajonov*) – Shirin so‘zga, erkalashga hech qaysi ayol bardosh bera olmaydi, mehr har qanday ayolning yuragini eritib, sel qilib yuboradi. 6. Sodda kun kechirishga o‘rgangan uquvsiz bir qishloqi ayol nima ham qila oladi? (*P. Tursun*) – Sodda kun kechirishga o‘rgangan uquvsiz bir qishloqi ayol hech nima qila olmaydi-da.

517-mashq. Quyidagi darak gaplarni ritorik so‘roq gapga aylantiring.

1. Ezgu niyatga qing‘ir yo‘llar bilan erishib bo‘lmaydi. 2. Bunday odobli, mehnatkash qizni hech qayerdan topa olmaysiz. 3. Inson o‘z vijdonidan hech qayerga qochib qutula olmaydi. 4. Har qanday ota farzandining o‘qimishli bo‘lishini istaydi. 5. Arpa ekib, bug‘doy olib bo‘lmaydi. 6. Ochko‘z odamda qanoat tuyg‘usi bo‘lmaydi. 7. Har bir qiz turmushga chqib, baxtli bo‘lishni istaydi.

518-mashq. Berilgan gaplarda qaysi bo‘lakning tartibi o‘zgarganini va bu o‘zgarishning uslubiy vazifasini izohlang.

1. Qurib ketsin bu Toshkent zilzilasi, hech esingizdan chiqmaydi-ya. (*P. Qodi-rov*) 2. Bitta o‘zingni boqqanimiz ham yetadi. Yo‘qot piyanista o‘rtoqlaringni. (*O‘. Hoshimov*) 3. Ichimga chiroq yoqsa, yorimasdi o‘sha kunlarda. (*K. Yashin*) 4. Qanday ajoyib yigit bo‘libdi u. (*O‘. Umarbekov*) 5. Bolalardan kattarog‘i: – Kim o‘rgatdi senga bu gaplarni? – deb so‘radi Alisherga tik qarab. (*Oybek*) 6. Ha, zoye ketmadi o‘sha kurashlar, uyqusiz tunlar! (*R. Fayziy*)

Aslo tugamaydi ushbu mojaro,
Paymonang na to'lib, na to'lolmaydi.
Barcha g'avg'olarni yig'sang ham, ammo
Uydagi janjalga teng bo'lolmaydi.

Sovuq urgan kabi so'lg'in turishi,
Oila na yashnab, na kulolmaydi.
Mabodo boshlansa jahon urushi –
Uydagi janjalga teng bo'lolmaydi.

Uning jangchilari majruhdir mutloq,
Na tirik qoladi, na o'lolmaydi.
Yaxlit dahshat derlar do'zaxni, biroq
Uydagi janjalga teng bo'lolmaydi. (*A. Oripov*)

Firuz Safarov

ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOTI
(mashq to'plami)

Muharrir:

G`Murodov

Texnik muharrir:

G.Samiyeva

Musahhih:

A.Qalandarov

Sahifalovchi:

M.Ortiqova

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 2020.27.01.. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 12,2. Adadi 100. Buyurtma №11.

Buxoro viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45